

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA  
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**H.R.ADIZOVA**

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI  
FANIDAN  
OQUV QO'LLANMA**

**60710400- Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (tarmoqlar va sahalar  
bo'yicha) kechki ta'lif yonalishi talabalari uchun mo'ljallangan**

Ushbu darslikda shikatlanish turlari, qon kenganda, suyak singanda va chiqqanda, kuyish sodir bo'lganda, yurakning ishemik kasalliklari sodir bo'ganda, hushdan ketganda shifokor kelgunga qadar birinchi yordam ko'rsatish hamda malakali mutaxassis yordamlari bayon etilgan.

Keltirilgan va tahlil qilingan ma'lumotlardan tibbiyot yo'nalishidagi bilim yurtlari, oliygochlarning ekologiya, biologiya ta'lim yo'nalishi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Buxoro Davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti **Ilmiy kengashining 2024 yil 1-sonli** bayonnomasi bilan chop etishga ruxsat etilgan.

**Taqrizchilar:** **U.T.Norboyeva** -BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrasi professori

**R.R.Raxmonov** - BuxDPI, Tibbiy fanlar kafedrasi dotsenti,  
biologiya fanlari nomzodi (PhD)

**N.I.Asadova** - Buxoro shahar 11- oilaviy paliklinika  
davolash ishlari bo'yicha bosh vrach  
o'rinnbosari oliy toifali shifokori

## KIRISH

Tabiatda yomon havo, yomon kun bo'lмаганидай yomon ekologиyaning bo'lishi ham, aqlga sig'maydigan hodisa hisoblanadi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, ekologik muvozanatning buzilishi-bu albattaa, tabiiy hol. Ekologiya muvozanati bu tirik organizmlarning yer yuzida kelishgan holda bir-biriga xalal bermasdan birgalikda yashashini belgilaydigan fan sifatida vujudga keldi. Tashqi muhitni muhofaza qilish muammosi bugungi kunning muammosi emas. Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida bu muammolar har turli qirralari bilan ko'rinish berib kelgan. Masalan, o'rtal asr boshlarida jahonning kattaa shaharlarida isitish uchun va boshqa maqsadlar uchun tosh ko'mirdan foydalanish boshlangan kezlarda bu shaharlarda tutunning ko'payib ketishi natijasida odamlarning tutunga qarshi kurash e'lon qilingani haqida ma'lumotlar bor. Bunday noxush voqealarni metallurgiya sanoati rivojlangan Rossiya Federatsiyasining Magnitogorsk va Chelyabinsk shaharlarida hozirgi kunda ham kuzatish mumkin.

Asrimizning 50 - yillaridan boshlab avtomobilsozlikning rivojlanishi tufayli avtomobil dvigatellarida yonishdan hosil bo'lgan gaz dunyo miqyosida eng xavfli ekologik muvozanatni buzilishiga olib keladigan omilga aylandi. Dunyo axborot agentliklarining ma'lumotlariga qaraganda planetamiz hududidagi katta shaharlarning deyarli hammasida avtomobillar chiqargan gazlar muammosi ko'ndalang turibdi. Shuni ham ta'kidlash muhimki, avtomobillarga qarshi kurash ochishning imkoniyati yo'q. Chunki insoniyat taraqqiyotini avtomobillarsiz tasavvur qilish qiyin. Aytigan gaplar faqatgina avtomobillaga tegishli bo'lmay, butun transport tizimlarining hammasiga: samolyotlar, teplovozlar, okean kemalari va kosmik kemalarning barchasiga taaluqlidir. Aytiganlardan ko'rrib turibdiki, atmosfera havosining bulg'anishiga qarshi kurash murakkab muammo bo'lib, o'zida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik muammolarni o'z ichiga oladi. Atmosfera havosining ifloslanishi tushunchasiga har xil ma'no berishga harakat qilingan.

Bu tushunchani umumbashariy nuqtayi nazaridan olib qarasak, dunyo miqyosida ajralib chiqayotgan zararli moddalar miqdorini ko'z oldimizga keltirishga to'g'ri keladi. Axborotnomalarda berilishicha, Amerika Qo'shma Shtatlari issiqlik elektr stsnsiyalarida toshko'mir yoqish natijasida hosil bo'ladigan changlarni tozalash qurilmalaridan keyin atmosferaga chiqarib yuborilayotgan miqdori yiliga 180.000.000 tonnani tashkil qiladi. Metallurgiya sanoatida ajraladigan chang miqdori 150.000.000 tonna deb keltirilgan. Yog'ochsozlik sanoatida esa bu miqdor 120.000.000 tonnani tashkil qiladi. Bu keltirilgan ma'lumotlar 1985-90-yillarga tegishli. Endi oddiy hisob yo'li bilan olsak, eski ittifoq AQSh dan kam elektr energiyasi ishlab chiqarmagan. Demak, yoqilgan ko'mir va changlar miqdori taxminan yuqorida keltirilgan miqdorlar atrofida, Yevropadagi rivojlangan davlatlar energetikasi va boshqa sanoat tarmoqlari yana shuncha miqdorda chang chiqarishi, shuning bilan bir qatorda Xitoy, Yaponiya, rivojlanayotgan Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida ajralayotgan changlar ham qo'shilsa, bu miqdor bir necha milliardlab tonnani tashkil qilishini tasavvur qilish mumkin. Har qanday davlatning rivojlanish darajasini unda ishlab chiqarilayotgan

elektr energiyasi va sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining sifati hamda dunyo bozoridagi raqobatbardoshligini belgilaydi. Bu oddiy haqiqatni tushinib yetmagan yer yuzidagi birorta davlat qolgani yo'q. Demak, har bir davlat energetika sohasini rivojlantirishi turgan gap. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yuqorida keltirib o'tilgan chang miqdorining yaqin kelajakda bir necha o'n marta oshishi ehtimoldan holi emas.

Changlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular asosan qattiq moddalarning zarrachalari hisoblanadi, lekin ularning tarkibida kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo'lган zarralar ham anchagina miqdorni tashkil qiladi. Masalan, energetika sohasida yoqlig'i sifatida ishlatilayotgan moddalar yongandan keyin hosil bo'ladiqan qoldiq mahsulot, ya'ni kul xuddi shunday zarralar qatorini egallaydi. Bunday changlarning atmosferaga chiqarib yuborilgan qismi kattaligi 5 mkm dan kichik changlardan tashkil topganligi sababli va ularning solishtirma og'irligi atmosfera havosi solishtirma og'irligiga tengligini hisobga olsak, bu changlar deyarli yerga qo'nmay atmosfera havosining bir qismi sifatida doim suzib yuradi. Bu changlarning atmosfera havosida ko'payishi quyosh nurlarining yerga yetib kelishini qiyinlashtiradi, ya'ni notabiyy soyalar vujudga keladi, bu esa o'z navbatida shamollarning harakatlanish yo'nalishlarini o'zgartirib yuboradi, ularning tarkibidagi bulutlar doimiy yurish joylarini o'zgartirib, yog'shi kerak bo'lган yomg'ir butunlay boshqa hududlarga yog'adi. Keltirib o'tilgan mulohazalardan chiqadigan hulosa shuki, hozirgi kunning ekologiya vaziyati muvozanat buzilish nuqtasida turganligi va bunga hozirgi kunda mavjud bo'lган sharoit iloji boricha bu jarayonni tezlatishga xizmat qilmoqda.

Isoniyat taraqqiyotining XX nchi asriga qadar bu muvozanat yer yuzidagi odamlar soni ko'paygan sari yomonlasha boshladи. Yer yuzidagi odamlar sonining o'sishi 1840-yilda 1 mld kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu insoniyat yer yuzini egaallay boshlagan tosh asridan boshlangan desak, bu o'sish davri yarim yoki bir million yil davomidagi o'sish hisoblanadi. 1930-yilga kelib, bu raqam 2 mldr kishiga ko'paygan. Bu ko'payish davri 90 yilni tashkil qilgan. Kuzatishni davom ettirsak, odamlar sonining uchinchi milliardi uchun atigi 13 yil kifoya qilgan va yana 12 yildan keyin 1987-yilda bu raqam 5 milliard kishini tashkil etgan vs nihoyat ohirgi 1999-yili odamlar soni 6 milliard kishiga yetdi.

Bunday o'sishning asosiy sabablaridan biri, hayot tarzining qulaylashganligi maishiy hizmat turlarining oshishi, qishloq xo'jaligi samaradorligining oshishi va yetarlicha oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarilishi, shuningdek, tibbiyat fanining rivojlanishi natijasida inson hayoti davomiyligining oshishi va bolalar o'limining kamayishi buning asosiy sababchilari bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, hayot davomiyligining oshishi bilan bir qatorda ba'zi bir hududlarda tug'ilish darjasini ham yuqori miqdorni tashkil etadi. Aholining o'sish darjasini yuqori bo'lган davlatlarga Afrika, Markaziy Amerika, Yaqin va O'rta Sharq, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Hindiston va Xitoy davlatlari kiradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi o'sish darjasini bo'yicha eng yuqori pog'onalardan birini egallab turibdi. Hozirgi kunda olimlarning hisoblariga ko'ra, XXI asr oxirlariga kelib, odamlar soni 28-30

milliard kishiga yetdi. Bu sharoit yer yuzida yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining tansiqligiga olib keladi va bu yetishmaslik natijasida ko'plab odamlarning ochlik iskanjasiga tushishi va buning natijasida umumiy davlat tizimlari barbod bo'lishi va buning natijasida odamlarning keskin kamayib ketishi mumkin hamda bu bilan insoniyat taraqqiyotiga putur yetishi mumkin. Bunday manzaralarni hozirgi vaqtning o'zida ham ba'zi bir ekoliya muvozanati buzilgan hududlarda ochlik va hayot davomiyligining qisqarishi va bolalar o'limining ko'payishi holatida kuzatilmogda.

Bularni nazardda tutgan holda, ikkinchi grupper olimlar yer yuzasidagi odamlar sonini 10 milliard kishi atrofida chegaralash fikrini olg'a surmoqdalar. Bunda yer yuzida yetishtirilayotgan mahsulotlar, albatta, hozirgi texnologiya hisobida shu miqdordagi odamlarning taraqqiyoti va me'yor darajasida hayot kechirishni ta'minlay oladi.

## HAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGINING NAZARIY ASOSLARI

### Hayot faoliyat xavfsizligining nazariy asoslari

#### Reja

1. Hayot faoliyat xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari
2. Xavfsizlikni taminlashning texnik qoidalari
- 3 HFX ni taminlash asoslari

**Tayanch so‘zlar:** faoliyat, biosfera, litosfera, gidrosfera, planeta, global, ekosistema, texnosfera, domografiya, urbanizatsiya.xavf-xatar, xavflar taksonomiyasi, tabiiy, texnik, ekologik, fizik, biologik, ruhiy, ijtimoiy, m aishiy, zaharlar, kislotalar, impuls, xavflar ruyxati.

#### Hayot faoliyat xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq fuqarolarni jumladan ishchi va xizmatchilarni ijtimoiy holatini yaxshilash, ularning turmush darajasini yuksaltirishga, ishlash sharoitlarini texnika xavfsizligi va sanitariya talablari darajasidagi asosini yaratishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Ta’lim jarayonida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunlar asosida ta’lim sohasida katta yutuqlarga erishildi. Ta’lim mazmuni tubdan ijobiy o‘zgarishga yuz tutmoqda. Ta’lim tizimining barcha tizimida eng zamonaviy o‘qitish vositalaridan foydalanilmoqda. Ishlab chiqarish ham eng qudratli, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari bilan qurollantirilmoqda. Ijtimoiy hayot tarzi faollashmoqda. Mamlakatda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun ta’lim tizimi mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi. Jumladan oliy ta’lim o‘quv rejalariga zamon va hayot talablaridan kelib chiqib katta o‘zgartirishlar kiritildi. Yosh mutaxassislarga har bir sohada chuqur va keng qamrovli ma’lumot berish, ularga berilgan bilim ishlab chiqarishda va jamiyatda o‘z aksini va dolzarbligini yo‘qotmaydigan bo‘lishiga va ularning bilim darajalari dunyo ta’lim standartlari qo‘ygan talabga javob berishiga asosiy ahamiyat qaratilmoqda.

Zamonaviy hayotdagagi ishlab chiqarish samaradorligini yetuk kadrlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Har sohada inson omili, uning qadr-qimmati birinchi o‘ringa qo‘yilib ish tashkil etilgan joyda yutuqlar barqaror bo‘lishi shubhasiz.

Inson tug‘ilishi bilan yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqiga ega bo‘ladi. Inson o‘zining yashash, dam olish, sog‘ligi haqida qayg‘urish, qulay atrof-muhit, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitida ishlashga bo‘lgan xuquqlarini hayot faoliyati jarayonida amalga oshiradi. Uning bu xuquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan.

**Hayot faoliyati** – bu insonning kunlik faoliyati, dam olishi va yashash tarzidir. Inson hayoti jarayonida uni o‘rab turgan borliq muhiti bilan uzlusiz aloqada bo‘ladi va shu bilan birga har doim uni o‘rab turgan muhitga bog‘liq bo‘lib kelgan va shunday qolaveradi. Inson shuning uchun ham o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit hisobiga oziq-ovqat, havo, suv, dam olish uchun zarur moddiy narsalar va boshqalarga bo‘lgan ehtiyojini qanoatlantiradi.

**Atrof-muhit** – insonni o‘rab turgan muhit bo‘lib, insonning hayot faoliyatiga, uning sog‘ligi va nasliga to‘g‘ridan to‘g‘ri, birdan urinma yoki masofadan ta’sir etishga qobiliyatli omillarning (jismoniy, Kimiyoviy, biologik, informatsion, ijtimoiy) shartli yig‘indisidir.

Inson va atrof-muhit uzluksiz o‘zaro ta’sirda bo‘lib, doimiy harakatdagi «Inson – atrof muhit» sistemasini tashkil etadi. Dunyoning evolyusion jarayonida bu sistemani tashkil etuvchilar uzluksiz o‘zgarib bordi. Inson mukammallahdi, er sharining aholisi va uning oqimi o‘sdi, jamiyatning ijtimoiy asosi o‘zgardi. Atrof-muhit o‘zgardi: inson o‘zlashtirgan yer yuzi va yer osti hududi kattalashdi; tabiiy tabiat muhiti insoniyat jamiyatining o‘sib borayotgan ta’sirini boshdan kechirmoqda, inson tomonidan sun’iy yaratilgan maishiy, shahar va ishlab chiqarish muhiti paydo bo‘ldi.

Tabiiy muhit o‘zi yetarli bo‘lib, inson ishtirokisiz mustaqil mavjud bo‘la oladi va rivojiana oladi. Inson tomonidan yaratilgan boshqa barcha borliq muhiti mustaqil rivojiana olmaydi va ular paydo bo‘lganidan so‘ng eskirishga va yemirilishga mahkum.

Insoniyat o‘zining dastlabki rivojlanish bosqichida tabiiy atrof-muhit bilan o‘zaro uyg‘un harakat qilgan. Atrof-muhit asosan biosfera, er osti, gallaktika va cheksiz koinotdan tashkil topadi.

**Biosfera**-barcha turdagি organizmlar, jumladan inson yashashi mumkin bo‘lgan atrof-muhit bo‘lib, u murakkab tuzilishdagi yer sharining muhim qobig‘idir. Biosfera bir necha milliard yillar davomida shakllangan. Zamonaviy olimlar biosferani moddalarni planeta bo‘yicha harakatini ta’minlovchi yirik, global ekosistema sifatida qarashadi. Hozirgi erada hayot yer qatlaming yuqori (litosfera) qismida, erving pastki havo (atmosfera) qobig‘ida va yer sharining suvli qobig‘i (gidrosfera) da tarqagan. Bu shu bilan izohlanadiki, litosferada yer osti suvlari va tog‘ cho‘kmalarida chuqurlikni sekin-asta ortib borishi bilan harorat ham ortib 2 km dan 16 km chuqurlikda 100 °S va yuqori (vulqonik faollik zonasida esa 200 dan 1500 °S cha) ni tashkil etadi.

Yerning yuzasida hayotning konsentratsiyasi va faolligi eng yuqoridir. Inson evolyusiyasi jarayonida o‘zining oziq-ovqat, moddiy boylik, iqlim va ob-havo ta’siridan himoyalanish, o‘ziga qulaylikni oshirish bo‘yicha ehtiyojlarini samaraliroq qanoatlantirishga intilib tabiiy muhitga birinchi o‘rinda biosferaga to‘xtovsiz o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu maqsadga yetish uchun u biosferani bir qismini texnosfera band etgan joyga aylantirdi.

**Texnosfera** - o‘tmishda biosferaga taalluqli bo‘lgan keyinchalik insonlarning o‘zining moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini yanada yaxshilash maqsadida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki sirdan texnik vositalar bilan ta’sir etgan hududdir.

Texnosfera insonlar tomonidan texnik vositalar yordamida yaratilgan shaharlar, qo‘rg‘onlar, qishloq aholi punktlari, sanoat va korxonalar zonasi band etgan hududlar hisoblanadi.

Inson hayot faoliyati jarayonida nafaqat tabiiy muhit bilan balki, ijtimoiy muhit deb ataluvchi odamlar bilan ham uzluksiz aloqada bo‘ladi. Insonni ijtimoiy

muhit bilan aloqasi tug‘ilishni davom ettirish, bilim, tajribalarni almashtirish, o‘zining ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirish, intellektual qobiliyatlarni oshirishda foydalaniladi va shakllanadi.

Zamonaviy industrial jamiyatda inson atrof-muhit komponentlari (biosfera, texnosfera va ijtimoiy muhit) bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Ya’ni inson tabiiy atrof-muhitga uzlucksiz ta’sir etsa, o‘z navbatida biosfera va insonning ehtiyojlaridan kelib chiqib uning uzlucksiz jismoniy va aqliy faoliyatining mahsuli bo‘lgan texnosfera va ijtimoiy muhit ham insonga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki sirtdan doimiy ta’sir etadi. Yuqorida qayd etilganlar asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Zamonaviy inson uni o‘rab turgan atrof-muhitning tashkil etuvchilari ya’ni, tabiiy, texnogen (texnosfera) va ijtimoiy muhit bilan uzlucksiz o‘zaro ta’sirda bo‘ladi;

2. XIX asr oxiridan boshlab va XX asr davomida texnosfera va ijtimoiy muhit uzlucksiz rivojlanmoqda, bunga ushbu sohada inson faoliyati orqali o‘zgartirilgan ulushlarni oshib borayotganligi isbotdir;

3. Texnosferani rivojlanishi tabiiy muhitni o‘zgartirish hisobiga amalga oshmoqda.

Zamonaviy hayotda insonlarning ijtimoiy mavqelarini yuksalish bilan birga ularning tinchligiga, sog‘ligiga va mehnati xavfsizligiga xavf soladigan omillar soni ham ortib bormoqda. Ma’lum sharoitda ularning insonlarning ruhiy holatiga, organizmi sog‘ligiga salbiy ta’sirini ko‘rsatishi hammaga ma’lum. Shu sababli insonlarni nafaqat ularning aqliy yoki jismoniy mehnat faoliyati davomida balki, yashash joyida, yo‘lda va barcha holatlarda xavfsizligini, yaxshi kayfiyatini, mehnat qobiliyati va ish unumдорligini taminlash, sog‘ligi haqida qayg‘urish masalalarini ijobiy hal etish juda dolzarb masalalardan biridir.

Qayd qilingan masalalarni ijobiy hal etishda hayot faoliyat xavfsizligi fanining o‘rni, uning nazariy ma’lumotlari bilan bo‘lajak mutaxassislarini qurollantirish muammolarni ijtimoiy hayotda mumkin qadar ijobiy hal etilishiga yordam beradi.

### **Hayot faoliyat xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari**

Hayot faoliyat xavfsizligi (HFX) — ishlab chiqarish va noishlab chiqarish muhitida insonni atrof muhitga ta’sirini hisobga olgan holda xavfsizlikni taminlashga yo‘naltirilgan bilimlar sistemasidir.

Hayot faoliyat xavfsizligining maqsadi ishlab chiqarishda avariyasiz holatga erishish, jarohatlanishni oldini olish, insonlar sog‘ligini saqlash, mehnat qobiliyatini oshirish, mehnat sifatini oshirish hisoblanadi.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ikki masalani echish lozim bo‘ladi:

1. Ilmiy (inson-mashina sistemasini; atrof muhit-inson, xavfli (zararli) ishlab chiqarish omillari va boshqalarni matematik modellashtirish);

2. Amaliy (uskunalarga xizmat ko‘rsatishda mehnat xavfsizligini taminlash).

Hayotiy jarayonda insonni atrof-muhit va uning tashkil etuvchilari bilan o‘zaro ta’siri Yu.N.Kurjakovskiyning «Hayot faqat moddalar, energiyalar va

informatsiyalar oqimlarini tirik tana orqali harakati jarayonida mavjud bo‘la olmaydi» degan hayotni saqlash qonuniga mos holda elementlar orasidagi moddalar massasining, barcha turdag'i energiyalar va informatsiyalarning oqimlari sistemasiga asoslangan. Hayotni saqlash qonunidagi oqimlar insonga o‘zini oziq-ovqatga, suvga, havoga, quyosh energiyasiga, o‘rab turgan muhit haqidagi informatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishi uchun kerak. Shu bilan bir vaqtida inson hayotiy fazasida o‘zidan ongli faoliyati bilan aloqador (mexanik, intellektual energiyalar), bioliogik jarayon chiqimlari ko‘rinishidagi ma’lum massadagi moddalar oqimini, issiqlik energiya va boshqa energiya oqimini ajratadi.

Moddalar va energiyalar oqimi almashinushi inson ishtirok etmaydigan jarayonlar uchun ham xarakterlidir. Tabiiy muhit bizning planetamizga quyosh energiyasi oqimi kirib kelishini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida biosferada o‘simgilik va hayvonlar oqimini, moddalar (havo, suv) adiabatik oqimini, har xil energiyalar oqimini, jumladan favqulodda holatlarda tabiiy muhitdagi energiyalar oqimini ro‘yobga keltiradi. Texnosfera uchun barcha turdag'i xom ashyo va energiyalar oqimi, mahsulotlar va odamlar navbatli oqimlarining har xilligi; chiqindi oqimlari (atmosferaga tashlanayotgan chiqindilar, suv hovzalariga tashlanayotgan sanoat va boshqa iflos suvlar, suyuq va qattiq chiqindilar, har xil energetik ta’sirlar) xarakterlidir.

Har qanday xo‘jalik yuritishning chiqindilari va teskari samarasi bo‘ladi va ularni yo‘qotib bo‘lmaydi. Ularni bir fizik-ximik shakldan boshqa shaklga o‘tkazish yoki fazoga chiqarib yuborish mumkin. Texnosfera, bundan tashqari to‘satdan portlash, yong‘in natijasida, qurilish konstruksiyalarini buzilishida, transport avariylarida va shunga o‘xshashlarda katta miqdordagi chiqindilar va energiya oqimini yuzaga keltirishi mumkin.

Ijtimoiy muhit tabiiy va texnogen olamni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan insonga xarakterli bo‘lgan barcha energiya oqimlarini ishlab chiqaradi va iste’mol qiladi, jamiyatda chekish, alkogol ichimliklar, narkotik moddalar va shunga o‘xshashlarni iste’mol qilishga aloqador zararli holatlarni shakllantiradi.

«Inson - atrof muhit» sistemasini har xil komponentlari energiya va informatsiyalarini xarakterli massalar oqimini quyida keltiramiz:

### **Tabiiy muhitning asosiy oqimlari.**

- quyosh nurlanishi, yulduz va planetalar nurlanishi;
- kosmik nurlar, chang, asteroidlar;
- erving elektr va magnit maydoni;
- ekosistemalarda, biosferada moddalar aylanishi;
- atmosfera, gidrosfera va litosfera holatlari shu jumladan favqulodda holatlar;

### **Texnosferadagi asosiy oqimlar.**

- xomashyolar, energiyalar oqimi;
- iqtisod sohasi mahsulotlarining oqimi;
- iqtisod sohasi chiqindilar;
- maishiy chiqindilar;

- informatsiya oqimlari;
- transport oqimlari;
- yorug'lik oqimi (sun'iy yoritish);
- moddalar va texnogen avariyalardagi energiya oqimlari;

### **Ijtimoiy muhitdag'i asosiy oqimlar.**

- informatsiya oqimlari (o'qitish, davlat boshqaruvi, xalqaro hamkorlik boshqalar);
- odamlar oqimi (demografik portlash, aholi urbanizatsiyasi);
- narkotik, alkogol vositalar va boshqa oqimlari;

### **Hayot faoliyat jarayonida inson iste'mol qiladigan va chiqaradigan asosiy oqimlar.**

- kislород, озиқ-овқат, сув ва бoshqa moddalar (alkogol, tamaki, narkotiklar) oqimlari;
- energiyalar oqimi (mexanik, issiqlik, quyosh va boshqalar);
- informatsiya oqimlari;
- hayot faoliyat jarayonidagi chiqindilar oqimi;

### **HFX kursining qisqacha mazmuni**

Hayot faoliyat xavfsizligi insonni har qanday muhitdag'i faoliyatida uning xavfsizligi va sog'ligini ta'minlovchi, xavfli va zararli omillardan himoya qiluvchi amaliyot va nazariyani qamrab olgan ilmiy bilimlar majmuidir.

Bu fan quyidagi asosiy masalalarni echadi:

- atrof muhitning noqulay ta'sirlarini turkumlaydi (aniqlaydi va sonli baholaydi);
- insonni xavflardan himoyalaydi yoki unga noqulay omillar ta'sirini oldini oladi;
- xavfli va zararli omillarni ta'siri salbiy oqibatlarini tugatish;
- muhitda insonga normal, shinam sharoit yaratish.

Hayot faoliyat xavfsizligining integral ko'rsatkichi hayotning davomiyligi hisoblanadi. Sivilizatsiya taraqqiyoti (ilmiy-texnikaning, iqtisodning rivojlanish, qishloq xo'jaligini industrilashtirish, har xil energiyalardan foydalanish - yadro energiyasigacha, yangi mashina va mexanizmlarni yaratilishi, zararkun-andalarga qarshi har xil o'g'itlarning qo'llanilishi) inson sog'ligiga salbiy ta'sir etuvchi zararli omillar miqdorini sezilarli darajada ko'paytirmoqda. Shu sababli ushbu omillardan himoyalash inson hayot faoliyatini taminlashning muhim elementi bo'lib qolmoqda.

Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab o'zining ko'payishi davomida iqtisodni rivojlantirish bilan birga xavfsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy sistemasini yaratdi. Buning oqibatida insonga zararli ta'sirlar sonini oshishiga qaramasdan insonning xavfsizligi darajasi ortdi. Hozirgi vaqtida eng rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha umr ko'rish 67 yoshni tashkil qiladi.

"Hayot faoliyat xavfsizligi" kursi inson organizmi va atrof muhit o'rtaidagi murakkab aloqalarni bilish jarayonini ko'zda tutadi. Insonni muhitga

ta'siri fizikaviy qonunlar bo'yicha muhitning barcha tashkil etuvchilari (komponentlari)ni qarama-qarshi ta'sirini yuzaga keltiradi. Inson organizmi u yoki bu ta'sirlarni moslashish chegarasidan oshmaguncha og'riqsiz qabul qiladi.

Hayot faoliyat xavfsizligi quyidagi masalalarini ko'rib chiqadi:

- maishiy muhitdagi xavfsizlik;
- ishlab chiqarish muhitdagi xavfsizlik;
- shahar muhitdagi hayot faoliyat xavfsizligi;
- atrof muhitdagi xavfsizlik;
- tinchlik va urush vaqtidagi favqulodda holatlar.

**Maishiy muhit** – bu maishiy sharoitdagi insonga ta'sir qiluvchi barcha omillarning yig'indisidir. Organizmni maishiy omillarga reaksiyasini fanning sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush tarzining kasallik profilaktikasi bilan aloqasi masalalariga bag'ishlangan mavzularda o'qish mumkin.

**Ishlab chiqarish muhiti** – bu mehnat faoliyati jarayonida insonga ta'sir qiluvchi omillar yig'indisidir. Tabiiy muhitdagi xavfsizlik – bu ekologianing sohalaridan biridir. Ekologiya organizmni atrof muhit bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rghanadi.

**Xavf-xatar** deganda, odam sog'ligiga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazadigan ko'ngilsiz hodisalar tushuniladi. Xavfning bunday tushunchasi oldingi standart tushunchalar (ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari)ni o'z ichiga oladi, chunki hayot faoliyat xavfsizligi faoliyatning hamma shakllari va omillarini nazarda tutadi. Hayot faoliyatga to'g'ri kelmaydigan elementlar tizimi, Kimiyoviy hamda biologik faol moddalar yashirin xavfga egadir.

**Xavflar taksonomiysi** - bu murakkab hodisalarini, tushunchalarni, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarini tasniflash va tizimlash to'g'risidagi fandir. U faoliyat xavfsizligi borasida bilimlarni uyushtirishda, xavflarning tartibini yanada chuqurroq o'rganishda katta ahamiyatga ega. Taksonomiya yangi fan bo'lib, hali to'la ishlab chiqilmagan. Biroq uning ayrim qismlari quyidagilarni tashkil etadi:

- kelib chiqishi bo'yicha xavflar: tabiiy, texnik, ekologik, aralash bo'ladi;
- rasmiy standartga asosan fizik, Kimiyoviy, biologik va ruhiy turlarga bo'linadi;
  - salbiy oqibatlarning ro'y berish vaqtি bo'yicha impulsiy (beixtiyor harakat) va kumulyativ (to'satdan keluvchi) turlarda bo'ladi;
  - xavflar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha (lokalizatsiya) – litosfera, gidrosfera, atmosfera va koinot bilan bog'liq bo'ladi;
  - kelib chiqadigan oqibatlariga ko'ra charchash, kasallanish, jarohatlanish, halokatlar, yong'inlar ko'rinishida bo'ladi;
  - keltiradigan zarari bo'yicha ijtimoiy, texnik, ekologik va boshqa turlarga bo'linadi;
    - namoyon bo'lishi bo'yicha maishiy, sport, yo'l-transport, ishlab chiqarish va harbiy bo'ladi;
    - olamga ta'siri bo'yicha o'ta ta'sirchan (zaharlar, kislotalar) va sust (narkotik moddalar, arok, sigaret) bo'ladi. Sust ta'sir deganda odamning o'zi sababchi bo'ladigan xavf tushuniladi.

Xavflar ro'yxati – bu aniq bir tartiblar bo'yicha qo'yilgan nomlar, atamalardir (o'zgaruvchan harorat, havo harakatining tezligi, havo bosimi, yorug'lik, havoni ionlash, portlash, gerbitsid, shovqin, tebranish, yong'in, zaharli moddalar, lazer nuri, elektr yoyi va boshqalar). Har bir tekshiriladigan ob'ektda o'tkaziladigan aniq tekshirishlar uchun shu ob'ekt (sex, ish joyi, texnologik jarayon, kasb) da uchraydigan xavflar ro'yxati tuziladi.

**Xavflar kvantifikatsiyasi** hayot faoliyat xavfsizligini taminlashga qaratilgan tadbirlar uchun yetarli darajada kerak bo'lgan miqdoriy, vaqtincha, fazoviy va boshqa xususiyatlarni aniqlab amalga oshirish jarayonidir. Tenglashtirish jarayonida aniq bir masalani hal qilishda xavflar ro'yxati, zarar va boshqa omillar aniqlanadi.

**Sabab va oqibatlar.** Yashirin xavflarni amalga oshishiga olib keladigan sharoit-sabab deb ataladi. Sabablar, jarohatlar, yuqumli kasalliklarni keng tarqalishi (epidemiya), atrof-muhitga zarar va boshqa xil oqibatlarni keltirib chiqaradi.

**Xavf, sabab, oqibat uchligi**-bu yashirin xavflarni va zararlarni amalga oshiruvchi mantiqiy jarayondir. Masalan: Zahar (xavf)- dori tayyorlashning xatosi (sabab)- zaharlanish (kungi lsiz oqibatlar).

Mutloqa xavfsiz bo'lgan ish (faoliyat) bo'lishi mumkin emas. Demak, faoliyat qanday bo'lmasin, unda yashirin xavf bo'ladi. Bu aksioma hayot faoliyat xavfsizligida metodologik ahamiyatga ega.

**Tavakkal nazariyasi.** 1950-yil senyabr oyida Germaniyaning Kyoln shahrida bo'lib o'tgan birinchi jahon kongresida hayot faoliyat xavfsizligi fan deb qabul qilindi. Olimlar o'z ma'ruzalarida «tavakkal» tushunchasini qo'lladilar va bu tushunchani har bir olim o'zicha talqin qildi. Masalan, V.Marshal «tavakkal, bu xavfning miqdoriy bahosidir» dedi. Miqdoriy baho kungilsiz hodisalarini aniq bir davr ichida bo'lib o'tgan sonining bo'lishi mumkin bo'lgan soniga nisbatidir. «Tavakkal»ni aniqlashda nimani «tavakkali» deyish mumkin savoliga javob berish kerak.

**Tavakkalning turlari.** Tavakkal ikki xil bo'ladi: shaxsiy «tavakkal»- ayrim shaxs uchun aniq xavf turi; ijtimoiy yoki ko'pchilik «tavakkali»- takroriy hodisalar natijasida jarohatlangan insonlar orasidagi bog'liqlik. Bizda hozircha ijtimoy «tavakkal» bo'yicha hech qanday ma'lumot yo'q. Xorijda esa alohida ishlab chiqarish korxonalari, sanoat tarmoqlari, xavf turlari bo'yicha to'liq ma'lumotlar mavjud.

Jamoat «tavakkali» xavfni sub'ektiv (boshqacha) ravishda qabul etadi. Odatda ko'pchilik kam uchraydigan va ko'p qurbon bo'lgan voqealarga keskin ravishda ahamiyat beradi. Masalan, ishlab chiqarishda har yili o'rta hisobda 200-250 kishi halok bo'ladi. Ammo bir halokatda 5-10 kishi qurbon bo'lgani oldingi ma'lumotlardan ko'ra odamlarga ko'proq ta'sir qiladi. Kishilarning bu ruhiy holatini qabul qilishi mumkin bo'lgan «tavakkal» masalasi ko'rilmaga hisobga olish lozim.

Xavflarni baholashda tavakkal («T») usulini qo'llash boshqa usullarga qaraganda ko'proq to'g'ri keladi, deb hisoblanadi. Masalan, har xil sabablar

natijasida halokatli (o'lim bilan) tugagan ayrim shaxsiy «tavakkal» (AQSH ning umumiy aholisiga nisbatan) qiymatlari quyidagichadir:

1. Yo'l transporti hodisasidan- $3 \times 10^{-4}$ .
2. Zaharlanishdan -  $2 \times 10^{-5}$ .
3. Yong'indan kuyish -  $4 \times 10^{-5}$ .
4. Elektr tokidan -  $6 \times 10^{-5}$ .
5. Yashindan -  $5 \times 10^{-7}$ .
6. Ishlab chiqarish vositalarining nosozligidan -  $1 \times 10^{-5}$ .
7. Umumiyl «T» -  $6 \times 10^{-4}$ .
8. Boshqalar -  $4 \times 10^{-5}$ .

**Tavakkalni tasniflash.** «T» ni baholashda uni «foyda» bilan solishtirish ya'ni, odam hayotini saqlab qolish uchun pul birligi kirgizilishi taklif qilindi. Ko'p olimlar bunga norozilik bildirishdi, chunki odam hayotining bahosi yo'q. Lekin, odam hayotini saqlab qolish uchun qancha mablag' sarf qilish kerak deganda bunday baho kerakdir. Xorijda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, odam hayoti AQSH da 650 mingdan 7 million dollargacha baholanar ekan.

*Tavakkalni aniqlash qancha taxminiy bo'lishiga qaramay, uni aniqlashning quyidagi to'rt yo'li mavjud:*

1. Muhandislik yo'li statistikaga, takrorlanishlarni hisoblashga, xavfsizlikning taxminiy tahliliga, «xavflar daraxti» qurishga asoslanadi.
2. Modellash yo'li (andozalash) odamga, guruhga, kasbga ta'sir qiluvchi omillar modelini qurishga asoslangan va h.k. Bu yo'l bilan hisoblashga ma'lumotlar topish ancha qiyin.
3. Ekspert (tekshirish) yo'li ma'lumotlarni ekspertlardan (mutaxassislardan) so'rab yig'ishga asoslangan.
4. Ijtimoiy yo'l odamlardan so'rab surishtirib, aniq xulosa chiqarishga asoslangan.

Bu yo'llar «T» ni har xil nuqtai nazardan tavsiflaydi, shuning uchun hammasi birga qo'llaniladi.

**Tavakkalning yo'l qo'ysa bo'ladigan fikr yuritish usuli** xavfsizlik texnikasi, mutlaq xavfsizlikni yaratib berishga asoslangan. Ammo bunday holatni yaratib berish amalda mumkin emas. Shuning uchun, yo'l qo'ysa bo'ladigan (YQB) «T» ning fikr yuritish usuli qabul qilinadi. «T» o'z ishiga texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni oladi. «T» da ayrim murosalarga borishga to'g'ri keladi.

Texnik tizimning xavfsizligini ko'tarish uchun iqtisodiy imkoniyatlarning cheksiz emasligi ma'lum. Agar xavfsizlikka qancha ko'p xarajat qilinsa, ijtimoiy sohalarga shuncha kam xarajat qilishga to'g'ri keladi.

Tavakkalning YQB mintaqasi shunday minimal chegaraki, unda ijtimoy va texnik mablag'lar ma'lum mutanosiblikka ega. Tavakkalni tanlashda uni hisobga olish kerak va jamiyat shu bilan qanoatlanishga majbur.

Jahonning ayrim mamlakatlarida, masalan, Gollandiyada tavakkalning YQB qiymati qonuniy asosda belgilangan. O'lim hodisalarining maksimal YQB darajasi

bir yilda  $10^{-6}$  deb olingan. Odatda, tavakkalning YQB mintaqasi  $10^{-8}$  bo'lsa, bu juda kichik qiymat hisoblanadi.

**Xavflarni o'rghanish tartibi** uch bosqichda amalgga oshiriladi:

**Birinchi bosqich**-xavflarni oldindan tahlil etish. Bu bosqich uch qadam bilan bajariladi: 1-qadam-xavf manbalarini aniqlash; 2-qadam-xavflarni vujudga keltiradigan qismlarni aniqlash; 3-qadam-tahlilni chegaralash, ya'ni, tekshirilmaydigan xavflarni chiqarib tashlash.

**Ikkinchi bosqich**-xavfli holatlarni ketma-ketligini aniqlash, hodisa va xavflar daraxtini tuzish. Xavflar daraxti yuqorida pastga qarab quriladi hamda sabablari hisobga olingan holda tamom bo'ladi.

**Uchinchi bosqich-oqibatlarni tahlil qilish.** Xavfsizlik tizimi, bu xavfsizlikning murakkab masalalarini hal qilish yo'llarini tayyorlash va asoslashda foydalananidigan metodologik choralar yig'indisidir. O'zaro ta'siri bilan aniq bir maqsadga etishtiradigan aloqador qismlar yig'indisi tizim deb ataladi.



1-rasm. «Xavflar daraxti»ning cxemasi.

Tizim deganda birgina moddiy ob'ektdan tashqari aloqalar va bog'lanishlar ham tushuniladi. Har qanday sozlangan mashina texnik tizimga misol bo'lishi mumkin. Tarkibiga odam ham kiradigan element tizimi ergonomik tizim deb ataladi. Masalan, «Odam-mashina», «odam-mashina-atrof-muhit».

Tizimlash tamoyili hodisalarini o'zaro bog'liq ravishda bir to'plam tariqasida o'rghanadi. Tizim beradigan maqsad yoki natija tizim yaratuvchi element deb aytildi. Masalan, yong'in-yonuvchi modda, oksidlovchi kislorod, yondiruvchi. Bu yerda yong'in-tizim, yonuvchi modda-oksidlovchi, yondiruvchi-uning elementlari. Agar birorta elementni shulardan chiqarib tashlasak, tizim buziladi. Tizimda bor sifat uning elementlarida bo'lmaydi. Bu tizimning muhim xususiyati bo'lib, xavfsizlik masalalari tahlili asosida joylashgan. Ko'ngilsiz voqealarning paydo bo'lish sabablarini aniqlash, ularni kamaytirishga qaratilgan tadbirlar xavfsizlik tizimi tahlilining asosiy maqsadidir.

Har qanday sabablar natijasida vujudga kelgan xavflar zarar keltiradi. Sababsiz haqiqiy xavf ham, zarar ham yo‘q. Demak, xavfdan saqlanish uning kelib chiqish sabablarini bilishga asoslangan.

Sodir bo‘lgan xavflar bilan sabablar o‘rtasida sabab-oqibat aloqasi bor. O‘z navbatida bir sabab ikkinchi sababiy oqibatni keltirib chiqaradi va hokaza. Shunday qilib, sabablar va xavflar zanjirsimon tizimni yaratadi. Bunday grafikning tasviri shoxli daraxtga o‘xshaydi. Quriladigan daraxtlarda sabab va xavf shoxlari bor. Ularni o‘zaro ajratib tashlash mumkin emas. Shuning uchun xavfsizlikni tahlil etishda tuzilgan tasvirni sabablar va xavflar daraxti deb atash lozim.

**Tahlil usuli.** Xavfsizlikni ko‘ngilsiz voqeа ro‘y berishdan oldin (aprior) yoki keyin (aposterior) tahlil etish mumkin. Har ikki holda qo‘llaniladigan usul bevosita yoki aksincha bo‘ladi.

Aprior tahlilda shu tizimga xos bo‘lishi mumkin bo‘lgan (yashirin) ko‘ngi lsiz voqealar tanlab olinadi va ularni yaratuvchi bir qancha holatlar to‘plami tuziladi. Aposterior tahlil esa ko‘ngilsiz voqeа yuz bergandan so‘ng kelajakda tadbirlar ishlab chiqishdir. Bu ikki uchul bir-birini to‘ldiradi.

To‘g‘ri usulda tahlil qilishda oqibatni oldindan ko‘rish uchun sabablar o‘rganiladi. Teskari usulda esa oqibat tahlil qilinib, sabablari aniqlanadi. Bu usullarning asosiy maqsadi ko‘ngilsiz voqealarni oldini olishdir. Voqealarni kelib chiqish ehtimoli va tezligi ma’lum bo‘lsa, voqeanning taxminan qanday natija bilan tamom bo‘lishini aniqlash mumkin.

Xavfsizlikning tahlilida tizimning parametrlarini yoki chegarasini aniqlash asosiy masala hisoblanadi. Agar tizim juda chegaralangan bo‘lsa, biror xavfli hollar yoki omillar etibordan tashqarida qolishi, agar tizimga o‘ta keng qaralsa, tahlil natijalari noaniq bo‘lishi mumkin.

Tahlil o‘tkazish darajasi aniq maqsadlarga bog‘liq. Aniq bir holatda ogohlantirish yo‘li bilan ta’sir qilish mumkin bo‘lgan hodisalarni aniqlash umumiyligi uslubi hisoblanadi.

### **Hayot faoliyat xavfsizligini taminlash asoslari**

Xavfsizlik umumiyligi nazariyasining tuzilishida asoslar va usullar ko‘rilayotgan sohadagi aloqalar to‘g‘risida to‘liq tasavvur qilishda metodologik ahamiyatga ega.

Asos, bu - fikr, g‘oya, maqsad (asosiy holat)dir. Usul, bu – eng umumiyligi qonuniyatlarni bilish orqali maqsadga erishish yo‘lidir.

Xavfsizlikni taminlash asoslari, usullari mantiq hamda dialektikaga xos umumiyligi usullarga tegishli bo‘lmay, maxsus va ayrim usullardan hisoblanadi. Usullar va asoslar o‘zaro bog‘liqdir. Xavfsizlikni taminlash choralar, bu – usullarni va asoslarni amaliy, tashkiliy, moddiy gavdalantirib amalga oshirishdir.

Asoslar, usullar, choralar xavfsizlikni ta’min etishdagi mantiqiy pog‘onadir. Ularni tanlab olish faoliyatning aniq sharoitlariga, xavfning darajasiga va boshqa mezonlarga bog‘liq.

**Xavfsizlikni taminlash yo‘llari** ko‘p. Ularni belgilariga qarab bir necha sinfga ajratish mumkin. Masalan, yo‘naltiruvchi, texnik, tashkiliy, boshqaruv.

1.Yo‘naltiruvchi belgilari: operatorning faolligi, iqtidori; tizimning tartibsizlanishi (destruksiya), operatorni almashtirish, tasniflash, xavflarni yo‘qotish, tartiblash, xavfni kamaytirish.

2.Texnik belgilari: blokirovkalash, vakuumlash, germetiklash, masofadan boshqarish, mahkamlash, to‘sıqlar orqali himoyalash, ojiz zveno qo‘llash, siqilgan havo qo‘llash, harakatlarni sekinlashtirish.

3.Tashkiliy belgilari: vaqt bilan himoyalash, axborot (ma’lumotlar), zahiralash, mos kelmaslik, me’yorlash, xodimlar tanlash, ergonomiklik.

4. Boshqaruv: moslik, nazorat, qarshi aloqa, javobgarlik, rejallilik, rag‘batlantirishlar, samaradorlik, boshqarish.

### **Xavfsizlikni taminlash usullari, ta’riflari**

Inson mehnat faoliyati jarayonida bo‘ladigan fazo – ish joyi (gomosfera), doim mavjud yoki vaqtiga vaqtiga bilan xavf paydo bo‘ladigan fazoni noksosfera deyiladi.

Xavfsizlikni taminlashga quyidagi usullar orqali erishiladi:

a) gomosfera va nososferani fazoviy va vaqt bo‘yicha ajratib kuyish, buni hal qilish uchun masofadan boshqarish, avtomatlashtirish, rabotlashtirish vositalari yordamidan foydalaniadi;

b) xavflarni yo‘qotish yo‘li bilan noksosferani me’yorlashtirish. Bu usulga ishchilarning shovqin, gaz, changdan jarohatlanishidan saqlovchi shaxsiy va birgalikdagi himoya vositalarini qo‘llashi kiradi;

d) bu usul ishchilarni tegishli muhitga moslashtirishga, ularni himoyalash darajasini ko‘tarishga yo‘naltirilgan har xil vositalar va usullar: kasbiqa qarab tanlash, ruhiy ta’sir va (shaxsiy) himoya vositalari qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Amalda esa yuqorida aytilgan usullar birgalikda qo‘llaniladi.

Xavfsizlikni ta’minlovchi vositalarga, jamoa (JHV) va shaxsiy (SHHV) himoya vositalari kiradi. Ular o‘z navbatida xavfsizlikning turi, tuzilishi, ishlatish sohasiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi.

### **Hayot faoliyat xavfsizligini boshqarishning uslubiy asoslari**



HFX to‘g‘risida tushuncha. HFX uslubiy va boshqaruv masalalarining xavfsizlik darajasi va «T»ga ob‘ektiv ta’siri katta. HFX boshqarilishida inson-muhit tizimi tushuniladi. HFXni boshqarish ob‘ektiv xavfli holatdan kam xavfli holatga o‘tkazishdir.

HFX ni boshqarishning vazifalari quyidagilardan iborat: Ob‘ekt holatining tahlili va bahosi.

1. Ob‘ekt holatining tahlili va hisoboti.
2. Boshqarishning tadbirlari.
3. Boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimlarni tashkil qilish.
4. Boshqarishning tashkiliy ishlarini nazorat qilish va tekshirish tizimini yaratish.
5. Tadbirlarning ta’sir qilishini, foydasini aniqlash.
6. Rag‘batlantirish.

## Faoliyatni tarkumlarga ajratish

«Inson-muhit», «inson-ishlab chiqarish» va boshqa tizimlar murakkab ko‘p tarkibli uyushmalardan (tizimlardan) hisoblanadi. Xavflarni o‘rganish va tahlil jarayonida tarkiblarga ajratiladi (4, 5-rasmlar).



2-rasm. Faoliyat modeli: 1-inson; 2-muhit; 3-aks ta'sir qiluvchi aloqalar.

Aniq faoliyat sharoitida bu tarkumlar (elementlar) yanada ravshanlashadi. Shuning uchun faoliyatni loyihalashda uning tarkumlarini (elementlarini) yetarli darajada aniqlab, to‘g‘ri keladigan axborot manbalaridan foydalanib, ularning xavfli xususiyatlari topiladi.

## Nazorat savollari

1. HFX fanining mazmuni nima?
2. HFX faning maqsadi nima?
3. Atrof-muhit nima?
4. Ekosistema deganda nimani tushunasiz?
5. Biosfera nima?
6. Texnosferaning inson faoliyatiga qanday aloqasi bor?
7. Litosfera haqida tushunchangiz?
8. HFX fanini o‘rganishdan maqsad nima?
9. Xavf-xatar deganda nimani tushunasiz?
10. Xavflar taksonomiysi nima?
11. Xavflar kelib chiqishi bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?
12. Rasmiy standartga asosan xavflar qanday turlarga bo‘linadi?
13. Xavflar keltiradigan zarari bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?
14. Xavflar namoyon bo‘lishi bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?

## MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING QONUNIY- HUQUQIY ASOSLARI

### Reja:

1. Mehnat qilish qonunlari
2. Mehnatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni tashkil etish
3. Mehnatni muhofaza qilishga bo‘yicha davlat nazorat tashkilotlari
4. Mehnatni muhofaza qilish qonunlaori buzilganlik uchun javobgarlik turlari

**Tayanch iboralar.** kasb kasalligi, shaxsiy himoya vositalari, intizomiy jazo, ma'muriy jazo, moddiy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, elektr, rejali, joriy, sanoatkontexnazorat, sanitariya-epidemiologiya.

Hozigi vaqtida O'zbekistonda xizmatchilarning bexatar mehnat qilish va sog'lig'ini saqlashga bo'lgan huquqlarini himoya qilishning zaruriy qonunchilik bazasi yaratilgan. O'zbekistan Respublikasi Mehnat kodeksining 30 dan ortiq moddasi bevosita mehnatni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan. Adolatlil mehnat sharoitlari - bu butun ish stagi davomida ishlovchi va uning avlodlari kasalliklar yoki sog'lig'idagi o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydigan mehnat sharoitlaridir ya'ni aytish mumkinki, mehnat sharoitlarining adolatliligi mezoni ularning barcha qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishidir. Bugungi kunda «Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi» mazkur fanlarni oliy kasbiy ta'limda o'qitish O'zbekistonning qator qonunlarida va qonun osti hamda me'yoriy-texnik hujjatlarda belgilab qo'yilgan.

«Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 10 martda qabul qilingan Senat tomonidan 2016 yil 25 avgustda ma'qullangan. (yangi taxriri)

Ushbu konunning 4- moddasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**Jamoaviy himoya vositalari** — tuzilishi yoki vazifasi jihatidan ishlab chiqarish binosi va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, xodimlarga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta'sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan texnik vositalar va boshqa vositalar;

**zararli ishlab chiqarish omili** — ta'siri xodimning kasb kasalligiga chalinishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omili;

**ish o'rni** — mehnat faoliyati jarayonida xodimning doimiy yoki vaqtinchalik bo'lish joyi;

**ishlab chiqarish faoliyati** — mahsulot ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish chog'ida amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi;

**ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa** — xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtida mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa;

**kasb kasalligi** — xodimning unga zararli ishlab chiqarish omili yoki xavfli ishlab chiqarish omili ta'siri natijasida yuzaga kelgan va uning kasbga oid mehnat qibiliyatini vaqtincha yoxud turg'un yo'qotishiga sabab bo'lgan o'tkir yoki surunkali kasalligi;

**mehnat sharoitlari** — mehnatni amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi;

**mehnatni muhofaza qilish** — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i, ish qobiliyati saqlanishini ta’minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirdlari hamda vositalari tizimi;

**mehnatda mayib bo‘lish** — ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi;

**noqulay ishlab chiqarish omillari** — zararli ishlab chiqarish omilining va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilining mavjudligi;

**xavfli ishlab chiqarish omili** — ta’siri xodimning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish omili;

**shaxsiy himoya vositalari** — xodimga zararli ishlab chiqarish omili va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omili ta’sirining oldini olish yoki uni kamaytirish, shuningdek ifloslanishlardan himoyalanish uchun foydalilanadigan texnik vositalar va boshqa vositalar.

#### **Mexnat muhofazasi fani quyidagi bo‘limlardan iborat:**

- 1.Mexnat muhofazasi qonunchiligi va uni tashkil etish.
- 2.Xavfsizlik texnikasi.
- 3.Ishlab chiqarish sanitariyasi.
- 4.Yonginni oldini olish tadbirdi.

**Mexnat muhofazasi qonunchiligi**-mexnat qilish va dam olishning xuquqiy qoidalarini o‘z ichiga oladi, xamda ularni ximoya qilishni kafolatlaydi.

**Xavfsizlik texnikasi**-ish oluvchilarga ishlab chiqarishdagi xavfli omillarning ta’sir etishining oldini olovchi tashkiliy, gigienikaviy va sanitariya, texnikaviy tadbirdlar xamda vositalar tizimini o‘rgatadi.

**Ishlab chiqarish sanitariyasi**-ish oluvchilarga ishlab chiqarishdagi zararli omillarning ta’sir etishining oldini oluvchi tashkiliy, gigienikaviy va sanitariya, texnikaviy tadbirdlar xamda vositalar tizimidan iboratdir.

**Yong‘inni oldini olish**- ishlo vchilarni yong‘in va portlashdan himoya qilishga qaratilgan texnikaviy va tashkiliy tadbirdlar yigindisidan tashkil topgandir.

Mehnatkashlarga ishlab chiqarish qulayliklarini yaratishda kasaba uyushmalarining roli katta. Ularning asosiy vazifasi mexnatga yaxshi munosabatda bo‘lishni rivojlantirish, falokatlardan, kasallanish va shikastlanish sabablarini bartaraf etish, kishilarning salomatligini saqlashni yaxshilashdan iboratdir. Oziq-ovqat sanoatining xamma sohalarida mexanizatsiyalashlirish va avtomatlashtirishni joriy qilish, og‘ir qo‘l mexnati bilan bog‘liq bo‘lgan ishchilarni bundan ozod etish, xo‘jalik rahbarlari va kasaba uyushma tashkilotlarining asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Kasaba uyushmalari ishchilarni xavfsiz mexnat usullariga doimiy ravishda o‘rgatish va shu to‘g‘risida yo‘l-yo‘riq berish ustidan nazorat qilish, nazorat qilishning uch pog‘onali nazoratini o‘tkazish, xavfsizlik texnikasi qonun va qoidalar, qo‘llanmalarning ishlovchilar tomonidan buzilishga yo‘l qo‘ymaslik mexnat muhofazasi bo‘yicha jamoatchi nazoratchilar va tekshiruv guruhlarning ishini jonlantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi va ma’muriy javobgarlik tugrisidagi kodeksiga asosan, mehnat qonunlari va xavfsizlik koidalarixar kanday shaklda buzganlikda yoki kasaba uyushmalari faoliyatiga xalal berishda ayblangan mansabdor shaxslar davlat qonunlarida belgilangan tartibda intizomiy, ma’muriy, moddiy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar deyilgan.

Intizomiy jazo choralari mehnat qonunlarini yoki xavfsizlik qoidalarini qupol ravishda buzganligi uchun mansabdor shaxslarga nisbatan yuqori tashkilot ma’muriyati tomonidan belgilangan tartibda qo‘llaniladi. Kasaba uyushmalari, zarur bo‘lganda, ya’ni mehnat qonunlari va muhofaza koidalarini buzayotgan rahbar xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli tashkilotlarga takliflar kiritadi. Ular o‘z navbatida kasaba uyushmasi a’zolariga tartib buzarlar ustida ko‘rilgan choralar haqida bir oy muddat ichida yozma xabar berishga mas’uldirlar. Ichki mehnat tartibini buzilishi quyidagi intizomiy jazolarni tadbiq etish bilan belgilanidi: xayfsan e’lon qilish, ish haqining 20% dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solish yoki mehnat lavozimida pasaytirish kabilar. Xayfsan bir yilgacha ta’sir etib turadi, ammo yo‘l qo‘yilgan xato tuzatilib ishlansa, muddatidan oldin olib tashlash mumkin.

Ma’muriy jazo jarima solish bilan belgilanib, mehnat muhofazasi qoidalarini buzgan mansabdor shaxslarga beriladi. Bu jazoni berish huquqiga maxsus davlat nazorati va mehnat vazirligi qoshidagi texnik va huquqiy inspeksiya a’zolari tomonidan mehnat xavfsizligi talablarini buzgan ishchi, xizmatchi texnik va muhandis xodimlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ma’muriy javobgarlik muddati qoida buzilgan kundan bir oygacha bo‘lib, ma’muriyat kabul qilgai yozma qarorga asosan tayinlanadi.

Moddiy javobgarlik korxona va jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy zapapni qo‘ndirish nazarda tutiladi. Ishlab chiqarish texnologiyalardan, mashina va jihozlardan, binolardan foydalanishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarining sababchilari moddiy javobgarlikka tortiladi. Masalan, ko‘tarma mexanizmda ishlovchi ishchi me’yordan ortiqcha yukni ko‘tarayotib uskunani buzib qo‘ysa, u albagta uskunaiipg ta’miri uchun ketgan sarf xarajatni tulashi lozim bo‘ladi. Moddiy javobgarlikni ikki xil usulda undiriladi: ya’ni moddiy zarami ma’lum qismini yoki to‘la hajmi o‘ndiriladi. Chegirilgan moddiy javobgarlikka ko‘ra aybdor shaxsning oylik maoshidan uchdan biri (33%) ushlab qolinadi. To‘la moddiy javobgarlikda esa uskunaning tiklanishi uchun ketgan sarf-xarajatning to‘la mikdori ushlanib qolinadi.

Jinoiy javobgarlik. Mehnat muhofazasi qonunlari, me’yor va qoidalari qo‘pol ravishda yoki e’tiborsizlik oqibatida buzilishi natijasida sodir bo‘lgan baxtsizliq odamni shikastlanishi yoki o‘limi bilan bog‘liq bo‘lsa yoki davlat mulkiga katta moddiy zarar etkazilsa, aybdor shaxs so‘zsiz jinoiy javobgarlikka tortiladi. Javobgar shaxslar qilingan jinoyatlariga muvofiq ravishda O‘zbekiston jinoyat kodeksiga asoslanib xalq saylagan qozilar hukmi bilan jarima to‘lashi, ishdan bo‘shatilishi va eng og‘ir jazo 4 yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi mumkin.

## **Mehnat xavfsizligi me'yorlari va me'zonlari**

O'zbekiston da mehnat muhofazasi masalalari mehnat qonunlari talablari va ilg'or quruvchilarning tajribalariga tayangan xolda amalga oshiriladi. Qurilishda xavfsiz mehnat sharoitini yaratishga qaratilgan tadbirlar ichida xavfsizlikni me'zonlashtirish markaziy masalalardan 15 hisoblanadi. Keyingi vaqtarda qurilishning hamma sohalarida Mehnat Xavfsizligi Me'zonlari Tizimi ni tuzish va joriy qilishga katta e'tibor berilmoqda. Bundan kutiladigan maqsad, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan baxtsizliklarni oldini olish va mehnat muhofazasiga taalluqli bo'lgan me'yoriy hujjat - xavfsizlik qonunlarini tartibga solishdir. Bugunga kelib qurilish sohasidagi mehnat xavfsizligi me'zonlari 300 dan ortib ketdi va ular quyidagicha me'zonlar tizimining (0:1:2:3:4:5:) guruuhlariga bo'linadi:

0-Mehnat xavfsizligi sohasida me'zonlashtirishning tashkiliy va uslubiy asoslarini (ya'ni vazifasi, maksadi, atamalari, xavfli omillari va boshkalarni) belgilab beradi:

- 1-Ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari bo'yicha talablar me'zoni;
- 2-Asbob va uskunalarga qo'yiladigan umumiy xavfsizlik talablar me'zoni;
- 3-Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan xavfsizlik talablar me'zoni;
- 4-Himoya vositalariga ko'yiladigan xavfsizlik talablar me'zoni;
- 5-Bino va inshootlarga nisbatan ko'yiladigan xavfsizlik talablar me'zoni;

Xavfsizlik me'zonlari ishlab chiqarishning xavfli omillari bo'yicha talab va me'yorlar o'rnatadi va shuningdek ishlab chiqarish jarayoniga va qurollariga, barcha himoya vositalariga hamda mehnat xavfsizligini aniqlovchi usullarga talablar qo'yadi. Mehnat xavfsizligi tarkibida to'rt xil xavfsizlik me'zoni majud: - davlat me'zonlari (DM), soha me'zonlari (SM), hududiy me'zon - (HM) va korxona me'zonlari (KM). Bunday me'zonlar tizimi yaratilgandan so'ng mehnat muhofazasiga doir talablar tartibga keltirildi 16 va ularni xalqaro me'zonlar tizimi bilan solishtirish imkonи tug'ildi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik – (XIH) doirasida mehnat xavfsizligi bo'yicha xalqaro me'zonlar tizimi tashkil etildi. Mavjud xavfsizlik me'zonlarini ishlab chiqarishga tadbiq qilish uchun maxsus nazorat komissiyasi tuzilishi kerak bo'ladi. Uning boshqaruvida muhandis va texnik xodimlariiing joriy qilinadigan mzonlarni o'rganish tartibi va muddati belgilanishi, tashkilotni ziyor asbob uskunalar va materiallar bilan taminlanishi hamda texnik hujjat va loyixalarni nazorat qilish kabi tashkiliy ishlar olib boriladi. Tashkiliy ishlar bajarilib, me'zon amalda tadbiq etilgandan keyin komissiya qilingan ishlar natijasidan kelib chiqqan holda bayonnomaga yozib uni qurilish tashkiloti rahbaridan tasdiqlatib olishi lozim bo'ladi. Me'zonlarni joriy qilish va bajarish ustidan davlat nazorati tashkil etilgan bo'lib, uni O'zbekiston me'zonlar nazorati Davlat Qumitasi tomonidan olib boriladi. Bunday nazorat har 5 yilda bir marta o'tkazilib, me'zonlarni to'g'ri ishlayotganligi tekshiriladi va kamchiligi bo'lsa tuzatiladi.

### **Mehnat shartnomalari, mehnat qilish va ta'til muddatlari.**

Ishchi va xizmatchilarni davlatimiz konstitutsiyasida ko'rsatilgan mehnat qilish huquqi va vazifalari o'zları tanlagan tashkilot ma'muriyati bilan tuzgan shartnomalari orqali belgilanadi. Mehnat shartnomalari ikki xil, ya'ni jamoa va

shaxsiy shartnomalarga bo‘linadi. Jamoa shartnomasi deb, bir guruhi ishchi va xizmatchidarni birga ishlash istagini bildirib, biror tashkilot ma’muriyati bilan aniq bir muddatga kelishib tuzilgan ashartnomasida aytildi. Bu shartnomaning o‘zi ikki ko‘rinishda bo‘ladi, ya’ni birinchisi bir guruhi ishchilarining uyushgan holda favquloddagi biror ishni bajarib berish uchun korxona ma’muriyati bilan 20 tuziladigan jamoa shartnomasidir. Bu shartnoma ikkala tomon imzo qo‘ygan kundan boshlab kuchga kiradi. Birinchi shartnoma tomonlarning majburiyati, ish muddati, xajmi va ish haqqi ko‘rsatilgan holda yozma tarzda tuziladi. Ikkinci shartnoma esa, qurilish tashkilotining bo‘limlarida bir yil davomida qilinadigan jami qurilish ishlarini va mehnat muhofazasi bo‘yicha bajarilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni hamda ishchi va xizmatchidarni ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi vazifalarini aniqlagan holda loyiha tuzilib, uni jamoaning umumiy yig‘ilishida, kasaba uyushmasining ishtirokida mupokama qilinadi va tasdiqdanadi. Bunday jamoa shartnomasida tashkilotning ma’muriyati va ishchi xizmatchilarining oldiga aniq va bajarilishi shart bo‘lgan vazifalar belgilangan bo‘ladi. Bu vazifalar yil davomida mehnat unumdorligini oshirish rejalarini to‘la bajarish, yangi zamonaviy qurilish texnikasi va tartibotlarini joriy qilish, mehnat intizomini mustahkamlash, mehnat xavfsizligini ta’minalash va boshqarish, ishchi va xizmatchidarni turmush sharoitini yaxshilash va boshqa tadbirlardan iborat bo‘ladi Jamoa shartnomasida mehnat xavfsizligi masalalari alohida bo‘limda yoritilgan bo‘lib, unda mehnat sanitariyasi va muhofazasi, hamda texnika xavfsizligiga oid tadbirlarning turlari, ularga qilinadigan sarf xarajatning miqdorlari, hamda ularni bajarilishini nazorat qiluvchi mas’ul shaxslarni nomlari aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi. Shartnomadagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishini tashkilot ma’muriyati va uning kasaba uyushmasi, hamda yuqori tashkilot tomonidan nazorat qilib turiladi. Mehnat shartnomasi - bu mehnatkashlarning davlat yoki shaxsiy korxonalar ma’muriyati o‘rtasidagi yozma shaklida kelishilgan ahdnama demakdir. Bu shartnomaga binoan mehnatkashlar o‘z kasbu hunarlari bo‘yicha, 21 mehnat intizomiga rioya qilgan holda, ish rejalarini to‘la bajarishga majburdirlar, tashkilot ma’muriyati esa ishchilarga o‘z vaqtida maoshlarini to‘lashga, hamda mehnat qonunchiligidan, jamoa shartnomasida va tomonlarni kelishuvida ko‘rsatilganidek xavfsiz mehnat sharoitini yaratib berishga majburdirlar. Mehnat shartnomalari muddati bo‘yicha quyidagi uch ko‘rinishda tuziladi:

1. Vaqt chegaralanmagan;
2. Muayyan - besh yilgacha bo‘lgan muddatga;
3. Muayyan ishni bajarish uchun ketadigan -3 oygacha vaqtga tuzilishi mumkin.

Mehnat qonunchiligidan ishchi va xizmatchilarini sababsiz, ogohlantirmasdan boshqa doimiy ishga o‘tkazilishi, ishdan bo‘shatilishi qatiy ta’qilqanadi, shu bilan birga ularning haq va huquqlari tashkilot ma’muriyati tomonidan mehnat qonunlari asosida himoyalangan bo‘lishi shart. O‘zbekiston Mehnat qonunlari majmuasining 148-moddasida mehnat intizomi bobida ishchi va xizmatchilarini o‘z ishlarini halol bajarishlari, mehnat intizomiga rioya qilishlari, ish unumdorligini oshirishlari,

mehnat muhofazasi talablariga, xavfsizlik qoidalariga va mehnat gigienasi talablariga qattiq rioya qilishlari lozim deyilgan. Tashkilot va muassasalarda mehnat intizomi va ish sharoitini to‘g‘ri tashkil qilish, halollik va adolat yo‘lida tarbiyalash usuli bilan va shuningdek halol mehnati uchun adolat yuzasidan rag‘batlantirish orkali ta’milanadi deyilgan, shu qonunda Mehnat intizomini buzuvchilarga nisbatan murosasiz bo‘lish va lozim bo‘lganda intizomiy jazo yoki jamoa ta’siri ko‘rsatish choralar qo‘llaniladi. Mehnat intizomini buzganlarga nisbatan tashkilot ma’muriyati kuyidagi intizomiy jazo choralarini qo‘llashi mumkin:

1. Hayfsan e’lon qilish;
2. O‘rtacha oylik ish haqqining 20 foyizidan ko‘p bo‘lmagan mikdorda jarima solish;
3. Hatto ishdan bo‘shatib yuborish.

Ish vaqtini ma’lum me’yorga solish davlatning mutasaddi tashkilotlari tomonidan, kasaba uyushmasining inspeksiyalari ishtirokida amalga oshiriladi. Mamlakat bo‘ylab 40 soatlik ish haftasi joriy qilindi. Ba’zi sohada ishchi va xizmatchilarni besh kunlik ish haftasiga o‘tkazildi. Buning natijasida ishchilarimiz mehnatdan bo‘shagan bir kun hisobiga o‘zlarini moddiy va turmush sharoitlarini yaxshilash, bilimlarini oshirish va qolaversa salomatliklarini tiklash imkoniga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari mehnatkashlarga har yili kamida 15 ish kuniga teng va undan oshiq muddat bilan mehnat ta’tili beriladi. Homilador ayollarga mehnat qonuniga asosan davlat ijtimoiy ta’minot hisobidan to‘liq ish haqqi saqlangan holda 126 kunlik ta’til beriladi. Agar bola nogiron yoki ikki va undan ortiq egizaklar tug‘ilgan bo‘lsa, yana 14 kun qo‘shib beriladi. Bola ikki yoshga to‘lguncha onasiga parvarish uchun davlat ijtimoiy sug‘urtasi hisobidan nafaqa to‘lash sharti bilan qisman haq to‘lanadigan ta’til ham beriladi. Mehnat qonunlari kodeksida o‘smirlar mehnatini muhofaza qilish masalasida alohida e’tibor berilgan bo‘lib, yoshi 16 ga to‘lmagan bolalarni doimiy ishga kabul kiliimaydi deyilgan. Faqat ayrim hollarda, tashkilot kasaba uyushmasining roziligi bilan 15-16- yoshda bo‘lgan (kasbga o‘rgatuvchi bilim yurtining o‘quvchilari) o‘smirlar ishga qabul qilish mumkin deyilgan. Bu yoshdagagi o‘smirlar uchun bir xafalilik ish vakti 24 soatdan, 16-18 yoshdagilar uchun 36 soatdan oshmasligi va ularga katta yoshdagagi ishchilarga tegishli barcha imtiyozlardan foydalanish huquqlari qonun asosida kafolatlangan. O‘smirlarni istagiga asoslanib yilning ularga ma’qul vaqtida bir oy (30 kun) dam olish ta’tili beriladi. O‘smirlar korxona kasaba uyushmasi ruxsatsiz qushimcha (kelishilgan ishdan tashqari) ishlarni bajarishga jalg etish taqiqlangan. Ularni 18 yoshga tulgunga qadar qar yili 23 tibbiy ko‘rigidan o‘tkazib turilishi va sog‘ligiga qarab ishga qo‘yilishi tayinlangan. Xotin-qizlar va o‘smirlar mehnatidan og‘ir ishlarni bajarishda, ularni salomatligiga zararli bo‘lgan ish sharoitida va shuningdek yer osti hamda tungi ishlarda foydalanish ma’n etiladi. Og‘ir yuk ko‘tarishlari taqiqlanadi. Mehnatkashlarga bir yillik mehnatlari nihoyasida ularni hohishlariga qarab eng kamida 15 ish kuniga teng muddat bilan mehnat ta’tili beriladi. Shuningdek 136 va 137 - moddalarida ko‘rsatilganideq ish sharoitini zararli ekanligi, ko‘p yillik ish tajribasiga egaligi, ish vaqtini

me'yorlanmaganligi aniqlangan mehnat xodimlariga qo'shimcha mehnat ta'tili 3,6,12,18 kungacha qo'shib beriladi. Shunday qilib O'zbekistonda ishchi va xizmatchilarining ishlayotgan soxalariga qarab 18,24,30 (o'smirlarga xam) va 48 ish kuniga teng mikdorda ilmiy-pedagogik xodimlarga mehnat ta'tili beriladi.

### **Mehnat muhofazasi tadbirlarni rejalashtirish**

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlovchi shaxslarning mexnat sharoitlarini yaxshilash, baxtsiz xodisalar. Jarohatlanishlar, kasb kasalliklarning oldini olishning birdan-bir chorasi mehnat xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish va xavfsizlik qoidalari o'qitishdan iboratdir.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 may 839-Son « Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va ularga yo'l-yo'riq berish » to'g'risidagi qonunining 19-moddasida jumladan shunday deyilgan: «Korxonaning barcha xodimlari, shu jumladan raxbarlari o'z kasblari va ish turlari bo'yicha davlat nazorat idoralari belgilangan tartib va muddatlarda o'qishlari, yo'l-yo'riqlar olishlari, bilimlarini tekshiruvdan o'tkazishlari, hamda qayta attestasiyadan o'tishlari shart. Ma'muriyat barcha yangi ishga kirayotganlar, shuningdek boshqa ishga o'tkazilayotganlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz usullarini o'rgatishni tashkil qilishlari, mehnatni muhofaza qilish va baxtsiz xodisalarda jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilishlari shart».

### **Korxonalarda yo'l-yo'riqning quyidagi turlari o'tkaziladi.**

1. Kirish.

2.Ish joyidagi.

Kirish yo'l-yo'rig'i. Yangi ishga qabul qilingan shaxslar bilan mexnat muhofazasi muxandisi yoki bosh muxandis tomonidan o'tkaziladi.

Ularga quyidagi tadbir tanishtiriladi va o'rgatiladi:

- 1.Korxonalarda ichki mexnat tartibi qoidalari, ya'ni ishning boshlanish vaqtini tanaffuslar va uni boshqa korxonalardan farqi;
- 2.Ishchilarning mexnat muhofazasi qoidalari bajarishdagi vazifalari;
- 3.Mehnat haqidagi umumiyligini qonunchilik hamda xotin-qizlar va o'smirlar mehnatini muhofaza qilish haqidagi tadbirlar.
- 4.Ishga kelganda, ishdan qaytayotganda, hamda ish vaqtida korxona chegarasida yurganda qanday xavfsizlik qoidalariга rioya qilish;
- 5.Ishlab chiqarishda xamda maishiy xizmat ko'rsatish uylarida qo'llaniladigan elektr jihozlaridan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish;
- 6.Ishlab chiqarish sanitariya gigienasi va shaxsiy gigiena qoidalari;
- 7.Jomakor maxsus kiyimlar, shaxsiy himoya vositalari va maxsus sovun, sut bilan ta'minlashning umumiyligini qoidalari;
- 8.Yonishga qarshi chora tadbirlar;
- 9.Ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va ularning kelib chiqish sabablari;
- 10.Baxtsiz xodisaga uchragan shaxslarga birinchi yordam ko'rsatish tadbirlari tushuntiriladi va o'rgatiladi.

Yuqoridagilarning hammasi batafsil tushuntirilgandan so‘ng kirish yo‘l-yo‘rig‘i maxsus qayd daflari yoki varaqada belgilanadi. Unda yo‘l-yo‘riq olgan va yo‘l-yo‘riq bergan kishilar qo‘l qo‘yadilar (l-ilova).

Korxona rahbari (kadrlar bo‘limi boslilik‘i) kirish yo‘l-yo‘rig‘i o‘tmasdan turib ishchini ishga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruqqa imzo chekishi taqiqlanadi.

### **Ish joyida yo‘l-yo‘riq o‘tkazish quyidagilarga bulinadi:**

1. Birlamchi.
2. Rejali (takroriy yo‘l-yo‘riq).
3. Rejadan tashqari.
4. Joriy.

Birlamchi ish joyidagi yo‘l-yo‘riq, kirish yo‘l-yo‘rig‘idan so‘ng yangi ishga kiradigan ishchilar bilan yoki bir ish joyidan. ikkinchi ish joyiga ko‘chirilgan ishchilar bilan. sex boshligi yoki usta (master) tomonidan o‘tkaziladi. Birlamchi ish joyidagi yo‘l-yo‘riqni o‘tkazishdan asosiy maqsad ishlovchi shaxslarni aniq ish joylari bilan tanishtirish, u yerdagi dastgohlar, moslamalar. ish joyining xavfli va zararli joylarini aniqlash va himoya vositalarini qo‘llab turib o‘rgatishdan iborat.

Birlamchi ish joyidagi yo‘l-yo‘riq. Ishga kiradigan har bir kishi bilan alohida o‘tkaziladi va ishga kiruvchidan ko‘rsatilgan xavfsiz ish bajarish qoidalarini takror ko‘rsatishni talab qiladi. Ishga kiruvchi bu qoidalarni to‘g‘ri bajarsa yo‘l-yo‘riq o‘tkazishni tugallangan deb hisoblanadi, so‘ngra bir hafta davomida bo‘lim (sex) boshlig‘i ishchining ishini kuzatib boradi va uning bilim darajasini tekshiradi. Shundan so‘ng ishchini ish korjomasi, moslamalari hamda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha texnika xavfsizligi bo‘yicha ko‘rsatma bilan ta‘minlab mustaqil ishni bajarishga ruxsat beradi.

Birlamchi ish joyidagi yo‘l-yo‘riq o‘tkazilganligi haqidagi ma’lumot maxsus texnika xavfsizligi to‘g‘risidagi yo‘l-yo‘riq o‘tkazishni qayd qilish daftariga belgilanadi (ilova-2).

Rejali o‘tkazishdan maqsad bo‘lim (sex) boslilik‘i o‘z qo‘li ostida ishlaydigan ishchilarni. mexnatni muhofaza qilish qoidalarni qay darajada bilishlarini aniqlash va bu borada ularning bilimlarini tekshirishdan iborat. Bu yo‘l-yo‘riqni o‘tkazish vaqtি korxona kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda korxona rahbari tomonidan belgilanadi.

Rejali yo‘l-yo‘riq shu bo‘limida ishlaydigan ishchilarni malakasi va ishslash davridan qat’iy nazar har uch yoki ko‘pi bilan olti oyda bir marotaba takroriy o‘tkaziladi. Mehnat sharoiti, texnologik jarayon o‘zgarganda. Uskunalar almashtirilgaiida, ishchi xizmatchilar noto‘g‘ri yoki xavfli mehnat usullaridan foydalilanlganda va xavfsizlik qoidalarni buzilishi nalijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda yoki kasbiy kasallanishlar kuzatilganda bo‘lim boshlig‘i yoki usta tomonidan o‘tkaziladi.

### **O‘zbekiston Respublikasida mehnat muhofazasini nazorat qiluvchi tashkilotlar**

Mehnat muhofazasi bo‘yicha qonunlarning bajarilishini nazorat qilib turish quyidagi davlat tashkilotlariga yuklatilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi.
2. “Sanoatkontexnazorat” agentligi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining sanitariya epidemiologiya nazorati.
4. Respublika Ichki ishlar vazirligining yong‘indan muhofaza qilish Bosh boshqarmasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi energetika va elektralash tirish Davlat aksionerlik jamiyati.

**Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi** korxonalarda xavfsiz ishlash, texnika xavfsizligi bo‘yicha me’yyor qoidalariga, sanoat sanitariyasi va mehnat gigienasiga hamda mehnat qonunchiligiga rioya qilish masalalarini nazorat qiladi. Har bir tarmoq o‘z texnik inspektoriga ega.

“**Sanoatkontexnazorat**” **agentligi** bug‘ qozonlarining to‘g‘ri ishlashini, bosim ostida ishlaydigan idishlarni, yuk ko‘tarish mashinalari (ko‘tarma kranlar, liftlar), ekskovatorlar, gaz uskunalar magistral quvurlari ishini va portlovchi moddalarni ishlatish, saqlash va tashish ishlarini nazorat qiladi.

**Respublika sanitariya-epidemiologiya nazorati** havo, suv va tuproqni ifloslanishdan ogohlantirish, shovqin va titrashni yo‘qotish, sexlarning sanitariya holatlarini yaxshilash (harorat, nisbiy namlik, yoritilganlik va h.k.) ishlarini nazorat qiladi.

**Davlat yong‘in nazorati** yong‘inga qarshi tadbirlarni, o’t o‘chirish vositalarining holatini, yong‘in haqida xabar berish vositalarining ishini nazorat qiladi.

**O‘zbekiston Respublikasi energetika va elektralashtirish Davlat aksionerlik jamiyati** korxonalardagi energiya tizimlarining texnik ekspluatatsiyasini va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishni nazorat qiladi.

Barcha ishlab chiqarish korxonalarida uch pog‘onali nazorat amalga oshiriladi.

I pog‘ona – har kuni usta jamoatchi-nazoratchi birgalikda sexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko‘radilar.

II pog‘ona – har hafta sex boshlig‘i katta jamoatchig‘nazoratchi bilan birgalikda sexdagi ish joylarini aylanib chiqib, uchragan kamchiliklarni tuzatish choralarini ko‘radi.

III pog‘ona – oyda bir marta korxona bosh muhandisi mehnat muhofazasi muhandisi bilan birgalikda ish joylarini aylanib chiqadilar. Bu nazorat bo‘yicha korxonada qaror chiqariladi.

Barcha korxona, tashkilot, muassasa, vazirliklar va tarmoqlarda mehnat muhofazasi qonunlari bajarilishining oliy nazorati. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yuklatilgan.

### **Nazorat uchun saollar**

1. O‘zbekiston Respublikasida insonning hayotiy faoliyati xavfsizligini qaysi hujjatlar ta‘minlaydi?
2. Konstitutsiyamizning qaysi moddalari bevosita insonni mehnati bilan bogiiq?

3. O'zbekiston Respublikasida «Mehnat kodeksi» ning asosiy mazmuni nimadan iborat? Ishga necha yoshdan qabul qilinadi?
4. Mehnatni muhofaza qilish haqidagi qonun qachon qabul qilingan?
5. Jamoa shartnomasi.
7. Ma'muriyatning vazifalari.
8. O'zbekiston Respublikasida mehnat muhofazasini nazorat qiluvchi tashkilotlar.
9. Mehnat muhofazasi qonunlari buzilgandagi javobgarlik turlari.
10. Jarohat va kasbiy kasalliklar nima?
11. Mehnat xavfsizligi standartlari majmuasi.
12. Mehnat sharoitidagi xavfli va zararli omillar.

## **RESPUBLIKAMIZ VA JAHON MIQYOSIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA OID OLIB BORILAYOTGAN TADBIRLAR**

### **Reja:**

- 1.Favqulotda vaziyatlar vazirligi va uning faoliyati
- 2.FVlardan muhofaza qilishdagi xalqaro hamkorlik va muhofaza qilish tizimi.
- 3.Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida aholi va hududlarni FVlardan muhofaza qilish tadbirlari

### **Favqulotda vaziyatlar vazirligi va uning faoliyati**

Respublikamiz aholisi va hududlarini xavfsizligini muhofaza qilish borasida Uzbekistan Respublikasi, FVV tomonidan har xil tegishli vazirliklar, tashkilotlarning ma'sul xodimlari ishtirokida anjuman, seminar, davra suhbatlari o'tkazilib kelinmoqsa.

Aholini favqulodda vaziyat yuz berganda sarosimaga va tushkunlikka tushmaslik, aniq tadbirlarni bajarishda dadil, qat'iy hatti-harakatlar qilishga ruhan, jismonan va moddiy jihatdan tayyorlab borish zarur.

Hayot faoliyati xavfsizligi fani fuqarolarning hayotiy faoliyati bilan bog'iq bo'lgan barcha hodisa va jarayonlarning kelib chiqishi sabablarini, uning oldini olish choralarini, ularning turlarini, xususiyatlarini muhofaza qilish tadbirlarini, harakatlanish qoidalarini o'rgatadi.

Aholini sog'lom bo'lib o'sishi, fuqarolarimizni har xil o'ta xavfli kasalliklardan himoya qilish davlatimiz zimmasidadir. 2008-2009 xavfsizlikni ta'minlashga oid chora - tadbirlar to'g'risida seminar bo'lib o'tdi Jumladan:

- Uyushgan jinoyatchilik, terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirish;
- Tezkor qidiruv xizmatini mustahkamlash;
- yo'l harakati xavfsizligini oldini olish;
- YOngin xavfsizligini oldini olish;
- Tabiiy FV oqibatlarini kamaytirish;
- Atrof-muhitni zararli moddalar bilan ifloslanishini oldini olishni kuchaytirish;
- Uzbekistan Respublikasi hududida biologik xususiyatdagi favqulodda vaziyatlarni bashoratlashni takomillashtirish;
- Elektr tarmoqlari tufayli yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarni oldini olishni kuchaytirish;

-Yirik suv inshootlarida xavsizlikni ta'minlashni kuchaytirish kabilar o'tkazildi.

Agar suv to'g'onlari, omborlarida avariya yuz bersa, ko'plab aholi yashaydigabi punktlar, minglab korxonalar va million hektar erlar zarar ko'radi. Iqtisodiy zararli omillardan biri suv toshqinlaridir. BMT ma'lumotiga ko'ra, tabiiy FV lar, insonga bo'ysinmaydigan kuchli ofatlar sayyoramiz aholisiga juda kapa zarar yetkazadi. Fuqarolar xavfsizligini ta'minlash uchun Davlatimiz tomonidan ko'p ishlar olib borilyapti. Aholini xavfsiz va sog'lom mehnat sharoiti bilan taminlashni davlat o'zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Buning uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni qonun asosida amalga oshiradi. So'nggi kunlarda oliy majlis tomonidan aholining xavfsizligini kafolatlovchi bir necha qonunlar qabul qilindi.

### **Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarda muhofazalash tadbirlari**

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga qaratilgan chora tadbirlar, turli avariya, halokatlarni oldini olish, bartaraf etish, favqulodda vaziyatda aholini harakatlanishga tayyorlash kabi tadbirlar majmuasidan iborat.

**Axborot tadbirlari.** Axborot vositalari (televizor, radio, internet) orqali jahonda va respublikamizda sodir bo'layotgan ofatlar, halokatlar, ularning ko'rib chiqish sabablari, oqibatlari xavfi to'g'risidagi ma'lumotlar orqali aholini xabardor qilib borish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyat, unga qarshi muhofaza tadbirlari, harakatlanish qoidalari, evakuatsiya tadbirlariga oid ma'lumotlardan aholini xabardor qilish, axborot uzatish kabi tadbirlar tashkil etadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar.** Aholi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofazalashga qara tilgan chora-tadbirlar, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda ularning xavfini bartaraf etish, -aholini moddiy ta'minlash, iqtisodiy jihatdan ko'rilgan zararni qoplash va boshqalar tashkil etadi.

**Muhandislik-texnik tadbirlar.** Aholi va hududlarni tabiiy, texnogen favqulodda vaziyatlardan muhofazalash maqsadida qurilish konstrukturlik ishlari, binolarning favqulodda vaziyatlarga bardoshligini ta'minlash kabi tadbirlar tashkil etadi.

**Maxsus tadbiri.** Aholi va hududlar muhofazasini ta'minlashga qaratilgan kuch va vositalari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning tayyorgarligini kuchaytirishga karatilgan, ular ustida doim olib boriladigan tadbirlar majmui tashkil etadi. Hozirgi sharoitlarda aholi hayot faoliyati xavfsizligini taminlash ma'lum usullarda amalga oshiriladi:

Aholini zaruriyat bo'lganda, yashirinish uchun ishlab chiqarish, jamoat, turar joylarda, maxsus himoya inshootlarida jamoa muhofaza vositalaridan foydalananini ta'minlash;

Favqulodda vaziyat zonasidan aholini evakuatsiya qilish;

Shaxsiy himoya vositalaridan foydal anish;

Tibbiy muhofaza tadbirlarini amalga oshirish;

Avariya qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlar.

### **O'zbekiston Respublikasining Qonuni**

## **Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida**

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 9-son, 221-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2010 y., 37-son, 316-modda)

### **I. UMUMIY QOIDALAR**

#### **1-modda.** Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan (bundan buyon matnda favqulodda vaziyatlar deb yuritiladi) muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo‘yadi.

**2-modda.** Asosiy tushunchalar Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Favqulodda vaziyat — odamlar qurban bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof tabiiy muhitga zarar etishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish — favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralar, usullari, vositalari tizimi, sa’y-harakatlari majmui;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish — oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergen taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro‘y bergen zonalarning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar kompleksi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish — favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro‘y bergen zonalarning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar kompleksi.

**3-modda.** Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

**4-modda.** Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy prinsiplari

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:  
insonparvarlik, inson hayoti va sog‘lig‘ining ustuvorligi;  
axborotning o‘z vaqtida berilishi va ishonchli bo‘lishi;  
favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oldindan ko‘rilishi.

**5-modda.** Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, oshkora bo‘ladi. Davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari aholining va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta’minalash yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro‘y bergen favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida, ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo‘llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart. Mansabdar shaxslar tomonidan aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotning yashirilishi, o‘z vaqtida taqdim etilmasligi yoki bila turib yolg‘on axborot taqdim etilishi ularning qonun hujjatlariga muvofiq javobgarligiga sabab bo‘ladi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot bilan ta’minalash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

## **II. FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISHNI TA’MINLASH TIZIMI**

**6-modda.** Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining, vazirlik va idoralarning, korxona, muassasa va tashkilotlarning boshqaruv organlari, kuchlari hamda vositalaridan iborat. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi tarkibi va faoliyat ko‘rsatishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**7-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:  
favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar davlat rezervlari yaratilishini ta’minalaydi hamda ulardan foydalanish tartibini belgilaydi; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga oid kuchlar va vositalarni moliya hamda resurs jihatidan ta’minalashni, ularni maxsus texnika va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlashni amalga oshiradi;

favqulodda vaziyatlar tasnifini tasdiqlaydi hamda ularni bartaraf etishda ijro hokimiyati organlari ishtiroki darajasini belgilaydi; vazirliklar, idoralar, ijro

hokimiyati mahalliy organlarining aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarini amalga oshiradi.

**8-modda.** Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatlari davlat boshqaruv organi

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatlari davlat boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidir.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

o'z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishini tashkil etadi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi; favqulodda vaziyatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar o'tkazilishini tashkil etadi;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirdari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlar bo'yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o'tkazilishida ishtirok etadi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

**9-modda.** Vazirliklar va idoralarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari

Vazirliklar va idoralar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida: o'z tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

tarmoqning va o'z tasarrufidagi ob'ektlarning favqulodda vaziyatlar sharoitida barqaror ishlash imkoniyatini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini, nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarni kelishib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etishlari;

o‘z tasarrufidagi ob’ektlar xodimlarini qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari tarkibida favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o‘rgatishlari;

favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

aholining va hududlarning muhofazalanish holati to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot berishlari, shuningdek tarmoq xodimlarini favqulodda vaziyat tahdidi borligi to‘g‘risida xabardor qilishlari;

moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o‘z tasarrufidagi ishlab chiqarish va ijtimoiy ob’ektlarda hamda ularga tutash hududlarda avariya, qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlar tashkil etilishi, moliyalanishi va o‘tkazilishini ta‘minlashlari; o‘ta muhim ob’ektlar va ularning xodimlarini favqulodda vaziyatlar sharoitida o‘z faoliyatlarini davom ettirishlari ta‘minlanadigan punktlarga evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirishlari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maxsus kuchlari va vositalari tashkil etilishini, tayyorgarlikdan o‘tkazilishini va shay bo‘lib turishini ta‘minlashlari;

o‘z tasarrufidagi ob’ektlar loyihalanishi, qurilishi va rekonstruksiya qilinishi chog‘ida aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalariga oid talablar bajarilishini nazorat qilib borishlari;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirishlari shart. Vazirliklar va idoralar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro‘yxati belgilab qo‘yiladigan, potensial xavf manbai bo‘lgan ob’ektlarda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar shtat lavozimlarini joriy etadilar. Boshqa ob’ektlarda esa mas’ul shaxslar tayinlanadi.

**10-modda.** Mahalliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

favqulodda vaziyatlar chog‘ida aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqadilar;

aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda to‘planishi va almashinilishini, shuningdek favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro‘y bergenligi to‘g‘risida aholi o‘z vaqtida voqif va xabardor etilishini amalga oshiradilar;

moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini moliyalashni amalga oshiradilar;

idoraviy mansubligidan qat’i nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga yordamlashadilar;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha korxona, muassasa va tashkilotlar kuchlari va vositalarining shay holda turishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

avariya, halokat, tabiiy ofatlar sodir bo'lgan zonalarda qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlari (shu jumladan tezkor harakat bo'linmalari) va maxsus tuzilmalarning doimo shay bo'lib turishini tashkil etadilar;

avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiradilar, shuningdek bunday ishlar o'tkazilishi chog'ida jamoat tartibi saqlanishiga ko'maklashadilar; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

**11-modda.** Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlar

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

xodimlar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarmi rejalashtirishlari, moliyalashlari va amalga oshirishlari;

xavf manbai yuqori bo'lgan ob'ektlar xavfsizligi to'g'risida belgilangan tartibda deklaratsiya taqdim etishlari;

xodimlarni favqulodda vaziyatlar sharoitida qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari tarkibida muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatishlari;

xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saqlab turishlari hamda favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro'y berganligi to'g'risida xodimlarni o'z vaqtida xabardor qilishlari;

favqulodda vaziyatlar sharoitida ob'ektlar ishi hamda xodimlar hayat faoliyati barqaror kechishini ta'minlashlari;

muhandislik-himoya inshootlari, zaruratga qarab, oldindan barpo etilishini ta'minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saqlab turishlari; favqulodda vaziyatlar ro'y berishi ehtimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish kuchlari va vositalari yaratilishini, tayyorlarlikdan o'tkazilishini hamda shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o'z tasarrufidagi ob'ektlarda avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini ta'minlashlari;

belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkib, texnika va anjom bilan to'ldirishlari;

belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazishlari va odamlarni joylashtirish uchun oldindan bazalar tayyorlab qo'yishlari;

belgilangan tartibda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida axborotlar taqdim etishlari shart.

**12-modda.** Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtiroki Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

aholi punktlari, suv ta’minoti manbalari, ijtimoiy va madaniy ob’ektlarning sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga yordam beradilar; fuqarolarni favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalg qiladilar; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni amalga oshiradilar.

**13-modda.** Jamoat birlashmalarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtiroki Jamoat birlashmalari favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishlari mumkin. Jamoat birlashmalari favqulodda vaziyatlar manbalari va ularni bartaraf etish choralari to‘g‘risida davlat hokimiyat va boshqaruv organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda axborot olish huquqiga ega.

**14-modda.** Favqulodda vaziyatlar monitoringi va ularni oldindan bashorat qilish. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va ularni oldindan bashorat qilish tabiiy ofatlarni, texnogen avariylar va halokatlarni tekshirish va nazorat qilish maxsus xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Favqulodda vaziyatlar monitoringini o‘tkazish va ularni oldindan bashorat qilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

### **III. FUQAROLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

**15-modda.** Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquqlari

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

favqulodda vaziyat ro‘y berganda hayotlari, sog‘liqlari va shaxsiy mol-mulkleri muhofazalanishi;

umumiyl va yakka muhofazalanish vositalaridan, mahalliy hokimiyat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish uchun mo‘ljallangan boshqa mol-mulkidan foydalanish; mamlakat hududining muayyan joylarida bo‘lganda ular duch kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatar darajasi to‘g‘risida hamda zarur xavfsizlik choralari haqida xabardor bo‘lish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat etish; favqulodda vaziyatlar ro‘y bergen zonalarda ishlaganligi uchun bepul tibbiy xizmat, kompensatsiyalar va boshqa imtiyozlar olish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish mobaynida majburiyatlarini bajarish chog‘ida sog‘lig‘iga etkazilgan zarar uchun kompensatsiyalar hamda imtiyozlar olish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish majburiyatlarini bajarish chog‘ida orttirgan kasalligi munosabati bilan mehnat qobiliyatini yo‘qtganda, nogironligi mehnatda mayib bo‘lish oqibatida kelib chiqqan xodimlarga belgilangan tartibda pensiya olish:

boquvchisini aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish majburiyatlarini bajarish chog‘ida orttirgan mayiblik yoki kasallikdan halok bo‘lganligi yoki vafot etganligi munosabati bilan yo‘qotganda, mehnatda mayib bo‘lish tufayli halok bo‘lgan shaxsning oila a’zolari uchun belgilangan tartibda pensiya olish.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi tartibi va shartlari, kompensatsiyalar va imtiyozlar turlari va miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**16-modda.** Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatları

Fuqarolar:

xavfsizlik choralariga rioya etishlari, ishlab chiqarish va texnologiya intizomi, ekologik xavfsizlik talablari favqulodda vaziyatlar ro‘y berishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tarzda buzilishiga yo‘l qo‘ymasliklari;

muhofazalanishning asosiy usullarini, jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish yo‘llarini o‘rganishlari hamda o‘z bilim va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirishlari;

favqulodda vaziyatlar ro‘y berishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan avariylar, ofatlar va halokatlar tahdididan darak beruvchi alomatlar borligi to‘g‘risida tegishli organlarga xabar berishlari;

favqulodda vaziyatlar tahdid solgan va boshlangan sharoitlarda ogohlantirish belgilarini, yurish-turish qoidalari va harakat qilish tartibini, umumiyl va yakka muhofazalanish vositalaridan foydalanish usullarini bilishlari;

zarurat bo‘lganda avariya-qutqaruvi ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni o‘tkazishda yordamlashishlari shart.

**17-modda.** Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatları O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el davlatlarining fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo‘ladilar va majburiyatlarni bajaradilar.

**18-modda.** Aholini va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash

Umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o‘rgatish umumiyl va majburiyidir.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari va oliy o‘quv yurtlarida, malaka oshirish muassasalarida, kurslarda, maxsus o‘quv-uslubiyat markazlarida va ish joyida amalga oshiriladi.

Aholini va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**19-modda.** Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ‘ib etish.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ‘ib etish davlat organlari, shuningdek odamlarni muhofaza qilish va qutqarish borasidagi tegishli jamoat birlashmalari tomonidan ta’minlanadi.

Bilimlarni targ‘ib etish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkin.

#### **IV. FAVQULODDA VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH**

**20-modda.** Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar hududi va ob’ektlarida bunday vaziyat ro‘y bergan korxona, muassasa va tashkilotlarning, vazirlik, idora va hokimliklarning kuchlari hamda vositalari bilan amalga oshiriladi. Zarurat bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda qo‘srimcha kuchlar va vositalar ajratiladi.

**21-modda.** Favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalarning chegaralarini belgilash. Favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalarning chegaralari davlat organlarining, korxona, muassasa va tashkilotlarning tegishli rahbarlari tomonidan Favqulodda vaziyatlar tasnifiga muvofiq belgilanadi.

**22-modda.** Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarining tugatilishi Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha qutqaruv, avariya ishlari va boshqa ishlar tegishli organlar qaroriga binoan tugatiladi.

Favqulodda vaziyat bartaraf etilganidan so‘ng davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar fuqarolarning hayot faoliyatini, ishlab chiqarish va ijtimoiy ob’ektlarning ishini tiklash hamda atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirishlari shart.

**23-modda.** Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan kuchlar tarkibi

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan kuchlar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining harbiy ixtisoslashgan avariya-qutqaruv bo‘linmalari, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining tegishli tuzilmalari hamda bo‘linmalaridan iborat. Mazkur bo‘linmalar tarkibi hamda ularni qo‘llash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**24-modda.** Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ichki ishlar organlari kuchlari va vositalarining qo‘llanilishi

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ichki ishlar organlarining kuchlari va vositalari qonun hujjatlariga muvofiq qo‘llaniladi.

**25-modda.** Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun qo‘sishinlar va harbiy tuzilmalarni jalb etish

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan Qurolli Kuchlarning, boshqa qo‘sishinlar va harbiy tuzilmalarning kuchlari va vositalari jalb etilishi mumkin.

## 1. V. YAKUNIY QOIDALAR

**26-modda.** Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar rezervlari

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar rezervlari oldindan, Favqulodda vaziyatlar ro'y bergan taqdirda ularni shoshilinch tarzda jalb etish maqsadida yaratiladi.

Moliyaviy va moddiy resurslar rezervlarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**27-modda.** Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

**Favqulodda vaziyat** — muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'ligi yoki atrof-tabiyy muhitga ziyon etkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar xamda uiing buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiya-. li yoki ekologik ofat, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar natijasida yuzaga kelgan xolat.

**HUDUD** — bu yer, suv, havo makoni yoki uning bir qismi, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi ob'ektlar, shunnengdek, atrof-tabiyy muhit.

**Favqulodda vaziyatlarii bartaraf etish** — bu favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladigan hamda odamlarini qutqarish va kishilar sog'ligini saqlash, atrof-tabiyy muxitga zararning hamda moddiy zararlarning miqdorlarini kamaytirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslik, ular uchun xos bo'lgan xavfli omillar ta'sirini bartaraf etishga yunaltirilgan avariya bo'lgan va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy mojarolar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar oqibatida zararlangan ob'ektlar va hududlarni tiklash harakatlari FVDT vakolatiga kirmaydi.

Korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta'minlashga mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qonunlariga, Oliy Majlisning qarorla riga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlariga,

Favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari va ko'rsatmalariga, O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalariga va mazkur Nizomga amal qiladilar.

**Quyidagilar FVDTning asosiy vazifalari xisoblanadi:**

-tinchlik va xarbiy davrda axoli va hududlarni favkulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xuquqiy va iqtisodiy-me'yoriy xujjalarning yagona konsepsiyasini belgilash, ishlab chiqish va amalga oshirish;

-respublika hududidagi mumkun bo'lgan texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlarni prognozlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, odamlar xavfsizligini ta'minlashga, xavfli texnologiyalar va ishlab chiqarishlarning tavakkalchiligini pasaytirish, mulkchilik shakllaridan va idoraviy buysunishidai qatiy nazar, iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

boshqaruva organlari pa tuzilmalarniig favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalarinng doimiy tayyorligini ta'minlash;

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig'ish, ishlab chiqish, almashigi va bsrish;

aholini, boshqaruva organlarining mansabdar shaxslarini, FVDT kuchlari va vositalarini favkulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarni yaratish;

5. FVDTning hududiy quyi tuzilmalari o'z ma'muriy hududlari doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun Koraqalpog'iston Respublikasi, viloyat-lar va Toshkent shahrida tuziladi hamda tegishli ravishda tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar miqyosidagi bo'g' inlardan iborat bo'ladi.

respublika daryajasida — Uzbekistai Rsspublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

atrof-tabiiy muhit va kuchli xavfli ob'ektlarning holatinn kuzatish va nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan, shuningdek, tar-kibida kimyoviy, portlopchi, yongin chiqishi mumkin bo'lgan va boshqa xavfli ob'sktlar mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralar;

11. Quyidagilar respublika darajasidagi FVDT boshqaruva organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tabiiy favqulodda vaziyatlar oqibatlarini imkonli boricha pasaytiruvchi choratadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga rahbarlik qilish, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida iqtisodiyot tarmokdari hamda alohida muhim kuchli xavfli ob'ektlarning barqaror faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash;

kimyoviy va boshqa kuchli xavfli ob'sktlarda xamda ularga yondash hududlarda xabar berish va axborotlarni maxalliy tizi-mini, shuningdek, suv omborlarining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatlashtirilgan tuzilmalarini loyialashtirish va yaratishni nazorat qilish;

atrof-tabiiy muxit hamda kuchli xavfli ob'ektlarning holatlatini kuzatish va nazorat qilish tuzilmasini tashkil etish, favqulodda vaziyatlarni prognozlash;

12. Quyidagilar maxalliy darajadagi FVDT boshqaruva organlarining asosiy vazifalari hisisoblanadi:

favuqlodsa vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida kuchli xavfli ob'sktlar ishining ishonchliligini ta'minlashga ovd tashkiliy va muhandnslik-texnika tadbiralarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish buyicha hududiy (viloyat) maksadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnachshsh;

viloyat ichidagi aloqa va xabar berish tuzilmalari, shuningdek, boshqaruvning va axborot bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan tuzilmasi (VAT)ni tashkil etish va doimiy zabardor qilish;

boshqarish va axborotni uzatish uchun aloqa, radio, telyovidenne hamda boshqa texnika vositalarining davlat viloyat va idoraviy shakllaridan markazlashtirilgan holda foydalanishnn ta'minlash;

*favqulodda* vaziyatlarni prognozlash;

boshqaruv orgailari, boshqaruv punktlari, kuch va vositalarning favqulodda vaziyatlar chogidagi harakatlarga tayyorligini ta'minlash;

yuzaga kelgan favqulodla vaziyatlar, ularning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, etkazishi mumkin bo'lgan oqibatlar, ularni bartaraf etishga oid qabul qilynayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarni xabar kqilishni ta'minlash va nazorat qilish;

hududiy (viloyat) quyi tuzilmalarning, shuningdek, favqulodda vaziyatlar chogida avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish bo'yicha kungilli tuzilma-larning kuch va vositalariga rahbarlik qilish va harakatini ta'minlash, ushbu ishlarga menatga layosatli aholini jalg qilishni tashkil etish;

aholini evakuatsiya qilish (vaktinchalik chik.ish), joylash-tirish, evakuatsiya kilingan aholini hayotiy ta'minlash hamda ularning favkulodda vaziyatlar bartaraf etilgach doimiy yashash joylariga qaytishini rejalashtirish va amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahiralarini yaratish;

favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish;

aholini, boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishshga tayyorlashga rahbarlik qilish.

13. Quyidagilar ob'ektlar darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, ob'ektlar ishining favqulodda vaziyatlar chogida ishonchligi va barqarorligini oshirishga doyr tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish;

kimyoviy va boshqa kuchli xavfli ob'ektlarda xabar qilish va axborotning mahalliy tuzilmalarini, shuningdek, gidrotexnik inshootlarda signalizatsiya va xabarqilishning mahalliy avto-matik tuzilmalarini yaratish ishlarini tashkil etish; boshqaruv organlarining, ob'ektlar kuch va vositalarining

avariya-qutqaruv hamda boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarga, shu jumladan, ob'ektlar xodimlarinn evakuatsiya qilishga rahbarlik qilish;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy -va moddiy resurslar zahiralarini yaratish;

ob'ektlarning raxbarlar tarkibi, kuch va vositalari, shuningdek xodimlarinn fapkulodda vaziyatlardagi xarakatlarga tay-yorlashni tashkil etish.

14. FVDTning favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bu kuch va vositalari quyidagilardan iborat buladi:

fuqaro muhofazasi qo'shinlari;

favqulodda vaziyatlar vazirligiga to'g'ridan-to'g'ri hamda tezkor buysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari;

vazirliklar va idoralarning xarbiylashtirilgan hamda professional ixtisoslashtirilgan avariya-qutqaruv va avariya-tiklash bulinmalari;

mahalliy hokimiyat organlarining (Qaqalpornston Resggublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar), Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutkaruvchi komandalarining tuzilmalari;

hududiy va ob'ektlarni harbiylashmagan umumiy va maxsus maqsadlardagi tuzilmalari;

15. Fuqaro muhofazasi kushinlari favkulodda vaziyatlar vazirligiga bo'ysunadi hamdl o'z tezkor yunalishlariga muvofiq, harbiy davrda respublikaning muhim mudofaa va syanshg obvktilarida favqulodda vaziyatlarni tugatishga oid ishlarni olib boradilar.

Tinchlik davrida fukaro muxrfazasi kushinlari yirik ko'lamdag'i ishlab chiqarish avariyalari, halokatlar, stixiyali ofatlar chogida avariya-qutqaruv hamda boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish va maxsus priborlar, texnikalar, asbob-uskunalar va tayyorlangln mutaxassislarni talab etuvchi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishuchun jalg etiladi.

16. Favqulodda vaziyatlar vazirligiga to'gridan-to'gri maxsus qidiruv hamda qutqarish uskunalari bilan jihozlangan, shuninglek, maxsus kiyim-boshlarning mustaqil manbalari etarlicha suv, oziq-ovqat hamda qidiruv-qutqaruv va boshqa kechiktnrib bo'lmaydigan ishlarni avtonom rejimda kamida 72 soat ichida ta'minlashni hisob-kitob qilnnib chiqarilgan xarajat materiallariga ega bo'lgan doimiy tayoorgarlikdagi avariya-qutqaruv va avariya-tiklash ko'p tarmoqdi tuzilma o'z ichiga oladi.

18. FVDTning favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish buyicha kuch va vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

fuqaro muhrfazasi qo'shinlari;

favqulodda vaziyatlar vazirligiga to'gridan-to'gri hamda tezkor bo'sunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari;

vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan hamda professional ixtisoslashtirilgan avariya-qutkaruv va avariya-tiklash bo'linmalari;

mahalliy hokimiyat organlarining (Qaqalporiston Resggublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, sharlar va tumanlar), Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruvchi komandalarining tuzilmalari;

ob'ektlarning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari;

hududiy va ob'ektlarni harbiylashmagan umumiy va maxsus maqsadlardagi tuzilmalari;

Qizil Yarim oy Jamiyatining kungillilar otryadlari (komandalari guruhdari);

«Vatanparvar» mudofaaga ko'maklashuvchi tashkiloti.

## **Nazorat va savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida insonning hayotiy faoliyati xavfsizligini qaysi hujjatlar ta'minlaydi?
2. Konstitutsiyamizning qaysi moddalari bevosita insonni mehnati bilan bogiiq?
3. O'zbekiston Respublikasida «Mehnat kodeksi» ning asosiy mazmuni nimadan iborat? Ishga necha yoshdan qabul qilinadi?
4. Mehnatni muhofaza qilish haqidagi qonun qachon qabul qilingan?
5. Jamoa shartnomasi.
6. Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning faoliyatiga nimalar kiradi
7. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdagi xalqaro hamkorlik va muhofaza qilish tizimi deganda nimani tushunasiz?.
8. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlariga nimalar kiradi?
9. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan va qonunnig maqsadi?
10. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi qonun nechta bo'lim va moddan iborat?

## **FAVQULODDA VAZIYATLARDA (FV) AHOLI VA HUDUDLARNI HIMOYALASH DAVLAT TIZIMI FUQARO MUHOFAZASIDA AXLOQIY VA PSIHOLOGIK TAYYORGARLIK**

### **Reja:**

- 1** Favqulodda Vaziyat davlat tizimining maqsadi va asosiy vazifalari Favqulodda Vaziyat davlat tizimining tuzilishi va darajalari.
- 2** Favqulodda Vaziyat davlat tizimining faoliyat ko'rsatish tartibi, kuch va vositalari
- 3** Fuqaro muhofazasida axloqiy va psihologik tayyorgarlikning mohiyati, axloqiy va psihologik tayyorgarlikning shakllari, metodlari va vositalari


1.Favqulodda vaziyat davlat tizimi vakolatlariga aholini va hududni Favqulodda vaziyatlardan himoyalashga oid masalalarni hal etish uchun, uning tarkibiga qiradigan respublika va mahalliy hokimiyat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning kuchlari va vositilarini birlashtiradi, hamda favqulodda vaziyatlarni ogohlantirish va bartaraf etish, ular yuz berganda aholi xavfsizligini va atrof–muhit muhofazasini ta'minlash sohalarida tadbirlar tashkil qilish va amalga oshirish, mumkin bo'lgan ofatlardan davlat iqtisodiyotiga bo'ladigan zararni kamaytirish uchun mo'ljallangan.

Favqulodda vaziyat davlat tizimining vazifalari va aholini va hududni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish va favqulodda vaziyatni ogohlantirish va favqulodda vaziyatda tashkilotlar, ijtimoiy ob'ektlar ishlashining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va ilmiy–texnikaviy dasturlarini amalga oshirish va

favqulodda vaziyatni ogohlantirish va uni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan va ajratilgan kuch va mablag‘larning, hamda boshqaruv organlarining harakat qilishga tayyorgarligini ta’minlash va aholini va hududni favqulodda vaziyatdan himoyalashga oid axborotni to‘plash, ishlab chiqish va tarqatish va aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

- favqulodda vaziyatlarni oldindan aytib berish va ularning ijtimoiy–iqtisodiy oqibatlarini baholash;
- favqulodda vaziyatlarni tugatish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahirasini yaratish; - favqulodda vaziyatlarni tugatish;
- favqulodda vaziyatlardan jabrlangan aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tarbiyalarni amalga oshirish;
- aholiga favqulodda vaziyatdagi himoyalanish sohasidagi, shuningdek favqulodda vaziyatlarni tugatishda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari va vazifalarini amalga oshirish;
- aholi va hududni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasida xalqaro hamkorlik.

### Favqulodda vaziyat davlat tizimining tuzilishi



Favqulodda vaziyat davlat tizimi hududiy va funksional quyi tuzilishlardan iborat bo‘ladi, hamda respublika, mahalliy va ob’ektlar miqqosidagi 3 darajaga ega bo‘ladi.

Qizil yarim oy jamiyati favqulodda vaziyat davlat tizimining funksional bo‘g‘ini bo‘lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

va favqulodda vaziyat vazirligi, boshqa vazirliklar (idoralar) va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda aholini favqulodda vaziyat da I-yordam ko‘rsatish va bemorlar va jabrlanganlarga qarshi masalalari bo‘yicha tayyorlash;

-vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari va korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlariga sanitar drujinalarini tashkil qilish, ularni ta’minlash, tayyorlash va ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishdagi

tayyorlik holatlarini nazorat qilishda yordam berish va xalq ta'limi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda.

O'rta maxsus bilim yurtlarida va umumta'lim maktablarida sanitar postlar tashkil qilish va o'qitish.

-IV, davlat avtomobil nazoratchi xodimlari, yo'l- transport xizmati kursantlari, haydovchilari va xizmatchilarning jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish amaliyotiga bitim asosida o'qitishni tashkil etish.

-Sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda aholini birlashtirib yordam, o'zaro o'z-o'ziga yordam ko'rsatishga va jabrlanganlarga qarashga o'qitish bo'yicha ixtisoslashgan teleko'rsatuvarlar tashkil etish;

- Jamiyat ko'ngilliklari otryadlari va boshqa bo'linmalarni tashkil qilish, o'qitish, jihozlash;

- Favqulodda vaziyatlarda jabrlangan aholiga yordam ko'rsatish uchun eng zarur mahsulotlar omborlari va rezervlari tizimini yaratish.

- Favqulodda vaziyat davlat tizimining har bir darajasi quydagilarga ega:

1. Favqulodda vaziyat davlat tizimi rahbar organlari

2. Favqulodda vaziyat davlat tizimi kundalik boshqaruv organlari

3. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuch va vositalari

1. Favqulodda vaziyat davlat tizimi rahbar organlari, bu aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofazalash masalalarini hal etish vaqolatlariga kiradigan davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat organlari va ob'ektlar ma'muriyatidir.

-Respublika darajasida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyat vazirligi;

Atrof-tabiyy muhit va kuchli xavfli ob'ektlarning holatini kuzatish va nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan, shuningdek tarkibida kimyoviy portlovchi, yong'in chiqish mumkin bo'lgan ob'ektlar mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralar;

-Mahalliy darajada va QQASR vazirlar Kengashi viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimliklari

- ob'ekt darajasida-korxonalar ma'muriyati;

-favqulodda vaziyat davlat tizimining kundalik boshqaruv organlari bilan, bu favqulodda vaziyat davlat tizimining tegishli hududiy tizimlariga hamda uning bo'g'inaligiga bevosita kundalik boshqaruvni amalga oshiruvchi boshqaruv organlaridir;

QQA Respublikasi; viloyatlar va Toshkent shahar Favqulodda vaziyat boshqarmalari:

-shahar va tuman favqulodda vaziyat bo'limlari;

-ob'ektlarning favqulodda vaziyat bo'limlari;

-vazirliklar va idoralarning davlat nazorati organlari (nazorat inspeksiyasi xizmatlari).

-favqulodda vaziyat davlat tizimi rahbar organlarining zaxiradagi boshqaruv punktlari;

-vazirliklar, idoralar va ob'ektlarning navbatdagi dispetcherlik xizmatlari:

Favqulodda vaziyat davlat tizimi kundalik boshqaruv organlarini joylashtirish doimiy dislakatsiya punktlarida, shahar va shahardan tashqaridagi zonalarda tashkil etiladi, ular tegishli xabar berish, aloqa axborotni ishlab chiqishga doimiy tayyor holda saqlanadi.

-favqulodda vaziyat davlat tizimining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuch va vaziyatlari quyidagicha;

-fuqaro muhofazasi ko‘rinishlari;

-favqulodda vaziyat vazirligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari:

-vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan avariya qutqaruv va avariya tiklash bo‘linmalari;

-mahalliy hokimiyat organlarining favqulodda vaziyat vazirligi qutqaruvchi komandalarining tuzilmalari;

-ob’ektlarning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari;

-hududiy va ob’ektlarning harbiylashtirilgan umumiy va maxsus maqsadlaridagi tuzilmalari;

Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining kuchlari va vositalari.

Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining kuchlariga quyidagilar kiradi:

1.Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari.

2.Hududiy va ob’ektlarning harbiylashmagan umumiy–maxsus maqsadli tizimlari.

3.Mahalliy hokimiyat organlarining (viloyat, shahar va tumanlar) favqulodda vaziyat vazirligi ko‘tkaruchi komandalarining tizimlari.

4. Favqulodda vaziyat vazirligiga hokimliklari hamda tezqor buy so‘nuvchi Respublika komandalarining tizimlari.

5.Vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan hamda professional-ixtisoslashtirilgan avariya va qutqaruv va avariya tiklash bo‘linmalari.

6.Ob’ektlarning ixtisoslashtirilgan tizimlari.

7. “Qizil Yarim Oy” hamda “qizilxoj” jamiyati ko‘ngilli otryadlari.

8. “Vatanparvar” mudofaaga ko‘maklashuvchi tashkilot.

Bularning tarkibida Respublikamiz bo‘yicha “Najodqor”-Respublika qidiruv-qutqaruv markazi hamda suvdan qutqarish xizmati tizimlari tuzilgan bo‘lib, Respublikamiz miqyosida bo‘ladigan har qanday favqulodda vaziyatlarda hududiy vazifalarini bajaradilar.

Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining mablag‘lari quyidagilardan tarkib topgan:

-davlat byudjetlari hisobidan;

-mahalliy byudjet hisobidan;

-vazirlik va uning bo‘g‘inlari hisobidan;

-muassasa va tashkilotlarning shaxsiy mablag‘lari hisobidan;

“qizil yarim oy” hamda “qizil xoj” jamiyatining birlamchi zahiralari va boshqalardan.

Har bir korxonaning fuqaro muhofazasi boshlig‘i fuqaro muhofazasini tashkil etilishini, uning holatini, kuchlarining, texnikasining doimiy tayyor

holatda bo‘lishini nazorat etadi, hamda qutqaruv va qayta tiklash ishlariga boshchilik qiladi. Korxona fuqaro muhofazasi boshlig‘i shu korxona joylashgan rayon fuqaro muhofazasi boshlig‘iga va shu korxonaning yuqori tashkilotiga bo‘yso‘nadi.

Har bir korxonaning fuqaro muhofazasi boshlig‘iga o‘rinbosar tayinlanadi. Katta korxonalarda bir nechta o‘rinbosarlar tayinlanadi, jumladan:

- 1.Ishchi-xizmatchilarni joylashtirish (yoki evakuatsiya bo‘yicha);
- 2.Muxandis-texnik ishlari bo‘yicha;
- 3.Moddiy-texnika ta’minoti bo‘yicha;

Fuqaro muhofazasining ishchi-xizmatchilarni joylashtirish bo‘yicha o‘rinbosari joylashtirish rejalarini tashkil etadi. Ularning oilalarini evakuatsiya etish, jamoat tartibini saqlash ishlariga boshchiliq qilish hamda ishchi-xizmatchilarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish ishlarini tashkillashtirish vazifalarini bajaradi.

Fuqaro muhofazasining muhandis-texnik bo‘limi o‘rinbosari korxonaning bosh muhandisi hisoblanadi. Uning vazifasi ishlab chiqarishni alohida rejim asosida ishslash rejasini tuzish, tinchlik davrida ishlab chiqarishning muttasil ishslashini ta’minlash ekstremal holatlarda avariya-texnika va yong‘inga qarshi xizmatlarni, qutqarish ishlarini olib boradi. Bundan tashqari tabiiy ofatlar, avariya, halokat bo‘lganda qutqarish va avariyanı to‘sish, qayta tiklishlash ishlariga boshchiliq qiladi.

Fuqaro muhofazasi moddiy-texnika ta’minoti bo‘yicha o‘rinbosari qilib korxonaning ta’minot bo‘yicha boshliq o‘rinbosari tayinlanadi. Bu shaxs maxsus jihozlarni, texnika, transport va muhofazaga taaluqli jihozlar bilan ta’minlaydi va saqlaydi. Yana boshpanalarni ko‘rish va o‘z qo‘l ostidagi ishchi-xizmatchilarni evakuatsiya qilishni ta’minlaydi. Hamda inshootlarni ta’mirlash ishlarini bajaradi.

Korxona fuqaro muhofazasi shtabi tuziladi. Bu shtabda har xil buyruqlar, bajariladigan chora tadbirlar va fuqaro muhofazasining yuqori tashkilot talablari, ish rejalarini ishlab chiqiladi, uning bajarilish hisobotlari tuziladi. korxona

Fuqaro muhofazasi shtab boshlig‘i etib shu korxonaning Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari tayinlanadi. Korxona fuqaro muhofazasi shtabi zimmasida ishchi-xizmatchilarni va korxona xodimlari oilalarini qirg‘in quollar ta’siridan, dushmanning bevaqt hujumidan o‘z vaqtida ogoh qilish vazifasi turadi.

Korxona fuqaro muhofazasi shtabi asosida quyidagi xizmatli tizimlar tashkil etiladi:

- aloqa va tashviqot;
- meditsina;
- radiatsiya va kimyoviy quollar ta’siriga qarshi;
- jamoat tartibini saqlash;
- elektr ta’minoti;
- avariya-texnikani ta’mirlash;

- panada va qochoqlar maskanida xizmat ko'rsatish;
- transportda xizmat ko'rsatish
- moddiy ta'minot va boshqalar.

Bularga maxsus topshiriqlarni bajarish vazifalari topshiriladi. Yuqoridagi harbir xizmatga fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan rahbar etib, bo'lim, sex, smena boshliqlari tayinlanadi. Yuqorida ta'kidlangan fuqarolar muhofazasining xizmatli tizimlaridan tashqari texnika va transport vositalariga maxsus qayta ishlov berishda fuqarolar muhofazasining bir qator xizmatli qismlari keng ishlarni tashkil etadi. Shu jumladan fuqarolar muhofazasi laboratoriyalari radioaktiv va zaharli moddalarni aniqlash uchun radiometrik va kimyoviy tahlil ishlarini olib boradi. Ular asosan korxona yoki tashkilotlarning laboratorilari tarkibida tashkil etilib, unga mutaxassislar jalb etiladi va kerakli asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Radioaktiv moddalar va biologik vositalar bilan zaharlangan odamlarni to'liq sanitar-qayta ishlovdan o'tkazish uchun yuvinish maskanlari tashkil etiladi. Bu maskanlar asosan hammom va dushxonalar asosida tashkil etilib, ular oldindan tayyorlanib qo'yiladi. Bu maskanlarda kiyim-kechaklar, poyafzal va shaxsiy saqlovchi vositalarni dezaktivatsiya qiluvchi maydonchalar tayyorlanib jihozlanadi. Bu yuvinish maskani bir soatda 80 odamni sanitar-qayta ishlovdan o'tkazadi.

Kiyim-kechaklar, poyafzal va shaxsiy saqlovchi vositalarni dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish kiyim-kechaklarni zararsizlantiruvchi markazlar tashkil etiladi. Bular asosan hammom va kiyim-kechaklarni yuvuvchi maskanlar tarkibida tashkil etiladi. Bunday maskanlar bir soat ichida 50-100 kg kiyim-kechaklarni qayta ishlov berish quvvatiga ega.

Transport vositalarini dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish uchun esa zararsizlantirish shaxobchalari tashkil etiladi. Bu zararsizlantirish shaxobchalari asosan transportlarni yuvuvchi qismlari tarkibida tashkil etilib, ular bir soat mobaynida 4-5 ta yuk avtomashinalarini zararsizlantirish imkoniyatiga ega.

Demak, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda asosiy rolni favqulodda vaziyat davlat tizimi kuch va vositalar o'ynaydi. O'tgan XX asr insoniyat taraqqiyotda tub burilish yasadi. Dunyo hamjamiyati munosobatlarning yangi bosqichiga qirib keldi, iqtisodiy aloqalar kengayib bormoqda, yer yuzida iqlim isib bormoqda, sayyoramiz aholisining tezlikda ko'payib borishi ko'zatilmoqda. So'nggi yillarda xalqaro terrorizmning faollashuvi namoyon bo'lmoqda, ko'pchilik dunyo mamalakatlari turli ekstremistik tashkilotlarining harakat doirasiga qirib qolmoqda.

Markaziy Osiyo hududida ham tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar soni oshib bormoqda.

Bunday sharoitda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimining urni kuchayib boradi. Bu tizim tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar ro'y berganda odamlar, iqtisodiyot, hududlar xavfsizligini ta'minlab beradi. Ammo, bu ta'minotga faqatgina fuqaro muhofazasi faoliyati, jumladan rahbarlar va

tuzilmalar shaxsiy tarkibining tayyorligi, aholining fuqaro muhofazasi bo‘yicha bilimlarini har tomonlama takomillashtirib borish bilangini erishish mumkin.

Tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga ma’naviy-ruhiy tayyorlash hisoblanadi. Insonning favqulodda vaziyat sharoitiga tushib qolishi doimo uning ruhiyatiga ta’sir qiladi. Tibbiyot statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra halokatli favqulodda vaziyatlardan so‘ng ko‘pchilik og‘ir ruhiy jarohat oladi va ruhiy muolajaga muhtoj bo‘ladi.

Tabiiyki odam o‘zini nazorat qila olmay qoladi. Buning sababi juda oddiy: odam xavfli sharoitda faqat o‘zini o‘ylaydi, atrofidagi hech kimni va hech nimani sezmaydi. Shuning uchun, o‘ylamay netmay, beixtiyor harakat qiladi.

Fuqaro muhofazasida ruhiy tayyorgarlik–bu odamlarda ruhan chidamlilikni shakllantirish yoki qo‘yilgan vazifalarni bajarish, tinchlik va urush vaqtidagi xavfli vaziyatlarda fidokorona harakat qilish qobiliyatini kuchaytirishdagi xislatlarini hosil qilish demakdir.

### **Ma’naviy–ruhiy tayyorgarlikning shakllari, usullari va vositalari.**

“O‘tdan qo‘rqish”ni engish. Odam sakrab o‘ta oladigan kenglikda uzun zovur qaziladi. Unga ishlatib bo‘lingan solyarka yoki boshqa yonadigan suyuqlik to‘ldirilib, yoqib yuboriladi. Olov devor hosil bo‘lib, ta’lim olayotganlar muhofaza kiyimi kiyib yoki muhofaza niqobida sakrab, shu olov devor ustidan o‘tadilar. Bunda, har ehtimolga qarshi, olov devorining ikki tomonidan suv shlanglari ushlagan odamlar turadilar.

“Balandlikdan qo‘rqish”ni engish. Xodalardan to‘rt qavatli uy maketi ko‘riladi. Balandlikda xoda ustida mashq qilinadi. Mashq qilayotganlar xavfsizligini ta’minalash uchun ular beliga xavfsizlik kamarlari bog‘lab qo‘yiladi. Albatta, xoda ustida yurayotganlarning tuyg‘ulari dastlab unchalik yoqimli bo‘lmaydi. Yoki ta’lim oluvchilar baland minoraga chiqib, undan qutqarish arqoni yordamida pastga tushadilar.

“Suvdan qo‘rqish”ni engish. Suvli to‘sinq ustiga uzunligi 100 m li tebranma ko‘prik ko‘riladi. Ta’lim oluvchilar shu ko‘prik ustidan yurib, suv to‘sqidan o‘tadilar.

Tayyorgarlikni bunday usulda olib borish odamlarda favqulodda vaziyat yuz berganda esankirab qolmaslik, chidam va mardlik ko‘rsatish hissini shakllantiradi.

Mashg‘ulotni va o‘quv mashqlarini sutkaning turli vaqtlarida, murakkab ob-havo sharoitida, zaharlanish zonalarida olib borib odamlarni qiyinchiliklarini engib o‘tishga o‘rgatish, ma’naviy–ruhiy hislatlarni shakllantirish mumkin.

Mashg‘ulotni va o‘quv mashqlarini yuqori sur’atda, kechasi va kunduzi, murakkab ob-havo sharoitida, zaharlanish zonalaridan o‘tib, vayrona uyumlarini saranjomlab, yong‘inlarni o‘chirib va h.k. o‘tkazish kerak. Faqat shunday yo‘l bilangina qiyinchiliklarni yengib o‘tishga o‘rgatish, odamlarda zarur bo‘lgan ma’naviy–ruhiy hislatlarni shakllantirish mumkin

1984 yil martidagi Gazli zilzilasi vaqtida Kogondan kelgan sanitar drujinachilar fidokorona harakat qildilar. Biroq, drujinachilarning ayrimlari kon oqib to‘rgan yaralarni, singan suyaklarni va boshqa jarohatlarni ko‘rib qo‘rqib

ketgan edilar. Bu sanitariya drujinalarining sardorlari to‘g‘ri qarorga keldilar– tegishli organlar bilan kelishib, sandrujinachilarni navbatchilik qilish uchun tez yordam tibbiy punktlariga yuboradilar. Bu qiyinchilik yaxshi natija berdi.

Demak, sandrujinachilarda kerakli hislatlarni hosil qilish uchun davolash profilaktika muassasalardagi amaliy ishdan, travmatologiya instituti muassasalarida, kasalxonalarda ishlashdan, sandrujinachilarning zavod tibbiy punktlarida va shahar tibbiy tez yordam stansiyalarida navbatchilik qilishlaridan foydalanilgan joylarda to‘g‘ri yo‘l tutadilar.

Ishlab chiqarishda band bo‘lmagan aholining ma’naviy–ruhiy tayyorgarligi muammosi million–million kishilarga tegishli muammodir. Viloyatlar, shaharlar va tumanlar fuqaro muhofazasi boshliqlari, favqulodda vaziyatlar boshqarma va bo‘limlari bu mavzuga ko‘proq e’tibor berishlari, ishlamayotgan aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdagi ma’naviy–ruhiy chiniqtirishga yordam beradigan tadbirlarga jalb qilishlari kerak. Bunday tadbirlarga birinchi galda kimyoviy xavfli ob‘ektlar yaqinida hamda toshkin, suv bosish va sel kelish xavfi, boshqa xatarlar bor joydalarda yashab to‘rgan aholi jalb etilishi kerak.

Targ‘ibot. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni targ‘ib etishdagi asosiy vazifalar qanday, bunda targ‘ibot nimalardan iborat bo‘lishi kerak?

Birinchi vazifa. Tinchlik davrida va harbiy harakatlar vaqtida, favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi mumkinligini va ular naqadar xavfli ekanligini tushuntirish.

Ikkinci vazifa. Fuqaro muhofazasining roli ortib borayotganini, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish haqidagi davlat hujjalaringin mazmunini, aholining fuqaro muhofazasiga oid huquqlari va vazifalarni tushuntirish.

Uchinchi vazifa. Aholiga favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni o‘rgatishga hissa kushish.

To‘rtinchi vazifa. Fuqaro muhofazasi ilg‘or tajribasini keng targ‘ib qilish.

Beshinchi vazifa. O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi tarixi va an‘analarini tizimli targ‘ib qilish.

Targ‘ibot hushyorlik oshirilishi kerakligini, oldini olish tadbirlari o‘tkazish muhimligini, odamlarda yuksak ma’naviy –ruhiy fazilatlarni tarbiyalash zarurligini, shuningdek beparvolik ishlab chiqarish, ijtimoiy sohaga og‘ir shikast etkazishi, eng yomoni odamlar qurban bo‘lishi mumkinligini eslatib turishi kerak.

**Fuqaro muhofazasi targ‘ibotini tashkil etish shakllari, usullari va vositalari.** Fuqaro muhofazasi targ‘ibotini kim tashkil etishi va olib borishi kerak? Bu savolga javobni O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida” va “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonunlaridan topish mumkin. Ularda belgilanishicha, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ‘ib etish davlat organlari, shuningdek odamlarni muhofaza qilishva qutqarish borasidagi tegishli jamoat birlashmalari tomonidanta’milanadi. Bilimlarni targ‘ib etish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 7 oktyabridagi 427–sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to‘g‘risida”gi qarorining 4–moddasida bunday deyilgan: “Davlat matbuot qo‘mitasi, “o‘zteleradio” kompaniyasi, favqulodda vaziyatlar vazirligi, qizil yarim oy Jamiyat markaziy qo‘mitasi, respublika davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlar, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, keng tashviqot qilinishini ta’minlasinlar”.

Tushuntirish ishlarinining muhim tomoni – uning mazmuni, aniqligi, turmush bilan bog‘liqligidir. Bu ishning shakli, usullari va vositalarining katta ahamiyati bor.

Targ‘ibot yuqori saviyali, tushunarli, ta’sirchan bo‘lishi, uning shakllari xilma-xil va yorqin bo‘lishi eng avvalo targ‘ibotchi kadrlarning tarkibi, tayyorgarligi qay darajada ekanligiga qarab aniqlanadi.

Targ‘ibotning qanday axvoldaligi tabiiyki, birinchi galda barcha darajadagi fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasida bo‘ladi. Fuqaro muhofazasi xodimlari davlat va jamoat tashkilotlarni, ijodiy jamoalarni, turli fondlarni jalb qila olsalargina targ‘ibotni yo‘lga qo‘yish shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

#### **Fuqaro muhofazasini targ‘ib qilishning quyidagi shakllari mavjud:**

- 1.Og‘zaki targ‘ibot
- 2.Ommaviy axborot vositalari (matbuot, televideonie, radio).
- 3.Kino va videofilmlar.
- 4.Ko‘rgazmali vositalar (plakat, stend, fotomontaj, vitrina va x.k.).

Og‘zaki targ‘ibot eng ta’sirchan shakllardan biri hisoblanadi. Odamlar bilan shaxsiy muloqotda bo‘lishga asoslanib, bunday targ‘ibot muayyan jamoa oldida to‘rgan fuqaro muhofazasi vazifalarini, ularni hal etish usullarini odamlarga tushunarli dalil va misollardan tushuntirish, kamchilik va qiyinchiliklar, ularni engib o‘tish yo‘llari haqida ochiqdan ochiq fikr yuritish imkonini beradi.

Og‘zaki targ‘ibotda ma’ruza, suhbat, savol–javob kechalari, fuqaro muhofazasi faxriylari va mutaxassislari bilan uchrashuvlardan foydalilanadi.

Targ‘ibot ishlayotgan ilmiy va texnik atamalari va tushunchalarini tinglovchilar to‘g‘ri anglashini ta’minlaydigan qilib bayon etishi, fikrning mantiqiyligi, tushuntirilayotgan qoidalarning turmush bilan chambarchas bog‘liqligiga yorqin misollar keltirishi, statistika ma’lumotlariga tayanishi, nutqining jo‘shqinligi va hokazolar targ‘ibiy chiqishlarning ishonchliliginini ta’minlab beradi. Og‘zaki chiqishning samaradorligini oshirishda mazmo‘nning hal qiluvchi va muhim rol uynashini ta’kidlash bilan bir qatorda, targ‘ibotchi nutqining tushunarli va to‘g‘ri bo‘lishi kerakligini ham unutmaslik kerak. Tinglovchilar odatda sodda, jonli tilda bayon etilgan ma’ruza, suhbatni idrok qilib oladilar.

Ayrim tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda avariya–qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o‘tkazish usullari bilan tanishib chiqamiz.

Avariya–qutqaruv ishlarining turlari quyidagilardan iborat:

-harakat marshrutlari va ish maydonlari (ob'ektlari)da razvedka ishlarini olib borish;

-harakat marshrutlari va ish maydonlari (ob'ektlari)dagi yong‘inlarni cheklash va bartaraf etish;

-jabrlanganlarni qidirib topish va ularni vayron bo‘lgan, zararlangan, yonayotgan binolardan, suv, gaz, tutun bosgan bino hamda vayrona uyumlari orasidan olib chiqish;

-jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish hamda ularni shifoxonalarga joylashtirish;

-aholini xavfsiz joylarga ko‘chirish;

-epidemiya yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida kerakli sanitariya-gigiena choralarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish;

-aholini suv, oziq–ovqat va zarur narsalar bilan ta’minalash.

Kechiktirib bo‘lmaydigan shoshilinch ishlarning turlari quyidagilardan iborat:

-vayrona uyumlari orasida va zararlangan hududlarda kolonna yo‘llarni tayyorlash, ya’ni piyodalar va transport vositalari uchun yo‘l ochish;

-qutqarish ishlarini olib borish uchun sharoit yaratish maqsadida gaz, energetika, suv, kanalizatsiya va texnologik tarmoqlardagi avariyalarni cheklash;

-imorat va inshootlarning bosib tushish xavfi bo‘lgan harakat xavfsizligiga hamda avariya –qutqaruv ishlarini olib borishga xalaqit beradigan konstruksiyalarini mustahkamlash yoki buzib tashlash;

**Aholini ma’naviy-siyosiy va psixologik jihatdan tayyorlash.** Ma’naviy faktor–bu jamiyat ma’naviy kuchlarining eng aktiv tomoni, xalq ommasi ma’naviy fazilatlarining jamul – jami, odamlar intilayotgan, amalga oshirishga harakat qilayotgan maqsad va vazifalarni mana shu kishilarning izlari tomonidan anglash, tushunish darajasi va butun kuchlarini shu g‘alaba yilda sarf etish uchun tayyor turishidir.

Ma’naviy kuchlar–bu chuqur sotsial–sinfiy tarixan konkret hodisalardir. Barcha zamonlarda ham armiya bilan xalqning kuchlari ijtimoiy to‘zumga uning maqsad va g‘oyalariga, ularning ishchilar sinfi yaqinlik darajasiga bog‘liq bo‘lgan. Fan, texnika, taraqqiyoti, ishning samaradorligi va sifatini oshirish vazifalari mehnat kuch g‘ayratlarini aqliy – psixik jabhalarga ko‘chirilishi, odamlarning ijtimoiy ongi, sotsial aktivligi rolining oshirilishini talab qilmoqda.

Mehnatkashlar ongida eng avvalo yosh avlod ongida vatanparvarlik g‘oyalarini chuqur e’tiqod va hushyorlikni qaror toptirish yo‘llari, ularni ona Vatan himoyasiga tayyor bo‘lib turish ruhida tarbiyalash yo‘llari O‘zbekiston Respublikasi kono‘n va qarorlarida belgilab berilgan.

Sanitariya drujinalarining davolash profilaktika muassasalarida o‘tqaziladigan mashg‘ulotlari ular uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni tarbiyalashning eng ta’sirli metodlaridan biri hisoblanadi, cho‘nki bunday davolash muassasalarida sanitariya drujinalari og‘ir kasallar bilan uchrashadilar, ularga yordam ko‘rsatadilar. Sanitariya drujinalari tibbiyot xodimlari bilan birgalikda yo‘l harakati

hodisalari va boshqa baxtsiz hodisalar yuz berган vaqtда jarohatlangan, shikastlangan kishilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun etib boradilar (qon ketish hollarida oshqozon qattiq shikastlanganda, ochiq va yopiq sinishlarda, asab-psixik kasalliklar xuruj qilgan bemorlarga yordam ko'rsatadilar va hk.). Bular bari sanitariya drujinalarining professional malakasini yanada ko'proq mustahkamlaydi, shu bilan birga psixologik jihatdan chiniqishlariga ham imkoniyat yaratadi.

Fuqarolar muhofazasi bo'yicha tayyorgarlik ko'rish-bu birorta bilim sohasini sho'nchaki o'zlashtirib olish emas, balki mutloqo konkret vazifalar va usullarni egallab olish demakdir. Bular shunday vazifa va usullarki ularni istagan bir daqiqada hech qanday qo'shimcha tayyorgarlik ko'rmasdan har bir kishi bajarishga tayyor bo'lib turmog'i kerak. Fuqaro muhofazasi bo'yicha o'tkaziladigan darslar, mashq va mashg'ulotlar yigit va qizlarda fuqarolik tuyg'usi va ongli intizomni shakllantiradi, ularni ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalananish usul va vositalarining pishiq-puxtaligiga ishonch ruhida tarbiyalaydi. O'qish, ommaviy-siyosiy ishlar jarayonida fuqaro muhofazasining shaxsiy tarkibi va aholi tomonidan hosil qilingan ma'naviy-siyosiy va psixologik fazilatlar, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish vaqtida yaqqol namoyon bo'ladi, rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Ruhiy tayyorgarlik deganda, shaxsiy tarkibda ruhiy barqarorlikning shakllanishi tushiniladi. Bunda shaxsiy tarkibning qo'yilgan vazifalarini bajarish, qiyin va xavfli vaziyatlarda mardlarcha, faol harakat qilish, o'z-o'zini tutishlik, jasurlik, bardoshlik, fidokorlik ko'rsatish qobiliyatini oshiruvchi hislatlar namoyon bo'lishi kerak. Maqsadga kiritilgan tarbiyaviy ishlar ta'sirida, mehnat va jamoatchiliq faoliyati davomida, mashg'ulotlar, mashqlar, musobaqalarda tabbiy ofatlar yoki turli xil hodisalar oqibatida jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda Sanitariya drujinachilar zaruriy ma'naviruhiy hislatlar paydo bo'ladi. Kutilmagan murakkab vaziyatlar yaratish yo'li bilan ma'naviy ruhiy chiniqishda kutilmagan natijaga erishiladi. Zararlanish o'chog'ida jabrlanganlarning salomatligidan tashqari boshqa narsalar ham uning tayyorgarlik ko'rganligi, ma'naviy-ruhiy chiniqqanligiga bog'liq ekanligiga har bir fuqarolar muhofazasi tushunib borishi lozim, cho'nki ular birinchilar qatorida jabrlanganlar bilan uchrashadilar. Ularga nafaqat tibbiy yordam balki juda muhim va ma'naviy quvvat beradilar. Fvvqo'lodda vaziyatlar zilzila, suv toshqini, yong'inlarda kishilarning o'zlarini tutishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning hammalari ham yuzbergan hodisaga bir xil mo'nosabatda bo'lmaydilar. Ularning ko'pchiligi, o'ziga xos tanglik holatida bo'lsalar ham, har holda xotirjam qoladilar. Ba'zi bir kishilarda esa noxush reaksiya paydo bo'ladi yoki To'la befarq bo'lib, maqsadga ko'ra harakat qila olmay qoladilar. Tibbiy tuzilmalarning shaxsiy tarkibi aholining turli guruhlari harakatdagi shunday hollarga agar to'g'ri qarashga tayyor bo'lishlari lozim.

Ofat zonasidagi qutqaruv ishlari kunduzi ham, kechasi ham har qanday ob-havo sharoitida o'tkazilaveradi. Ular sanitariya drujina, sanitariya postlar shaxsiy tarkibining jismoniy tayyorgarligiga katta talablar qo'yadi. Jismoniy chidamlilik

ruhiy barqarorlikning eng muhim komponentlaridan biridir. Shaxsiy tarkibni sport seksiyalariiga jalg qilish turistik poxodlar va ekskursiyalar tashkil qilish sportga qiziquvchilarni rag‘batlantirish yo‘li bilan jismoniy chekinishga erishiladi.

Tibbiy tuzilmalar shaxsiy tarkibi uchun ma’naviy-ruhiy hislatlari va tayyorgarliklarining oshirishdagi sinovchi jiddiy imtihon tabbiy ofatlar va ishlab chiqarishdagi avariylar joylari hisoblanadi. Ko‘p kunli og‘ir ishlarda komandir va uning shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha o‘rnbosarning asosiy vazifalaridan biri qo‘l ostidagilarning ehtiyoji va so‘rovlarini o‘z vaqtida qanoatlantirish, ovqatlanish va dam olishni tashkil qilish masalalari bo‘lib qoladi.

Mashqlarga tayyorlanish va ularni o‘tkazish davrida tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifalari quyidagilar:

1)shaxsiy tarkibda yuqori ma’naviy holatni va hushyorlikni, uyushganlik va tartibni, ularga topshirilgan vazifalarni bajarishga doim tayyorgarlikni saqlash;

2).shaxsiy tarkibda komandir va boshliqlarning buyruqlarini aniq va o‘z vaqtida so‘zsiz bajarilishini tarbiyalash;

3).tuzilmalarning ofatlar zonasiga tez, uyushgan holda va o‘z vaqtida etib borishini ta’minalash;

4).hududning mumkin bo‘lgan kimyoviy, radioaktiv va boshqacha zararlanish va yalpi yong‘inlar sharoitlarida jabrlanganlarni qidirib topish, ularga o‘z vaqtida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda jasurlik bilan, tashabbuskorlik va ustalik bilan harakat qilishga sandrujinachi ayollarni tayyorlash;

5).umumiy vazifalarni birgalikda bajarishda favqulodda vaziyat davlat tizimining boshqa tuzilmalarining shaxsiy tarkibi bilan hamkorlikni rivojlantirish. Tarbiyaviy ishlar doimiy holatda olib boriladi va vaziyat qanchalik murakkab bo‘lsa, shunchalik faolroq olib boriladi. Tajribaning ko‘rsatishicha, komandir o‘rnbosari mashqqa tayyorlanishda yoki qutqaruv ishlaridagi o‘zining ishtirokini olingan topshiriqni aniqlashtirish va tadbirlarning qisqacha rejasini tuzishdan boshlaydi. Suhbatlar o‘tkazish yo‘li bilan, u komandir bilan birgalikda, shaxsiy tarkibga maqsad va vazifalarni, mashqlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishda (qutqaruv ishlarida) uning rolini tushintirb beradi.

Tuzilmalar rahbarlarning o‘qishdagi va amaliy vazifalarni bajarishdagi natijalarni baholashga talabchanlik va haqqoniylig bilan yondashishlari faollik, prinsipiallik va mehnatsevarlikni oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kishilarni bo‘shashtimasdan, tirishkoqlikka, yangi imkoniyatlarni izlashga harakatni rivojlantiradigan baholash eng haqqoniylig va o‘rinlidir. Bunda mashg‘ulotlar, mashqlar, musobaqalar, qutqaruv ishlari natijalarini jamoada muhokama qilish, o‘rnak bo‘lganlarni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish, san.drujinalarning shaxsiy hislatlarini har tomonlama bilish, ular bilan yakka-yakka ish olib borish yaxshi yordam beradi.

### **Nazorat uchun savollar**

1.Favqulodda vaziyat davlat tizimining vazifalari nimadan iborat.

- 2.“O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish tizimi” to‘grisida 23 XII – 1997 yil № 558 sonli qarori haqida nimani bilasiz?
3. Favqulodda vaziyat davlat tizimining to‘zumini tushuntiring.
4. Aholi va hududlarni fuqaro muhofazasi bo‘yicha muhofazalashlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilishni tushuntirib bering.
5. Favqulodda vaziyat davlat tizimining quyi tizimlariga xarakteristika bering.
6. Favqulodda vaziyat davlat tizimining hududiy quyi tizimini tushuntirib bering.
7. Favqulodda vaziyat davlat tizimining funksional quyi tizimini tushuntiring.
8. Favqulodda vaziyat davlat tizimi rahbar organlari qanaqa va uning vazifalari nimadan iborat.
9. Favqulodda vaziyat davlat tizimining kundalik–boshqaruv organlari qanaqa organ va uning vazifasi nimadan iborat?

## FAVQULOTDA VAZIYATLAR HAQIDA TUSHUNCHА

### **Reja:**

1. Favqulotda vaziyatlar klassifikatsiyasi
2. Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar
3. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar
4. Ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar

Favqulodda holatlarni oldindan bilish tabiiy ofatlar, avariylar va halokatlar vaqtida yuz beradigan holatlar va sharoitlarni taxminlab aniqlashga asoslangandir. Bunda, uncha to‘lik va aniq bo‘lmagan ma’lumotlar asosida favqulodda holatlar sodir bo‘lish ehtimoli bor rayon hamda favqulodda holatlarning xarakteri va masshtabi baholanib, favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan ishlarning xarakteri va hajmi taxminan belgilanadi.

Hozirgi vaqtida seysmik rayonlar sel oqimlari suv bosishlar sodir bo‘ladigan, qor ko‘chishi va boshqa ko‘chishlar sodir bo‘lish xavfi mavjud bo‘lgan joylar aniqlangan. Shuningdek, katta halokatlarga va avariyalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan sanoat korxonalari ham belgilangan. Bu uzoq muddatli oldindan bilish deb tushuniladi.

Oldindan bilish vazifasiga favqulodda holatlar sodir bo‘lish ehtimoli vaqtini aniqlash masalasi ham kiradi. Bunday aniqlanish qisqa muddatli oldindan bilish deb tushuniladi. Buning uchun hozirga vaqtida quyosh faolligi siklining o‘zgarishi to‘grisidagi statik ma’mulotlardan, yerning sun’iy yo‘ldoshi yordamida olingan ma’lumotlardan, hamda meteorologik, seysmik, vulqon, sel oqimi va boshqa stansiyalarning ma’lumotlaridan keng foydalaniladi.

Masalan, dovullar, dengiz bo‘ronlari, vulqonlar otilishi, sel oqimlarining bo‘lish ehtimoli, meteorologik er yo‘ldoshlari yordamida aniqlanadi. Yer qimirlashlarni sodir bo‘lish ehtimoli seysmik rayonlarda suv tarkibini ximiyaviy tahlil qilish, tuproqning elastiklik, elektrik va magnit xarakteristikasini o‘lchash, hududlardagi suv sathi o‘zgarishini kuzatish, hayvonlar holatini kuzatish orqali aniqlanishi mumkin.

Katta o'rmonlardagi va yer osti torf yong'inlarining yashirin o'choqlari samolyot yoki erning sun'iy yo'ldoshi yordamida infraqizil nurlar orqali tasvirga olish asosida aniqlanadi.

Favqulodda holatlar sodir bo'lishi asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holat va sharoitlar matematik usullar asosida baholanadi. Bunda boshlang'ich ma'lumotlar sifatida yashirin xavf joyi, koordinatsi va moddalar hamda energiya zahirasi, aholi soni va joylashish zichligi; qurilishlar xarakteri, himoya inshootlarining soni va turi, ularning hajmi, meteorologik sharoitlar, joyning xarakteri qabul qilinishi mumkin.

Favqulodda holatlar vaqtida kutiladigan shart-sharoitlarni oldindan baholashda favqulodda holatlarning turiga bog'liq holda uning chegarasi, halokatli suv toshqini, yong'in yoki radiatsion, ximiyaviy va bakteriologik zaharlanish o'choqlari, favqulodda holatlar natijasida yuz berishi ehtimol qilingan o'limlar va moddiy boyliklarni barbod bo'lishi, xalq xo'jalik ob'ektlaridagi zarar miqdori taxminan aniqlanadi.

Oldindan bilish va baholash ma'lumotlari birlashtirilib, tahlil asosida xulosalanadi va favqulodda holatlarda qutqaruv va avariya tiklash ishlarini olib borish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Favqulodda holatlarning ta'sir darajasini kamaytirish, uning zararli omillaridan himoyalanishga qaratilgan tadbilar ko'p bosqichli sistemadan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: doimiy o'tkaziladigan tadbirlar uzoq muddatli, oldindan bilish ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ularga qurilish montaj ishlarini qurilish normalari va qoidalari asosida amalga oshirish; xavf to'g'risida aholiga xabar berishning ishonchli sistemasini ishlab chiqish; himoya inshootlarini qurish va aholini shaxsiy himoya vositalari bilan taminlash; radiatsion, bakteriologik va ximiyaviy uzatishni, razvedkani hamda labarotoriya tekshirishlarini tashkil etish; favqulodda holatlar vaqtidagi harakat qoidalari bo'yicha aholini umumiy hamda majburiy o'qitish; sanitarni-gigienik va profilaktik tadbirlar o'tkazish; atom elektrostansiyalarni qurmaslik, kimyoviy va sellyuloza qog'oz va shu kabi potensial xavfli ob'ektlarni xavfsiz zonalarda qurish; favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish rejalarini ishlab chiqish, uni moddiy va moliyaviy taminlashni tashkil etish va boshqa shu kabi tadbirlar kiradi.

Favqulodda holatlar sodir bo'lish ehtimolini aniqlangan vaqtdagi himoya tadbirlari jumlasiga oldindan bilish ma'lumotlarini aniqlashtirish bo'yicha kuzatish va razvedka sistemasini ishlab chiqish; aholiga favqulodda holatlar to'g'risida xabar berish sistemasini tayyor holatga keltirish; iqtisodni va ijtimoiy hayotni davom etishining maxsus qoidalarni joriy etish, favqulodda holatlarni e'lon qilish; yuqori xavflilikdagi ob'ektlarni (AES, zaharli va portlashga xavfli ishlab chiqarish va boshqalar) neytrallashtirish, ularda ishni to'xtatish va ularni qo'shimcha mustahkamlash yoki demontaj qilish; avariya qutqaruv xizmatini tayyor holatga keltirish va aholini qisman evakuatsiya qilish kabi tadbirlar kiradi.

Ushbu tadbirlar majmuasidan ma'lumki ayrim tadbirlar uzoq muddatli oldindan bilish ma'lumotlari asosida bajarilib, ularni amalga oshirish uchun ko'p yillar talab etiladi. Ayrim tadbirlar esa qisqa vaqt ichida tez amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar qisqa muddatli oldindan bilish ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtdagi fan-texnika taraqqiyoti, mutaxassislar favqulodda holatlar sodir bo‘lish vaqtini va joyini oldindan yuqori aniqlikda aytib berish imkoniyatiga ega emas.

### **Favqulodda holatlarning rivojlanish bosqichlari**

Favqulodda holatlarni kelib chiqish sabablari va turiga bog‘liq bo‘limgan holda ularning rivojlanishini quyidagi to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin: boshlanish (tug‘ilish), initsirovka, kulminatsion (rivojlanish davri) va so‘nish bosqichlari.

**Boshlanish (tug‘ilish) bosqichi.** Favqulodda holatlar uchun sharoit tug‘ila boshlaydi; nomaqbul tabiiy jarayonlar faollashadi, bino va inshootlarning loyihaviy va ishlab chiqarish nuqsonlari va ko‘plab texnik kamchiliklari yig‘ila boshlaydi; jihozlar ishlashida uzilishlar sodir bo‘ladi va hakoza.

**Initsirovka bosqichida** inson faoliyatining ta’siri ko‘proq bo‘ladi. Statistik ma’lumotlariga ko‘ra ishlab chiqarishdagi avariyalarning 60 % ga yaqini ishchilarning xatosi va aybi bilan sodir bo‘ladi.

**Kulminatsion bosqichda** aholiga va atrof muhitga salbiy ta’sir etuvchi erkin energiya yoki moddalar vujudga keladi, ya’ni favqulodda holatlar sodir bo‘ladi. Favqulodda holatlarning asosiy xususiyatlaridan biri uning kechishini zanjir xarakterda ekanligidadir, ya’ni initsirovka hodisasining buzuvchi harakati energetik, zaharli va biologik faol komponentlar ta’sirida bir necha marta (ayrim hollarda yuz martagacha) kuchayadi.

So‘nish bosqichida malum vaqt oralig‘ida xavf manbasining va biologik faol komponentlar ta’sirida bir necha marta tarqalish chegarasi cheklanadi, yani favqulodda holatlar lokal xarakterga o‘tadi.

Favqulodda holatlarni barcha turdag‘i, ya’ni, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va boshqa oqibatlarini to‘liq bartaraf etishga yillab, ba’zan esa o‘n yillab vaqt talab qiladi. Favqulodda holatlar sodir bo‘lishining aniq sharoitlardagi sabab oqibat zanjiri tarkibini va yuzaga kelish sharoitini bilish bunday hodisalarni sodir bo‘lish xavfini kamaytiradi va favqulodda holatlar vaqtida hushyorlikni oshiradi.

Xavfli geologik favqulodda vaziyatlar Vazirlar mahkamasining 455-sonli qaroriga ko‘ra quyidagilardan iborat-zilzila, ko‘chki, tog‘ o‘pirilishi, yer sathining cho‘kishi. Tabiiy ofatlar favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lishida xavfli jarayon va hodisalar alohida ahamiyatga ega, shuning uchun ularning falokatli oqibatlarida aholini va xalq xo‘jaligi ob’ektlarini muhofaza qilish uchun xavfli geologik hodisalarning yuzaga kelish sabablari, fazoviy tarqalish qonuniyatları o‘rganiladi, baholanadi, bashorat qilinadi, ularga qarshi har xil chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu muammoni bartaraf etishni huquqiy tomondan qanday amalga oshirish «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish to‘g‘risidagi» qonunning 21, 22, 23 moddalarida bayon etilgan va bunday holatlarda qanday hujjatlar kerakligi 3 moddasiga aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Yer yuzasida sodir bo‘ladigan xavfli geologik jarayonlar asosan arning ichki kuchlari va tashqi tabiiy omillar ta’sirida bo‘ladi. Bundan tashqarii ilmiy-texnik ma’lumotlarga ko‘ra geologik muhitga insonning xo‘jalik, qurilish hamda harbiy

holatlarda olib boriladigan harakatlari ham ta'sir etadi. Natijada ko'lami kata yoki kichik bo'lgan turli xildagi ofatlar vujudga keladi.

Shahar qurilishi, turar joy binolari, inshootlar qurilishida amaldagi me'yorlar va qoidalarga rioya qilish zilzila oqibatlarini kamaytirish muammosiga etarli ahamiyat brish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1900-2000 yillar oralig'ini tabiiy favqulodda vaziyatlar bo'yicha xavf -xatarni kamaytirish xalqaro 10 yilligi deb e'lon qilgan. Shu davr ichida bir qator mamlakatlarning markaziy shaharlari tender asosida xalqaro «Radius» loyihasini amalga oshirish huquqiga ega bo'ldilar. «Radius» ni dastur bo'yicha to'la joriy etish imkoniyati berilgan beshta -Addis-Abeba (Efiopiya), Guayakilem (Ekvador), Tixuana (Meksika), Zigong (Xitoy) shaharlari qatoriga O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent ham kirgan.

Favqulodda vaziyatlar deb, oqibatda insonlar o'limiga yoki atrof muhitga zarar kelishiga, ko'plab moddiy yo'qotishlarga turmush faoliyati buzilishiga olib keluvchi yoki olib kelgan avariylar falokatlar, tabiiy va ekologik ofatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar natijasida ma'lum hududda yuzaga kelgan holat.

Tabiiy ofat deb, natijasida odamlar hayoti yoki salomatligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan yoki xavf tug'dirgan, moddiy boyliklar va bizlarni o'rabi turgan atrof muhitning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketishiga sababchi bo'lgan katta ko'lamdag'i tabiat hodisasiiga aytildi.

O'zbekiston uchun quyidagi favqulodda vaziyatlar xarakterlidir:

a)tabiiy xarakterdagilar:

- zilzila;
- suv toshqini, sel oqimi, ko'chishlar;
- epidemiyalar, epizotiyalar, epifitotiyalar.

b).texnogen xarakterdagilar:

- temir yo'l va avtotransportdagi va metropolitendagi avariylar.
- aviahalokatlar;
- texnologik jarayonida kimyoviy zaharli moddalar ishlatuvchi kimyoviy xavfli ob'ektlar, korxonalardagi avariylar va ularni transportirovka qilishdagi avariylar.
- portlash va yong'indan xavfli ob'ektlardagi avariylar, tadqiqot reaktori va radioaktiv moddalarini tashishidagi avariylar.

v) ekologik xarakterdagilar;

-sanoat korxonalari tomonidan zararli aralashmalarning atmosferaga chiqishi chegaraviy chiqishi mumkin bo'lgan konsentratsiyadan ortib ketishi, katta hududlarning zaharli moddalar radioaktiv chiqindilar va hokazolar bilan zaharlanishi, shu jumladan transchegegariy Favqulodda vaziyat oqibatida yuz berishi natijasida atmosfera (havo muhiti), tuproq va suvning tarkibi xossalaringin o'zgarishi.

### **Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar.**

1.Geologik xavfli hodisalar:

-odamlar o'limiga, ma'muriy ishlab chiqarish binolarini, texnologik asbob- uskunalarining, energiya ta'minoti, transport kommunikatsiyalari, ijtimoiy

yo‘nalishdagi binolarining va uy-joylarining turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar;

-odamlar o‘limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko‘chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirishni talab qiluvchi er ko‘chishlari, tog‘ o‘pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

## 2.Gidrometeorologik xavfli hodisalar.

-odamlar o‘limiga aholi punktlarini, ba’zi sanoat va qishloq xo‘jaligi ob’ektlarini suv bosishiga infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlari o‘tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv to‘planishi va sellar.

-aholi punktlaridagi sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog‘lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlar va sportchilarning jarohatlanishiga va o‘limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan qor ko‘chqilar, kuchli shamollar, dovullar, jala va boshqa xavfli gidrometerologik hodisalar.

***Geologik favqulodda holatlarga*** – vulqonlar otilishi va er qimirlashlari kiradi. ***Yer qimirlashi*** – eng xavfli va vayron qiluvchi favqulodda holatdir. Yer qimirlaganda atrofni o‘rab turgan fazoda seysmik zarb kuzatiladi, vulqonlar otilishi, sunamilar paydo bo‘lishi, tog‘ qatlamlarini so‘rilishi, qor va muzliklarni ko‘chishi va boshqa hodisalar ro‘y berishi mumkin. yer yuzasidagi er qimirlash kuchini ball orqali ifodalash, uning ob’ektga ta’sirini esa er qimirlashning intensivligi sifatida qabul qilingan. Yer qimirlash kuchi 1 dan 4 ballgacha bo‘lganda binolar va inshootlarga zarar etmaydi, yer yuzasida va suvlarda o‘zgarishlar kuzatilmaydi.

1 balli yer qimirlashda yer faqat maxsus moslamalar orqali aniqlanadigan sezilarsiz silkinadi.

2 ballik yer qimirlashni nihoyatda tinch holatda turgan kishilargina sezishi mumkin.

3 balli yer qimirlashni osilgan narsalarni juda engil tebranishi orqali diqqat bilan turgan odamlar sezadi.

4 balli yer qimirlashini tinch turgan mashina va osilgan buyumlarni engil silkinishi orqali sezish mumkin. 4 balli yer qimirlashni bino ichida o‘tirgan ko‘pchilik odamlar sezadi.

Yer qimirlashi 5 ball bo‘lganda pollar va oraliq to‘siqlar g‘ichirlaydi; oynalarni zirillashi, ochiq deraza va eshiklarni harakatlanishi, oqmaydigan suv yuzasida kichik to‘lqin hosil bo‘lishi kuzatiladi, atrofdagi buyumlarni silkinishi sezilarli bo‘ladi.

6 balli yer qimirlashi ko‘pchilik binolarni engil shikastlanishi, bir kavatli g‘ishtli, toshli va paxsali uylarda etarlicha buzilishlar kuzatiladi. Nam yerdarda 1 sm kenglikdagi yoriklar paydo bo‘ladi. Xonadagi osilgan narsalar silkinadi, ba’zan kitob javonidan kitoblar, shkaflardagi idishlar qulaydi, yengil mebellar joyidan suriladi, yurayotgan odamlarni muvozanati buziladi.

Yer qimirlashi 7 balli bo‘lganda binolar sezilarli darajada shikastlanadi, ayrim hollarda ular buziladi. Yo‘llarda yoriqlar hosil bo‘ladi, quvurlarga ulangan joyidan darz ketadi, toshli to‘sıqlar shikastlanadi. Quruq yerda ingichka yoriqlar hosil bo‘ladi, yer cho‘kishlari va ko‘chkilari sodir bo‘lishi mumkin. Suvlarning yangi manbalari hosil bo‘lib eskilari yo‘qoladi. Xonadagi osilgan buyumlar kuchli silkinadi, yengil mebellar joyidan siljiydi. Odamlar qo‘sishimcha tayanchlardan foydalanmasdan harakatlana olmaydi. Bunda xonadagi barcha odamlar xonani tark etishi lozim bo‘ladi.

8 balli yer qimirlashda ko‘pchilik binolarda yetarlicha buzilishlar sodir bo‘lishi, ayrimlari esa butunlay buzilishi mumkin. Tog‘ qoyalarida va nam yerda ko‘plab yoriqlar paydo bo‘ladi; tog‘ qatlamlarini ko‘chishi kuzatiladi. Suv hovzalarida suv loyqalanadi, quduqlarda suv manbai va sathi o‘zgaradi. Xonalardagi mebellar joyidan qo‘zg‘aladi, ba’zan qo‘lab tushadi, engil buyumlar joyidan sakrab turadi va og‘naydi. Odamlar qiyinchilik bilan oyoqda tik turadi. Barcha odamlar xonani tark etishi lozim.

9 balli yer qimirlashda temir yo‘llarni qiyshayishi, yo‘llarning ustki qatlamini shikastlanishi, tutun chiqarish quvurlari va bashnyalarni buzilishi sodir bo‘ladi. Ko‘pchilik binolar qo‘lab tushadi. Yerda kengligi 10 sm gacha bo‘lgan darzlar hosil bo‘ladi. Xonadagi mebellar qulaydi va sinadi. Hayvonlarning bezovtaligini oshishi kuzatiladi.

10 balli yer qimirlashi ko‘plab binolarni vayron bo‘lishiga, dambalarni sezilarli shikastlanishiga sabab bo‘ladi, yo‘llarga darz ketadi, tik turgan minoralar va boshqa minoralar, yodgorliklar, haykallar qulaydi. Yerda eni 1 m gacha bo‘lgan yoriqlar hosil bo‘ladi. Qoyalarni va dengiz qirg‘oqlarini qulashi, yangi ko‘llarni paydo bo‘lishi va boshqa shunga o‘xhash holatlar kuzatiladi. Hayvonlarning inoqligi buzilib, o‘zaro aggressivligi kuchayadi.

11 balli qimirlashda binolarni umumiyligi vayron bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Quvurlar butunlay ishdan chiqadi. Katta masofadagi temir yo‘li yaroqsiz holatga keladi. Yerning yuzasida ko‘psonli yoriqlar hosil bo‘ladi, yerning yuza qatlamida vertikal siljishlar ro‘y beradi. Suv manbalarining rejimlarida kuchli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, suv hovzalarining va yer osti suvlarining sathi o‘zgaradi. Xonalarda, qurilish vayronalari ostida sezilarli darajada odamlarni halok bo‘lishi va hayvonlarni yo‘qotilishi sodir bo‘ladi.

12 balli yer qimirlashda bino va inshootlar butunlay vayron bo‘ladi. Aholining sezilarli qismi kuchkilardan halok bo‘ladi. Yer qatlamida vertikal va gorizontal darzlar va siljishlar hosil bo‘ladi. Ko‘llar, sharsharalar hosil bo‘ladi, daryolarning oqim yo‘nalishlari o‘zgaradi. Tog‘li rayonlarda hayvonlar, o‘simliklar ko‘chkilardan halok va nobud bo‘ladi.

**Vulqon otilishi** yetarlicha xavfga ega bo‘lgan geologik hodisa hisoblanadi. Yer qatlamida sodir buluvchi, otiluvchi jarayonlar hozirgacha yetarlicha o‘rganilmagan.

**Meteorologik favqulodda holatlar.** Meteorologik favqulodda holatlarga suv bosishlari, bo‘ronlar, dovullar, girdoblar, suv toshqinlari, yer so‘rilishlari, qor ko‘chkilari, yer kuchishlari va boshqalar kiradi. Suv bosishi bu ma’lum hududni daryo, ko‘l va dengizlar sathining ko‘tarilishi natijasida vaqtinchalik suv bosgan

hududlardir. Bu holat kuchli yomg'ir yog'ishi, muzliklarning tez erishi, suv hovzalari va gidrotexnik inshootlar dambalarini buzilishi, dengiz tomondan daryolarga suvlarni shamol yoki sunami orqali haydalishida yuz beradi. Suv bosishlari qisqa (bir necha soatdan bir necha haftagacha) va uzoq muddatli (2 haftadan ortiq) bo'ladi. Suv bosishi vaqtida odamlar sog'ligi va hayoti uchun real xavf tug'iladi, inshootlar va kommunikatsiyalar vayron bo'ladi, uskunalar ishdan chiqadi, hayvonlar halok bo'ladi, suv ostida qolgan ekin va moddiy boyliklar yo'qotiladi. Bundan tashqari suv bosish hududida hamda aholi ko'chirilgan joyda sanitar-gigenik va sanitar-epidemiologik holat yomonlashadi. Suv bosishidan ko'rildigan zararni kamaytirish uchun aholii o'rtasida ogohlantirish ishlari olib boriladi. Ogohlantirish ishlari ikki turga bo'linib uzoq muddatli va bevosita suv bosishi xavfi vujudga kelgan joyda amalga oshiriladi. Birinchi holatda profilaktik tadbirlar daryo, ko'llar hovzalarida va dengiz qirg'og'idagi suvdan qo'riqlash kompleks tadbirlari doirasida umumiy tartibda olib boriladi. Ogohlantiruvchi ishlarga suv bosishi xavfi vujudga kelganda Gidrometxizmatining signali va xabaridan so'ng kirishiladi. Odatda suvni tarqalib ketishini cheklash uchun chiqarish kanallari qaziladi, dambalar va himoya to'siqlari quriladi, yertulali binolar germitiklanadi, birinchi qavatdagi derazalar va eshiklar suv kirmaydigan qilib yopiladi. Avariya holatlari yuz berishi vaqtida kerakli jihozlar va materiallar, rezina etik zahiralari, kiyimlar, qumli xaltalar tayyorlanadi. O'lchash jihozlari, zarur holda kuzatish postlari o'rnatiladi. Amaliyotning ko'rsatishicha amalga oshirilgan ushbu tadbirlar yo'qotishlarni 60 % gacha kamaytiradi. Agar suv bosishi yuz berib, odamlar suv bosgan zonada qolsa ularni qutqarish uchun qayiq, katerlardan va odamni ushlab tura oladigan qo'lidan tayyorlangan boshqa vositalardan foydalanish mumkin.

**Bo'ron, dovul va girdoblar** – bu favqulodda tez yuz beradigan havo yoki shamolning ko'p holatdagi katastrofik harakatidir. Ular atmosferadagi siklonik faoliyatlar natijasida yuz beradi. Bu favquloddagi holatlarning halokatli kuchi shundaki bunda o'rama quvursimon harakatdagi shamolning tezligi soatiga 100 km/s dan oshadi. Dovul eng quvvatli favquloddagi hodisalardan bo'lib, o'zining halokatli ta'siri bo'yicha yer qimirlashi bilan tenglashtiriladi. U kutilmaganda yuz beradi. Dovul quriqlikdagi qurilishlarni, aloqa va elektr tarmoqlarini, transport kommunikatsiyalarini va ko'priklarni vayron qiladi, daraxtlarni sindirib tomiri bilan sug'uradi, dalalarni yalang'ochlaydi; dengiz yuzasida tarqalganda 10-12 m balanlikdagi ulkan to'lqinlarni hosil qiladi, odamlarni halok bo'lishiga olib keladi. Garsel dovulning boshqa ko'rinishidir. U dovulga qaraganda past darajadagi nisbiy namlikka ega bo'lib, tuproq erroziyasiga va yerga ekilgan ekinlarni yer bilan birga shamollatib quritadi, tuproqka ko'madi, ekinlarni tomirini ochib tashlaydi. Bunga diametri bir necha o'n metrdan yuz metrgacha bo'lgan vertikal, ba'zan qiyshaygan simyog'ochga o'xshash, tez aylanuvchi girdobni ham kiritish mumkin.

Bo'ron va girdoblardan odamlarni shikastlanishi tananing har xil joyidagi yopiq jarohatlar, shishlar, sinishlar, bosh miya chayqalishi, qon oqadigan yaralanishlarda ko'rinaldi. Ob-havoni bilishning zamonaviy usullari bo'ron

yo‘nalishi, uning tezligi haqida odamlarni bir necha soat, hatto bir necha kun oldin ogohlantirish imkoniyatini beradi.

Yaqinlashib kelayotgan xavf haqida ogohlantirilgandan so‘ng tezlik bilan uni oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga kirishish kerak. Mustahkamligi yetarlicha bo‘lmagan konstruksiyalarni va kranlarni mustahkamlash, binolardagi, tomdagi derazalarni, shamollatish tuynuklarini yopish lozim bo‘ladi. Shamolga yo‘nalishiga teskari eshik va derazalarni binodagi bosimni muvozanatlash uchun ochiq qoldirish lozim. Tomdagagi, balkondagi tushib ketganda odamlarga jarohat etkazishi lozim bo‘lgan buyum va jihozlarni chetga olish kerak. Tibbiy dori-darmonlar va bog‘lash materiallarini olib qo‘yishni unutmaslik tavsiya etiladi. Agar bo‘ron, garmsel yoki girdobga ochiq dalada to‘g‘ri kelib qolinsa arning chuqurroq joyiga, uraga va shunga o‘xhash joyga erga iloji boricha zich yotib olish zarur bo‘ladi.

**Suv toshqini** - bu vaqtinchalik yomg‘ir yoki tosh-shag‘al aralash suv oqimi bo‘lib kutilmaganda ko‘p jala qo‘yishi, qorlar erishi, yer qimirlash yoki boshqa sabablarga ko‘ra ko‘l, suv hovzalarining dambalarini buzilishida yuzaga keladi. Katta massaga va yuqori tezlikka ega bo‘lgan suv toshqini o‘zining yo‘lidagi binolarni, yo‘llarni, gidrotexnik va boshqa inshootlarni vayron qiladi, aloqa va elektr uzatish tarmoqlarini ishdan chiqaradi, bog‘larni yo‘q qiladi, haydalgan yerlarni yuvib ketadi, odamlar va hayvonlarni halok bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

**Yer ko‘chishi** – o‘z og‘irligi ta’sirida ma’lum yer yuzasini balandlikdan pastga siljishi yoki so‘rilishidir. Bu har xil sabablarga ko‘ra yer yuzasidagi tuproq og‘irligi muvozanatini buzilishi hisobiga sodir bo‘ladi. Yer ko‘chkisi aholi punktlarini vayron qilishi, qishloq xo‘jalik ekinlarini yo‘qotishi, transport kommunikatsiyalarini, quvurlarni, elektr va aloqa tarmoqlarini izdan chiqaradi, gidrotexnik inshootlariga zarar etkazadi. Bundan tashqari u soylarni to‘ldirib, suv yo‘llarini to‘sib qolishi va suv toshqini xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Suv toshqini va yer ko‘chishi xavfi vujudga kelgan joylardan odamlar piyoda yoki transport vositalarida xavfsiz joyga ko‘chiriladi. Odamlar bilan birgalikda moddiy boyliklar va qishloq xo‘jalik hayvonlarini ham ko‘chirish ko‘zda tutiladi. Yer ko‘chishda odamlar ko‘chki ostida qolishlari, har xil buyumlar va konstruksiyalarga urilishi yoki ularni odamlarga kelib urilishi natijasida jarohatlanishlari mumkin. Bunday holatlarda shikastlanganlarga tezlik bilan yordam ko‘rsatish, zarur holda sun’iy nafas berish lozim. Qor ko‘chish ham yuqorida qayd etilgan favqulodda holatlar kabi o‘zining salbiy oqibatlariga ega. Shu sababli bunday xavflar mavjud bo‘lgan tog‘li rayonlarda aholini bu xavfdan ogohlantirish va himoyalash tadbirlarini doimiy yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

**Biologik favqulodda holatlar.** Yuqumli kasalliklar natijasida odamlar halok bo‘lishiga va hayvonlarni qirilishiga sabab bo‘lgan holatlar biologik favqulodda holatlar hisoblanadi. Ularga odamlarda uchraydigan sil, difteriya, dizenteriya, o‘pka kasalligi va boshqalar, hayvonlarda uchraydigan oqsin, ko‘tirish va boshqa kasalliklar kiradi. Agar ma’lum bir yuqumli kasallik ma’lum bir hududda epidemiyalarakacterini olsa ushbu hududda favqulodda vaziyat e’lon qilinadi. Biologik favqulodda holatlarni yuzaga kelishiga biologik qurollardan foydalanish, tabiiy

ko‘ngilsiz hodisalar natijasida yuz bergen sanitariyaga zid holatlar sabab bo‘lishlari mumkin. Yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘ovchilarining organizmga kirishini bir necha yo‘llari mavjud. Ular organizmga nafas olishda havo, ovqatlanish va suv ichish, og‘izdan so‘lak, ko‘z yosh, burun suyuqligi, terini shikastlangan joyi orqali, kasallangan qon so‘rvuchi hashoratlarni chaqishi orqali yuqishi mumkin. Yuqumli kasallik yuqtirilgandan keyin bir necha soat va bir necha kundan so‘ng uning belgilari ko‘zga tashlanadi. Yuqumli kasalliklarni eng keng tarqalgan belgilari, issiqlik, tana haroratini oshishi hisoblanadi. Bunda bosh og‘rishi, muskul va bug‘inlarda og‘riq paydo bo‘lishi, umumiy kuchsizlik, siniqlik, ba’zan qayt qilish, ich ketish, uyquni buzilishi, ishtahani yomonlashishi kuzatiladi.

Organizmga uzatilishi va ularga qarshi kurash bo‘yicha infeksiyalar to‘rt guruhga bo‘linadi:

- 1) nafas olish yo‘llari infeksiyalari;
- 2) ichaklar infeksiyalari;
- 3) qon infeksiyalari;
- 4) tashqi teri infeksiyalari.

### Zil-zila

Zil-zilalar eng vayron qiluvchi, oldindan aytish qiyin bo‘lgan, boshqarilmaydigan tabiiy ofatlar hisoblanadi. Zil-zila deganda, yer qobig‘i yoki mantianying yuqori qismidagi siljishlar va ajralishlar natijasida yuzaga keluvchi va elastik to‘lqin tebranishlari ko‘rinishida katta masofalarga uzatiluvchi yer osti silkinishlari va yer sirtining tebranishlari tushuniladi.

Sharqiy va janubiy qozog‘istonning tog‘ oldi va tog‘ rayonlarida yuqori seysmik aktivlik bilan tavsiflanadi. Ular 8-9 ballik zonalar qilib belgilangan. Sharqiy va janubiy Farg‘ona, Chotqol-ko‘rama seysmo aktiv zonalar aniq ajralib turadilar. O‘zbekiston xudidida kuchli zilzilalar yuz berganda aoqalar, issiqlik, gaz, suv ta’mnoti tizimlari shikastlanadi. Sanoat ob’ektlarida avariylar bo‘lishi, temir yo‘l izlari, avtomobil yo‘llari, elektr uzatish liniyalari shikastlanishi, ko‘priklar buzilishi mumkin. Chorvoq, Andijon, Taxtagul (Qirg‘izstan), qayroqqum (Tojikiston), Kattaqo‘rg‘on, Janubiy Surxon suv omborlari to‘g‘onlari shikastlanishi mumkin. Farg‘ona, Toshkent, Navoiy va ularga qo‘shni viloyatlarda kimyoviy zaharli moddalar chiqarib tashlanishi bilan kechadigan va katta zaharlanish zonalari hosil bo‘lishini keltirib chiqaradigan yirik avariylar bo‘lishi mumkin.

Zilzilada eski qurilishlarning turar-joy sektori ancha vayron bo‘ladi. Issiq vaqtarda turmush ta’mnoti tizimlari va aloqalari shikastlanishi oqibatida epidemik holat murakkablashishi mumkin.

Yuqori ballik seysmik silkinishlar respublikaning tog‘oldi rayonlarida ko‘chishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada ko‘shimcha shikastlanishlar va vayronalar hosil bo‘ladi. Yer yuzida har yili 150 ga yaqin vayron qiluvchi, deyarli 7000 ta kuchli, 19 mingta o‘rtacha va 150 mingga yaqin kuchsiz zilzilalar bo‘lib turadi.

Amerikalik seysmolog D.F.Rixter 1933 yilda zilzila kuchining baholashning 9 balli shkalasini ishlab chiqdi. U zilzila yuz bergen nuqtada ajralib chiqadigan energiya kattaligining o‘zgarishiga asoslanadi.

Italiyalik seysmolog YA.Merkalli zilzila intensivligini baholashning 12 ballik tizimini taklif qildi. Uning asosida zilzila kuchini qurilishlarning vayron bo‘lishi darajasiga va halok bo‘lgan odamlar soniga qarab baholash yotadi.

### **Suv toshqini, sel oqimlari, o‘pirilish va boshqa gidrometeorologik hodisalar**

Suv toshqini–daryolar, kanallar va soylarda suv sathining ko‘tarilishi oqibatida quruqlikning katta qismining vaqtincha suv bilan qoplanishi.

O‘zbekiston hududining anchagina qismini, ayniqsa bahorgi yozgi davrda, toshqinlar, sel oqimlari oqibatida suv bosish ehtimoli bor. O‘zbekistonda respublikamiz hududi va undan tashqaridagi to‘gonlar, yirik va kichik suv omborlarining o‘pirilishi natijasida katastrofik suv bosishi yuz berishi mumkin.

U soy uyumining o‘pirilishi va Sarez ko‘li (Tojikiston) suvining katta zonalarda suv bosishiga sabab bo‘lishi mumkinligi Surxondaryo, Buxoro, Xorazm vilg‘oyalari va qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiga katta xavf tug‘diradi. Respublikamizda halokatli suv bosishi mumkin bo‘lgan umumiy maydon 24 kv kmdan ortiqdir. Bunday zonaga 3,1 mln kishi tushib qolishi mumkin.

Sel–tog‘ daryolarida tarkibida toshlar, loy, qum juda ko‘p 75 foiz bo‘lgan suv oqimining to‘satdan paydo bo‘lishi. Sellarning yuzaga kelishining asosiy sabablari tog‘lardagi kuchli yomg‘irlar, qor va mo‘zning tez erishi, tog‘ ko‘llari to‘gonining yorilishi, o‘rmonni kesib ketish va tog‘ yonbag‘irlaridagi o‘simliklarni yo‘k qilish, karerlardagi portlatish ishlari, tog‘ kon ishlarida texnologiyaning buzilishidan iborat.

O‘zbekistonning 10% ga yaqin hududida sel kelish xavfi bor. Sho‘ncha hududda 29 ta tuman, 77 ta qishloq, 540 ta xo‘jalik joylashgan bo‘lib, unda 4 mingdan ortiq kishi yashaydi, Bundan tashqarii xavfli zonada bir qancha iqtisodiyot ob’ektlari ham joylashgan.

O‘pirilish–tog‘ jinslari massasining o‘z og‘irligi ta’sirida qiyalik bo‘ylab xavfli siljishi. O‘pirilish bo‘lishininig asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- namlash va o‘ta namlanish oqibatida jinslar mahkamligining susayishi;
- seysmik silkinishlar;
- tog‘ qazilma texnologiyasining buzilishi;
- tog‘ bag‘irlarida o‘rmon va boshqa o‘simliklarning kesilib ketishi;
- noto‘g‘ri agrotexnika va yonbag‘irlarni qishloq xo‘jalik mulklari qilib ishlatish;

O‘pirilish xavfi bor zonalarda 149 ta sog‘lomlashtirish maskanlari, 87 ta qishloq, 626 xo‘jalik va 5 mingdan ortiq aholi bor. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Andijon, qashqadaryo va Surxondaryo vilg‘oyalariда juda xavfli o‘pirilishlar bo‘lishi mumkin.

3.Favqulorra vaziyat epidimologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar:

-o‘lat, vabo, sarg‘ayma, isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;

- odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar – epidemik toshmali terlama, Brill kasalligi, qu-isitmasi;
- zoonoz infeksiyalar – Sibir yarasi, ko'tirish;
- virusli infeksiyalar – SPID;
- epidemiya alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo'limgan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo'lgan odamlarning guruh bo'lib yuqumli kasallanish – 50 kishi va undan ortiq bir aholi punkttida;
- aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo'lib kasallanish – 20 kishi va undan ortiq;
- tashxisi aniqlanmagan bezgak kasalligi – 15 kishi va undan ortiq;
- o'lim yoki kasallanish darajasi;
- o'rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo'lgan vaziyat;
- zaharli moddalar bilan zaharlanish – jabrlanganlar soni 10 kishi, vafot etganlar soni – 2 kishi va undan ortiq;
- oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish jabrlanganlar soni 10 kishi, vafot etganlar soni 2 kishi va undan ortiq;

Epidemiya – insonlarga xos yuqumli kasalliklarning ma'lum bir mintqa doirasida ommaviy ravishda va vaqt o'tishi bilan rivojlanib tarqalishi. Uning darajsi shu hududda odatda qayd kilinuvchi kasallanish darajasidan ancha yuqori bo'ladi.

Respublika hududining katta qismi o'lat kasallgining aktiv va keng ko'lamdag'i O'rta Osiyo tabiiy o'chogi zonasida joylashgan, shuningdek, Qozog'istondagi (Qizilqum, styurt) va Turkmanistondagi (Qoraqo'l) tabiiy o'lat o'chogi bilan chegaralanadi. Ulardan eng aktivi qizilqum o'latidir. U kemiruvchilar va yovvoyi hayvonlar orasidagi amalda boshqarilmaydigan o'lat epizootiyalari bilan xarakterlanadi. Insonning o'lat bilan kasallanishi odatda, kasal emiruvchi hayvondan infeksiyaning unga o'tish oqibatidir. Aktiv ta'sir qiluvchi o'lat o'choqlari chegaradosh Qirg'iziston, Tojikiston va Afgoniston hududlarida ham mavjuddir. O'lat bo'yicha epidimologik noxushliklar O'zbekiston bilan chegaradosh hududlarda, amalda, har yili yuz beradi. Respublikada tabiiy vabo o'choqlari 40 mln ga maydonda mavjud bo'lib, u Qoraqalpog'iston va Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo vilg'oyalarining deyarli barcha qumlik yaylov hududlarini o'z ichiga oladi.

Epizootiya – yuqumli kasalliklarning ma'lum bir mintqa doirasida ko'p sondagi bir yoki ko'p turdag'i hayvonlar orasida bir vaqtning o'zida vaqt va makonda rivojlanib tarqalishi. Uning darajasi shu hududda odatda qayd kilinuvchi kasallanish darajasidan ancha yuqori bo'ladi.

Respublikadagi sanitariya epizootik vaziyat O'zbekistonga yaqin va uzoq chet el mamlakatlaridan qoramol kasalligining qirib kelishi xavfi saqlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Respublika hududida (Qashqadaryo, Buxoro, Andijon, Namangan vilg'oyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi) kuydirgi va gemoragik bezgakning tabiiy o'choqlari bor.

Epifitotiya va qishloq xo'jalik o'simliklarining vaqt va makonda rivojlanuvchi yuqumli kasalligi va o'simlik zararkunandalarining keskin ortib

ketishi. Bunda qishloq xo‘jalik o‘simpliklari keng ko‘lamda halokatga uchraydi va ularning hosildorligi pasayib ketadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, qashqadaryo, Buxoro, Samarqand vilg‘oyalarining yaylov, ko‘rik, tog‘oldi erlarida chigirkasimonlarning doimiy rezervatsiyasi aniqlangan. Ular qishloq xo‘jaligi va tabiatga katta zarar etkazadilar. Viloyatlardagi ekin maydonlarida o‘simpliklarni halok qiluvchi “qo‘ngir rang” kasalligi uchraydi.

### **Ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar.**

1. quruqlik (tuproq, suv osti)ning holati o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar:  
-halokatli ko‘chkilar–foydali qazilmalarni qazish chog‘ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo‘luvchi er yuzasining o‘pirilishi, siljishi;

Tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslangan, og‘ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo‘jaligi ishlab chiqishda odamlarning sog‘lig‘i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo‘llanadigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar;

-havo muhitining quyidagi ingridientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi: oltingugurt, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, ganch va odamlar sog‘lig‘iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tusdagi boshqa zaharli moddalarlar;

-katta ko‘lamda kislotali zonalar hosil bo‘lishi va ko‘p miqdorda kislota chiqindilari yog‘ilishi;

-radiatsiyaning yuqori darajasi.

3. Gidrosfera holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar:

-yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi oqavalari: neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan tarkibida og‘ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo‘lgan chiqindilar va boshqa zaharli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

-binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning emirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi;

-suv manbalari va suv olish joylarining zaharli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin etishmasligi.

Radioaktiv chiqindilarni to‘plagichlar:

Navoiy viloyatining tog‘ kon metallurgiya koni va Toshkent viloyatining Olmaliq tog‘ kon metallurgiya konlari lari eng katta xavf tug‘diradi. To‘plagichlarning sel oqimlari ta’sirida buzilishi va zaharli moddalarlarning irrigatsiya tarmogiga tushishi, shuningdek, ularning ko‘milgan joylarida tuproq eroziyasi oqibatida tarqalishi natijasida Favqulodda vaziyat yuzaga kelishi mumkin.

Transchegaraviy favqulodda vaziyatlar:

-qo‘shni qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afgoniston davlatlari hududida transchegaraviy favqulodda vaziyat lar yuz berishining katta ehtimolligi bilan

xarakterlanuvchi ko‘plab xavf-xatar zonasiga joylashgan. Ma’lum sharoitlarda xavf-xatar zonasiga Farg‘ona vodiysi vilg‘oyalari ham kiradi. Uning chegarasi bo‘ylab ko‘shni qirg‘iziston va Tojikiston hududlaridagi radioaktiv chiqindi saqlagichlari va ag‘darmalari mavjud. Mayli-suv (Kirgizstan) daryosi vodiysida joylashgan, umumiylajmi 1,5 mln kub.m bo‘lgan 23 ta saqlagichlar Farg‘ona vodiysi uchun alohida xavf tug‘diradi.

Ularning buzilishi oqibatida O‘zbekiston hududining 300 kv.km.lik maydoni va unda istiqomat qiluvchi 1,5 mln kishining radioaktiv chiqindilar bilan zaharlanish xavfi tug‘iladi. Leninobod tog‘-kimyo (Tojikiston) kombinatining ko‘p yillik ish faoliyati oqibatida bir nechta radioaktiv chiqindilar saqlagichlari paydo bo‘ldi. Uning eng yirigi Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan Degmat saqlagichidir. Uning himoya to‘sig‘i bo‘zilsa yoki saqlagichda tirkish paydo bo‘lsa, radioaktiv chiqindilar Sirdaryo daryosi bo‘ylab 120 mingdan ortiq aholisi bo‘lgan 100 kv.km.lik O‘zbekiston hududini ifloslantirishi mumkin.

Tojikistonning Tog‘li-Badaxshon viloyatida joylashgan Sarez ko‘lidagi to‘g‘onning buzilishi respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ma’lum ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu ko‘p dengiz satxidan 2600 metr balandlikda joylashgan. Hajmi 2 mlrd. kub.m bo‘lgan o‘pirilma massaning ko‘lga tushishi to‘g‘onga jiddiy xavf tug‘diradi oqibatida katta miqdordagi suvning 360 mln kub hajm miqdorda to‘g‘ondan toshib o‘tishini keltirib chiqaradi va undan hosil bo‘lgan baland to‘lkin Bartanch, Panj, Amudaryo daryolari bo‘ylab yo‘nalishini davom ettiradi.

Amudaryo qayiridagi Surxondaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlari va qoraqalpog‘iston Respublikasining umumiylajmi 23,64 ming kv.m bo‘lgan hududi katta halokat zonasiga tushib qoladi. Bu zonada 2 mln. dan ortiq aholi yashaydi.

### **Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar.**

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning qonuniy asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va favqulodda vaziyatlar vazirining ko‘rsatma va buyruqlari tashkil etadi.

Aholi hayotiga faqat qirg‘in qurollari emas, balki boshqa xavf-xatarlar ham tahdid solib turadiki, ularni nazardan chetga qochirish aslo mumkin emas. Bular tabiiy ofatlar, avariya, halokatlardir. Sodir bo‘lib o‘tgan bir nechta halokatlar (masalan, Chernobildagi atom elektr stansiyasidagi avariya, 25000 odamning yostig‘ini quritgan Spitak zilzilasi va boshqalar.) fuqaro mudofaasining o‘rnini va vazifalariga boshqacha ko‘z bilan qarash kerak ekanligini ko‘rsatib berdi.

Endilikda fuqaro mudofaasi uchun avariya, halokat va tabiiy ofatlarlarning oqibatlarini tugatish, avariya -qutqaruv ishlarini olib borish bilan birga sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarni bashoratlash vazifasi etakchi rol o‘ynashi lozim edi.

Statistika ma’lumotlariga nazar tashlasak, 60-yillarda yer yuzi aholisining 1,6 % (har 62 kishidan biri) tabiiy ofat, avariya, halokatlardan jabrlanganligini, 90-yillarga kelib esa bu ko‘rsatgich 3,5 (har 29 kishidan biri) ni tashkil etishini

ko‘ramiz. Bu esa aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o‘tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarni tashkil qilish va aholi tayyorligini amalga oshirish lozimligini ya’ni aholi va xalq xo‘jaligi ob’ektlarini muhofaza etishni ta’minlashda muhim vaakazifani bajaradi.

### **1) Transport avariyalari va halokatlari:**

Yo‘l transport hodisasi deb, mexanik transport vositalari harakati jarayonida yuz bergan va kishilar halokati yoki tan jarohatiga, transport vositalari, inshootlari, yuklarning shikastlanishiga yoki boshqa moddiy zararga olib kelgan hodisaga aytiladi.

Kelib chiqish sabablari: Fuqarolarning eng avvalo transport harakat xavfsizligi qoidalariga riox qilmasligi, tezlikni oshirishi, spirtli ichimliklar iste’mol qilib transport vositalarini boshqarishlari, qarama-qarshi yo‘llarga chiqib ketishi, texnik nosoz transportlarni boshqarishi, qolaversa yo‘llarning talab darajasida emasligidir.

a). **Temir yo‘l transporti** respublikamizda temir yo‘llarning umumiyligi 6,6 ming km ni tashkil etadi. Asosiy temir yo‘l tarmoqlari–Toshkent–Samarqand–Termiz, Toshkent–Samarqand –Kogon, Toshkent–Xovos–Namangan–Andijon, Toshkent– Samarqand–Navoiy, Uchquduq va Nukus.

Toshkent, Samarqand, qo‘qon, Andijon shaharlariagi yirik temiryo‘l uzellariagi va Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon va Amudaryolardan o‘tgan yirik temir yo‘l ko‘priklardagi avariyalar eng katta xavf tug‘dirishi mumkin.

b) **Avtomobil transporti.** Respublikamizdagи avtomobil yo‘llarining umumiyligi uzunligi 430 ming km dan iborat. Asosiy magistrallar: Katta o‘zbek trakti, Katta Farg‘ona magistrali A-373 Toshkent, –O‘sh, Sirdaryo, Chirchiq, Amudaryo, Zarafshon daryolaridan o‘tgan yirik avtomobil ko‘priklarida bo‘ladigan avariyalar eng katta xavf tug‘dirish mumkin, ya’ni yong‘inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibining buzilishiga sabab bo‘lgan va temir yo‘l xodimlarining, halokat hududiga temir yo‘l platformalarida, voqzallar binolarida va shahar imoratlarida bo‘lgan odamlar o‘limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar bilan halokat joyiga to‘xtash hududining zaharlanishiga olib kelgan temir yo‘l transportidagi halokatlar va avariyalar.

v) **Metropoliten.** Toshkent shahar metrosining umumiyligi–42 km bo‘lib 29 ta stansiyasi bor, o‘rtacha sutkada yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichi 300 ming kishini tashkil etadi. Tonellar va stansiyalar orasidagi yo‘llaridagi avariyalar eng katta xavf tug‘diradi. Avtohalokatlar.

d) Bir yoki undan ortiq kishining halokatiga, havo kemasining qisman yoki to‘la shikastlanishiga, shuningdek uning bedarak yo‘qolishiga sabab bo‘lgan aviatsiya hodisasi **aviatsiya halokati** deyiladi.

Respublikamiz hududida 17 ta aeroport joylashgan bo‘lib, ulardan eng yirigi “Toshkent”, “Samarqand”, “Nukus”, “Termiz”, “Buxoro”, “Urganch” aeroportlaridir. “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK da 113 ta havo kemasi bor. Eng qiyin havo trassasi “Toshkent”, “Buxoro”, “Urganch” va “Samarqand” aeroportlaridan o‘tadi. Aviahalokatlarda jabrlanganlar soni ko‘p hollarda havo kemasining turiga bog‘liq.

**Oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar:** Rejaviy – profilaktik ko'rik va texnik ta'mirlash ishlarining o'z vaqtida o'tkazilishi, texnik nosoq transport vositasidan foydalanmaslik, barcha yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, haydovchilarning, aholining birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha malakalarini oshirish, yo'l tarmoqlarini me'yoriy talab darajasida saqlashshaharlarda ko'p sathli yo'llardan, yer osti yo'laklaridan samarali foydalanish.

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar deb, xalq xo'jaliklarida ko'llanuvchi va buzilgan yoki shikastlangan texnologik idishlar, saqlagichlar va asbob-uskunalardan silkiganda ommaviy ravishda kishilarni zaharlovchi kimyoviy moddalarga aytiladi.

**Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar:** Atrof tabiiy muhitga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning otilib chiqishiga va shikastlovchi omillarining odamlar, hayvonlar va o'simliklarning ko'plab shikastlanishiga olib keladigan yoki olib kelgan darajada, yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyalarda ancha ortiq miqdorda sanitariya-himoya hududidan chetga chiqishiga sabab bo'ladigan kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariylar, yong'in va portlashdir. Hozirgi kunda kimyoviy xavfli inshootlarning assosiylari «O'zbekkimyosanoat» uyushmasiga qarashli korxonalar bo'lib, ular qo'qon, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Chirchiq, Olmaliq va boshqa shaharlarda joylashagan. Hammasi bo'lib respublika hududida 200 dan oshiq kimyoviy xavfli ob'ektlar bor. Ularda ishlab chiqariladigan yoki xalq xo'jaligida turli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan, saqlanadigan suyuq, qattiq, gaz holatdagi inson, hayvon sog'lig'i uchun zararli, kuchli ta'sir ko'rsatuvchi moddalar turi ko'p.

Respublikamizda eng tarqalgan kimyoviy ta'sirga zaharli moddalar qatoriga ammiak, xlor turli kislotalar kiradi. Xlor-qo'llansa hidlt, sarg'ish-yashil gaz, suvda yaxshi eriydi bo'g'uvchi ta'siri bor. Havodagi mumkin bo'lgan miqdori -0,03mg.m kub, agar moddaning miqdori 10 mg.m.kub bo'lsa inson organizmiga salbiy ta'sir etadi, miqdori 2500 mg.m.kub ni tashkil etsa o'limga olib kelishi mumkin. Xlor nafas olish yo'llarini qichishtiradi, o'pkani shishiradi, yuqori darajada quyuqlashgani esa o'ldiradi. Ammiak-o'tkir hidli, rangsiz, havodan engil, suvda yaxshi eriydi va bo'g'uvchan hamda nervotrop ta'sirga ega. Ammiak gazining odamlar yashaydigan havodagi mumkin bo'lgan miqdori 0,04mg.m. kub, gazning o'limga olib keluvchi miqdori 1500-2700mg.m.kub ga teng. Suyuq ammiak gazi sanoatda sovitgichlarda, sovitgich moda sifatida ishlatiladi. Ammiak gazi metall idishlarda SAqlanadi. Ammiakning organizmga ta'siri quyidagilar: nafas yo'llarini qichishtiradi, miya to'qimasi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, qon quyulishiga sabab bo'ladi, xotirani pasaytiradi, ko'z ko'rishiha ta'siri bor.

Iqtisodiy ob'ektlarida kimyoviy ta'sirga zaharli moddalarning maksimal miqdori ammiak uchun 5 ming tonnadan ko'prog'ini, xlor ming tonnani, boshqalari 5 ming tonnani tashkil etadi. To'kilganda yoki chiqarib tashlashganda havoni zasarlovchi konsentratsiyada zaharlovchi va odamlar, hayvonlar va o'simliklarni yoppasiga halok etadigan kimyoviy ta'sirga zaharli moddalar bilan bog'liq bo'lgan avariylar kishilar hayotiga katta xavf tug'diradi. Deyarli 1100

ming kishi yashovchi Olmaliq, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va CHirchiq shaharlarida eng murakkab kimyoviy holat yuzaga kelishi mumkin. Bu vaziyat barcha aholini kimyoviy zaharlanish o'chog'idan evakuatsiya qilishni talab qiladi.

b) kimyoviy ta'sirga zaharli moddalar tashiyotgan transportdagi avariya.

Temiryo'l va avtomobil transportida kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarli yuklarni respublika hududida tashish vaqtida avariya sodir bo'lganda, portlash bo'lishi va ularning boshqa agressiv xossalari namoyon bo'lishi mumkin. Natijada transport vositasi ishdan chiqishi, kishilar halok bo'lishi, mayib bo'lishi va zaharli mahsulot bilan zaharlanishi, shuningdek, hudud anchagini zaharlanishi mumkin.

Ko'p miqdorda portlash yong'indan xavfli yuklar va kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar tashiladigan Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon, Navoiy va Sirdaryo viloyatlardagi temiryo'l transportdagi avariylar eng xavflidir.

### **YOn*g*'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan ob'ektlardagi avariylar.**

Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlataladigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishlarga, zaharlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fonlarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyat hududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariylar, yong'inlar va portlashlardir.

**Portlash** – bu qisqa vaqtning o'zida chegaralangan hajmdagi, katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishidir.

Portlashning zarar etkazuvchi omillari:

- zarba mavji;
- siniq parchalarining sochilishi.

Bular birlamchi holatlar bo'lsa, ikkilamchisi portlashlar, yong'inlar, falokatlar, kimyoviy va radiatsion shikastlanishlar, keng tusda to'g'onlarning buzilishi va suv toshqinlarining sodir etilishi, binolarning qullashidir. Portlash-suyuqliklarning, portlovchi moddalarining kuch yoki issiqlik tufayli chiqishidir.

**Portlatuvchi omillar:** -kimyoviy (portlovchi moddalar);  
-yadroli (yadroviy qurollar);  
-mexanik uslubdagi (yuqori bosimdagи suyuqliklarni quyuvchi-tarqatuvchi idishlarning yorilishi);  
-elektromagnit (uchqun razryadi, lazer uchquni);  
-tovushli va boshqa quvvvatlar.

Portlash gazlarning qattiq qizishi oqibatida yuqori bosimda sodir bo'ladi.

Portlash xavfi bor ob'ekt va ma'lum sharoitlarda portlash imkoniga ega bo'ladigan moddalar mahsulotlar saqlanadigan, ishlatiladigan, transportirovka qilinadigan ob'ektlar.

Respublika hududida 186 ta portlash va yong'indan xavfli ob'ektlar bor. Ular qatoriga neft-gaz saqlagichlar va magistral quvur o'tgazgichlar, neft-gazni qayta ishlovchi zavodlar, kompressor va nasos stansiyalar, tegirmon, paxta saqlagichlar, portlovchi moddalar va materiallar omborxonalari kiradi. Kuchli

portlash va yong'in bilan bog'liq avariylar moddiy boyliklarning butunlay yo'q bo'lishiga yoki shikastlanishiga va kishilar hayotiga xavf solishiga olib keladi.

Neft-gazni qayta ishlovchi "Farg'ona sintez", Muborak gazni qayta ishlovchi zavodi, Buxoro neftni qayta ishslash zavodi sanoat ob'ektlaridagi avariylar ayniqsa xavflidir. Bundan tashqari, respublika aholisiga xavf tug'diruvchi portlashlar va yong'inlar portlash yong'indan xavfli moddalarni tashiyotgan transportdagi avariyalarda ham yuz berishi mumkin.

Matbuotdagi chop etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamiz hududida yiliga 15-17 dan ziyod portlashlar sodir bo'ladi, asosan portlashlar aholi yashaydigan xonadonlarda gazdan noto'g'ri foydalanish oqibatida sodir bo'ladi, bular xonadonlardagi portlashlar deyiladi. Bularning asosiy kelib chiqish sabablari gaz bilan ishslash tartib- qoidalariga rioya qilmaslikdir.

### **Energetika va Kommunal tizimlardagi avariylar:**

Sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul iste'molchilarining avariya tufayli energiya ta'minotisiz qolishiga hamda aholi faoliyatining buzilishiga olib kelgan GES, GRES, TESlardagi, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi va boshqa energiya ta'minoti ob'ektlaridagi avariylar va yong'inlar;

Aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug'ilishiga olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa ob'ektlardagi avariylar.

Odamlar o'limi bilan bog'liq bo'lgan va zudlik bilan avariya qutqaruv ishlari o'tkazilishini hamda zarar ko'rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kino-teatrlar va boshqa ijtimoiy ko'rinishdagi ob'ektlar, shuningdek uy-joy sektor binolari. konstruksiyalarining to'satdan buzilishi, yong'inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariylar: Sanitariya-himoya hududi tashqarisiga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo'lgan yuqori darajadagi radioaktivlik odamlarning yo'l ko'yiladigan ko'p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan texnologik jarayonda radioaktiv moddalardan foydalanadigan ob'ektlardagi avariylar.

### **Radioaktiv moddallarni tashish vaqtidagi avariylar:**

Atrof-muhit va odamlar salomatligi uchun xavf tug'diruvchi radioaktiv chiqindilar to'plagichlardagi, chiqindixonalardagi va zaharli moddalar ko'miladigan joylardagi avariylar o'pirilishlar;

Radioizotonli buyumlarning yo'kotilishi;

Biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy va tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof muhitga chiqib ketishiga yoki yo'kotilishi bilan bog'liq vaziyatlar.

### **7.Gidrotexnik halokatlar va avariylar:**

-suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hudud va qishloq

xo‘jaligi ob’ektlarni ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

Kimyoviy muhofaza-bu kimyoviy ta’sirga zaharli moddalarning aholiga, fuqaro muhofazasi kuchlariga va xalq xo‘jaligi inshootlariga zararli ta’siri oldini olishga yoki uni imkonni bor darajada kamaytirishga qaratilagan tadbirlar kompleksini tuzishdan iborat. Kutilmagan paytda hududning turli tasodifyi hodisalar ro‘y berishi vayronagarchilikka, minglab insonlarning qurbon bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ulardan muhofaza tadbirlarini bilish va ularni qo‘llash eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

### **Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar.**

Favqulodda vaziyat epidimologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar:

- o‘lat, vabo, sarg‘ayma, isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;
- odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar— epidemik toshmali terlama, Brill kasalligi, qu—isitmasi;
- zoonoz infeksiyalar—Sibir yarasi, ko‘tirish;
- virusli infeksiyalar—SPID;
- epidemiya alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo‘lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omili bir xil bo‘lgan odamlarning guruh bo‘lib yuqumli kasallanish—50 kishi va undan ortiq bir aholi punktida;
- aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo‘lib kasallanish—20 kishi va undan ortiq;
- tashxisi aniqlanmagan bezgak kasalligi—15 kishi va undan ortiq;
- o‘lim yoki kasallanish darjasи;
- o‘rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan ortiq bo‘lgan vaziyat;
- zaharli moddalar bilan zaharlanish—jabrlanganlar soni 10 kishi, vafot etganlar soni—2 kishi va undan ortiq;
- oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish jabrlanganlar soni 10 kishi, vafot etganlar soni 2 kishi va undan ortiq;

Epidemiya—insonlarga xos yuqumli kasalliklarning ma’lum bir mintqa doirasida ommaviy ravishda va vaqt o‘tishi bilan rivojlanib tarqalishi. Uning darajsi shu hududda odatda qayd kilinuvchi kasallanish darajasidan ancha yuqori bo‘ladi.

Respublika hududining katta qismi o‘lat kasallgining aktiv va keng ko‘lamdagи O‘rta Osiyo tabiiy o‘chogi zonasida joylashgan, shuningdek, Qozog‘istondagi (Qizilqum, styurt) va Turkmanistondagi (Qoraqo‘l) tabiiy o‘lat o‘chogi bilan chegaralanadi. Ulardan eng aktivi qizilqum o‘latidir. U kemiruvchilar va yovvoyi hayvonlar orasidagi amalda boshqarilmaydigan o‘lat epizootiyalari bilan xarakterlanadi. Insonning o‘lat bilan kasallanishi odatda, kasal emiruvchi hayvondan infeksiyaning unga o‘tish oqibatidir. Aktiv ta’sir qiluvchi o‘lat o‘choqlari chegaradosh Qirg‘iziston, Tojikiston va Afgoniston hududlarida ham mavjuddir. O‘lat bo‘yicha epidimologik noxushliklar O‘zbekiston bilan chegaradosh hududlarda, amalda, har yili yuz beradi. Respublikada tabiiy vabo o‘choqlari 40 mln ga maydonda mavjud bo‘lib, u Qoraqalpog‘iston va Navoiy,

Buxoro, Qashqadaryo vilg‘oyalarining deyarli barcha qumlik yaylov hududlarini o‘z ichiga oladi.

Epizootiya–yuqumli kasalliklarning ma’lum bir mintqa doirasida ko‘p sondagi bir yoki ko‘p turdag‘i hayvonlar orasida bir vaqtning o‘zida vaqt va makonda rivojlanib tarqalishi. Uning darajasi shu hududda odatda qayd kilinuvchi kasallanish darajasidan ancha yuqori bo‘ladi.

Respublikadagi sanitariya epizootik vaziyat O‘zbekistonga yaqin va o‘zoq chet el mamlakatlaridan qoramol kasalligining qirib kelishi xavfi saqlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Respublika hududida (Qashqadaryo, Buxoro, Andijon, Namangan vilg‘oyalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) kuydirgi va gemoragik bezgakning tabiiy o‘choqlari bor.

Epifitotiya va qishloq xo‘jalik o‘simliklarining vaqt va makonda rivojlanuvchi yuqumli kasalligi va o‘simlik zararkunandalarining keskin ortib ketishi. Bunda qishloq xo‘jalik o‘simliklari keng ko‘lamda halokatga uchraydi va ularning hosildorligi pasayib ketadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, qashqadaryo, Buxoro, Samarqand vilg‘oyalarining yaylov, ko‘rik, tog‘oldi erlarida chigirtkasimonlarning doimiy rezervatsiyasi aniqlangan. Ular qishloq xo‘jaligi va tabiatga katta zarar etkazadilar. Viloyatlardagi ekin maydonlarida o‘simliklarni halok qiluvchi “qo‘ngir rang” kasalligi uchraydi.

Ekologik xususiyatli favqulorra vaziyatlar.

1.quruqlik (tuproq, suv osti)ning holati o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar:  
-halokatli ko‘chkilar–foydali qazilmalarni qazish chog‘ida er ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo‘luvchi er yuzasining o‘pirilishi, siljishi;

Tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslangan, og‘ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek qishloq xo‘jaligi ishlab chiqishda odamlarning sog‘lig‘i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo‘llanadigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

2.Atmosfera (havo muhit) tarkibi va xossalari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar;

havo muhitining quyidagi ingridientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi: oltingugurt, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, ganch va odamlar sog‘lig‘iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tusdagi boshqa zaharli moddalarlar:

-katta ko‘lamda kislotali zonalar hosil bo‘lishi va ko‘p miqdorda kislota chiqindilari yog‘ilishi;

-radiatsiyaning yuqori darajasi.

3.Gidrosfera holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar:

-yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi oqavalari: neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan tarkibida og‘ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo‘lgan chiqindilar va boshqa zaharli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

-binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning emirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi; -suv manbalari va suv olish joylarining zaharli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin etishmasligi.

Radioaktiv chiqindilarni to‘plagichlar:

Navoiy viloyatining TMK va Toshkent viloyatining Olmaliq TMKlari eng katta xavf tug‘diradi. To‘plagichlarning sel oqimlari ta’sirida buzilishi va zaharli moddalarlarning irrigatsiya tarmogiga tushishi, shuningdek, ularning ko‘milgan joylarida tuproq eroziyasi oqibatida tarqalishi natijasida Favqulodda vaziyat yuzaga kelishi mumkin.

Transchegaraviy favqulodda vaziyatlar:

-qo‘shni qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afgoniston davlatlari hududida transchegaraviy favqulodda vaziyat lar yuz berishining katta ehtimolligi bilan xarakterlanuvchi ko‘plab xavf-xatar zonalari joylashgan. Ma’lum sharoitlarda xavf-xatar zonasiga Farg‘ona vodiysi vilg‘oyalari ham kiradi. Uning chegarasi bo‘ylab ko‘shni qirg‘iziston va Tojikiston hududlaridagi radioaktiv chiqindi saqlagichlari va ag‘darmalari mavjud. Mayli-suv (Qirgizston) daryosi vodiyida joylashgan, umumiyyajmi 1,5 mln kub.m bo‘lgan 23 ta saqlagichlar Farg‘ona vodiysi uchun alohida xavf tug‘diradi. Ularning buzilishi oqibatida O‘zbekiston hududining 300 kv.km.lik maydoni va unda istiqomat qiluvchi 1,5 mln kishining radioaktiv chiqindilar bilan zaharlanish xavfi tug‘iladi.

Leninobod tog‘-kimyo (Tojikiston) kombinatining ko‘p yillik ish faoliyati oqibatida bir nechta radioaktiv chiqindilar saqlagichlari paydo bo‘ldi. Uning eng yirigi Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan Degmat saqlagichidir. Uning himoya to‘sig‘i bo‘zilsa yoki saqlagichda tirkish paydo bo‘lsa, radioaktiv chiqindilar Sirdaryo daryosi bo‘ylab 120 mingdan ortiq aholisi bo‘lgan 100 kv.km.lik O‘zbekiston hududini ifoslantirishi mumkin. Tojikistonning Tog‘li-Badaxshon viloyatida joylashgan Sarez ko‘lidagi to‘g‘onning buzilishi respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ma’lum ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bu ko‘p dengiz sathidan 2600 metr balandlikda joylashgan. Hajmi 2 mlrd. kub.m bo‘lgan o‘pirilma massaning ko‘lga tushishi to‘g‘onga jiddiy xavf tug‘diradi oqibatida katta miqdordagi suvning 360 mln kub hajm miqdorda to‘g‘ondan toshib o‘tishini keltirib chiqaradi va undan hosil bo‘lgan baland to‘lkin Bartanch, Panj, Amudaryo daryolari bo‘ylab yo‘nalishini davom ettiradi. Amudaryo qayiridagi Surxondaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlari va qoraqalpog‘iston Respublikasining umumiyyajmi 23,64 ming kv.m bo‘lgan hududi katta halokat zonasiga tushib qoladi. Bu zonada 2 mln. dan ortiq aholi yashaydi.

### Nazorat uchun savollari

- 1.Tabiyy va texnogen xarakterdagи favqulodda vaziyatlar. Favqulodda vaziyat rayonlarining tavsifi.
- 2.Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar hosil bo‘lgan joylar tavsifi.
- 3.Ishlab chiqarishda ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchi korxonalardagi avariylar.

4. Infeksiyalarning tabiiy o‘choqlari, juda xavfli infeksiyalar, ularni keltirib chiqaruvchilar va tarqalish yo‘llarini tushuntiring.

## **AHOLINI VA TEVARAK-ATROFNI TERRORIZMDAN HIMOYALASH**

### **Reja:**

1. Xalqaro terrorizm ta’rifi
2. Terrorizmning maqsadlari va mohiyati
3. Terrorizmning davlat va fuqarolarga tahdidi va ta’siri.
4. Terrorizmdan muhofazalanish usullari: Terroristik harakat sodir etilgan vaqtida aholining harakati

**Tayanch iboralar:** terrorizm, xalqaro, qurol-yarog‘, narkotik, transportirovka, akt, portlovchi, avtomobil, samolyot, poezd, aravacha, kamikadze, geologiya, arxeologiya, dinamit, trolley, porox, radioaktiv moddalar-plutoniyl, seziy, radiy, palladiy, biomateriallar-viruslar, mikroblar, bakteriyalar.

### **Xalqaro terrorizm tushunchasi**

Xalqaro terrorizm tushunchasi XX asrning oxiri XXI asr boshlarida fanda paydo bo‘lgan. Dunyoning turli davlatlarida vaqt-vaqt bilan turli maqsadlarni ko‘zlagan ekstremistik guruhlar tomonidan uyushtirilayotgan FV larga terroristik akt deb nom berilgan. So‘nggi o‘n yil ichida bunday hodisalarini dunyoning barcha davlatlarida kuzatilayotgani xalqaro terrorizm tushunchasining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

### **Terrorizm maqsadlari:**

1. Turli millatlar o‘rtasida etnik urushlarni qo‘zg‘ash va davom ettirish.
2. Turli dunyo e’tiqodlarga ega bo‘lgan millatlar, davlatlar o‘rtasida urushlarni qo‘zg‘ash va davom ettirish.
3. Hokimiyatga kuch bilan erishish.
4. Ma’lum bir tizim, davlat, jamiyat iqtisodiyotiga zarba berish.
5. Ma’lum bir mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka zarba berish.

**Terrorizm qanday ko‘rinishda, qachon, qaerda bo‘lishidan qat’iy nazar ko‘pincha quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun bajariladi.**

1. Qurol-yarog‘ savdosini yo‘lga qo‘yish va amalga oshirish.
2. Aktdan so‘ng yuzaga keladigan qulay holatdan foydalanim narkotik va ruhiyatga kuchli ta’sir etuvchi moddalarini transportirovka qilish yo‘laklarini yaratish va bu moddalarini ko‘zlangan manzilga etkazishni amalga oshirish.
3. Aktdan so‘ng yuzaga kelayotgan qulay holatdan foydalanim hokimiyatni egallash, boylik to‘plash.

### **Terroristik akt usullari**

1. Garovga olish-akt sodir etilgan hududdan tinch aholining ma’lum bir qismini o‘z niyatlarini amalga oshirish maqsadida tutqunlikda ushlab turish.

2.Tinch aholi o'rtasida portlash uyushtirish-aholi zich to'planadigan (korxonalar, vokzal, aeroport, o'quv dargohlari, bozor, masjid va h.k.) joylarda kunning tig'iz vaqtida portlovchi moddalarni turli xil masofadan boshqaruvchi moslamalar (avtomobil, samolyot, poezd, aravacha va h.k.) yordamida yoki yollangan-tayyorlangan qotillar (kamikadze) yordamida ishga tushirish.

**Terroristik akt o'tkazishda terroristik guruhlар tomonidan foydalanilanadigan ashyolar:**

- 1.Kimyoviy moddalar-inson to'qimalrini turli darajalarda zararlaydigan kislotalar, asoslar, ishqorlar va h.k.
- 2.Sanoatda ishlatiladigan qurilish materiallari-shisha, plastmassa, temir parchalari, neft mahsulotlari va h.k.
- 3.Harbiy, geologik, arxeologik maqsadlarda ishlatiladigan vositalar-dinamit, trotil, porox va boshqa portlovchi moddalar.
- 4.Tibbiyat, ilmiy tadqiqot, ishlab chiqarish markazlaridagi radioaktiv moddalar-plutoniy, seziy, radiy, palladiy va h.k.
5. Tibbiyat, ilmiy tadqiqot markazlarida turli maqsadlarda qo'llanilanayotgan, tekshirilayotgan biomateriallar-viruslar, mikroblar, bakteriyalar va h.k.

**Terroristik akt o'tkazishda ko'pchilik hollarda foydalanilanadigan inshootlar:**

- 1.Elektr-energiya markazlari, to'plamlari, stansiyalari;
2. Yonilg'i zahira inshootlari;
3. Kime korxonalari, omborlari;
- 4.Barcha kommunikatsiya tizimlari;
- 5.Aholi zich to'planadigan joylar.

**Terrorizm yoyilishiga sabab bo'ladigan ba'zi omillar:**

- 1.O'sib kelayotgan yangi avlodning ta'lif va tarbiyaga o'z vaqtida jiddiy e'tibor bermaslik.
- 2.Diniy aqidaparastlik illatiga o'z vaqtida etarlicha baho bermaslik.
- 3) Aholi o'rtasida mayjud bo'lgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etmaslik.
- 4) Jamiyatda ogohlilik tushunchasiga sovuqqonlik bilan qarash.

**Terrorizmga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari va himoyalanish usullari**

1.O'sib kelayotgan yangi avlodning ta'lif va tarbiyasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor berish

2. Diniy aqidaparastlik illatiga o'z vaqtida etarlicha baho berib, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibotni faol olib borish, ularda

3.Aholi o'rtasida mayjud bo'lgan etnik muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ijobjiy yo'l bilan bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rish.

4.Jamiyatning barcha qatlamlarida ogohlilik tushunchasini barqaror shakllantirish

Terrorizm muammosi XX asning oxiri, ayniqsa uning so'nggi 10 yilida xalqaro jamoatchilikni qattiq tashvishga solib qo'ydi. Terrorizm bu – ma'lum

siyosiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan, tinchlikka, fuqarolar xavfsiligiga va hayotiga zo'ravonlik ishlatish, yoki, uni qo'llash xavf xatarini tug'diradi.

2000-yil 15-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonunida terrorizmga "Xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, dalatning suverentini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy siyosiy beqarorlashtirish, aholini qo'rqtish maqsadida davlat organlarini xalqaro tashkilotlarni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsning biror bir faoliyatini amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilimishlar, ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek terrorlichilik tashkilotlarining mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirishni ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga, ularning faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish, yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat" tarzida ta'rif berladi.

Terrorizm insoniyat jamiyatni rivojlanishinig kapitalizmgacha bo'lgan davri. Buyuk fransuz inqilobi bilan bevosita bog'liq bo'lgan feodolizmdan kapitalizmgacha o'tish davri, bir qator Yevropa davlatlarida monarxiya tuzumi bilan kurashish, shuningdek, burju demokratiyasi qaror topish davrining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisasi sifatida o'rganish kerak.

• Terrorizm insoniyat jamiyatni rivojlanishinig kapitalizmgacha bo'lgan davri. Buyuk fransuz inqilobi bilan bevosita bog'liq bo'lgan feodolizmdan kapitalizmgacha o'tish davri, bir qator Yevropa davlatlarida monarxiya tuzumi bilan kurashish, shuningdek, burju demokratiyasi qaror topish davrining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisasi sifatida o'rganish kerak.

• XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning eng daxshatli turi avj oldi. Bu diniy ekstremizmdir. Bu dinni niqob qilib olib, o'zlaricha islam davlatini tuzamiz deb, odamlarga ta'sir o'tkazish turli qo'poruvchilik harakatlarini olib borishdir. Afsuski insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm(o'ta ketgan mutaasiblik) sifatida foydalanganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari avvalambor o'z dinini haqiqiyligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir. Aynan fanatizm illatiga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'lqinini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar. Ustiga-ustak ommaviylik unsuri muayyan bir hatti-haraktlar uchun shaxsiy javobgarlik hisini yo'qotib yuboradi, harakatga "omma", "xalq" harakati tusini beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston davlati mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'zining dinga munosabatini aniq va qat'iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati "Inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", "Dunyoviylik – dahriylik emas" degan aniq tamoyillar asosida belgilandi. Bu tamoyil bosh qomusimiz Konstitutsiya hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda o'zining huquqiy

ifodasini topgan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 238 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda.

Ayniqsa, respublikada mavjud dinlar orasida islomning mavqeい nihoyatda katta. Xususan, hozirgi kunda O‘zbekiston aholisining soni 36 mln.dan oshgan bo‘lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e’tiqod qiladi. Shu bois, islom dini davlatimiz tub xalqlarining tarixiga, o‘tmish merosiga, madaniyatiga, ruhiyatiga chuqur singib ketgan.

Bugungi kunda dinga bo‘lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o‘ziga xos in’ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

Afsuski, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur’atlardagi taraqqiyoti g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turki bo‘lib, geosiyosiy maqsadlarga bo‘ysindirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko‘payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu kurash qurolli tus olib, ko‘plab xalqlarning boshiga fojiali kunlarni solmoqda. So‘nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilmoqda. Oqibatda, Iraq, Suriya, Liviya kabi aslida ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar chuqur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanazzulni boshidan kechirmoqda. Xalqaro valyuta fondi ma’lumotlariga ko‘ra, turli to‘qnashuvlar natijasida arab mamlakatlari iqtisodiyoti 2011-2014 yillar oralig‘ida 800 mlrd AQSh dollari miqdorida zarar ko‘rgan. Qonli fojealar tufayli ushbu davlatlar yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlari keskin pasaygan, ishsizlik darajasi deyarli ommaviy tus olgan.

Eng dahshatlisi, hozirgi kunda Iraq va suriya davlatlari hududida qariyb 8,5 million kishi terrorchi guruuhlar to‘liq nazorat o‘rnatgan hududda, har qanday fuqaroviy huquq va erkinliklardan marhum bo‘lgan holda kun kechirishga majbur bo‘lmoqda. Terrorchilar ushbu mamlakatlarda ommaviy qatl, garovdagilarni qiynab o‘ldirish, xotin-qizlarni ayollarni zo‘rlash yoki ularni qul qilib sotish kabi jirkanch va qabih ishlarga qul urib, o‘zlarini e’tiqodi puch, imonsiz kimsalar ekanliklarini namoyon etmoqda. Yuzlab ziyoratgohlar, shia musulmonlarining masjidlari, xristianlarning cherkov va monastirlari, mакtab va kutubxonalar vayron qilindi.

So‘nggi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta’sir doirasiga olish, “Internet” orqali targ‘ibot o‘tkazish, oila a’zolari, yaqinlari va qo‘shnilarini o‘z guruhiga tortish, yashirin “hujralar” tashkil etish, diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko‘rinishda tarqatish kabi usullarda amalgalashmoqda.

Mutaxassislarning fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko‘rinishlarini o‘zida tashuvchi g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi saytlar

faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g‘oyalar singdirlib, ular turli to‘qnashuv va nizo o‘choqlariga jalg qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog‘orasiga o‘ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o‘tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko‘pchilikka ayon haqiqatdir.

Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy-ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o‘ylangan strategiyaning bir qismidir. Avvalo, barcha ekstremistik tashkilotlar bir tadqiqot markazlari, ta’bir joiz bo‘lsa, “g‘oyaviy laboratoriya”lar mahsuli ekanini alohida qayd etishimiz lozim.

Birgina joriy yilning 1 iyuniga qadar o‘tgan davr ichida Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning ekspertiza bo‘limiga turli davlat idoralari tomonidan 800 dan ziyod diniy mazmundagi materiallar taqdim etildi. Ushbu materiallarning salmoqli qismini aqidaparastlik g‘oyalari yo‘g‘irilgan mahsulotlar tashkil etadi. Ularning aksariyati hozirgi kunda Iroq va Suriyada faoliyat yuritayotgan terroristik tashkilotlar safiga qo‘shilishni da’vat etuvchi chaqiriqlar va videoroliklar tashkil etadi. Ayni vaqtda, bunday materiallar bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralari xodimlari tomonidan qo‘lgan olinganlar ichida endi voyaga yetgan o‘smirlar mavjud ekani bizdan alohida e’tibor talab qiladi.

Shu nuqtai-nazardan, mustaqil hayotni boshlayotgan yoshlarimizni turmushda ularni og‘ir sinovlar kutib turayotgani, xususan, bizning yurtimiz, xalqimizga do‘sit bo‘lмаган, soxta g‘oyalar bilan hali hayotiy tajribaga ega bo‘lмаган o‘smirlarimizni oilasi va Vatanidan ayirib olib, o‘z manfaatlari yo‘lida qurban qilishdek g‘araż maqsadlar ega kuchlar borligidan ogohlantirishimiz biz kattalarning, ayniqsa, diniy soha vakillarining burchimiz hisoblanadi.

Diniy-ekstremistik oqimlarning jamiyatimiz barqarorligiga tahdidi respublikamizdagi ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish, fuqarlarni, ayniqsa, yoshlarni qurolli to‘qnashuvar ro‘y berayotgan hududlarda faoliyat yuritayotgan terroristik guruahlarga jalg qilish kabi harakatlarda, shuningdek, mamlakatimizda terrorchilik harakatlari sodir etish uchun suqilib kirishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar hushyorlikni qo‘ldan boy bermaslik, hamisha ogoh bo‘lib yashash zaruratini yana bir marta ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro maydonda ko‘p va ikki yoqlama hamkorlikni kuchaytirish, BMT, Shaxhay hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning faoliyatini samaradorligini oshirish masalasini qat’iy qilib kun tartibiga qo‘ymoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar BMT, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi, Shaxhay hamkorlik tashkiloti doiralarida imzolangan.

Hozirda O‘zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo‘mitasi tomonidan O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida “uch yovuz kuch”, ya’ni “terorchilik”, “ayirmachilik” (separatizm) va “ekstremizm”ga qarshi kurashda xamkorlikni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. 2004 yildan beri Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. 2010 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Mingyllik rivojlanish maqsadlari bo‘yicha oliy darajadagi yalpi majlisida yurtboshimiz Islom Karimov nutq so‘zlab, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va narkotrafikka qarshi birgalikda kurashish hamda Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish mavzusiga ham alohida to‘xtalib o‘tgan.

Shuningdek, O‘zbekiston AQSh, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. O‘z navbatida, jamiyatimizda diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishini oldini olishda profilaktik va tushuntirish ishlari saviyasi va ta’sirchanligini tizimli ravishda kuchaytirib borish bugungi kunning hayotiy muhim masalasiga aylandi. Hozirgi kunda respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyatining samarali hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan. Davlat amaldagi qonunlarimizga zid ravishda konstitutsion tuzumga qarshi guruhlarning faoliyatini aniqlaydi va ularga chek qo‘yadi.

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1.Xalqaro terrorizm tushunchasiga ta’rif bering?
- 2.Terrorizmning maqsadlari va mohiyati nimalardan iborat?
3. Terrorizmning davlat va fuqarolarga tahdidi va ta’siri.
- 4.Terrorizmdan muhofazalanish usullari: Terroristik harakat sodir etilgan vaqtida aholining harakati
- 5.Favqulodda vaziyat davlat tizimining quyi tizimlariga xarakteristika bering.
- 6.Favqulodda vaziyat davlat tizimining hududiy quyi tizimini tushuntirib bering.
- 7.Favqulodda vaziyat davlat tizimining funksional quyi tizimini tushuntiring.
- 8.Favqulodda vaziyat davlat tizimi rahbar organlari qanaqa va uning vazifalari nimadan iborat.
- 9.Favqulodda vaziyat davlat tizimining kundalik–boshqaruv organlari qanaqa organ va uning vazifasi nimadan iborat?
- 10.Aholi va hududlarni fuqaro muhofazasi bo‘yicha muhofazalashlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilishni tushuntirib bering.

## **TIBBIY EVAKUATSIYA BOSQICHLARIDA JONLANTIRISH**

### **Reja.**

1. Favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tarmoqlari va ularning vazifalari

2. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy tamoyillari
- 3 YUqori nafas yo'llarini tiklash
4. YUrak massaji muolajasini bajarishga doir ko'rsatma va uning texnikasi.

**Tayanch iboralar.** Evakuatsiya, massaj, texnika, favkulodda vaziyat, vayrona, reaktivlik, zotiljam, ekzogen sabablar, endogen sabablar, mexanik, biologik, zardob, ob'ektiv, sub'ekti, o'tkir turi, surunkali turi, tashxis, paypaslash, urib ko'rish, eshitib ko'rish, rentgent, rengenoskopiya, rengenografiya, simptomatik.

### **Favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish tarmoqlari va ularning vazifalari**

Tibbiy evakuatsiya bu- kasallar va yaradorlarni tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida qutqaruv obyektlariga, birinchi yordam bo'limlariga va davolash muassasasiga yetkazib yotqizishdir. Bemorlarni olib chiquvchi va transportirovka qiluvchi yo'l evakuatsiya yoli, deb ataladi. Birinchi va ikkinchi bosqich evakuatsiya o'rtasidagi maydon tibbiy evakuatsiya maydoni, deb ataladi. Evakuatsiya maydonidan bemor va jarohatlanganlarni qidirish, topish, olib chiqish, tibbiy yordam ko'rsatish evakuatsiyaga tayyorlashga feldsherlar javobgar hisoblanadi. Barcha bosqichlarda bemorlarga iloji boricha kamroq ozor yetkazishga harakat qilish lozim.

Birinchi yordam-bu eng oddiy tibbiy kompleks mag'lubiyatga uchragan joyda amalga oshiriladigan tadbirlar asosan o'z - o'zini va o'zaro yordam tartibida, shuningdek avariya-qutqaruv ishlarini olib borish ishtirokchilari tomonidan xodimlar va tibbiy vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Birinchi yordamning asosiy maqsadi-ta'sirlangan odamning hayotini saqlab qolish, favqulodda vaziyatlarning zararli omilining ta'siri va eng tez evakuatsiya xavfli zonadan ta'sirlangan. Birinchi yordamni taqdim etish uchun maqbul vaqt – mag'lubiyatdan keyin 30 daqiqagacha. To'xtatilganda qon aylanishi yoki nafas olish, bu vaqt 5 daqiqagacha kamayadi.

#### ***Birinchi tibbiy yordam quyidagilarni o'z ichiga oladi:***

-vayronalar ostidan ozod qilish, yonayotgan kiyimlarni o'chirish, yong'in va suv toshqini o'choqlaridan, hududdan olib chiqish yoki olib chiqish, radioaktiv, zaharli moddalar bilan ifloslangan va bakterial vositalar;

- tashqi qon ketishini vaqtincha to'xtatish;
- mexanik asfiksiyani yo'q qilish;
- og'riq qoldiruvchi eritmani in'ektsiya qilish;
- yara va kuyishga aseptik bandaj qo'yish sirt;
- shikastlangan hududni immobilizatsiya qilish;
- ko'krak qafasiga okklyuzion bandaj qo'yish;
- antidot va antibiotikni og'iz orqali qabul qilish.

Tibbiyot xodimlari kelgunga birinchi tibbiy yordam - quyidagi imkoniyatlarini olib, unda xodimlarning ishtiroki hisobiga tibbiy yordam o'rta tibbiy ma'lumot va tabellardan foydalanish bilan tibbiy vositalar. Uni taqdim etish xodimlar tomonidan ta'minlanadi shoshilinch tibbiy yordam guruhlari, tibbiyot

xizmati vrachlik-hamshiralik brigadalari hamshiralari tabiiy ofatlar, feldsher tez tibbiy yordam brigadalari.

### **Kasallik haqida umumiylumot.**

Kasallikni davolashdan oldin ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Biologiya fani ta'limotiga ko'ra, organizm tashqi muhit bilan chambarchas bog'langan. Demak, kasallik organizm bilan tashqi muhit o'rta sidagi bog'liqlikning biror darajada buzilishi natijasida organizm faoliyatining o'zgarishidir.

Kasallikning kelib chiqishida organizmning reaktivligi ham benihoya katta ahamiyatga ega. Reaktivlik organizmning tashqi muhit ta'siriga o'z hayot faoliyatini o'zgartirib javob berish qobiliyati demakdir. Organizmning reaktivligida nerv tizimi, bosh miya po'stlog'i alohida o'rin tutadi. Kasalliklarning ro'yogga chiqishida organizmning xususiy reaktivligi katta ahamiyatga ega.

Kasallik bu turmushning bir shakli bo'lib, o'zining kechish jarayoni va kechishiga ega. Ba'zi hollarda bir kasallikning o'zi turli organizmda turlicha belgilar bilan o'tadi. Masalan, *zotiljam* bir bemorda yo'talish, balg'am ko'chirishi, nafas olishning qiyinlashuvi bilan kechsa, boshqasida bu belgilar bo'lmasligi, bemor faqat bosh og'rig'i va ishtahasi yo'qligidan shikoyat qilishi mumkin. Bu hodisa organizmning kasallikka qarshi kurashish qobiliyatiga va kasallikdan himoyalanish kuchiga bog'liq. Kasallikning avj olishi esa uni keltirib chiqargan sababga bog'liq. Kasallik sababini aniqlash uning oldini olish, to'g'ri diagnoz qo'yish va davolashda katta ahamiyatga ega. Bu haqda I.P.Pavlov shunday degan edi: "Kasallikning kelib chiqish sababini aniqlash, uning oldini olish va tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik demakdir".

Kasallikning kelib chiqish sababi ikki xil:

**1.Ekzogen sabablar-** tashqi muhit ta'sirida kelib chiqadigan kasallik sababları.

**2.Endogen sabablar-** ichki muhitning o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan sabablar.

**Ekzogen sabablar** bir necha xil: mexanik (yaralanish, shikastlanish), fizik (yuqori va past harorat, organizmga elektr tokining ta'siri), kimyoviy( jangovor zaharli moddalar, sanoat zaharlari, sifatsiz oziq-ovqatlar), biologik ( turli xil kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar, vaksina va zardoblar) sabablar bo'lishi mumkin.

**Endogen sabablarga** organizmning o'zida yuz beradigan o'zgarishlar bilan birga, ota-onalardan orttirilgan yoki hayotda paydo bo'lgan xususiyatlar ham kiradi. Kasallikka to'g'ri tashxis qo'yishda uning belgilarini bilish kerak. Chunki har xil kasallikning o'ziga xos belgisi bor. Bular **ob'ektiv** va **sub'ektiv** belgilardir.

**Sub'ektiv** belgilar to'plash jarayonida bemorning shikoyatlariga qarab aniqlanadi. M, bosh og'rig'i, behollik, ko'z tinishi va boshqalar. Sub'ektiv belgilar ta'sirida **ob'ektiv** belgilarni ko'ramiz. Bunda kasallik belgilari ko'zga yaqqol tashlanadi. M, badanda toshmalar toshishi, ko'z qizarishi, elektrokardiogramma, ichki a'zolarni rentgen apparati yordamida tekshirish. Har qanday **kasallik** asosan ikki xil bo'ladi:

**O'tkir turi-** ba'zi kasalliklar to'satdan boshlanib, uzoqqa cho'zilmaydi.

**Surinkali turi-** ba'zi kasalliklar esa uzoq davom etib, vaqt-vaqt bilan qaytalanib turadi.

**Tashxis.** Bemorga to'g'ri tashxis qo'yish uchun, kasallikni davolashda muhim ahamiyatga ega. Tashxis qo'yishda bemorning shikoyatlari, kasallik tarixi, kasal bo'lgunicha qanday kasalliklar bilan og'riganligi, turmush sharoiti va ob'ektiv tekshirish natijasida to'plangan ma'lumotlarga asoslanadi. Tashxis qo'yish shundan iboratki, aksari kasalliklarda bir xil ob'ektiv va sub'ektiv shakldagi belgilar uchraydi. Masalan, oshqozon yoki ichakdan qon ketishi, oshqozon va ichak yarasi, oshqozon va ichak o'smalari va boshqa kasalliklarda. Kasallikka tashxis qo'yishda yuqoridaqilardan tashqari, asosiy kasallikni qo'shimcha kasallikdan ajrata bilish lozim. Bunga solishtirma tashxis deyiladi.

### **Kasallikni klinik tekshirish usullari**

Kasallikni aniqlash maqsadida bemordan so'rash ( anamnez yigish) va laboratoriya usullaridan foydalanish to'g'ri tashxis qo'yishda muhim ahamiyatga ega.

Bemorlardan kasallik haqidagi ma'lumotlar quyidagi tartibda so'riladi:

1. Bemor haqida ma'lumot.
2. Bemorning shikoyati.
3. Mazkur kasallikning kelib chiqish tarixi.
4. Bemorning hayot tarixi.

Birinchi navbatda bemorni bezovta qilgan kasallik va uning shikoyati tinglanadi. Undan kasallikning rivojlanish tarixini qisqacha bayon qilib berish so'raladi. Bunda kasallik qanday paydo bo'lganligi, tibbiyat yordami ko'rsatilguncha kasallik qanday rivojlanganligi, qanday ehtiyyot choralar ko'riganligi va hokazolar to'g'risidagi ma'lumot to'planadi. Kasallik haqida to'plangan ma'lumotlarga **kasallik anamnezi** deyiladi. Bemorning ishi va turmushi, atrof- muhit sharoiti, oila a'zolari o'rtasida ro'y bergen kasalliklar, yomon turmush yoki **hayot tarixi** deyiladi.

Turmush tarixini to'plash quyidagi tartibda olib boriladi: bemorning tarjimai holiga oid ma'lumotlar to'planadi. Bemorning ilgari boshidan kechirgan va nasldan-naslga o'tgan kasalliklari aniqlanadi. Naslni aniqlashning muhim ahamiyati shundaki, bunda bemorning u yoki bu kasallikka nisbatan moyilligi bilib olinadi. Suhbat oxirida jinsiy va oilaviy turmushi, ish va yashash sharoiti, zararli odatlar ( tamaki, nosvoy chekish, spirtli ichimliklar ichish) aniqlanadi. Bemorni yuqoridaqitartibda savol-javob qilib tekshirish sub'ektiv tekshirish usuliga kiradi. Bu usulda tekshirish tugallangach, tekshirishning ob'ektiv usuliga o'tiladi: bemor ko'zdan kechiriladi, ichki a'zolar holatini aniqlash maqsadida **paypaslash** (*palpasiya*), **urib ko'rish** (*perkussiya*) va **eshitib ko'rish** (*auskultasiya*) usullari qo'llaniladi. Bundan tashqari, bemorning tana harorati, bo'yni, vazni, ko'krak qafasining aylanasini o'lchash, balg'am, siydikning bir kunlik miqdorini aniqlash kabi tekshirish usullari ham bor. Bemorning qoni, siydig'i, axlati, balg'ami, yiringini laborator-bakterialogik tekshirish, arterial bosimni o'lchash, organlarni

rentgenda tekshirish, elektrokardiogramma qilish, rektoromanoskapiya (yo‘g‘on ichakni tekshirish), sistoskapiya (siyidik pufagini tekshirish), urografiya (siyidik yo‘llarini rentgen qilish) va boshqalar- jihozli tekshirish usuliga kiradi.

**Paypaslash.** Bu usul bilan faqat qorin bo‘shlig‘idagi a’zolarning kasalliklari emas, balki limfa tugunlari (bo‘yin, qo‘ltiq va chov sohasidagi lmfa tugunlarining) holati, ya’ni katta- kichikligi, shakli, qattiq-yumshoqligi, og‘rish-og‘rimasligi, harakatchanligi ham aniqlanadi. Bundan tashqari terining tarangligi, namligi yoki quruqligi, bo‘g‘imlar, mushaklar holatini aniqlashda ham shu usul qo‘llaniladi.

Paypaslash usulini mukammal bilish, kasalliklarga aniq tashxis qo‘yishda muhim ahamiyatga ega. M, yurak sohasini paypaslash bilan yurak faoliyati va yurak mushaklarida o‘zgarishlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Qorinni paypaslashdan asosiy maqsad, qorin bo‘shlig‘idagi a’zolarning joylashgan o‘rni va holatini aniqlashdir.

**Auskultasiya.** Tana a’zosida sodir bo‘ladigan tovushni eshitib ko‘rishga aytildi. Bunda maxsus asbob- stetaskop, fonendoskop, stetofonendoskopdan foydalaniladi. O‘pka, yurak-tomir tizimini, ba’zan qorin qismidagi a’zolar auskultatsiya qilib tekshiriladi. Auskultatsiya ikki xil bo‘ladi: 1) Bevosita auskultatsiya- bunda bemorning badaniga bevosita quloqni qo‘yib eshitib ko‘riladi. 2) Bilvosita auskultatsiya- bu usulda bemorni maxsus asbob (stetoskop va fonendoskop) bilan eshitiladi. O‘pkadagi xirillash, plevraning ishqalanishida paydo bo‘ladigan shovqin, yurakning ishi va shovqini ana shu usulda tekshiriladi. Auskultatsiya usulidan arterial bosimini aniqlashda, qon tomirining urishini eshitishda foydalaniladi.

**Perkussiya.** Tananing ustidan barmoq uchlari bilan urib ko‘rish *perkussiya* deyiladi. Perkussiya yordamida ayrim ichki a’zolar chegarasi aniqlanadi, shuningdek, ularda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar bilinadi. Perkussiya qilinganda ma’lum tovush eshitiladi. Shu tovushga qarab, perkussiya qilingan joyda a’zolar ahvoli haqida ma’lumot olish mumkin. Bevosita va bilvosita perkussiya farq qilinadi. Bevosita perkussiyada bemor badaniga bir yoki juftlangan bir necha barmoq uchlari bilan urib ko‘riladi. Bilvosita perkussiyada badanga qo‘ylgan biror narsa (plessimetr) orqali urib ko‘riladi. Asosan, bevosita perkussiya usuli qo‘llaniladi. Perkussiya qilinganda uchta asosiy tovushga e’tibor beriladi:

- 1) o‘pka tovushi (ravshan, aniq, kuchli va davomli)
- 2) o‘tmas tovush (sekin va qisva)
- 3) timpanik tovush (jarangli, davomli va ma’lum balandlikka ega)

Perkussiya vilingan joyda to‘qima va a’zolar tebranadi. Tebranish tevarak-atrofdagi havoga o‘tadi. Natijada tovush tarzida eshitiladi. Perkussiya qilishda hosil bo‘lgan tovush xossasi, asosan, a’zolardagi havo miqdoriga va organizmning elastikligiga hamda tarangligiga bog‘liq.

### Bemorlarni turli asboblarda tekshirish

Texnika taraqqiyoti tufayli bemorni asbob-uskunalar yordamida tekshirish keng rusum bo‘ldi. Termometr yordamida tana harorati o‘lchansa, me’da va o‘n ikki barmoqli ichak suyuqligi maxsus asbob-zond yordamida yig‘ib olinadi. Yoritgich vazifasini o‘taydigan kichkina lampochka o‘rnatilgan metal naycha

bilan ichki a'zolar shilliq qavatidagi kasallik belgilarini aniqlash mumkin. Bronx, hiqildooq, qizilo'ngach, oshqozon, to'g'ri ichak, qovuq va boshqa organlarning shilliq qavati tekshiriladi.

**Bemorni rentgenda tekshirish.** Bemorni rentgenda tekshirish tashxis qo'yishda ahamiyatga ega. Ichki a'zolar, yurakning katta-kichikligi, shakli va chegarasining o'zgarishi, to'qimalarda bo'lgan patologik o'zgarishlar, shuningdek, suyak singanligi rentgenda aniqlanadi.

Rentgenodiagnostika ikki xil usulda- ***rentgenoskopiya*** va ***rentgenografiya*** usulida amalga oshiriladi.

***Rentgenoskopiya*-** a'zolarning rentgenda ko'rinishini tushunamiz.

***Rentgenografiyada*** esa a'zolar suratini rentgen nuri yordamida fotoplyonkaga ko'chirishdir. Suyakning singan yoki sinmaganligini, buyrakda hosil bo'lgan organik toshlarni faqat rentgenografiya yordamida aniq va ravshan ko'rish mumkin.

**Davolash.** Bemor ahvolini yaxshilashga, sog'lig'ini tiklashga qaratilgan tadbirlar yig'indisidir. Davolashning asosiy maqsadi faqat bemorni davolashdan iborat bo'lib qolmay, balki uning kuch-quvvati va mehnat qobiliyatini tamomila tiklashiga qaratilishi lozim. Shu boisdan kasallikni emas, kasalni davolash kerak. Davolashda bemor ichki a'zosida sodir bo'ladigan turli-tuman o'zgarishlarni ko'rish muhim ahamiyatga ega.

Sof havo, yetarli miqdordagi yorug'lik, badanning toza bo'lishi, ruhiy va jismoniy tinchlik, oziq-ovqat, dori-darmon, turli xil muolajalar ( banka qo'yish, klizma qilish, gorchichnik qo'yish ), fizioterapevtik usullar, jismoniy tarbiya va boshqa tadbirlar bemor ahvolini yaxshilashga yordam beradi. Kasallikni davolash tadbirlari bir necha xil bo'lib, *etiologik*, *simptomatik* va *umumiylashgan* davolash choralaridan iborat. Kasallikning sababiga qarshi qaratilgan davo choralarini *etiologik* davolash usuli deyiladi. *Simptomatik* davolash- kasallikning bemorni ortiqcha tashvishlantiruvchi ba'zi belgilariga qarshi davo choralarini qo'llashdan iborat. M, yurak parogida- nafas qisilishi, kuchli yo'tal, yurak sohasida og'riq, badanda shish, uyqusizlik va boshqa belgilar paydo bo'ladi. Bunday yo'talni vaytarish uchun- kodein beriladi. Uyqusizlikda uyqu keltiruvchi dorilar beriladi. Og'riqni qoldirish uchun og'riq qoldiruvchi dorilar buyuriladi. Bu tadbirlar garchi yurak parogini davolashga qaratilmagan bo'lsa ham, bemorni bezovta qiluvchi og'riq va ba'zi boshqa belgilarini yo'qotadi.

Bemorni davolashda bir qancha davo tadbirlari birga qo'llanilishi- ***kompleks*** davolash deb yuritiladi. Parhez choralar, kurort sanatoriylar, fizioterapevtik davo tadbirlari, dori-darmonlar shular jumlasidandir.

### **Sun'iy nafas oldirish usullari**

Nafas to'xtashi belgilari: og'iz va burunda havo oqimining yo'qligi, ko'krak qafasining ko'tarilib tushmayotganligi kabilarda ifodalanadi.

Sun'iy nafas oldirish uchun bemor chalqancha yotqiziladi. Og'zini ochib tozalanadi, tish protezlarni olinadi. Boshni orqaga engashtirib, til halqumni yopmasligiga e'tibor beriladi. Sun'iy nafas oldirish maqsadida hozir Silvestr, Shefer, Lobardo, Ruben usullaridan keng foydalaniladi. Sun'iy nafas oldirishning

eng ko‘p tarqalgan usullaridan biri **Silvestr** usulidir. Bu quyidagicha bajariladi: Bemor chalqancha yotqizib qo‘yiladi. Sun’iy nafas oldiradigan odam bemorning bosh tomoniga o‘tib, uning ikki bilagidan tutadi. Qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib, bosh tomoniga keltiradi. Bunda ko‘krak qafasi kengayadi va bemor nafas oladi. Bemorning qo‘llarini tezlik bilan pastga tushirib, ko‘krak qafasining pastki qismiga bosiladi va nafas chiqariladi. Bunday harakat ritmik ravishda minutiga 16-18 marta takrorlanadi va nafas olish yaxshilanguncha davom ettiriladi.

Asfiksiya vaqtida Shefer usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda bemor qorni bilan yotqiziladi. Yordam beruvchi bemor dumbasiga o‘tirib oladi va qo‘llari bilan bemor ko‘krak qafasining pastki qismini bosadi - natijada bemor nafas chiqaradi. Ko‘krak qafasini bosish to‘xtatilgach, u asl holatiga qaytadi, nafas olinadi. Qovurg‘alar chetini qo‘l bilan yuqoriga ko‘tarish va uni kengaytirish nafas olish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Bunday harakat minutiga 16-18 marta takrorlanadi.

### **Yurak massaji muolajasini bajarishga doir ko‘rsatma va uning texnikasi**

Inson xushsiz xolatida birinchi navbatda uning yurak urishi va nafas olishi tekshirilishi kerak. Nafas olishini aniqlash uchun qulqoqni og‘ziga va bir qo‘lni ko‘krak qafasi ustiga qo‘yib tekshiriladi.

Yurak urishi (puls)ni aniqlash uchun ikki barmoqni tomoq old tomonida qo‘yiladi.

Odatda nafas va yurak urishi bir vaqtda to‘xtaydi. Ba’zan nafas o‘zi to‘xtashi xam mumkin bo‘lib, bunday xolatda faqat sun’iy nafas beriladi. Amalga oshiriladigan vazifalar ketma-ketligi quyidagicha:

- Insonni tekis va qattiqroq yuzaga osmonga qaratib yotqiziladi. (krovatda bo‘lmaydi)
- Inson chalqancha yotganda til ildizi nafas yo‘lini berkitib qo‘yadi.



4-Rasm. Bilvosita yurak massajini bajarish texnikasi.

Bemor qattiq va tekis narsaga chalqancha yotqiziladi, o‘ng tomonidan ko‘krakni to‘sish sohasida bosiladi. Chaqaloklarda to‘sning pastki 1/3 qismiga ikki barmoqni, qolgan barmoklar kurak ostiga qo‘yilib massaj qilinadi. Yosh

bolalarda bir qo'l kafti bilan maktab yoshida bo'lsa, qo'lni qo'lga qo'ygan holda to'shning o'rta qismiga bosib massaj qilinadi. To'sh va ko'krak umurtqalari orasida yurak siqilib, kichik va katta qon aylanishi doirasiga shox tomirlar orqali qon haydaladi. Bu esa kam mikdorda bo'lsada hayotiy zarur organlarni qon bilan ta'minlashga etadi. Yurak bilvosita massaji davomida to'sh umurtqa tomonga 3—5 sm siljishi darajasidagi kuch bilan qilinadi. Eng yaxshi o'tkazilgan massajda ham umumiy qon aylanishi 20—30 foizdan oshmasligini doim yodda tutish kerak.



5-rasm. Bolalarda yurak masajji texnikasi.

Yurak massaji daqiqasiga 80—120, chaqaloklarda esa 120—130 marotaba bo'ladi. Qovurg'alar sinishi, o'pka perforatsiyasi kabi asoratlar bo'lmashligi uchun haddan tashqari kuch ishlatmaslik kerak. Hozirgi davrda bilvosita yurak massaji samaradorligi tufayli yurakni bevosita ochiq massaji faqat quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- a) jarrohlik muolajasi davomida ko'krak qafasi ochilgan
- b) yurak tamponadasida, ya'ni yurak qopchasiga yig'ilgan qon tufayli yurak faoliyati to'xtagan bo'lsa;
- v) ko'krak qafasining shakli massajga monelik qiladigan darajada buzilgan bo'lsa;
- g) yurak defibrillyasiyasi natijasiz bo'lib, albatta yurakni isitish lozim bo'lgan gipotermiya holatlarida.

### **Irsiy kasalliklar**

Organizm irsiyatini o'rganmay turib, nasldan-naslga o'tuvchi kasalliklarni oldini olish va davolash mumkin emas. Tibbiyotda 2000 dan ortiq irsiy kasallik turlari mavjud. Irsiy kasalliklar xromosomalarning anomal yig'indisi, jinsiy hujayralarning o'zgarishi yoki mutatsiya ta'sirida paydo bo'ladi. Irsiy kasalliklarga – xromosoma kasalliklari, modda almashinuvi va immunetitning

o‘zgarishiga aloqador, endokrin faoliyatiga doir, nerv sistemasi va qonga aloqador kasalliklar kiradi. Masalan, xromosoma kasalliklari jinsiy xromosoma va autosomalarda ro‘y bergan o‘zgarishlardan paydo bo‘ladi. Masalan, Daun kasalligi (bemorning kallasi katta, beo‘xshov, ko‘zi qiyiq, quloq suprasi kichik, tana bilan qo‘l-oyoq nomutanosisib, panjalar kalta, qo‘l jimjilog‘i kalta va qiyshi bo‘ladi), Shershevskiy-Terner sindromi qizlarda uchraydi (ularda XX o‘rniga XO bo‘ladi, bolalarda birlamchi jinsiy organlar uchramaydi. Agar uchta jinsiy xromosomalar kompleksi uchrasa, ayollarda jinsiy organlar rivojlanmaydi (XXO)). Erkaklarda (XXY kompleks) Klaynfelter sindromi yuzaga chiqadi, bunda urug‘don kichik bo‘lib, sperma rivojlanmaydi. Ba’zida 25% kasalliklar X yoki Y xromosolariga birikkan bo‘ladi. Masalan: ba’zi o‘g‘il bolalarning oyoq panjalari orasida parda bo‘ladi. Bu Y xromosoma bilan bog‘liq, X xromosoma bilan bog‘liq bo‘lgan kasaliklar Dalton va gemofiliya kasalliklaridir, bu kasalliklar qizlarda yashirin, o‘g‘illarda yuzaga chiqadi. Modda almashinuviga bog‘liq kasalliklar o‘t pigmentobilirubin miqdorining qonda ortib ketishi, nerv sistemasini zaharlanishi, aqliy va jismoniy rivojlanishning orqada qolishi kuzatiladi. Endokrin sistemada gormonlar miqdorining o‘zgarishi tufayli ham irsiy kasalliklar paydo bo‘ladi, masalan buyrak usti bezi kasallanganda bolalar ovqat emaydi, emmaydi, to‘xtovsiz, quсади, ozib ketadi, qalqonsimon bez kasalligiga gipoterioz, me’da osti bezining kasalligiga qandli diabet kasalligi kiradi. Gemofiliya, leykoz qonning nasl kasalligi hisoblanadi. Nerv sistemasining kasalliklariga nerv muskul sistemasi va miya zararlanishi kasalliklari kiradi. Masalan, shizofreniya. Tayanch-harakat sistemasining kasaliklariga miopatiya (mushaklarning qovjirab, oriqlab ketishi) nanizm (pakana bo‘ylilik, skelet buzilishi oqibatida yuzaga chiqadi, bo‘yi 100-140 sm bo‘lib, qo‘l oyoqlari kaltaligi kuzatiladi). Shunday qilib, qadimda kishilarga jumboq bo‘lgan, jins bilan bog‘liq irsiy kasalliklar va belgilarning nasldan-naslga o‘tishi xromosoma tabiatini puxta o‘rganish asosida hal qilindi. Nasldan-naslga o‘tadigan kasalliklarni rivojlantirmaslik uchun bolalarni jismoniy sog‘lomlashtirish, ovqat sifatini yaxshilash, chiniqtirish, yuqumli kasalliklardan saqlash, asab kasalliklarini oldini olish masalalariga katta e’tibor berish kerak. Bulardan tashqari yaqin qarindoshlarning oila qurmasligi, bir oilada ikki va undan ortiq farzandlarning bir xil dard bilan og‘riganligi irsiy kasallikdan dalolat ekanligini unutmaslik, genlar mutatsiyasiga olib keluvchi kimyoviy ta’sirotlar, radiatsiya, ichkilikbozlik, nashavandlik kabi ilatlardan o‘zini tiyish, ota-onalar yaqin qarindosh bo‘lganda retsessiv turdag‘i irsiy kasalliklar bir necha avloddan so‘ng ham yuzaga kelishini esda tutish, turmush qurishdan avval «Nikoh va oila» yoki tibbiy genetik maslahatxonalardagi genetik shifokor ko‘rigida bo‘lish shart. Tashqi faktoring salbiy ta’siri natijasida ham kasallik yuzaga chiqadi (karlik-soqovlik, nurlanish - qon raki). Genetika fanining rivojlanishi natijasida nasldan-naslga o‘tadigan kasalliklarni vaqtida aniqlash va oldini olish mumkin bo‘ldi. Hozircha tibbiyotda anomal gen va xromosomani davolash usullari yo‘q. Irsiy kasalliklar organizmda xilma-xil xastaliklarni paydo qiladi. Ular asosan klinikogenetik usullar orqali o‘rganiladi, ya’ni avlodlar shajarasini tuziladi

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Tibbiy evakuatsiya nima?
2. Birinchi yordam deganda nimani tushunasiz?
3. Birinchi tibbiy erdam nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. Favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tarmoqlari va ularning vazifalari nimalardan iborat.
5. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishning asosiy tamoyillari qanday?
- 6 Yuqori nafas yo‘llarini tiklash yo‘llarini necha turda bo‘ladi?
7. YURAK massaji muolajasini bajarishga doir ko‘rsatma va uning texnikasi.
8. Kasalliklarni kelib chiqish sabablari necha xilda?
10. Rengent, regenografiya va regenoskopiya deganda nimani tushunasi?
11. Irsiyat nima. Irsiy kasalliklarga qanaqa kasalliklar kiradi?

## **QON KETISHI VA BIRINCHI YORDAM KO‘RSATISH**

- 1 Yurak va qon tomirlar tizimining tavsifi
- 2.Yurak kon tomir kasallliklari
- 3.Qon ketishlarni to‘xtatish usullari.

**Tayanch iboralar.** Stend,yurak ishemiyasi, stenokardiya, miokard infarkti, arteriya, vena, kapilyar, sidrom, arimiya, kardioskleroz, fibroblast, perikard, epikard, miokard.

### **Yurak va qon tomirlar tizimining tavsifi**

Yurak qonni harakatlantirib, uninson a’zolari va to‘qimalariga yetkazib berib turadigan a’zodir. U oldingi kuks oralig‘ida joylashgan bo‘lib, sog‘lom odam yuragining asosi chap tomonda II qovurqa damida tursa, uchi V qovurg‘a oralig‘ida turadi. Yurak hajmi 250-300 g ni tashkil etadi.

Shuning uchun boshni orqaga bir oz bukiladi. Bir qo‘l bilan iyagi ushlanib og‘zini ochiladi. Agar qusuq massa yoki boshqa narsa bo‘lsa, qo‘lga biror material o‘rab, tozalab tashlaniladi. Bir qo‘l bilan burun qisib turiladi (berilgan nafas burundan qaytmasligi uchun). Ikkinchchi qo‘l bilan iyak ushlaniladi.

**Nafas oling.** Lablaringiz bilan uning og‘zini to‘liq xolatda yopib kuchli va bir tekis nafas bering. Nafas chiqishini ko‘krak qafasi ko‘tarilib tushishidan bilinadi. Agar bunday bo‘lmasa unda nafas yo‘li to‘silgan yoki xavo oshqozonga ketyapti. Xavo oshqozonga ketishini yomon asorati bu qayd qilishni kuchaytirishidir. Bu xolatdan saqlanish uchun boshni orqaga bukishga e’tibor bering

Uzunasiga ketgan to‘siq bilan yurak chap va o‘ng nimtaga bo‘linadi. Ha bir nimtasi yurak bo‘lmachasi bilan yurak qorinchasiga bo‘linadi.

Yurak uch qavatdan: ichki - endokard, o‘rta - miokard va tashqi — perikarddan tashkil topgan. Endokard yurak bo‘lmachalari bilan qorinchalari bo‘shlimarining ichki yuzasini qopab turadigan endotimal xujayralarlan iborat. Yurakning bir bo‘shligi ikkinchisiga aylanadigan joyda endokard qalin tortib, burmalar hosil qiladi, yurak klapanlari deb shularga aytildi. Miokard - yurakning

o‘rtalig qavatidir. O‘ng qorincha miokardi chapinikiga qaraganda sustrok, rivojlangan. Qorinchalari muskul qavati bo‘lmachalarinikiga qaraganda ancha qalinroq, bo‘ladi. Perikard — ichki va tashki varaqlardan tashkil topgan. Bu varaqlar orasida bo‘shliq bor, shu bo‘shliqda doimo 20-30 ml seroz suyuqlik bo‘ladi. Tana pastki qismlarining venalaridan kelgan qon pastki kovak venaga, yuqori qismlardan kelgan qon esa yuqori kovak venaga quyiladi. Bu venalarning ikkalasi o‘ng bo‘lmachaga quyiladi. So‘ngra venoz qon o‘ng qorinchaga o‘tadi, undan esa o‘pka arteriyasi orqali o‘pkaga o‘tadi.

**Qon aylanish sistemasi.** Qon aylanish sistemasi ikkita — katta va kichik kon aylanish doirasiga bulinadi. Tomirlar sistemasining bir qismi, ya’ni o‘ng qorinchadan o‘pka arteriyasining chiqish joyidan to o‘pka venasining chap bo‘lmachaga qo‘yilish joyigacha bo‘lgan qismi kichik qon aylanish doirasi deyiladi. Tomirlar sistemasining qolgan qismi ya’ni aorta va uning tarmoqtarilan tortib to ustki va kovak venalargacha bo‘lgan qismi katta qon aylanish doirasi deb ataladi. Tomirlar sistemasi bo‘ylab qon bir qancha omillar tufayli. birinchi galda yurakning bir tekis va davriy sur’atda qiskdrib borishi tufayli harakatlanib turadi. Yurakni qisqarishga mujbur etadigan impulslar o‘ng bo‘lmachada ustki kovak venanining og‘zi yakinida joylashgan sinus tugunida vujudga keladi.

Yurakning qisqarishi sistola, bo‘shashish esa diastola deb ataladi. Sistola diastolaga qaraganda ancha qisqa davom etadi. Diastolaning muddati yurak qisqarishlari tezligiga qarab o‘zgarib boradi. Normada yurak minutiga 60—80 marta qisqarib turadi. Yurak o‘zining qisqarishi uchun impulslarini o‘zi ishlab chiqarib boradi, ya’ni u avtomatizm xususiyatiga egadir. Ular qisqarganda normada 50-70 ml qonni otib chiqaradi, bu sistolik hajmni tashkil etadi. Yurakning minutlik hajmi 1 minut davomida yurakdan otib chiqaradigan qon miqdori hisoblanadi.

### **Qon ketish turlari va sabablari**

**Qon ketishi**, qon oqishi – jarohatlangan tomirlardan qon oqishi bilan kechadigan patologik holat. Shikastlanishlar va turli xil kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Arterial (arteriya tomirlaridan och qizil rangdagi qon otilib chiqadi), venoz (vena tomirlaridan qoramtil qon oqadi), kapillyarlar va parenximatoz a’zolar (jigar, taloq, buyrak va boshqa(lar))dan qon ketadi. Qon ketishi tezligi shikastlangan tomirlarning katta-kichikligi va uning devorlari holatiga bog‘liq. Qon birorta a’zo (me’da, ichak, miya va boshqa(lar)ga yoki tashqariga oqadi. Qon qusish, qon tuflash, qon siyish, plevra va qorin bo‘shlig‘ida qon to‘planishi, bachadondan qon ketishi va boshqa(lar) ham qon ketishi turlaridan. Arteriyadan qon ketishi juda xavfli, bunda qon tomirdan bosim bilan otilib chiqadi. Bolalar va qariyalarda qon yo‘qotish, ayniqsa, xavfli. Ayollarda qon yo‘qotish erkaklarga nisbatan engilroq kechadi. Qon ivishining pasayishi bilan kuzatiladigan ba’zi kasalliklarga (gemofiliya, nur kasalligi) duchor bo‘lgan odamlarda qon ko‘p ketmasa-da, qon ketishi jarayoni uzoq davom etishi tufayli xavfli bo‘ladi. Qon ketishi tashqi (qon teridagi jarohat orqali tashqariga chiqadi) va ichki (qorin, ko‘krak, kalla suyagi bo‘shliqlari va boshqa(lar)) bo‘lishi mumkin. Qon to‘qima

ichiga qo‘yilganda yumshoq to‘qimalarni so‘radi va u erda to‘planib, gema toma hosil qiladi yoki singib ketadi. Tashqi qon ketishi, odatda, teri va og‘iz, burun bo‘shlig‘i shilliq pardalarining jarohatlanishi bilan bog‘lik.

Bevosita shikastlanishdan so‘ng paydo bo‘ladigan travmatik qon ketishi birlamchi, jarohalangandan so‘ng bir necha kun o‘tgach, tayyorlangan qon ketishi ikkilamchi qon ketishi deyiladi. Bunday qon ketishining sababi, ko‘pincha, jarohatdagи yirinlash jarayonlari bo‘lib, ular shikastlangan tomirni berkitib qo‘ygan qon laxtalarining erib ketishiga olib keladi. Tananing yopiq yoki chegaralangan bo‘shlig‘iga qon ketishi, asosan, ichki a’zolar (jigar, o‘pka va buning shikastlanishi natijasida yuz beradi va bunda qon tashqariga chiqmaydi. Bunday qon ketishi faqat qon yo‘qotish tufayli organizm umumiy holatining o‘zgarishi va bo‘shliqqa to‘plangan suyuqlik belgilari orqali bilinishi mumkin. Qorin bo‘shligiga qon ketishi, asosan, o‘tkir kamqonlik belgilari – ragparlik, tomirning kuchsiz, lekin tez urishi, chanqash, uyquchanlik, ko‘z oldi qorong‘ilashshi, hushdan ketish bilan ifodalanadi. Ko‘krak bo‘shligiga qon ketishida kamqonlik simptomlari hansirash (qiynalib va tez nafas olish) bilan birga namoyon bo‘ladi. Ko‘krak bo‘shligiga qon to‘planganligini eshitib, urib ko‘rib va rentgenologik tekshirishlar yordamida aniqlanadi. Kalla suyagi ichiga qon ketishida birinchi o‘rinda qon yo‘qotish simptomlari emas, balki bosh miyaning ezilish belgilari – es-hushning o‘zgarishi, nafas olishning izdan chiqishi, falajlar va boshqa(lar) nevrologik xususiyatlar yuz beradi. Ichki qon ketishida bo‘shliqli (kovak) a’zolarga qon to‘plangan sari u tabiiy chiqaruv teshiklari orqali tashqariga chiqqa boshlaydi, lekin bunday qon ketishining sababini aniqlash hamma vaqt ham oson bo‘lavermaydi. Og‘izdan qon kelishi o‘pka, yuqori nafas yo‘llari, halqum, qizilo‘ngach va me’dadan qon ketishi bilan bog‘lik. Axlatda qon bo‘lishi me’da-ichak yo‘lining istalgan qismidan qon ketishda kuzatiladi.

Siydikda qon bo‘lishi buyrak, siydik yo‘li va qovukdan qon ketganda dalolat beradi. Bunday hollarda to‘g‘ri tashxis qo‘yish uchun ajralib chiqayotgan qonning ko‘rinishi va holati katta ahamiyatga ega. Og‘izdan qip-qizil ko‘pirgan qon kelishi o‘pka sili uchun xos. Kofe quyqasi rangida quşish me’dadan va o‘n ikki barmoq ichakdan qon ketishini, qoramoy Simon axlat me’da-ichak yo‘lining yuqori bo‘limidan qon ketishini bildiradi. To‘q qizil axlat bilan bir tekis ajralgan qon ingichka ichakdan, rangi o‘zgarmagan va axlat bilan aralashmagan qon yo‘g‘on ichakning eng pastki bo‘limidan qon ketishidan dalolat beradi. Ammo hamma vaqt ham bu belgilar qon ketishining sababi, manbaini aniqlash imkonini bermaydi, shuning uchun murakkab diagnostik tekshiruvlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

**Qon ketishini vaqtincha va tamoman to‘xtatish mumkin.** Vaqtincha qon to‘xtatishda jgut, bosuvchi bog‘lovlari bog‘lanadi, tomir toraytiruchi moddalar, muz ishlataladi. Tamoman qon to‘xtatishda jarrohlik usullari (tomirlarni bog‘lash, taqish, shikastlangan a’zolarni olib tashlash), shuningdek, qon quyish, qon o‘rnini bosuvchi suyuqliklar va dorilar qo‘llaniladi.

### **Yurak qon tomir sistemasi kasalliklari**

Hozirgi kunda aholi orasida yurak ishemik kasalligi, stenokardiya, miokard infarkti va uning oqibatida kelib chiqadigan turli xil asoratlar, ya’ni surunkali

yurak etishmovchiligi, yurak ritmining buzilishi, gipertoniya kasalligi va uning oqibatida kelib chiqadigan miya insulti, yurakning tug‘ma nuqsonlari kabi kasalliklar ko‘p uchramoqda. Kasallikning aholi o‘rtasida ko‘payishiga va og‘ir asoratli holatlarga o‘tib ketishiga bir tomondan bemorlarning o‘zlarini ham sababchi bo‘ladi.

Ma’lumki, kasallikning boshlang‘ich davrlarida bemorda kasallik belgilari namoyon bo‘lmaydi yoki bemorni bezovta qilmaydi. Kasallik nogahon tibbiy tekshiruvlarda, ommaviy profilaktik tadbirlar davomida (qon bosimini o‘lchaganda, elektrokardiogramma qilinganda, qonni bioximik tahlili o‘tkazilganda) aniqlanadi. Bu nimadan dalolat beradi? Bemorlarning o‘z sog‘liqlariga bee’tiborliklaridan, muntazam tibbiy kuzatuvlardan o‘tib turmaganliklaridan dalolat beradi.

**Yurak o‘ynashi.** Sog‘lom odam tinch holatda va sezilarli fizik kuchlanishda ham yurak urishini sezmaydi, faqatgina fizik zo‘riqishda (Macalan, zo‘r berib yugurgandan so‘ng) yurak urishi tezlashishi bilan uning kattiq urayotgani seziladi, tana harorati yuqori darajalarga ko‘tarilishida ham yurak o‘ynashi seziladi. Yurak kasalliklari bilan og‘rihan bemorlarda yurak o‘ynashi sezilarsiz fizik kuchlanishda, hattoki tinch turganda ham aniqladi. Ozgina hayajonlanish, ovqatdan so‘ng ham yurak o‘ynashi sezilishi mumkin. Normada yurak minutiga 60-80 marotaba uradi. Yurak kasalliklarida yurak uynashining kelib chikish sababi— bu yurak funksiyasining pasayishidir, bunda yurak qisqargan vaqtida aortaga yetarli miqdordagi qonni haydab chiqara olmay qoladi, shuning evaziga a’zo va to‘qimalarni etarli miqdorda qon bilan ta’minalash uchun yurak «majburan» tez qisqara boshlaydi. Yurak urishining tezlashishi—taxikardiya deyiladi. Yurak ritmining buzilishi — aritmiya deganda, yurakning to‘xtab-to‘xtab, xuddi xayolda yurak muzlab, to‘xtab qolganday, qisqa kuchli urishi tushuniladi. Yurakning to‘xtab-to‘xtab urishi bir marotaba yoki davomli bo‘lishi mumkin. Bu holatga yurak qiskarishlarining buzilishi sabab bo‘ladi.

**Hansirash.** Yurak kasalliklarida ko‘p uchraydigan belgilar yurak qisqaruvchanlik funksiyasining pasayishi natijasida kelib chiqadi va buning evaziga kichik qon aylanish doirasida qon dimlanadi, hansirash—yurak etishmovchiligining birinchi belgilaridan hisoblanadi. Yurak muskullarining sezilarsiz bo‘shashishi natijasida fizik kuchlanishlarda hansirash seziladi.

Yurak muskullarining to‘satdan bo‘shashishi sababli, to‘satdan hansirash kelib chiqadi (xuddi nafas qisish xurujiday), bu holat yurak astmasi xuruji deb ataladi. Agar xurujda shoshilinch yordam ko‘rsatilmasa (etarli dori moddalari bilan), o‘pka shishuvi kelib chiqadi, bunda xurujga qon aralash qo‘pikli balg‘amli yo‘tal qo‘shiladi. Bu xolat ancha og‘ir bo‘lib, ba’zan bemor o‘lib kolishi mumkin. Yurak (miokard) ishemiyasi – yurak-qon tomir patologiyasining eng keng tarqalgan kasalligi bo‘lib, statistika bo‘yicha keksa yoshdagagi erkaklarning teng yarmi va ayollarning uchdan birida uchraydi. Yurak ishemiyasi uzoq vaqtgacha bilinmasdan kechishi va keng ko‘lamdagagi infarktgaga olib kelib, o‘lim bilan yakunlanishi mumkin. Ishemiyaning turli shakllaridan o‘lim asorati 30% ni tashkil etadi.

Yurak ishemiyasi sabablari.

- Keksa yosh;
- Erkaklar jinsi;
- Irsiy moyillik (oilaviy yog‘lar almashinuvini buzilishi);
- Chekish;
- Yondosh kasalliklar diabet, gipertoniya, semizlik;
- Lipid spektrini buzilishi;
- Kam xarakat qilish.

So‘nggi yillarda ishemianing yoshlarda, ayniqsa shaxarlarda yashovchi kontingenlarda kuzatila boshladi. Ayollar esa o‘z gormonal fonining xususiyatlariiga, ya’ni estrogen gormoni xisobiga turli ishemik o‘zgarishlardan ximoyalangan. 70 yoshgacha

Yog‘lar almashinuvining buzilishi arteriya qon tomirlari devorida lipidli birikmalarani sirkulyar o‘tirib qolishiga va qon aylanishini buzilishi natijasida yurak to‘qimalarida gipoksiyaga sabab bo‘ladi.

Yurak ishemiyasi turlari:

1. Stenokardiya
2. Miokard infarkti
3. Yurak ritmini buzilishi.
4. To‘satdan koronar o‘lim.
5. Kardioskleroz (ilgari o‘tkazilgan infarkt xisobiga).
6. Yurak etishmovchiligi.

**Stenokardiya** – yurak ishemiyasining keng tarqalgan turi bo‘lib, og‘riqli va og‘riqsiz turlari farqlanadi. Infarkt – yurak muskulini nekrozi bo‘lib, kislorodning o‘tkir etishmovchiligi natijasida rivojlanadi, yurak faoliyatini buzilishi bilan kechadi. U qaytmas jarayon bo‘lib, ishemiya o‘chog‘i o‘rnida chandiq – infarktdan keyingi kardioskleroz rivojlanadi. Zararlangan o‘choqning kattaligiga ko‘ra infaktning: yirik o‘choqli (transmural) yoki mayda o‘choqli turlari farqlanadi.

#### **Yurak ishemiyasida nima kuzatiladi?**

1. Yurak ishemiyasining asosiy belgisi og‘riq sindromi hisoblanadi. U nerv retseptorlarini moddalar almashinuvi mahsulotlari (sut kislotasi) tomonidan ta’sirlanishi natijasida paydo bo‘ladi.
2. Xronik ishemiya natijasida yurak muskullarining doimiy «gipoksiyasi» kuzatilib, bu fibroblast hujayralarini faollashuviga olib keladi va natijada kardioskleroz rivojlanadi.
3. Ishemik o‘choqlarning yurakning o‘tkazuv tizimi – nerv tolalari sohasida joylashuvi aritmiyalarga sabab bo‘ladi.
4. Ishemik o‘zgarishlar yurakning asosan chap qismlarida – eng ko‘p zo‘riqish bilan ishlaydigan – chap qorinchada joylashadi.

## **Yurak ishemiyasi belgilari**

1.Zo‘riqish stenokardiyasi – jismoniy zo‘riqish natijasida ko‘krak sohasida og‘riq sindromi shuningdek, harakat va emotsional stresslar paytida hansirash bilan namoyon bo‘ladi. Odatda bu belgilar yarim soatgacha davom etib, nitroglitserin ta’sirida yo‘qoladi.

2.Tinch holatdagi stenokardiya – patsientning tinch holatida bordaniga og‘riq paydo bo‘lib, qabul qilinayotgan dori preparatlarining effekti kam bo‘ladi.

3. Miokarda infarkti – ishemianing og‘ir turi hisoblanib, ko‘krak qafasi ortidagi kuchli, kuydiruvchi og‘riqlar, o‘lib qolishdan qo‘rquv hissi, notinchlanish, psixomotor qo‘zg‘alishlar, hansirash, terilarning ko‘karishi bilan xarakterlanadi. Ayrim hollarda og‘riq qorin sohasida joylashishi, yoki umuman og‘riqni bo‘lmasligi kuzatiladi.

4.Hilpirovchi aritmiya – yurak ichi nerv tomirlarida impulslar o‘tkazuvchanligi buzilishi natijasida rivojlanadi. Patsientlar yuragining tez-tez urayotganini, qotib qolganga o‘xshash xisni yoki xovliqishi xaqida aytadi.

5. Yurak etishmovchiligi belgilari – ishemik holatning uzoq cho‘zilishi natijasida rivojlanib, teri va shilliq qavatlarni ko‘karishi, oyoqlardagi shish, perikard, ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘ida suv yig‘ilishi, bemorlarning hansirab, majburiy o‘tirgan holatga o‘tib olishi kuzatiladi.

**Miokard infarkti**—o‘tkir holat, yurak ishemik kasalligining klinik shakli, to‘liq yoki qisman qon etishmovchiligi natijasida yurak muskul to‘qimasining (miokard) nekrozi (o‘limi) tufayli yuzaga keladi. Bu butun yurak-qon tomir tizimi faoliyatining buzilishiga olib keladi va bemorning hayotini xavf ostiga qo‘yadi. Miokard infarktining asosiy va eng ko‘p tarqalgan sababi — yurak mushagini qon bilan va shunga mos ravishda kislorod bilan ta’minkaydigan toj (koronar) arteriyalardagi qon oqimining buzilishi hisoblanadi. Ko‘pincha bunday buzilish arteriyalar aterosklerozining fonida yuzaga keladi va unda tomirlarning devorida aterosklerotik pilakchalar (blyashkalar) paydo bo‘ladi. Ushbu pilakchalar toj arteriyalari bo‘shlig‘ini toraytiradi va tomir devorlarining shikastlanishiga hissa qo‘shadi, bu esa tromb va arterial stenoz shakllanishi uchun qo‘shimcha sharoitlarni yaratadi. Miokrad infarkti ko‘p odamlarning hayotiga zomin bo‘ladi.

**Infarkt qaerdan kelib chiqadi?** Ishemik kasallik infarktgaga aylanishi uchun ba’zan hech qanday qo‘zg‘atuvchi omillar kerak bo‘lmaydi: shunchaki uyqudan uyg‘onib, o‘rindan turishning o‘zi etarli. Stress yoki noodatiy jismoniy harakatda yurak xuruji xavfi oshadi.

### **Bu infarkt ekanini qanday bilish mumkin?**

Asosiy belgi — ko‘krak qafasidagi kuchli og‘riq, bu ba’zan chap qo‘l, chap yelkada ham kuzatiladi. Og‘riq har xil bo‘ladi: ko‘krak qafasi siqiladi, qiziydi. Og‘riq bilan birga qo‘rquv ham qamrab oladi, inson tinchini yo‘qotadi.

**Arterioskleroz** - Yosh o‘tgan sari tomirlar ichki devorida patologik o‘zgarishlar natijasida, yog‘ moddalari toshma ko‘rinishida to‘planib boradi. Ushbu aterosklerotik toshmalarda biriktiruvchi to‘qimaning o‘sishi va kalsiy tuzlarining to‘planishi hisobiga arteriya tomirlarining teshiklari asta-sekin

torayib boradi. Og‘ir holatlarda butunlay yopilib qolishigacha etib boradi. Bu esa o‘z navbatida kasallangan arteriya orqali qon bilan ta’minlanuvchi a’zo faoliyatini izdan chiqaradi. Bu jarayon qo‘yidagicha boradi. Qon tomirining ichki devorlari torayishi bilan undan ma’lum vaqt ichida o‘tadigan qon hajmi ham qamayadi. Va o‘z navbatida bu tomir qon bilan ta’minlaydigan a’zo ham, qon orqali normadan kamroq oziq moddalar va kislorod ola boshlaydi. Natijada a’zo o‘z vazifasini to‘liq bajara olmay qoladi, oziq moddalar etishmasligi sababli esa asta-sekinlik bilan, to‘qimalari o‘ladi va yemirilib boradi. Bundan tashqari, arteriya teshigi tromb bilan ya’ni quyuqlashib qolgan qon laxtasi bilan butunlay berkilib qolishi ham mumkin. Bunday jarayon tromboz deb ataladi. Trombozda ushbu arteriya oziqlantiradigan a’zoda keskin ravishda nekroz (chirish) jarayoni boshlanib ketadi. Miokard infarkti aynan shu kasalliklar toifasiga kiradi.

**Aterosklerozni rivojlanish sabablari.** Ateroskleroz ko‘pincha 50–60 yoshdagi erkaklarda va 60 dan oshgan ayollarda uchraydi. Lekin kasallikning ancha oldin rivojlanish ehtimoli ham yo‘q emas, bunga giperxolesterinemiya sabab bo‘lishi mumkin. Giperxolesterinemiya bu qonda ortiqcha miqdorda xolesterin moddasining to‘planishidir. Ushbu modda kerakli miqdorda organizmda muhim rol o‘ynaydi. Aynan holesterindan jinsiy gormonlar yaratiladi, o‘t suyuqligini ham asosi bu moddadir.

Yana D vitaminini sintezi ham unga bog‘liq. Holesterin hayvon yog‘larida ko‘p bo‘ladi. Sog‘lom odam ko‘p miqdorda hayvon yog‘larini ist’emol qilsa, odatda ortiqcha holesterin organizmdan chiqarib yuboriladi. Biroq ayrim sabablarga ko‘ra bu jarayon organizmni ortiqcha zararli moddalardan tozala olmay qoladi. Bunday sabablar xilma-xil, masalan nasliy moyillik, arterial, gipodinamiya (kamharakatlik), qonning quyuqlashuvi, qandli diabet va hokazo. Cpekish va semizlik ham bu kasallikka olib keladi. Bunday natijasida qon tomirlari ichki yuzasini yog‘ bosib ateroskleroz kasalligi rivojlanadi.

Shuning uchun har bir inson bir yilda bir marta profilaktik tekshiruvlardan oilaviy poliklinikasi orqali o‘tib turishi kerak. Kasallik aniqlanganda davolash va diagnostika tadbirlarini o‘tkazib, kasallikning avj olib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish kerak. Shuningdek, hozirgi globallashuv davrida, ekologik muhitning o‘zgarib ketganligi, ichkilik va chekish kabi zararli odatlarga berilish, yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikoh yurak-qon tomir kasalliklarining tug‘ma turlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Haqiqatdan, yurak-qon tomir kasalliklari yosharib bormoqda. Ilgarilari bu kasalliklar asosan qariyalarda uchragan bo‘lsa, hozirda 20 yoshli insonlarda ham miokard infarkti, arterial gipertoniya, yurak ritmining o‘tkir buzilishi kabi kasalliklar uchramoqda. Bunga sabab yuqorida aytganimizdek, globalizatsiya davridagi gipodinamiya holatlari, yog‘ almashinuvining buzilishi, dislipidemiya va giperxolesterinemiya, giperkoogulyasiya, ya’ni qonning quyuqlashishi va qon ivish holatining tezlashishi, zararli odatlar – spirtli ichimliklar iste’moli, tamaki chekish, noto‘g‘ri ovqatlanish kabi omillarni ko‘rsatish mumkin.

## **Nazorat uchun savollari**

1. Yurak va qon tomirlar tizimining tavsifi
2. Yurak kon tomir kasallliklari
3. Qon ketishlarni to‘xtatish usullari.
4. Qon aylanish sitemasi. Katta va kichik qon aylanish sistemasi to‘g‘risida tushuncha bering?
5. Qon ketish turlari va sabablari?
6. Ichki va tashqi qon ketish sabablari birinchi yordam ko‘rsatish?
7. Qon ketishini vaqtincha va tamoman to‘xtatish mumkin usullari?
8. Yurak qon tomir sistemasini kasalliklari?
9. Yurak kon tomir sistemasining kelib chiqish sabablari?

## **KUYISH, CHO‘KISHLAR, SOVUQ URISHI VA ISSIQ URISHLARI**

### **Reja.**

1. Kuyish tushunchasi va ularning tasnifi.
2. Kuyishlarda birinchi yordam.
3. Elektrotravma va unda tibiy yordam ko‘rsatish
4. Cho‘kishlar, turlari va ularda birinchi yordam

**Tayanch iboralar.** Elektrotravma, temperatura, termik kuyish, infeksiya, kislota, ishkor, elektr kuyishlari, sulfat, nitrat kislota, nashatir spirti, o‘yuvchi kaliy, o‘yuvchi natriy, sirka kislota,

### **Kuyish tushunchasi va ularning tasnifi**

*Kuyish* deb, yuqori temperatura, kimyoviy moddalar, elektr toki va radiaktiv nurlar ta’sirida to‘qimalarning shikastlanishiga aytildi. Shunga ko‘ra termik kuyish, kimyoviy moddalar va nurlar ta’sirida kuyish farq qilinadi. Turmush va ishlab chiqarishda yuqori temperatura ta’sirida kuyish, ya’ni termik kuyish ko‘p uchraydi.

Kuyishlar-jarohatlanishlar ichida balandlikdan yiqilishdan so‘ng turuvchi og‘ir travmalardan biri xisoblanadi. Kuyishning keltirib chiqargan omili va zararlanish yuzasiga ko‘ra bir nechta turlari mavjud. Ular yordamida davolanish taktikasi va kuyish prognozi belgilanadi.

Kuyishning sababiga ko‘ra turlari:

- Termik kuyishlar—eng ko‘p uchrab, issiq buyumlar, ochiq olov va issiq suv bilan kontaktda bo‘lish natijasida rivojlanadi;

- Ximik kuyishlar—teri yoki shilliq qavatlarga Kimiyoviy moddalar, asosan kislota va ishqorlarning ta’sirida rivojlanadi;

- Elektrik kuyishlar—elektr toki ta’sirida payo bo‘ladi;

- Nurlanishli kuyishlar—quyosh yoki radiatsiya nurlari ta’sirida rivojlanadi.

Kuyishlarning zararlanish yuzasi va chuqurligiga ko‘ra turlari:

- Idarajali — bunda teri faqat qizaradi;

- II darajali – bunda shaffof suyuqlik tutuvchi pufakchalar xam xosil bo‘ladi;
- III A darajali – bunda pufakchalar ichida qon aralashmalari paydo bo‘ladi;
- III V darajali – terini barcha qavatlar zararlanadi;
- IV darajali – teri ostidagi yumshoq to‘kimalar (yog‘, muskul, pay, boylamlar va suyaklar) xam zaralanadi.

To‘g‘ri o‘ta yengil kuyishlar hayotga xavf tug‘dirmaydi, lekin quyidagi xolatlarda bemorni gospitalizatsiya qilish lozim:

- Tana yuzasini 20% dan ortig‘i zararlansa (bolalar va qariyalarda 10% dan ortig‘i);
- III darajali kuyishlarda tana;
- II darajali kuyishlar yuzda, oyoq-qo‘l kaftlarida, oraliqda, muxim boylamlarda joylashsa;
- Elektrotravmalarda;
- Termik kuyishlar nafas yo‘llarini xam zararlaganda;
- kimyoviy kuyishlarda.

Kuyishlarda birinchi yordam:

Kuyishlarning har qanday turi kuchli og‘riq bilan kechgani sababli birinchi tez yordam tezkorlik bilan ko‘rsatilishi kerak. Har bir soniya zararlanish yuzasini kengayishi va chuqurlashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Termik kuyishlarda birinchi yordam:

1-bosqich: Issiqlikni tana yuzasiga ta’sirini to‘xtatish: zararlangan odamni issiq suv, alanga, issiq bug‘ zonasidan olib chiqish.bemorni yonayotgan kiyimlardan xalos etish. Tanaga yopishgan kiyimlariga tegmasdan qolgan qismini qaychi yordamida kirqib olish;

2-bosqich: zararlangan tana yuzasini sovutish, buning uchun oddiy suv yoki polietilen paketlarga solingan qor, muz va sovuq suv yordamida. Bu og‘riq sindromini kamaytirish va kuyishni chuqurlashib ketishini oldini oladi

Kuygan sohani darhol bog‘lash va hosil bo‘lgan pufakchalarni yorish ma’n qilinadi. Bu jarohat yuzasiga infeksiya tushishiga sabab bo‘ladi.

3-bosqich: Kuygan sohani steril, antiseptik vositalarda namlangan doka bilan bog‘lash. Jarohat yuzasiga Pantenol spreyini sepish yaxshi foyda beradi.

Diqqat: Jarohat yuzasiga hech qachon yog‘, moy, krem, tuxum sarig‘i yoki boshqa vositalari surtmang. Ular jarohat yuzasida plenka hosil qilib, issiqlik chiqarishni sekinlatishi va keyingi muolajalarda dori vositalarini so‘rilishini qiyinlashuvi va chuqr chandiqlarga sabab bo‘ladi.

4-bosqich: Og‘riqsizlantirish. Uy sharoitida bemorga og‘riq qoldiruvchilardan: analgin, baralgin, ketanal berishingiz mumkin.

5-bosqich: Yo‘qotilgan suv o‘rnini to‘ldirish: Agar bemor xushida bo‘lsa,

ko'ngil aynishi va qayt qilish alomatlari bo'lmasa o'zi istamagan taqdira xam 0,5-1 litrgacha suv beriladi. Bu kuyish shoki oldini oladi.

Kimyoviy moddalardan kuyishlarda birinchi yordam:

Kimyoviy kuyishlarda ham xuddi shu bosqichlar bajariladi. Lekin zararli omil ta'siri ya'ni kimyoviy vositalar oqar suvda yuviladi. Kislotani ishqor bilan yoki aksincha neytrallashga urinmang, aks holda hosil bo'lgan issiqlik kimyoviy kuyishni termik kuyish bilan qo'shilishiga sabab bo'ladi. Elektrik kuyishlarda birinchi yordam:

Bu holatlarda tez yordam kuyishga sabab bo'lgan elektr manbaidan to'liq xalos bo'lganiga ishonch hosil qilganingizdan so'ng ko'rsatiladi. Kuchlanishli elektr simini olib tanlang, avtomatni o'chiring, so'ngra bemorni xavfsiz joyga olib o'ting. Elektr kuyishlarini nozik tomoni teri yuzasidagi jarohat minimal bo'lsa ham ichki a'zolardagi o'zgarishlar xayoi uchun xavfli tus olishi mumkin. Shuning uchun avval bemorning pulsi, yurak urishi va nafas olayotganiga ishonch hosil qilgach tez yordam chaqiriladi.

Kimyoviy moddalardan kuyish ko'pincha teriga kuchli kislotalar ( sulfat va nitrat kislota ), ba'zan o'yuvchi ishqorlar ( nashatir spirti, o'yuvchi kaliy yoki o'yuvchi natriy), xlorli ohak to'qilishidan sodir bo'ladi. Bunda beriladigan birinchi yordam -kuygan terini zudlik bilan sodaning suvdagi eritmasi (kislota to'kilganda) , sirka kislota (ishqor to'kilganda) yoki oddiy oqar suv bilan yuvibyu sterillangan bog'lov qo'yishdan iboratdir.

Nurdan kuyish ko'pincha ultrabinafsha nurlarining teriga davomli ta'siri natijasida ro'y beradi. Kuyishning bu xili uncha xavfli bo'lmay ba'zan terida pufakchalar paydo bo'ladi, lekin ancha joy kuygan bo'lsa, ( plyajda quyosh nuri ta'sirida ko'p vaqt bo'lish ) teri qizarib, achishishidan tashqari, shikastlangan kishining darmoni qurib, eti uvishadi, harorati ko'tariladi, boshi og'riydi, ko'ngli ayniydi.

Birinchi yordam terini spirt,odekalon bilan artishdan iborat. Yuqorida ko'rsatilgan o'zgarishlar odatda bir sutka davom etadi. Bu holat o'tib ketgunicha bir necha kun davomida quyosh nuridan saqlanish lozim, so'ngra qisqa muddatli quyosh vannasi qabul qilsa bo'ladi. Mamlakatimizning barcha shaharlarida kuygan kishilarni davolaydigan maxsus markazlar tashkil etilgan.

#### **Zudlik bilan tez yordamni chaqiring, agar kuyish:**

- nafas olishni qiyinlashtirsa
- tananing bir necha qismini egallagan bo'lsa
- bosh, bo'yin, qo'l va oyoq kaftlari yoki jinsiy a'zolarini shikastlangan bo'lsa
- yosh bola yoki keksa odam shikastlangan bo'lsa
- kimyoviy modda portlash yoki elektr toki ta'sirida yuz bergen bo'lsa

#### **Birinchi darajali kuyishda birinchi yordam.**

- kuygan sohani zudlik bilansov uq suv bilan soviting, biroq suv yaxlagan bo'lmasin.

- hech qachon muzdan foydalanmang.
- og‘riqni kamaytirish uchun shikastlangan sohaga toza, nam sochiqni yoping.

***Ikkinch darajali kuyishda birinchi yordam.***

- kuygan yuzani sovuq suv bilansovuting
- infeksiya tushishining oldini olish uchun nam yoki quruq sterillangan bog‘lov qo‘ying
- shish paydo bo‘lgunga qadar shikastlangan odamdan uzuk, soat va boshqa narsalarni echib oling.

***Mumkin emas.***

- kuygan sohaga sterillangan yoki toza tampon-bog‘lovlardan tashqari biror –bir narsani tekkizish, paxta ishlatish.
- kuygan sohaga yopishib qolgan kiyimni yulib olish.
- uchinchi darajali kuyishda yarani tozalash.
- kuyish pufakchalarini yorish

- kuyishda ishlatish uchun mo‘ljallangan maxsus krem, surtma dori, sepma dorilardan, boshqa vositalardan foydalanish

Uchinchi darajali kuyishlarda shikastlangan odamni mumkin qadar tezroq shifokor huzuriga eting.



Tanamizning ustki qismini qoplab turgan teri uning ostidagi barcha to‘qimalarni tashqi muhitning noqulay ta’siri hamda mikroblar kirishidan himoya qiladi. Ba’zan shoshma-shosharlik qilib yoki o‘zimiz bilmagan holda terimiz kuyib, jarohat olamiz. Har birimiz bir marta bo‘lsa ham ana shunday holatga tushganmiz va ko‘pincha bunday paytda o‘zimizni yo‘qotib, nima qilishni bilmay qolamiz. To‘g‘ri, kuyishga qarshi zamонави dori vositalari talaygina, ammo zarur mahal ulardan hech biri topilmasa-chi? Uyingizni yaxshiroq qarang-chi, balki shifobaxsh o‘simpliklar bordir?..

Biror joyingizni kuydirib oldingizmi, bir necha daqiqa sovuq suvgatuting, toki teri ostida chuqurroq joylashgan to‘qimalar ham zararlanmasin. Shuningdek, kuygan joyga muz qo‘yish ham mumkin. Keyin esa qovoq yoki kartoshkani bo‘lib, qo‘yib turing. Bo‘lakchalarni har ikki-uch daqiqada, og‘riq to‘xtamaguncha almashtirib turish lozim.

Yoki qora yoki ko‘k choyni damlab, sovitasisiz. Dokani choyga ho‘llab, kuygan joyga qo‘ysangiz ham bo‘ladi.

## ELEKTR TOKIDAN SHIKASTLANISH

Elektr simlarni ikkala qutbini ushlaganda tokdan shikastlanish ro'yobga keladi, bu boshqa kuyishlardan farq qiladi. Elektr tokining ta'sir qilishi uning kuchiga, kuchlanishi va ta'sir davomligiga bog'liq bo'ladi. Terining qarshiliqi qancha kam bo'lsa, tok ta'siri shunchalik chuqur va xavfli bo'ladi. Odam badani orqali yuqori kuchlanishdagi tok o'tganda umumiy va mahalliy shikastlanishlar sodir bo'ladi. Tokni kirish va chiqish joyida termik, kimyoviy va mexanik shikastlanishlar namoyon bo'ladi. Mushak ko'chadi, tunel paydo bo'lib, qontalashadi. Elektr tokdan shikastlangan sohada sarg'ish-qo'ng'ir yoki kulrang kuyish jarohatlari ro'yobga keladi. Ular odatda katta bo'lmasdan 2-3 mm, o'rtasi past va atrofi do'mboqcha kabi (tok nishonlari) ko'tarilib turadi. Bunda qizarish va og'riq bo'lmaydi.

Umumiy o'zgarishlar asosan asab tizimi faoliyatining buzilishidan iborat bo'lib, bu bemor organizmi uchun eng xavfli hisoblanadi. Umumiy belgilar tokning ta'sir qilish davriga bog'liq. Yengil hollarda qo'rquv, darmonsizlik, hushdan ketish, ko'ngil aynish bo'ladi. Og'ir hollarda shok belgisi, o'lim old holatlari ro'y beradi. Shikastlanganda nafas olishning to'xtashi, yurak fibrillyasiyasi yuzaga kelishi, tana harorati pasayib, falajlik ro'y berishi kuzatiladi.

Elektrojarohat og'ir bo'lgan hollarda tezda yoki bir necha kundan keyin o'lim yuz berishi mumkin. Birinchi tibbiy yordam. Eng avvalo tok ta'sirini to'xtatish kerak. Buning uchun tok uzib qo'yiladi (rubilnik, vklyuchatel o'chirilib, probka buraladi), tok urgan odamga tegib turgan sim quruq tayoq bilan olib tashlanadi. Oyoqqa kalish kiyish yoki quruq taxtada turish shart. U xonaga olib kiriladi, mahalliy kuygan soha tozalanib, bog'lov qo'yiladi. Elektr tokidan shikastlanish uncha og'ir bo'lmasa, birinchi yordam berib, bemorni tezda kasalxonaga olib borish kerak. Birinchi yordam ko'rsatishda og'riq qoldiruvchi, tinchlantiruvchi va yurak ishini yaxshilaydigan vositalar (Valeriana nastoykasi va boshqalar) berish kerak. Bemorning nafas olishi uzilgan yoki to'xtab qolgan bo'lsa, sun'iy nafas oldiriladi. Bunda yaxshisi «og'izdan-og'izga» usulidan foydalanish kerak. Sun'iy nafas oldirishni yurak ishini yaxshilaydigan dorilardan (kordiamin, kofein) in'eksiya qilish va nafas olishni yaxshilaydigan dorilardan (sititon, lobelin, efedrin) yuborish bilan birga olib borish maqsadga muvofikdir. Yurak urishi susaygan yoki to'xtab qolgan bo'lsa, tezlik bilan yurakni ustdan (yopiq) massaj qilish zarur. Massajni yurak faoliyati to'la tiklanguncha (6-8 soat) davom ettirish kerak. Elektr tokidan shikastlanishning oldini olish uchun xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish zarur.

Ilgari elektr jarohatlar tabiatdagi tok manbai - chaqmoqdan yuzaga kelar edi. Bunda ham birinchi tibbiy yordam yuqorida qayd qilinganday bajariladi. Chaqmoq urishi og'ir o'tganda: qo'l-oyoq qorako'mirga aylanib, hatto tanadan ajralib ketishi ham mumkin. Og'ir chaqmoq urishlar shifoxonalarning maxsus bo'limlarida davolanadi.

## **Cho'kishlar, turlari va ularda birinchi yordam.Sovuq urishi , darajalari va birinchi yordam.Issiq urishi, bosqichlari va tibbiy yordam ko'rsatish.**

Cho'kishni bir nechta turlari farqlanadi.

**1. Haqiqiy cho'kish-o'**pka va nafas yo'llarini suv to'ldiradi, odam hayot uchun kurashadi va talvasali harakat qilib, suvni tortadi va suv o'z navbatida havo kirishiga halaqit qiladi. Cho'kayotgan odamning terisi ko'kargan bo'lib, og'iz va burundan ko'pik keladi; agar odam suv tagida 3-6 daqiqadan ko'p bo'lmasa, jonlantirish choralari muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

**2. Quruq cho'kish-ovozi** yorig'i spazmi tufayli suv o'pkaga kirmaydi, teri ko'karishi kam, hushdan ketishi kuzatiladi, cho'kayotgan odam shu zahoti suv tubiga tushadi.

**3. Sinkopal cho'kish-to'satdan** nafas olishi va yurak urishi to'xtashi o'limga olib keladi. Bunda cho'kayotgan odam terisi oqaradi. Quruq va sinkopal cho'kishda, odam suv tubida 10-20 daqiqadan ortiq bo'lsa, jonlantirish choralari muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.



5-rasm. Cho'kkanda birinchi erdamni tashkil etish

Sovuq suvda cho'kayotganda himoya qiluvchi gipotermiya effekti paydo bo'ladi va jonlantirish choralarini 20 daqiqa davomida suv tubida bo'lganda ham o'tkazish mumkin. Cho'kayotgan odamni qutqarib, qirg'oqqa olib chiqiladi va birinchi yordam beriladi. Agar shikastlangan odam hushdan ketmagan bo'lsa, pulsi qoniqarli va nafas olishi saqlangan bo'lsa, uni tekis, quruq qattiq joyga yotqiziladi, boshi past bo'lishi lozim, kiyimlari echiladi, qo'l yoki sochiq bilan ishqalanadi.

Issiq ichimlik beriladi va issiq matoga o'raladi. Agar jabrlanuvchi hushsiz bo'lib, puls iva nafas olishi saqlangan bo'lsa, boshi orqaga qilinadi, pastki jag'i oldinga tortiladi, so'ng uni boshi past qilib yotqizilib, barmoqlar bilan og'iz bo'shlig'ini loydan, qusuq massalaridan tozalash kerak, uni ishqalab, artib isitiladi.

Jabrlanuvchi hushdan ketganda, mustaqil nafas olmaganda, lekin yurak faoliyati saqlanib, nafas yo'llarini tozalash choralari o'tkazilgandan so'ng, tezlikda sun'iy nafas berishni boshlash kerak. Jabrlanuvchi nafas olmaganda va yurak faoliyati kuzatilmagandasun'iy nafas berishni yurak massaji bilan birga o'tkazish lozim. Oldin nafas yo'llaridan suvni chiqarib tashlash kerak, buning uchun uni

qorni bilan tizza bo‘g‘imida bukilgan oyog‘i soniga yotqiziladi kuraklar orasiga bosiladi. Bu muolajalar 15-16 sekunddan oshmasligi kerak, chunki sun‘iy nafas o‘z vaqtida berilishi kerak.

Birinchi yordam ko‘rsatilgandan so‘ng jabrlanuvchini tezlikda kasalxonaga yotqizish lozim, chunki o‘pkada asoratlar rivojlanishi mumkin (ikkilamchi cho‘kish sindromi). Ikkilamchi cho‘kish sindromi belgilari: o‘tkir nafas etishmovchiligi, ko‘krakda og‘riq, yo‘tal, hansirash, havo etishmasligi, qon bilan yo‘talish, qo‘zg‘alish, puls tezlashishi.

Ko‘cha-ko‘yda ro‘y beradigan turli falokatlar, baxtsiz hodisalar oqibatida odamlar ko‘p qon yo‘qotishi, oyoq-qo‘llari shikastlanishi mumkin. Ba’zan odamning yuragi urishdan to‘xtab, o‘lim bilan hayot orasida qolishi ham ehtimoldan xoli emas. Demak, og‘ir holatlarda yon atrofdagi odamlar o‘zlarini oddiy tomoshabin emas, balki najotkor sifatida his etishlari darkor, ya’ni shikastlangan odamga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish yo‘llarini bilib qo‘ysalar, yaxshi bo‘lardi.

**Qachon sovuq uradi?** Ob-havo haroratining pastligi, sovuq, qattiq izg‘irinda, qorva yomg‘irda qolish natijasida odam ayniqsa, qo‘l-oyoq, yuz, qulqoq, burunni sovuq urishi mumkin. Poyabzalnин gho‘l bo‘lishi, shuningdek, ochiq havoda uzoq vaqt sovuq ta’sirid aqolish ham bung asabab bo‘ladi.

Tananing sovuq urgan qismi avvaliga sanchib, achishadi, keyin esa terisi oqarib yoki ko‘karib ketadi, hech narsan sezmay karaxt bo‘lib qoladi. Natijada qo‘l yoki oyoq faol harakat qila olmaydi. Shikastlanish ko‘lamining nechog‘lik chuqur va kengligini sovuq ta’siri to‘xtaganidan keyin, oradan bir necha soat, ba’zan kun o‘tganidan so‘nganiqlashmumkin. Bunda tananing sovuq olgan joyi shishishi, yallig‘lanishi, ba’zan to‘qimalarning nobud bo‘lishi kuzatiladi.

Badanini sovuq urgan odamga birinch itibbiy yordam ko‘rastishda, eng avvalo, uni issiq binoga olib kirish, iloji bo‘lsa, issiq suvli vannaga tushirish, unga issiq choy, qahva ichirish zarur. Keyin ho‘l kiyimi va poyabzali mumkin qadar tezroq qurug‘iga almashtiriladi. To‘qimalarda ko‘zga tashlanadigan jiddiy o‘zgarishlar, ya’ni terida qavariqlar, eti nobud bo‘lgan joyla rbo‘lmasa, sovuqolgansohani spirt, atir, toza paxta, salfetka, sochiq bilan artib, tozalashzarur. Agar terida o‘zgarishlar bo‘lmasa, shikastlangan joylar spirt bilanartilgach, toza, quruq qo‘l bilan teri qizarguncha ohista ishqalanadi, ustidan steril bog‘lam qo‘yiladi.

**Sovuq olish.** To‘qimalarni past harorat ta’sirida shikastlanishi sovuq olish deyiladi. Ko‘proq Sibir va Uzoq Sharq mintaqalarida uchraydi. Sovuq olishda xavo xarorati, kiyim, namlik, shamol, kishining shaxsiy moslashuv xususiyatlari rol o‘ynaydi. Masalan, sovuq mintaqada yashovchilar ancha moslashgan bo‘ladi. Alkogol qon tomirlarni kengaytiradi va issiqlikni yo‘qolishiga olib kelib, sovuq olishni kuchaytiradi.

Sovuq olishning reaktiv oldi va reaktiv davri farqlanadi. Reaktiv oldi davri bir necha soatdan 1 kungacha davom etib, terining oqorganligi, sianoz, sovuqligi, kam sezuvchanligi bilan tavsiflanadi. Sovuq urgan soxada achishish va paresteziya seziladi, og‘riq bo‘lishi mumkin. Shikastlangan soxada xarorat me’origa kelishi

bilan reaktiv bosqich boshlanadi. Reaktiv bosqichda terining qizarishi, qizishi, og'riq achishish kuzatiladi. Teri shishgan, rangi har xil bo'ladi. Shish va terining rangi shikastlanishning chuqurligini bildirmaydi.

#### **Sovuq olishning 4 darajasi farqlanadi:**

1-darajali sovuq olganda qon tomirlari torayib ketishi natijasida sovuq olgan soxadagi teri oqarib yoki ko'karib ketadi va xech narsani sezmaydi. davolash natijasida bir necha kundan keyin bu o'zgarishlar yo'qoladi.

2-darajali sovuq olishda tiniq suyuqlikka to'lgan po'fakchalar xosil bo'ladi. Terini o'suvchi qavati shikastlanmagani uchun u 1-2 xtaftada tiklanadi.

3-darajali sovuq olishda qonli suyuqlik bilan to'lgan po'faklar xosil bo'ladi. To'qimalar chuqur shikastlangan uchun u tiklanmaydi, agar teri kuchirib utkazilmasa, chandiq xosil bo'ladi. Shikastlangan soxada sezgi yo'qoladi. Nam nekroz kuzatiladi.

4-darajali sovuq olishda (mumiyolanish) bo'g'imlar va suyaklar ham shikastlanadi. Sovuq urgan soxa qorayib, quriy boshlaydi. Og'riq va Zaharlanish natijasida bemor xalok bo'ladi.

**BTYO.** Sovuq olgan odamni issiq xonaga olib kirish, nam kiyimlarni echib tashlash, badanni sovuq urgan joyini isitish, qon aylanishini tiklash uchun massaj qilish zarur. Sovuq urgan odamni iliq vannaga kiritib, suv xarorati asta-sekin 360S gacha oshiriladi. Keyin bemor issiqa uralib, badanni shikastlangan joyiga aseptik bog'lam quyiladi. Sovuq urgan soxaga yog' va mazlar surtish mumkin emas. Bemorga issiq choy, kofe ichiriladi, so'ngra shifoxonaga yuboriladi. Og'ir xollarda analgetiklar qilinadi, yurak-qon tomir va nafas faoliyatini tiklashga harakat qilinadi. Teriga infeksiya tushishini oldini olish, organzmni tiklash uchun vitaminli ovqatlanish zarur. Sovuq olgan kishiga qoqsholga qarshi zardob yuboriladi.

#### **Dala sharoitida**

Nam oyoq kiyim, qo'lqop, paypoq echiladi.

Issiq qo'l bilan tananing sovuq olgan joylari isitiladi.

Issiq ichimlik beriladi.

Bog'lom qo'yiladi.

SHifoxonaga yuboriladi.

#### **Uy sharoitida.** Nam oyoq va ust kiyimlari echiladi.

Bemor  $17-180^{\circ}$  S li vannaga kiritilib, suv xarorati  $360^{\circ}$  S gacha asta-sekin ko'tariladi. Issiq choy yoki kofe ichirib, issiq joyga yotqizib, o'rab qo'yiladi.

**Issiq va oftob urishi.** Issiq vaoftob urishiga sabab ob-havoning yuqori harorati va namligi, issiq, dim xonada ko'p o'tirish, quyosh ostida bosh yalang yurish, qalin, havo o'tkazmaydigan (rezinali, brezentli, sun'iy tolali) kiyimlar kiyish, spirtli ichimliklar iste'moli, ovqatni me'yordan ortiq iste'mol qilish kabilar oqibatida vujudga keladi.

Issiq urishining belgilari: bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, holsizlanish, bosh aylanishi, quşish, og'iz qurishi, qattiq chanqash, yuzning to'q qizil rangga kirishi kabilardir. Tomir urishi va nafas olish tezlashadi, bemor yurak qismida noxush og'riq sezadi. Yengil oftob urganda tana harorati  $37,5^{\circ}$  S ga, og'ir hollarda esa  $39-41^{\circ}$  S gacha ko'tariladi.

**Oftob urishining belgilari:** Odam uzoq vaqt quyosh nurlari ostida bosh yalang yursa, oftob urishi mumkin. Dastlabki belgilari xuddi issiq urgandagidek, ko‘rinishda bo‘lib, so‘ng bo‘shashish, qulqlarda shovqin, qo‘l-oyoqlar titrashi, yuz qizarishi, yurak urishi va nafas tezlashishi kabi alomatlar ro‘y beradi. Tana harorati 38-400° S gacha ko‘tarilishi mumkin.

Og‘ir hollarda odam hushidan ketib, nafas va yurak to‘xtashi ham ro‘y berishi mumkin. Bemorni salqin joyga boshini tanasi bilan bir tekisda yotqiziladi. Qusayotgan paytda boshini yonboshlatib, barmoqqa toza doka o‘rab og‘zini qusqidan tozalanadi. Bemor yuzi sovuq suvda yuviladi, tanasi ho‘l sochiqda artiladi. Peshonasiga muzli xaltacha qo‘yiladi. Bir piyola suvga yarim choy qoshiq tuz solib ichiriladi. Nafasni qo‘zg‘atish uchun vaqtiga vaqt bilan novshadil spirti hidlatiladi.

Agar bemor hushsiz bo‘lsa darhol sun’iy nafas oldirish va yurak massajini boshlash kerak. Oftob urganda tana qizib ketishidan tashqari teri kuyishi ham mumkin. Yengil kuysa (teri qizarib shishsa, tekkanda og‘riq sezilsa) bu joyga vazelin yoki o‘simplik moyi surish kifoya. 3-4 kun davomida quyosh nurlaridan saqlanilsa, shikast o‘z-o‘zidan o‘tib ketadi. Teri qattiq kuyganda qizaradi, pufakchalar paydo bo‘ladi. Ularga tegmaslik kerak! Pufakchalar mayda bo‘lsa, kuygan joyga sintomitsin emulsiyasini surib, quruq steril dokada bog‘lanadi va shifokorga murojaat qilinadi.

**Hushdan ketish.** Butunlay sog‘lom kishilar ham o‘ta dim xonada, charchaganda, qattiq qo‘rqqanda, qonni ko‘rganda, yotgan joydan keskin turganda hushdan ketishlari mumkin. Ayniqsa, yurak qon tomir tizimi kasalliklarida, kuchli og‘riq va ko‘p qon yo‘qotganda bu hol ko‘proq ro‘y beradi.

Hushni yo‘qotishdan oldingi holatda bosh aylanadi, qulq shang‘illaydi, keskin zaiflik seziladi, esnoq tutadi, ko‘z oldi qorong‘ulashadi, sovuq ter bosadi, ko‘ngil ayniydi, qo‘l va oyoq o‘ziga bo‘ysunmay qoladi. Odamlarning rangi oqaradi. Yurak urishi sekinlashib ko‘z qorachig‘i kengayadi. Ko‘zlar avvaliga olayib keyin yopiladi. Ayni shu payt odam yiqilib tushishi mumkin. Agar odam o‘zini biladigan holatda bo‘lsa, uni darhol o‘tirg‘izib, boshini pastga tushurish kerak. Bo‘yni va ko‘krak qafasini qisib turadigan kiyimlardan xalos qilish: yoqalarini, bo‘yin bog‘ini echish, bo‘ynidagi turli taqinchoqlarni olib qo‘yish kerak. Agar hushdan ketgan vaqt odam o‘zini bilmay qolsa uni orqasi bilan chalqancha yotqizish, boshni pastga tushirib, oyoqlarini ko‘taribroq qo‘yish lozim. Jabrlanuvchining kamarini bo‘shatib, betiga suv sepib, yuzlariga engilgina urish kerak. Bo‘yni va ko‘kragini iloji boricha sovuq suvda ho‘llangan sochiq bilan uqalash maqsadga muvofiq. Shundan so‘ng jabrlanuvchiga novshadil spirti hidlatish kerak. Agar novshadil spirti bo‘lmasa, uning o‘rnigaodekolon yoki oddiy oshxona sirkasidan foydalanish mumkin. Shu vaqt davomida toza havo kelishini ham ta‘minlash kerak. Buning uchun deraza darchasi, oynalar yoki eshik ochib qo‘yilishi lozim. Hushni yo‘qotish odatda 3-5 daqiqa davom etadi. Agar behushlik holati birinchi yordam ko‘rsatilgandan so‘ng o‘tib ketmasa va belgilangan muddatdan uzoq davom etsa, bemorni to‘shakka yotqizib, issiq o‘rab yoki gryelka qo‘yib, tinch qo‘yish kerak. Imkon bo‘lsa yurak tomchilarini,

arslonquyruq yoki kardamon tinitmalarini ichirish kerak. Hushini yo‘qotgan kishi o‘ziga kelgach, achchiq choy yoki qahva ichirish lozim. Yalpizli yoki moychechakli choy ham yaxshi foyda beradi. Qoida bo‘yicha behush bo‘lgan kishi kasalxonaga yotqizilmaydi. Asabdan kelib chiqadigan tez-tez takrorlanuvchi behushlikda quritilgan dalachoy, limono‘t, jo‘ka gullaridan choy damlab muntazzam ichib turish tavsiya etiladi. Bu o‘simliklarni birgalikda yoki alohida qo‘llash mumkin. O‘simlikdan qancha miqdorda choy damlash o‘zingizga havola.

**Oftob urishi va issiq elitishi** organizmning qizib ketishi natijasida vujudga keladigan og‘ir holat. Bolalar, semiz kishilar, yurak-tomir va endokrin kasalliklari bilan og‘rigan bemorlar qizib ketishga ayniqsa moyil bo‘ladi. Qizish va ayni vaqtida ko‘p terlash organizmda suv-tuz almashinuvining buzilishi, qon aylanishining qiyinlashuvi va kislород tanqisligiga olib keladi. Issiq elitishi ko‘pincha shamolsiz issiq kunlarda, ayniqsa, issiqni ko‘tara olmaydigan yoki og‘ir jismoniy mehnat qilayotgan kishilarda (masalan, qurilish maydonchalaridagi ish vaqtida, tez yurganda) kuzatiladi. Quyosh nurlarini yaxshi qaytarmaydigan qora rangli kiyim yoki havo o‘tkazmay, badandan chiqadigan bug‘ni ushlab qoladigan qalin kiyim ham issiq elitishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, temperaturasi va havosining namligi yuqori bo‘lgan yopiq binoda ham kishini (masalan, issiq sexlarda ishlaganda) issiq elitishi mumkin. Oftob urishi quyosh nurlari organizmga tik tushayotganida, ayniqsa boshni qizdirib yuborganida kuzatiladi.

Issiq elitishi yoki oftob urishining engil shaklida kishi bo‘shashib, boshi og‘riydi, tomir urishi va nafasi tezlashib, terisi namiqib turadi, ko‘z qorachiqlari kengayadi, tana harorati, odatda, normal bo‘ladi. O‘rtacha darajada oftob urganda esa kishining boshi qattiq og‘rib, ko‘ngli aynib qusadi, harakatlari poyma-poy bo‘lib, ba’zan hushdan ketadi, ko‘p terlab, temperaturasi 39-40 darajaga ko‘tariladi. Og‘ir hollarda kishi o‘zini bilmay qoladi, talvasaga tushib, ruhiy qo‘zg‘alish ro‘y beradi, besaranjomlanib, ko‘ziga yo‘q narsalar ko‘rinishi, qulog‘iga yo‘q tovushlar eshitilishi, alahlashi mumkin. Nafasi yuza, tez-tez bo‘lib, tomiri minutiga 120-140 martagacha uradi, harorati 41-42 darajagacha ko‘tariladi, agar vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatilmasa, shikastlangan kishi o‘lishi ham mumkin. Oftob urgan yoki issiq elitgan kishini darhol toza havoga olib chiqib, soyaga o‘tkazib qo‘yish, tepasini siqib turgan kiyimlarini ehib, elpig‘ich yoki choyshab bilan elpish, badanini sovitish, boshini sovuq suv bilan namlash kerak: unga ko‘p suyuqlik – tuz qo‘shilgan sovuq suv, sovuq choy va kofe ichirish tavsiya etiladi. Nafas olishni qo‘zg‘atish uchun shikastlangan kishining yuzi suvgaga ho‘llangan sochiq yoki dastro‘mol bilan shapatilanadi, novshadil spirt, kislород hidlatiladi, badani uqalanadi. Bemorning nafasi qiyinlashib yoki to‘xtab qolgan bo‘lsa, sun’iy nafas oldirish kerak. Og‘ir va o‘rtacha darajada shikastlangan kishiga birinchi yordam ko‘rsatib, keyin eng yaqin davolash muassasasiga olib borish yoki shoshilinch ravishda vrach chaqirish lozim.

Issiq urishi va oftob urishining oldini olish uchun havo issiq kunlarda harakatlarga qulay, ochiq rangli engil kiyim, boshga esa poxol shlyapa, panama, surpdan tikilgan engil kepka va boshqalar kiyish yoki ochiq rangli ro‘mol o‘rab olish kerak. Issiq kunda uzoq yo‘l yurishdan avval juda to‘yib ovqatlanish va

ichkilik ichish yaramaydi, chanqoqni bosish uchun yaxshisi sovuq choy olib yurish kerak. Oftobda uqlash yaramaydi. Kishi qizib ketishi mumkin bo‘lgan korxonalarda esa, tanaffus vaqtlarida salqin dushga tushish yoki boshdan suv quyib olish kerak.

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1.Kuyish nima u xakcha ma’lumot bering
2. kuyish darajalari necha xil buladi.
3. Kuyganda birinchi erdam.
4. Kuyish sababiga kura necha xil buladi.
5. Termik kuyish, kimyoviy moddalardan kuyishlarda birinchi yordam qanday ko‘rsatiladi.
6. Elektr tokidan shikastlanish va birinchi tibbiy erdam ko‘rsatish.
7. Cho‘kishlar, turlari va ularda birinchi yordam ko‘rsatish
- 8.Sovuq urishi , darajalari va birinchi yordam.
- 9.Issiq urishi, bosqichlari va tibbiy yordam ko‘rsatish.

## **TAYANCH HARAKAT SISTEMASINING MEXANIK SINISHI Reja.**

- 1.Tayanch – harakat tizimi haqida ma’lumot
- 2.Tayanch-harakat tizimining shikastlanish sabablari va turlari
3. Immobilizatsiya tushunchasi
4. Tayanch harakat apparatining gigienasi

**Tayanch iboralar.** Immobilizatsiya, suyak, kimyoviy, skalioz, kifoz, lordoz, yassooyoq, gigiena, tarnsport.

### **Tayanch – harakat tizimi haqida ma’lumot**

Tayanch-harakatlanish apparatiga skelet va skelet muskullari kiradi. Skelet va muskullar tayanch-harakatlanish va himoya funksiyalarini o‘taydi. Skeletdagi suyaklar orqa miya, bosh miya, yurak, o‘pka va boshqa organlarni turli ta’sirdan himoya qiladi. Organizmdagi suyaklarni qoplab turgan skelet muskullari faol harakat a’zosi bo‘lib, muskullar qisqarganda boo‘g‘imlarda harakat vujudga keladi.

### **Suyak sistemasi**

Skelet («quritilgan» degan ma’noni anglatadi) 206 dan ortiq alohida suyaklardan tashkil topgan bo‘lib, bularning 85 tasi juft, 36 tasi toq suyaklardan iborat. Skeletdagi ba’zi suyaklar (miya qutisi, yuz suyaklari, qisman o‘mrov suyagi 130 va boshqalar) bevosa biriktiruvchi to‘qimadan rivojlanadi. Bunday rivojlanishda biriktiruvchi to‘qima hujayralariga ohak tuzlari so‘rilib, suyak hujayralari vujudga keladi. Skeletdagi suyaklarning ko‘pchiligi tog‘ay to‘qimasining suyak to‘qimasiga aylana borishi bilan rivojlanadi va tog‘ay to‘qimasining ichida suyaklanish nuqtalari vujudga keladi. Birinchi suyaklanish nuqtalari embrion rivojlanishining 7-8-haftalarida vujudga kela boshlaydi. Yangi tug‘ilgan bola skeletida ko‘pchilik suyaklanish nuqtalari vujudga kelgan bo‘lib,

skeletda tog‘ay qismlari ko‘p bo‘ladi. Hayot mobaynida suyaklar o‘sib rivojlna boradi.

Har bir suyakning ustini suyak usti pardasi qoplab turadi, bu parda bolalarda juda pishiq bo‘lib, hatto suyak singanda ham yirtilmaydi. Suyak usti pardasi ko‘p miqdordagi qon tomirlar, nervlar bilan ta’minlangandir. Ular suyak usti pardasi orqali suyakning ichki qismiga o‘tadi. Suyak shikastlanganda yoki kasallanganda suyak usti pardasi hujayralari hisobiga suyak asli holiga keladi. Suyak usti pardasiga bog‘lamlar va muskullar birikadi. Bu parda tagida suyakning zinch qavati bo‘lib, uning tagida g‘ovak qavat joylashgan. Uzun suyaklarning ichki qismida suyakning bo‘yi barobar bo‘shliq bo‘ladi. Yangi tug‘ilgan va go‘dak bolalar uzun naysimon suyaklarining bo‘shliq qismida qizil ilik bo‘lib, o‘sish jarayonida uning o‘rniga sariq ilik hosil bo‘ladi. Naysimon suyaklarning ikki uchida, ba’zan yassi suyaklarda 15 yoshgacha qizil ilik saqlanadi.

**Suyaklar shakli va tuzilishiga ko‘ra** uzun naysimon, yassi va aralash suyaklarga bo‘linadi.

**Naysimon suyaklar** qo‘l-oyoq skeleti tarkibiga kirib, ular orasida uzunlari yelka, bilak, tirsak, son suyaklari kaltalari qo‘l va oyoq kaft va barmoq suyaklari hisoblanadi. Har bir naysimon suyakning tanasi (diafiz) va ikki uchi (epifiz) farq qilinadi.

**Yassi suyaklarning shakli** har xil bo‘lib, ularga kallaning qoplovchi suyaklari, kurak va chanoq suyaklari kiradi.

**Aralash suyaklar** esa turli shaklda bo‘ladi. Suyaklar yuzasida notekisliklar, do‘mboq, teshiklar va egatlar bo‘lib, ularga umurtqalar, kaft usti va tovon suyaklari kiradi. Muskullar, paylar, boylamlar birikadi yoki tomirlar, nervlar o‘tadi

**Suyaklarning kimyoviy tarkibi.** Suyaklar tarkibi organik va anorganik moddalardan iborat. Suyakning organik moddasiga ossein deyilib, u suyak vaznining 1/3 qismini tashkil etadi, qolgan 2/3 qismi anorganik moddalardan iborat. Yosh kattalashgan sari suyaklar tarkibidagi anorganik moddalar miqdori ortib boradi. Shuning uchun keksalarning suyagi mo‘rt bo‘ladi. Kalsiy, fosfor, magniy va boshqa elementlar nisbatli ham o‘zgaradi. Kichik mакtab yoshidagi bolalar suyagi tarkibida ko‘proq kalsiy, katta mакtab yoshidagi bolalarning suyagi tarkibida fosfor tuzlari ko‘p bo‘ladi. Suyaklarning tuzilishi va kimyoviy tarkibi o‘zgarishi bilan ularning fizik xossalari ham o‘zgaradi. Bolalarning suyagi, tog‘aylari mayin, qayishqoq bo‘ladi. 7 yoshda naysimon suyaklarning tuzilishi katta odamlarnikiga o‘xshashdir. Lekin 10-12 yoshlarda suyakning g‘ovak moddasi jadal o‘zgaradi. Bolaning yoshi qancha kichik bo‘lsa, suyak ust pardasi suyakning zinch qavatiga shuncha yopishadi, 7 yoshda suyak ust pardasi zinch qavatdan ajralib turadi. 7 dan 10 yoshgacha naysimon suyaklarning ilik qismi o‘sishi sekinlashadi, 11-12 yoshdan 18 yoshgacha naysimon suyaklar to‘la shakllanib 131 bo‘ladi.

**Ko‘krak qafasi skeleti.** Ko‘krak qafasi 12 juft qovurg‘anining to‘sh suyagi bilan birikishidan hosil bo‘ladi. Haqiqiy qovurg‘alar 1-7-juft qovurg‘alar tog‘ayi yordamida to‘sh suyagiga, qolgan 8, 9, 10-juftlari tog‘ay qismi bilan 7- juft qovurg‘aga birikadi. 11 va 12-qovurg‘alarning tog‘ay uchi bo‘lmaydi, ularning

uchi erkin bo‘lib, bir oz harakatchan. Qovurg‘alar umurtqalarga bo‘g‘im orqali birikadi. To‘sh suyagi toq suyak bo‘lib, uning dastasi, tanasi va o‘sintasi farq qilinadi. Ko‘krak qafasining shakli bolaning yoshiga va tana tuzilishiga bog‘liq. Ko‘krak qafasining shakliga to‘sh suyagi mos bo‘ladi. Ko‘krak qafasi qonussimon, silindrsimon (uzun, ensiz) va (kalta enli) yassi bo‘lishi mumkin, bolaning yoshi ortishi bilan shakli o‘zgarib turadi. Hayotning dastlabki yilida ko‘krak qafasi qonussimon bo‘ladi. 2,5-3 yoshda tananing o‘sishiga mos ravishda parallel o‘sib boradi. Keyinroq gavdaning o‘sishi ko‘krak qafasining o‘sishidan tezlashadi. 12 va 13 yoshlarda ko‘krak qafasining shakli katta odamnikiga o‘xshab qoladi, lekin o‘lchamlari kichikroq bo‘ladi. Ko‘krak qafasi jinsiy jihatdan 15 yoshdan farq qila boshlaydi, sagital hajmi tez ortadi. Nafas olganda o‘g‘il bolalarda ko‘krak qafasida pastki qovurg‘alar, qizlarda esa yuqorigi qovurg‘alar ko‘tariladi. Ko‘krak qafasi aylanasida ham jinsiy farq bo‘ladi. O‘g‘il bolalarda 8 yoshdan 10 yoshgacha ko‘krak qafasining aylanasi bir yilda 1-2 sm, 11 yoshdan boshlab 2-5 sm ga ortadi. 11 yashar o‘g‘il bolalarda ko‘krak qafasining o‘sishi qiz bolalarnikiga qaraganda sekinlashadi. Jinsiy voyaga etish davrida, yoz va kuz oylarida ko‘krak qafasining aylanasi tez o‘sadi. Ko‘krak qafasining rivojlanishi skelet muskullarining rivojlanishiga ham bog‘liq. Suzish, eshkak eshish va boshqa jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug‘ullangan odamlarda muskullar bilan birga ko‘krak qafasi ham rivojlanadi. Bola noqulay sharoitda tarbiyalansa, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanmasa, ko‘krak qafasi va muskullari yaxshi rivojlanmaydi. Bola partada noto‘g‘ri o‘tirsa, ko‘krak qafasining shakli o‘zgaradi, bu esa yurak, qon tomirlar va o‘pkaning to‘la-to‘kis rivojlanmasligiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, raxit, o‘pka sili va boshqa kasalliklar ko‘krak qafasining rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo‘ladi. Doimo nafasni mashq qildirib borilganda, ko‘krak qafasi aylanasi ortib, nafas yurak-tomirlar 133 sistemasi rivojlnana boradi.

**Qo‘l skeleti.** Qo‘l skeletiga yelka kamarining suyaklari (kurak va o‘mrov suyaklari), erkin qo‘l suyaklari (yelka suyagi, bilak va tirsak suyaklari, panja suyaklari) kiradi. Yuqorigi kamar va qo‘l suyaklari embrionning uch haftaligidan boshlab hosil bo‘la boshlaydi. o‘mrov suyagi ontogenezda kam o‘zgaradi. Yangi tug‘ilgan bolada o‘mrov suyagi faqat to‘sh uchining ozgina qismi torayli, qolgan qismi suyakli bo‘ladi. To‘sh uchida suyaklanish yadrosi 16-18 yoshda hosil bo‘ladi. Kurak suyagi 21-25 yoshda, tirsak suyagi 21-24 yoshda, kaft usti suyaklari 19-13 yoshda, kaft suyaklari 12 yoshda, barmoq falangasi suyaklari 9-11 yoshda suyaklanib bo‘ladi. Yelka kamari va qo‘l suyaklarining suyaklanishi erkaklarga qaraganda ayollarda 2 yil oldin tugaydi.

**Oyoq skeleti.** Oyoq skeletiga chanoq kamari suyaklari (nomsiz suyaklar) va oyoqning erkin suyaklari (son, boldir va panja suyaklari) kiradi. Chanoq kamariga ikkita chanoq suyagi kiradi. Chanoq suyagi yonbosh suyagi, quymich suyagi va qov suyagidan iborat. Bular suyaklanish natijasida 16-18 yoshda bitta chanoq suyagiga birlashadi. Yonbosh, quymich va qov suyaklari quymich kosasi sohasida o‘zaro birlashadi. Quymich kosasiga son suyagining yumaloq boshchasi birikib, tos-son bo‘g‘imini hosil qiladi. Chanoq suyaklari bir-biri bilan qov birikmasini hosil qiladi. Dumg‘aza esa dumg‘aza-yonbosh bo‘g‘imi, shuningdek, boyamlarni

birlashtirib, chanoq hosil qiladi. Katta va kichik chanoq farq qilinadi. Ayollar chanog‘i shakli va kattaligi jihatidan erkaklarnikidan farq qiladi. Ayollar chanog‘i serbarroq va kaltaroq, suyaklari yupqa va silliq bo‘ladi. Kichik chanoq ayollarda kengroq, erkaklarda torroq.

Chanoqning kirish teshigi ayollarda kattaroq bo‘ladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq bolaning chanog‘i varonkasimon bo‘lib, kichik chanoq yaxshi rivojlanmagan, chanoq suyagi tog‘ay qatlami bilan tutashib, uchta alohida suyaklardan tashkil topgan bo‘ladi. Uch yoshgacha chanoq suyaklari jadal o‘sadi. Uch yoshda uning orqa qismi pastga tushib, oldingi qismi ko‘tariladi, natijada chanoq gorizontal holatda bo‘ladi. 7-8 yoshda qov va quymich suyaklari tutashadi, 14-16 yoshda chanoqning 3 ta suyagi quymich kosasida o‘sib, bir butun chanoq suyagini hosil qiladi. 20-25 yoshda chanoq suyaklari bir-biri bilan tutashadi. Ana shu davrda jismoniy mehnat va jismoniy tarbiyada buni e’tiborga olish kerak. Uzoq vaqt noto‘g‘ri o‘tirish yoki tik turish, og‘ir yuk tashish, yaxshi ovqatlanmaslik va boshqa noqulay sharoit natijasida chanoq suyaklari noto‘g‘ri birikadi, o‘sishdan orqada qoladi. Oyoqning erkin suyaklaridan son, katta va kichik boldir suyaklari erkaklarda 20-24 yoshda, oyoq kaft suyaklari 17-21 yoshda, ayollarda 11-19 yoshda, oyoq panjası falangalari erkaklarda 15-21 yoshda, ayollarda 13-17 yoshda butunlay suyaklanib bo‘ladi. Oyoq panjasining tagi gumbaz shaklida tuzilgan bo‘lib, u tik yurish tufayli hosil bo‘lgan. Odam tik turganda og‘irligi oyoq panjası gumbazining chetlariga tushadi. Oyoq panjasining gumbazi uning boylarn apparati va muskullari bilan mustahkamlangan. Oyoq panjası gumbaz shaklida bo‘lganidan odam yurganda tana to‘rtkilarini engillashtiradi, nerv sistemasini silkinishdan saqlaydi.

### **Immobilizatsiya tushunchasi**

**Immobilizatsiya** (lot. immobilisis — qimirlamaydigan, harakatsiz) — gavdaning shikastlangan yoki kasal qismini (odatda, qo‘l-oyoq va umurtqa pog‘onasini) qimirlamaydigan qilib qo‘yish. Suyak singanda, chiqqanda, ta-yanch-xarakat a’zolarining yallig‘lanish kasalliklarida (osteomielit, sil va b.), suyak va yumshoq to‘qimaning turli jarohatlarida, shuningdek, operatsiyadan keyin gavdaning tegishli joylarini ma’lum vaziyatda ushlab turish uchun Immobilizatsiya qo‘llaniladi. Shikastlanganda og‘riqni kamaytirish, travmatik shok va infeksiya tushishining oldini olishda, bemorning tezda sog‘ayib ketishida Immobilizatsiyaning ahamiyati katta. Vaqtincha (transport) va doimiy (davolash) Immobilizatsiya qilinadi. Vaqtincha immobilizatsiya suyak singanda va b. og‘ir shikastlanishlarda birinchi yor-dam ko‘rsatishning eng muhim vosita-sidir. Vaqtincha Immobilizatsiya uchun maxsus shinalar (Detiriks, Kramer, Bogdanov), shuningdek, qo‘l ostida bor bo‘lgan faner, taxta va b. materiallar (masalan, taxtakach) dan foydalaniladi. Shinalash — vaqtincha immobilizatsiyaning asosiy turi hisoblanadi. Bemor kasalxonaga keltirilgandan so‘ng vaqtincha immobilizatsiya doimiy immobilizatsiya bilan almashtiriladi. Davo Immobilizatsiyasi gips bog‘lov, tortib qo‘yish, ortopedik moslama, korset va yordamida qilinadi. Singan suyak bo‘laklarini jarroxlik yo‘li bilan biriktirib

qo'yish uchun maxsus vint, plastinka qo'llaniladi. Taxtakachlash xam immobilizatsiyaga yordam beradi.

**Qo'llar shikastlanganda transport immobilizatsiyasi.** Yelka suyagining yuqori 1/3 qismi singanda qo'lni tirsak bo'g'imida to'g'ri burchak hosil qilib buklanadi. Tana shikastlangan tomonga engashadi, shu tomondagi qo'litiq ostiga paxta-dokali yostiqcha qo'yiladi va bint yordamida ko'krak qafasiga mahkamlab qo'yiladi. Shu holatda bilak kosinkaga osib qo'yiladi, yelka tanaga mahkamlab qo'yiladi.

**yelka suyagining o'rta qismi** singanda simli narvonsimon taxtakach yordamida immobilizatsiya qilinadi. Taxtakachni paxta bilan qoplab olinadi, bunda taxtakach yelka va tirsak bo'g'imiga mahkamlanadi. Avval yelka va bilak o'lchab olinadi va to'g'ri burchak ostida buklanadi, ikkinchi tomoni orqada buklanadi. Qo'litiqqa yostiqcha qo'yilib, mahkamlanadi. Singan qo'lni buklangan taxtakachga joylashtirilib, mahkamlanadi, taxtakachni esa tanaga bintlab qo'yiladi.

**yelka suyagining pastki 1/3 qismi** singanda taxtakachni kaft-barmoq bo'g'imlarigacha etadigan qilib buklanadi va yelkaning o'rta qismi singanda qo'yiladigan holda immobilizatsiya qilinadi.

**Bilak suyagi singanda** simli narvonsimon va to'rsimon taxtakachlar qo'llaniladi. Taxtakachni yelka suyagining o'rtasidan kaft-barmoq bo'g'imlarigacha qo'lning tashqi tomonidan qo'yiladi. Tirsak bo'g'imi to'g'ri burchak ostida buklangan bo'ladi, kaft ochilgan, qoringa yaqinlashtirilgan bo'ladi. Kaftga qattiq yostiqcha qo'yilib, taxtakach qo'l bilan mahkamlanadi va bilak kosinkaga osib qo'yiladi. Fanerli taxtakach qo'llanilganda unga paxta qo'yiladi.

Bilak-panja bo'g'imi va barmoqlar singanda simli narvonsimon va to'rsimon taxtakachlardan foydalaniladi. Taxtakachni avval paxta bilan o'ralib, kaft tomonidan barmoqlarning uchidan to tirsakkacha qo'yiladi. Og'irroq shikastlanganda qo'shimcha taxtakach orqa tomondan ham qo'yiladi, kaftga qattiq valik qo'yib, taxtakachni qo'lga mahkamlanadi. Barmoqlarning uchi qon aylanishini kuzatib turish maqsadida ochiq qoldiriladi.

### **Oyoqlar shikastlanganda transport immobilizatsiyasi. Son suyagi singanda**

Chanoq-son, tizza va boldir-tovon bo'g'imi immobilizatsiya qilinadi. Buning uchun standart Diterixs taxtakachi qo'llaniladi. Bunda immobilizatsiyadan tashqari oyoqni cho'zish ham mumkin.

Tuxtakach uzunligi 1,71 va 1,46m, kengligi 8sm bo'lgan 2 ta harakatlanadi gan plankadan iborat. Uzun plankani sonning tashqi yuzasidan qo'litiq osti sohasigacha, qisqa plankani ichki tomonidan oraliqqacha qo'yiladi. Plankalar harakatchan bo'lganligi uchun bemoning bo'yiga qarab o'zgartirish mumkin. Plankaning distal qismlari ko'ndalang yog'och bilan biriktilgan. Tovonga bint bilan taglik mahkamlangan bo'lib, unga burama(zakrutka) ipi biriktirilgan. Ikkala planka bint yordamida tanaga oyoqqa va bir-biri bilan mahkamlanadi. Oyoqni cho'zish burama ipi yordamida amalga oshiriladi.

Son suyagi singanda narvonsimon taxtakachlardan ham foydalanish mumkin. Standart taxtakachlar bo'lmagan hollarda qo'l ostidagi materiallardan

foydalanish mumkin(yog‘och, taxta, chang‘i va boshqalar) yoki autoimmobilizatsiya qilinadi, ya’ni singan oyoqni sog‘ oyoqqa bog‘lanadi.

**Boldir suyagi singanda** standart simli narvonsimon taxtakachlardan foydalaniladi. Taxtakach boldirga moslanadi, paxta yoki biror yumshoq material bilan qoplanadi, oyoqning orqa tomonidan dumba bo‘g‘imigacha olib boriladi, yon tomonidan qo‘sishimcha 2 ta fanerli taxtakachlar qo‘yiladi. Taxtakach, tizza va boldir-tovon bo‘g‘imini qoplashi kerak. Taxtakachni oyoqqa bint bilan bog‘lab qo‘yiladi.

**Umurtqa pog‘onasi shikastlanganda** immobilizatsiya qilish. Bunday shikastlanganlarni ehtiyyotlik ilan qattiq taxtali zambillarga orqasi bilan yotkiziladi. Taxta yuo‘lmasa, oddiy zambillarga qorin bilan yotkizilib, boshi va yelkalari tagiga yostiqcha qo‘yiladi.

Umurtqa pog‘onasining bo‘yin qismi shikastlanganda paxta-dokadan tayyorlangan bog‘lam yoki yelanskiy taxtakachi qo‘yiladi. Bu taxtakach fanerdan tayyorlangan bo‘lib, bir-biri bilan biriktirilgan ikkita stvorkadan iborat. Ochilgan holatda bosh va tananing konturini eslatadi, ensa sohasida chuqurchasi bor. Atrofiga paxtadan yostiqchalar qo‘yiladi. Taxtakach qo‘llash vaqtida paxta bilan to‘ldirilib, tasmalar yordamida tana va yelkaga mahkamlab qo‘yiladi. Taxtakach bo‘limganda shikastlanganlarni zambilga orqasi bilan yotkizilib, bo‘yinning tagiga yostiq qo‘yiladi.

**Chanoq suyagi** shikastlanganda immobilizatsiya qilish. Qattiq zambillarga orqasi bilan yotziladi, tizza va chanoq-son bo‘g‘imlari yarim bukilgan holatda, oyoqlari yon tomonlarga bir muncha kerilgan holatda bo‘ladi. Tizza ostiga yostiqcha qo‘yiladi.

### Tayanch harakat apparatining gigienasi

Tayanch harakat apparatining gigienasi Qaddi qomat va uning kamchiliklari. Har bir odam o‘z tanasini odatlangan holatda erkin tutishi qad-qomat deyiladi. Qad-qomat shakllanishida ayniqsa umurtqa pog‘onasining, ko‘krak qafasi, qo‘l va oyoq suyaklari hamda tana muskullarining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Odam qadqomatining to‘g‘ri bo‘lishi muskullar tonusiga, nerv sistemasining holati, 140 hayoti mobaynida gavdasini tutishi, jismoniy mashq bilan shug‘ullanishi, turli kasalliklar bilan kasallanishiga bog‘liq. Anatomik nuqtai nazardan, to‘g‘ri qad-qomat deyilganda, umurtqa pog‘onasi bir me’yorda to‘lqinsimon, bosh va bo‘yining tanaga nisbatan to‘g‘ri va tik, ikkala yelka va ikkala ko‘krak bir tekislikda, qorin bir oz ichga tortilgan, ko‘krak qafasi bir oz qorindan oldinga chiqib turgan, oyoqlari tik va to‘g‘ri holatda bo‘lib, ularni juftlashtirganda tovonlar, tizzalar bir-biriga tegib turadigan holat tushiniladi. Qad-qomatning noto‘g‘ri shakllanishi bir necha xil bo‘ladi: cho‘zilgan, yegilgan, kifotik, lordotik va skolitik qad-qomat. Yegilgan qad-qomatli odamlar tik turganda, boshi bir oz oldinga egilgan, yelkalari oldinga osilgan ko‘krak qafasi botiqroq, qorin oldinga chiqqan bo‘ladi. Bunday holat skelet muskullari ayniqsa, gavdaning orqa qismidagi muskullar yaxshi rivojlanmaganligi va kuchsiz bo‘lishi tufayli yuzaga keladi. Kifotik qad-qomatli odamlarda kuraklar qanotga o‘xshab ko‘tarilib, orqa yelka qismi do‘mbayib, bukir holat yuzaga keladi. Lordotik qad qomatli

odamlar gavdasining orqa qismi tekis yoki bir oz botiqroq, ko'krak qafasi yassi, qorni oldinga chiqqan bo'ladi. Bunday holat umurtqa pog'onasining bel qismi me'yordan ko'proq oldinga bukilishi, bo'yin qismida esa oldinga kamroq bukilishi, hamda qorin devori muskullarining kuchsiz rivojlanganligi tufayli yuzaga keladi. Skoliotik qad-qomatli odam tik turganda yelkalarining biri past, ikkinchisi baland, ko'kraklari ham past, baland, ko'krak qafasining bir tomoni bo'rtganroq, ikkinchi tomoni botiqroq holatda bo'ladi. Bunday odam gavdasini to'g'ri va tik tuta olmaydi, tik turganda gavdasi bir tomonga qiyshaygan holatda bo'ladi. Bolaning qad-qomati normal shakllanishi uchun bir qator gigienik qoidalarga rioya qilish kerak.

Qad-qomatning to'g'ri shakllanishiga bola tug'ilishidan boshlab e'tibor berish lozim. Yangi tug'ilgan bolaning oyoq-qo'llarini to'g'ri parvarish qilish, to'g'ri yo'rgaklash, beshikda yotganda oyoq-qo'llarini to'g'rila belash, ko'krak qafasini qattiq bog'lamaslik kerak. Bola bir yoshda yura boshlaydi. Bu davrdan boshlab bolaning qad-qomatiga e'tibor berish lozim. Bolani olti oylik bo'lguncha o'tqizmaslik, o'n oylik bo'lguncha oyog'ida uzoq vaqt tik turg'izmaslik kerak, chunki bu yoshdagи bolalarning umurtqa pog'onasi, oyoq suyaklari egiluvchan bo'lganligi sababli tana og'irligini ko'tara olmasdan, egrilanib qolishi mumkin. 4-5 yoshgacha bo'lgan bolalalarni katta odamlar uzoq vaqt qo'lidan yetaklab yurmasligi kerak, chunki bolaning bir tomoni yuqoriga ko'tarilishi tufayli umurtqa pog'onasi egrilanib qolishi mumkin. Bolaning 6-7 yoshdan qad-qomati shakllana boshlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari uzoq vaqt bir joyda o'tirmasligi, tik turmasligi, uzoq masofaga yurmasligi, og'ir buyumlarni ko'tarmasligi, ayniqsa doim faqat bir qo'lida ish bajarmasligi, bo'ylariga mos parta, stol-stullarda o'tirishi kerak. o'quvchilar parta, stolstulda o'tirganda quyidagi qoidalarga rioya qilishi zarur: o'tirganda gavdasi tik, yelkalari bir tekisda, beli stul (parta) suyang'ichiga suyanib tursin, oyoqlari tizza bo'g'imida to'g'ri burchak hosil qilib bukilsin, oyoq kaftining hamma yuzasi polga baravar tegib tursin, ko'krak bilan parta qirrasi orasida 10 sm. ga 141 yaqin masofa bo'lsin.

Yurganda boshni tik tutib, o'rtacha qadam tashlash, lapanglab, bir qo'lni cho'ntakka solib, qiyshayib yoki uyalib, engashib yurmaslik, mehnat darsida gavda holatini, mehnat turini tez-tez o'zgartirib turishi kerak. Bolalar va o'smirlarda ko'pincha tovuq ko'krak, etikdo'z ko'kragi, skoliozning turli shakllari, yassi oyoqlik, muskullarni yetarli rivojlanmasligi, bo'g'implarning kasallanishi kabi nuqsonlar tufayli qad-qornat buziladi. Bola yoki o'smirni oyoq kiyimining tor yoki keng bo'lishi ham qad-qomatning buzilishi sabab bo'lishi mumkin. Bolaning tunda o'xlashiga ham e'tibor qaratish lozim. Bola gadasini to'g'rila tekis joyda, biroz qattiq o'rin ko'rpada uxmlashi kerak. Ba'zi bolalar gujanak bo'lib uxmlaydilar. Bunday holat ham qad-qomatga ta'sir qiladi bolalar va o'smirlar qad-qomatni to'g'ri shakllanishiga yordam beradigan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga yoshlikdan o'rgatish lozim. Masalan: gimnastika, suvda suzish, valeybol, turnirda tortilish va boshqalar. Qad-qomatning buzilishidan faqat odamning ko'rinishi o'zgarmasdan, balki u ichki organlar (o'pka, yurak, jigar, buyrak, oshqozon va ichak kabilarning) rivojlanishi va funksiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday

odamlar jismoniy mehnat qilganida, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanganida nafasi qisadi, yurak urishi tezlashadi, tez charchaydi. Qad-qomatning shakllanishi 18 yoshgacha davom etadi. Shuning uchun shu yoshgacha o‘smlar yuqorida ko‘rsatilganlarga amal qilsalar ularning qadqomatlari to‘g‘ri va chiroyli bo‘lib shakllanadi. Bolani qad-qomati to‘g‘ri shakllanishini ota-onalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar tizimli ravishda kuzatib borishlari, turli chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim. Skolioz tayanch-harakat apparati kasalliklariga kiradi, u umurtqa pog‘onasining yon tomonga qiyshayishidir. Kasallik o‘z vaqtida davolanmasa, uzoq yilga cho‘ziladi va oqibat natijada ko‘krak qafasi bo‘shlig‘idagi hayotiy muhim organlarga zarar etadi. Bu kasallikda ko‘pincha umurtqa pog‘onasining shakli buziladi. Skoliozning og‘ir-yengil kechishi umurtqa pog‘onasining qanchalik qiyshayganiga bog‘liq.

Qovurg‘alar uchining bir oz bo‘rtganligi  $10^{\circ}$  qiyshayishi skoliozning birinchi darajali belgisi qovurg‘alarda bukirlik hosil bo‘lib qiyshayish burchagi  $30^{\circ}$  gacha bo‘lsa ikkinchi darajali, qiyshayish burchagi  $30-50^{\circ}$  bo‘lganda skoliozning uchinchi darajasi va nihoyat qiyshayish burchagi  $50^{\circ}$  dan ortsa, skoliozning to‘rtinchchi darajasi rivojlangan bo‘ladi. o‘quvchilar o‘qish jarayonida umurtqa pog‘onasining juda zo‘riqishi skoliozga sabab bo‘ladi. Umumiy ta’lim maktablarida, maktab internatlarda shifokorlar, biologiya o‘qituvchilari o‘quvchilarni vaqt-vaqt bilan tekshirib turishi, o‘quv muassasalarida o‘quvchilarning o‘qishi, mehnat qilishi uchun zarur gigiena sharoiti yaratib berilishi shart. Ayniqsa bog‘cha, kichik mакtab yoshidagi bolalarni tekshirib, skolioz bor yo‘qligini aniqlash va zo‘rayib ketmasligi uchun chora-tadbirlar ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Noto‘g‘ri o‘tirish natijasida umurtqa pog‘onasining yon tomonga egilishi (skolioz). 142 Bolalar va o‘smlar tez o‘sib rivojlanadilar. Bu davrda ularning ovqatlanishiga katta e’tibor berish kerak.

Bolalar ovqatida vitaminlar, ayniqsa vitamin D, tuzlar (ayniqsa kalsiy tuzlari) yetarli bo‘lmasligi, oyoq suyaklarini noto‘g‘ri shakllanishiga sababi bo‘lishi mumkin. Buning oqibatida oyoqlar X simon yoki O simon qiyshayadi. Oyoqlarning X-simon shaklida oyoqning tizza qismlari bir-biriga tegib turganda tovonlar bir-biridan uzoqlashadi. Oyoqlarning O-simon shaklida, aksincha tovonlar bir-biriga tegib turganda, tizzalar bir-biridan yiroqlashgan holatda bo‘ladi.

**Yassioyoqlik.** Odam tovon-kaftining pastki qismi tayanch-harakatlanish tizimining muhim qismi hisoblanadi. U tuzilish xususiyatiga ko‘ra tananing ressori vazifasini bajarishga moslashgan. Normal rivojlangan oyoq tovon-panja yuzasi sathining ko‘proq qismi o‘yiqroq (chuqurroq), ozroq qismi gumbaz shaklida bo‘ladi. Bunday tuzilishi tana og‘irligining oyoqni tovon va kaft qismlariga baravar taqsimlanishini ta’minlaydi. Yassioyoqlikda tovon-kaft yuzasining (gumbaz qismi) kengayib, o‘yiq (chuqur) qismining sathi kamayadi, ba’zida esa oyoq yuzasining butun sathining gumbaz qismi egilib, tekis bo‘lib qoladi. Natijada tovon-kaftning ressorlik vazifasi buziladi va quyidagi belgilarni yuzaga keladi: bunday odam uzoq vaqt tik turganda, ko‘proq yurganda, yugurganda, og‘ir yuk ko‘targanda oyog‘ining tovonpanja va boldir muskullarida og‘riq paydo bo‘ladi; yassioyoqli umurtqa pog‘onasi va chanoq suyaklarining egrilanishiga va qadqomatning

buzilishiga ham sabab bo‘ladi. Chunki bunday odam tanasini tik va to‘g‘ri tuta olmaydi.

Yassioyoqlik odamlar yurganida oyoqlarini keng tashlab, qo‘llarini yon tomonlarga silkitib, lapanglab yuradi, chunki yurgan vaqtida tanasining og‘irligi oyoq yuzasiga baravar taqsimlanmasligi natijasida tovon-kaft muskullari tez charchaydi va ularda og‘riq seziladi. Bunday odamlar ko‘proq tik turganida va yurganida oyog‘ining kaft yuzasi yana kengayadi va ertalab mos bo‘lgan poyabzal kunning ikkinchi yarmida oyoqni qisa boshlaydi. Yassioyoqlik tananing massasi ko‘proq tovon-kaftning ichki tomoniga tushadi. Shuning uchun bunday odamlarning poyabzali ichki tomonga qiyshayib, u tezda yaroqsiz holga kelib qoladi. Yassioyoqlik tug‘ma va hayotda orttirilgan bo‘ladi. Tug‘ma bo‘lishi bu nasldan nasnga berilishi yoki bolaning embrion rivojlanishi davrida ona organizmiga tashqi muhitning biron noqulay ta’siri natijasida sodir bo‘lishi mumkin. Yassioyoqlikning tug‘ilgandan keyin yuzaga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

- Bolani juda yoshligidan (8-10 oyligidan) boshlab yurgizish va uni uzoq vaqt oyog‘ida tik turg‘izish;
- Yosh bolaga poshnasiz yumshoq poyabzal kiygizish;

→ O‘quvchilar kun bo‘yi poshnasiz sport poyabzalida yurishi (sprot poyabzalini faqat mashg‘ulot vaqtida kiyish kerak);

→ Poshnasi baland, uch tomoni tor, orqa tomoni keng bo‘lgan poyabzallarni kiyish;

→ Og‘ir yuk ko‘tarish ham yassioyoqlik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Ana shularni hisobga olib. yassioyoqlikning oldini olishga e’tibor berish kerak

## Nazorat uchun savollar

1. Tayanch – harakat tizimi haqida ma’lumot bering?
2. Suyaklar tuzilishiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
3. Suyaklarning kimyoviy tarkibiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
4. Ko‘krak qafasi skeletiga ta’rif bering?
5. Immobilizatsiya tushunchasiga ta’rif bering?
6. Qo‘llar shikastlanganda transport immobilizatsiyasi
7. Oyoqlar shikastlanganda transport immobilizatsiyasi. Son suyagi singanda birinchi tibbiy yordam qanday amalga oshiriladi?
8. Tayanch harakat apparatining gigienasi
9. Ko‘krak qafasidagi kasalliliklar?

## **YUMSHOQ TO‘QIMALARNING SHIKASTLANISHLARI VA BOG‘LOV TURLARI**

### **Reja:**

- 1.Yumshoq to‘qimalarning shikastlanishi, jaroxatlar va ularning turlari
- 2.Yumshoq to‘qimalarning shikastlanishlarida tibbiy yordam
- 3.Desmurgiya va bog‘lov turlari

**Tayanch iboralar.** Travmatik toksikoz, immobilizatsiya, xirurgik ishlov berish, gidsratsiya, tampon, rezina, drenaj naychalar, antibiotik, ferment, antiseptik, fizioterapiya

### Jarohatlar to‘g‘risida tushuncha

Jarohat deganda- teri yoki shilliq pardalarning mexanik shikasti tushuniladi. Bunda ichkaridagi to‘qimalarga ham shikast etgan bo‘lishi mumkin. Jarohatning turlari.

Jarohatlagan narsaning xususiyatiga ko‘ra quyidagi jarohatlar tafovut qilinadi:

Kesilgan jarohatlar- to‘qimalarga birorta o‘tkir narsa: pichoq, shisha ta’sir qilganda paydo bo‘ladi. Jarohatning atrofi tekis, ostidagi to‘qimalar odatda kamroq shikast etadi, jarohat ochiq bo‘ladi, qonab turadi. Boshqa jarohatlarga qaraganda birmuncha oson tuzaladi.

Shilingan jarohatlar- kesilgan jarohatning bir turi bo‘lib, bunda teri va teri osti to‘qimasi ostidagi to‘qimalardan ajralib chiqqan bo‘ladi. Bunday jarohatlar urilish chiziq bo‘yicha harakat qilayotgan kesuvchi narsalardan shikastlanish yoki terining teri osti to‘qimasi bilan ajralishi oqibatida yuz berishi mumkin.

Chopilgan jarohatlar- o‘tkir va og‘ir narsa: bolta, qilich va hokazolar bilan urilganda hosil bo‘ladi. Ostidagi to‘qimalarning anchagina shikastlanishi kuzatiladi. Birmuncha sekin bitadi.

Sanchilgan jarohatlar- sanchadigan o‘tkir buyumlar: bigiz, mix, nayza va hokazolar sanchilishidan hosil bo‘ladi. Bu jarohatlar teriga ozroq shikast yetkazishi va ichkaridagi a’zo va to‘qimalar ( yirik qon tomirlar, o‘pka, yurak, jigar ) ning ko‘proq shikastlanishi bilan xarakterlanadi. Tashqariga qon kam chiqadi, biroq chuqur joylashgan to‘qimalardan ko‘p miqdorda qon oqishi mumkin. Bunday jarohatlar g‘oyatda xavflidir.

Chopilgan-kesilgan jarohatlar- chopilgan va kesilgan jarohatlarning qo‘shma turi hisoblanadi. U ham tashqi, ham ichki tomondan anchagina qon oqishi bilan xarakterlanadi. To‘qimalarning anchagina ezilishi va ozroq qonashi bilan xarakterlanadi. To‘qimalarning og‘ir ezilishi sababli jarohat atrofining jonsizlanishi kuzatiladi.

Yulungan jarohatlar- urib olingan jarohatlarga yaqin turadi. Odatda mashina mexanizmlarning harakatlanadigan qismlaridan yuzaga keladi. Bunda jarohatning o‘lchamli katta, chetlari notejis bo‘ladi, osonlikcha infeksiya tushadi. Uzoq muddat davomida turli asoratlar bilan kechib bitadi.

Tishlangan jarohatlar- odam yoki hayvonlar tishlashidan sodir bo‘ladi. Teri va uning ostidagi to‘qimalarga ancha shikast etadi. Jarohat hamisha infeksiyalangan bo‘ladi va ko‘p asoratlar bilan bitadi.

O‘q tegishidan yuz bergen jarohatlar-o‘q- otar quroldan zararlanish natijasidir. Bu jarohatlar teshib o‘tgan bo‘lib, buyum tana qismini teshib o‘tib, kirish va chiqish teshiklari bo‘ladi. Bunda kirish teshigi chiqish teshigidan kichik va berk bo‘ladi. Tasodifan yuz beradigan hamma jarohatlar, jumladan o‘q tekgan jarohatlar birlamchi infeksiyalangan hisoblanadi va to‘qimalarga ko‘p shikast

etishi bilan o'tadi, bu ularning bitish sharoitini qiyinlashtiradi. Vaqtincha qon to'xtatishdan so'ng transport immobilizatsiyasi bajariladi va bemor davolash muassasasiga yotqaziladi.

**Jarohatlarni davolash.** Jarohat yuzasini tozalash va birlamchi chok qo'yish. Manipulyasiyalarning bu turini kichikroq yuza jarohatlari bo'lga nemorlarda yoki atroflari tekis, ifloslanmagan va ichkarida joylashgan to'qimalar hamda anchagina shikastlangan kesilgan jarohatlarda bajariladi.

Jarohat atrofi soch yoki jundan tozalanadi, teri spirt bilan artiladi va yod eritmasi surtiladi. Bunday hollarda bakteritsid ta'siriga ega bo'lga maxsus leykoplastirli bog'lom qo'ysa ham bo'ladi.

Jarohatga birlamchi xirurgik ishlov berish. Jarohatga birlamchi xirurgik ishlov berish asosida jarohat chekkalari, devorlari va tubini sog'lom to'qimalargacha kesish, uni aseptik jarohatga aylantirish prinsipi yotadi. Shikastlangan soha va uning og'ir-yengilligiga qarab birlamchi xirurgik ishlov berish mahalliy yoki umumiy og'riqsizlantirish ostida o'tkaziladi.

Jarohat tozalanadi, qon oqishi uzil-kesil to'xtatiladi. Ichki tomondan ketkut chok solish va terini ipak bilan choklash yordamida jarohat chekkalari bir-biriga yaqinlashtiradi. Jarohat chekkalariga antibiotiklar qo'yiladi. Jarohatga birlamchi xirurgik ishlov berish jarohatlangandan so'ng dastlabki soatlarda bajarilishi kerak. Antibiotiklarni parenteral qo'llash xirurgik tozalashni kechroq muddatda (bir sutkachacha) o'tkazish imkonini beradi. Infeksiya rivojlanishi xavfi bo'lga jarohat drenajlanadi, yordamchi choklar solinadi yoki umuman choklanmasdan, aseptik bog'lam bilan bekitiladi. Yallig'lanish hodisalari bo'limganda 3-4 sutka o'tgach chok solinadi.( birlamchi tikilgan chok) Jarohat yiringlagan hollarda yallig'lanish hodisalari tugagandan keyingina uni tikib qo'yish mumkin.

Yuz, til, qo'l panjası jarohatlanganda, ya'ni qon ta'minoti yaxshi bo'lga sohalarda jarohat chekkalari minimal darajada kesilib, choklar solinadi va zarurat bo'lganda immobilizatsiya qilinadi. Jarohatni birlamchi xirurgik tozalashdan so'ng normal bitayotgan choklar 7-8 kunida olinadi. Yiringli jarohatlarni davolash. Jarohat o'z vaqtida tozalanmasa yoki tozalash yetarlicha sifatli o'tkazilmasa, u yiringlay boshlaydi. Klinik jihatdan u jarohat atroflarining qizarishi, ham mahalliy, ham umumiy haroratning ko'tarilishi, bemorning holsizlanishi, jarohat maydonining qattiq og'rishi bilan xarakterlanadi. Bunday hollarda jarohatga drenaj qo'yish lozim bo'ladi (jarohatga ikkilamchi xirurgik ishlov berish). Shu maqsadda ilgari choklar solingan bo'lsa, ular olinadi va yiring cho'ntaklari kesib ochiladi. Yiring chiqishini yaxshilash uchun qo'shimcha kesmalar- kontraperturalar qilinadi. Bu davrda (gidratsiya bosqichi) jarohatni uning katta-kichikligiga bog'liq holda rezina lentalar, drenaj naychalar, natriy xlоридning gipertonik zritmasiga botirilgan g'ovak tamponlar bilan jarohat ichidagi yiring so'rib olinadi. Antibiotiklar, fermentlar, antiseptik vositalar yuboriladi.

Intoksikatsiyaga qarshi kurashish va organizmning himoya immun biologik reaksiyalarini faollashtirish uchun ko'p miqdorda suyuqlik yuboriladi, vitaminlarga boy, yuqori kaloriyalı ovqat tayinlanadi, bo'lib-bo'lib qon quyiladi. O'tkir bosqich tugaganidan keyin (degidratatsiya) bosqichi mazli bog'lamlar qo'llaniladi, bog'lam

kam yangilanadi, fizioterapevtik muolajalar tayinlanadi. Jarohatlarni davolashda immobilizatsiya qilish, gazli gangrena va quturishga qarshi tadbirlarni darhol o'tkazish lozim bo'ladi.

### **Shikastlanish sindromi**

**Shikastlanish yoki travma** deb, organizmga tashqi agentlarning (mexanik, termik, kimyoviy) birdan o'ta kuchli ta'siri natijasida a'zo va to'qimalarning anatomik butunligi va fiziologik jihatdan funksiyasi buzilishiga aytiladi. Bu patologik holat kasal organizmning mahalliy va umumiy javob reaksiyasi bilan har xil simptom va sindromlar tariqasida kechadi.

**Shikastlangan bemorlarni tekshirish xususiyatlari.** Shifokor kelguncha birinchi yordam ko'rsatish va davo muolajalarini samarali o'tkazish uchun tibbiyot hamshirasi shikastlangan bemorda qo'yidagi tekshirish usullarini bilib olish lozim. Buning uchun hamshira bo'g'imdag'i harakatlar hajmini maxsus asbob-uglomer bilan aniqlaydi va uning patologik holatini daraja bilan qayd qiladi. Uglomer branshlari oyoq yoki qo'l o'qi bo'ylab qo'yiladi, uglomer o'qi esa shu bo'g'imning aylanish o'qiga muvofiq joylashtiriladi. Hisob oyoq yoki qo'lning dastlabki vaziyatiga nisbatan olinadi. Zaharlangan jarohatlar - jarohatning zaharovchi modda (iprit, lyuizit va boshqa tushgan) har qanday turidir. Zaharovchi modda jarohat teshigi orqali organizmga so'rilib, og'ir oqibatlarga olib keladi. Davolash – yuvish, antidotlar qo'llar, jarohat birlamchi xirurgik tozalashdan iborat.

Infeksiya tushish darajasi bo'yicha aseptik va septik jarohatlar farq qilinadi. Ikkilamchi infeksiyalangan jarohatlar odatda operatsiya jarohatlari bo'lib, noto'g'ri parvarish qilinganda (tibbiyot xodimlarining aybi bilan) ular jarohat paydo bo'lishidan bir necha soat yoki kun o'tgach infeksiyalanishi mumkin.

**Klinikasi.** Jarohatning klinik manzarasi og'riq, jarohat chetlarining ochiq turishi, qon oqishi va gavdaning shu qismida yuz beradigan funksional buzilishlar bilan xarakterlanadi.

**Jarohatning mikrobdan ifloslanishi.** Har qanday tasodifiy jarohatlanish jarohatga mikrob tushib, u ifloslanadi. Mikroblı flora jarohatga jarohatlovchi yirtilgan kiyim parchalari, teri orqali tushadi. Jarohatda infeksiya rivojlanishiga mikrofloraning virulentli jarohat kanali sohasida to'qimalar yemirilib, qon aylanishi va innervatsiya buzilishiga, organizmning himoya kuchlari pasayishi holatlari sabab bo'ladi. Jarohatning yiringlashi. Jarohatdagi yiringli jarayon muayyan klinik manzarasi: jarohat atrofining qizirishi, shishishi, qattiqlashishi, mahalliy va umumiy haroratning ko'tarilishi, qattiq og'riq, gavdaning shu qismi funksiyasining buzilishi bilan ifodalanadi. Yiringlagan jarohatlarni davolash yiring oqib chiqishi uchun qulay sharoit yaratish va antibakterial terapiya o'tkazishdan iborat.

**Jarohatlanganda birinchi yordam ko'rsatish.** Jarohatlanganda birinchi yordam ko'rsatish asosan, qon oqishini vaqtincha to'xtatish (bog'lam, Qovuzloq) va infeksiya tushishining oldini olish (bog'lam qo'yish oldidan jarohat chekkalariga yod eritmasi surtish) tashkil etadi. Jarohatga bog'lam qo'yishdan

oldin gavdaning shu qismidagi kiyim yoki poyafzalni ehtiyyotlik bilan yechish lozim.

### **Desmurgiya tushunchasi.**

Desmurgiya (grekcha “desmos”-bog‘, bog‘lash va “ergan”-ish) – bog‘lam qo‘yish to‘g‘risidagi ta’limot. Turli shikastlanishlar va kasalliklarda mahorat bilan to‘g‘ri bog‘lam qo‘yish tibbiyotda vujudga kelgan qadimiy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Bog‘lash (bog‘lam qo‘yish) jarog‘at va terining kasallangan joylarini tashqi muhit ta’siridan himoya qilish va qon to‘xtatish va shikastlangan joyni immobilizatsiya qilish maqsadida qo‘llaniladigan mustahkamlash usuli hisoblanadi. Bog‘lam qo‘yish ikki qismdan tashkil topgan : jarohatga davolash maqsadida qo‘yiladigan materialdan va mustahkamlovchi bog‘lov materialidan.

Mustahkamlovchi bog‘lov sifatida dokali, lentasimon bint ishlatiladi. Bintlardan tashqari bog‘lamlarni mustahkamlash uchun kley (kleol, kollodiy, rezina kleyi va boshqalar), leykoplastir, ip gazlamadan tayyorlangan uchburchak ro‘mollar(kosinka) ishlatiladi.

Asosiy bog‘lov matariallari dokali bintlar bo‘lib, o‘lchamlari turlicha bo‘ladi: 5smX5sm, 10smX5sm, 14smX7sm, 16smX10sm. Bint bosh qismi (o‘ralgan)dan va bo‘sh tarafidan(uchidan) tashkil topgan.

**Bintli bog‘lamlar.** Bintli bog‘lamlarning turlari: sirkulyar – bintning yo‘llari (turlari) bir-birini to‘liq berkitadi; spiral – bintning har bir turi oldingisini  $\frac{1}{2}$  yoki  $\frac{2}{3}$  qismini berkitadi; krestsimon, sakkizsimon, boshoqsimon – bintning turlari bir-birini ko‘ndalangiga yoki qiyshiqroq kesadi. Boldir va bilakka bog‘lam qo‘yishda spiral bog‘lamning turlari notekis joylashadi. Shuning uchun har bir turdan keyin bintni aylantirilib olinadi. Aylantirilib olingan joy to‘g‘ri chiziqda joylashishi kerak.

Kaft va barmoqlarni bog‘lash uchun 5 sm, bosh, yelka va bilakni bog‘lash uchun 7-9 sm, tana va sonni bog‘lash uchun esa 8-20 sm. kenglikdagi bintlar qo‘llaniladi. Bog‘lam qo‘yishdagi umumiy qoidalar:

- 1.Bemorga qulay sharoit beriladi.
  - 2.Bog‘lam qo‘yiladigan joy fiziologik jihatdan qulay holatga keltirib olinadi.
  - 3.Bemor tinch turishi, bog‘lanadigan joy mushaklari bo‘shashgan bo‘lishi kerak.
  - 4.Bog‘lam tugatilgach, bemor bog‘lam qo‘yishda qanday holda bo‘lsa, shunday qolishi kerak.
  - 5.Barmoqlar uzatilgan, kaft ochilgan, tirsak bukilgan, yelka bo‘g‘imi qo‘lni tanadan bir muncha chetlatgan holda, chanoq-son va tizza bo‘g‘imlari oyoq uzatilgan holda bo‘lishi kerak.
  - 6.Yordam ko‘rsatilayotganda bemorning yuzini kuzatib borish kerak.
  - 7.Bintning bosh qismi o‘ng qo‘lda, uchi chap qo‘lda bo‘lishi kerak.
- Shaxsiy bog‘lov xaltasi.* Ommaviy shakstlanish ro‘y bergen sharoitlarda jarohatga dastlabki bog‘lamni qo‘yishda shaxsiy bog‘lov xaltasidan foydalilaniladi. U ikkita steril, o‘lchami 15x15 sm. bo‘lgan paxta-dokali yostiqchadan va unga biriktirilgan kengligi 7-10 sm. steril bintdan iborat. Bintning bir tomoni 1 ta yostiqchaga biriktirilgan bo‘lib, ikkinchi yostiqcha bint bo‘ylab harakatlantiriladi.

Bint yostiqchalar bilan birrga pergament qog'ozga joylashtirilib, rezinali material bilan chetlari yopishtirilgan.

*Shaxsiy boylov xaltasini qo'llash qoidasi:*

- Rezinali material qavatini kesilgan joyidan ochilib, olib tashlanadi.
- Qog'ozli qavatdagi to'g'nog'ich olinadi.
- Chap qo'l bilan bintning uchini ushlab, bintning bosh qismi ochiladi.
- O'ng qo'l bilan bintning bosh qismini ushlab xaltacha ochiladi.
- Yostiqchalarning rangli ip bilan tikilgan tomonigagina qo'l bilan tegish mumkin, yostiqchani kerakli masofaga surtish mumkin.
- Yostiqchalarni jarohatga qo'yib, bint bilan bog'lanadi, bintning oxiri to'g'nog'ich bilan mustahkamlanadi.

*Sirkulyar bog'lam* – silindrik yuzalarga qo'yiladi. Bundan bintning har bir turi oldingisini to'liq yopadi.

*Spiralsimon bog'lam* – silindrik va konussimon yuzalarga qo'yiladi. Mahkamlovchi turdan keyin har bir keyingi tur oldingisini  $\frac{1}{2}$  yoki  $\frac{2}{3}$  qismini yopishi kerak. Konussimon yuzalarga bog'lam qo'yilganda bintni bir marta aylantirib olinadi.

*O'rmalovchi bog'lam* – jarohat maydoni katta bo'lgan hollarda boylov materialini mahkamlash uchun qo'yiladi. Mahkamlovchi sirkulyar turdan keyin turlar orasida bint kengligida bo'shliq qoldirib bog'lanadi.

*Boshoqsimon bog'lam* – yelka bo'g'imiga, qo'lтиq sohasiga, o'mrovga, chanoq-son bo'g'imiga qo'yiladi.

*Qaytalama bog'lam* – qo'l yoki oyoqning amputatsiyasidan keyin kultyaga qo'yiladi. Dastlab sirkulyar tur bilan mahkamlanadi, keyin oldidan orqaga qarab bukib, sirkulyar tur bilan mustahkamlanadi.

*Toshbaqasimon bog'lam* – tirsak va tizza bo'g'imlariga yarim buklangan holatda qo'yiladi.

### **Boshga qo'yiladigan bog'lamlar**

*Ko'zga bog'lam qo'yish* – o'ng ko'zni bog'laganda bintni o'ng qo'lida ushlab, chapdan o'ngga qarab bog'lanadi. Mahkamlovchi tur peshona orqali aylanma gorizontal yo'l bilan bog'lanadi. Keyin orqadan ensaga tushiriladi, qulqoq ostidan chakka orqali qiyshaytirib, kasal ko'zni berkitiladi. Bintning qiyshaygan turi aylanma tur bilan mahkamlanadi va yana qayiltirib, oldingi turdan yuqoriroq qilib qo'yiladi. Aylanma va qayilgan turlarini ketma-ket qo'yib, ko'zni berkitiladi. Chap ko'zni bog'lash uchun bintni chap qo'lida ushlab, o'ngdan chapga yo'naltiriladi.

"*Chepets*" - boshning tepe qismi jarohatlanganda qo'yiladi. Bunda dastlab boshning tepe-chakka qismlaridan tushirilgan, asosiy bog'lamni mahkamlash uchun ishlatiladigan yordamchi bint qo'yiladi. Mahkamlovchi bog'lamdan keyin asosiy tur o'ng chakka sohasida yordamchi bint tagidan aylantirib, peshona orqali qarama-qarshi tomonga o'tkaziladi va yordamchi bint tagidan aylantirib, ensa orqali dastlabki holatga qaytiladi. Va yana yordamchi bint atrofida aylantirib, oldingi turdan yuqoriroqdan yangi tur boshlanadi. Shu tarzda davom ettirilib,

boshning hamma qismi yopiladi. Keyin asosiy bint aylanma tur bilan yordamchi bintga mahkamlanadi. Yordamchi bintning uchlari iyak ostida bog‘lab qo‘yiladi.

“*Uzangisimon bog‘lam*”- bu bog‘lam pastki jag‘ni ushlab turadi. Aylanma mahkamlovchi turdan keyin bo‘yinning orqa va yon tomonlaridan iyak sohasiga o‘tiladi va chap lunj orqali yuqoriga ko‘tariladi. Chap lunjdan chakka va boshning tepe qismiga o‘tiladi, pastki iyak sog‘asiga tushiriladi. Zarur vaqtarda iyak to‘liq yopiladi va bir necha marta iyak orqali aylanma tur qilinadi.

“*Ensa va bo‘yinga krestsimon yoki sakkizsimon bog‘lam*”- Aylanma tur bilan bint mahkamlanadi. Keyin chap qulqoq orqasidan qiyshiq yo‘nalishda pastga tushiriladi, bo‘yinning pastki qismiga bo‘yin oldiga o‘tiladi va bo‘yinning orqa tomonidan bosh ustiga qarab o‘ng qulqoq ostidan o‘raladi. Bintni boshni olidan aylantirib, chap qulqoq ostidan o‘tkaziladi va yuqori yo‘nalishda navbatlashib davom qiladi. Bintning oxirgi uchi bosh aylanasida mahkamlanadi.

“*Qulqqa bog‘lam qo‘yish*”- peshona – ensa orqali aylantirib, sekin-asta pastdan yuqoriga ko‘tarilib boradi. Aylana tur bilan tugatiladi.

“*Iyakka va burunga sopqonsimon bog‘lam*”- bint bo‘lagining oxiridan qirqib kelinadi. O‘rta qismi qirqilmaydi. Qirqilmagan sohasi iyak yoki burunga ko‘ndalang qilib qo‘yiladi. Oxirlari qulqoq osti va ustidan o‘tkazilib bog‘lab qo‘yiladi.

### ***Ko‘krak qafasiga bog‘lam qo‘yish.***

“*Spiralsimon bog‘lam*”- 1 metr uzunlikdagi yordamchi bint sog‘ tomon ning yelka kamari orqali o‘tkaziladi. Bintni ko‘krakning pastki qismidan boshlab spiral shaklida aylantirib, yuqori tomonga o‘raladi, ko‘krak qafasini qo‘ltiqqacha o‘rab, shu erda mahkam bog‘lab qo‘yiladi. Yordamchi bintning uchlari yelkada birlashtiriladi.

“*Ko‘krakka krestsimon bog‘lam*”- ko‘rak qafasining pastki qismidan mahkamlovchi tur qo‘yiladi. Keyin ko‘krakning oldingi yuzasidan yuqoriga qiyshiq yo‘nalishda o‘ngdan chap yelka usti sohasiga, orqa orqali ko‘ndalangiga o‘ng yelka usti sohasiga va qiyshiq yo‘nalishda chap qo‘ltiqqa, keyin chap yelka usti orqali 2- va 3- turlarni takrorlanadi. Bog‘lamning oxiri aylanma bog‘lam bilan tugatiladi.

“*Okklyuzion bog‘lam*”- ko‘krak qafasi jarohatlanib, ochiq pnevmotoraks yuz berganda qo‘yiladi. Plevra bo‘shlig‘iga havo kirishini to‘xtatish maqsadida jarohatga va uning atrofidagi teriga radiusi 5-10sm bo‘lgan steril salfetka uning ustidan kleyonka yoki sellofan qo‘yib, germetik holatda bog‘lanadi yoki yopishtirib qo‘yiladi.

### ***Qo‘lga qo‘yiladigan bog‘lamlar.***

“*Barmoqqa spiralsimon bog‘lam*”- mahkamlovchi tur bilakdan boshlanadi, kaftning ustki sohasi orqali qiyshiq yo‘nalishda jarohatli barmoqning uchiga boriladi va shu yerdan spiral turlar bilan barmoqni asosigacha yopib boriladi. Keyin kaftning ustki sohasi orqali bilakka boriladi va sirkulyar tur bilan tugatiladi. Hamma barmoqlarga qo‘yilgan spiralsimon bog‘lam “perchatka” ko‘rinishda bo‘ladi.

*“Qaytalanuvchi bog‘lam”*- kaft barmoqlar bilan birgalikda bog‘lanadi. Avval bilak-panja bo‘g‘imi sohasida mahkamlovchi aylanma tur qilinadi. Keyin bint kaftning ichki qismi bo‘ylab kaft va barmoqlarga tushiriladi, barmoqlarning uchini o‘rab, kaftning ustiga o‘tadi. Shu tartibda 2-3 tur qilinib, bo‘g‘im sohasi aylanma tur qilib bog‘lanadi, so‘ngra o‘rmalovchi bog‘lam ko‘rinishda barmoqlarning uchiga borilib, u erdan spiralsimo tur ko‘rinishida bilakka olib kelib, bog‘lam tugatiladi.

*“Toshbaqasimon bog‘lam”*- tirsak bo‘g‘imiga qo‘yiladi. 2 xil variantda bo‘ladi: yig‘iluvchi va yoyiluvchi.

Yig‘iluvchida mahkamlovchi tur bilakning yuqori qimiga qo‘yiladi, so‘ngra bilak va yelkaga navbatma- navbat tur qo‘yiladi va bog‘lam markazga yig‘ilib borib, jarog‘atni berkitadi. Yoyiluvchi variantida mahkamlovchi tur tirsak bo‘g‘imi orqali o‘tadi. Bog‘lam tirsak bo‘g‘imidan bukilgan holda qo‘yiladi.

*“Yelka bo‘g‘imiga boshoqsimon bog‘lam”*- mahkamlovchi aylanma tur yelka suyagiga qo‘yiladi. Keyin bint ko‘krak qafasining oldingi yuzasi orqali qo‘ltiq osti sohasiga, so‘ngra orqadan yana yelka sohasiga o‘tkazilib, deltasimon muskul sohasida turlar kesishtiriladi, so‘ngra yelkadan aylantirib, shu tariqa takrorlanadi.

*“Bilak-panja bo‘g‘imiga krestsimon bog‘lam”*- bilakning pastki qismida mahkamlovchi tur qilinib, kaft tomonga qiyshiq yo‘nalishda boriladi, so‘ngra bitta aylana tur qilinib, kaftdan yana oldingi turga kesishgan holda bilakka boriladi, shu tariqa takrorlanadi va bilakda tugatiladi.

### **Oyogqa qo‘yiladigan bog‘lamlar.**

*“Tovonga qaytalama bog‘lam”*- mahkamlovchi tur to‘piqqa qo‘yiladi, so‘ngra bint tovonning yon tomonidan aylantirilib, barmoqlarning uchidan boshlab spiralsimon tur bilan berkitiladi va to‘piq sohasida tugatiladi.

*“Bosh barmoqqa spiralsimon bog‘lam”*- mahkamlovchi tur to‘piqqa aylantiriladi. Tovonning ustki yuzasi orqali bint bosh barmoqni aylantirib o‘tkaziladi, uning uchidan boshlab spiralsimontur barmoqning asosigacha o‘rab boriladi va to‘piq atrofida mahkamlab qo‘yiladi.

*“Boldir-tovon bo‘g‘imiga krestsimon bog‘lam”*- To‘piqdan yuqoriroqdan mahkamlovchi tur bog‘lanadi, so‘ngra tovon ustidan qiyshiq yo‘nalishda tushiriladi, tovondan aylantiriladi, tovon ustidan boldirga qarab ko‘tariladi, krest hosil qilinadi. SHunday turlar bilan tovonni yopiladi, to‘piq atrofida aylanma tur bilan tugatiladi.

*“Tizza bo‘g‘imiga toshbaqasimon bog‘lam”*- tizza bo‘g‘imi yarim bukilgan holatda qo‘yiladi. Tizza qopqog‘i ustida mahkamlovchi tur bog‘lanib, proksimal va distal yo‘nalishda tarqab boradi. Tizza bo‘g‘imi ochilgan holatda sakkizsimon bog‘lam qo‘yiladi. Bo‘g‘im ustida va ostida aylanma tur tizza qopqog‘i ustida kesishtiriladi.

### **Bintsiz bog‘lamlar.**

*“Kosinkali(uchburchak ro‘mol) bog‘lam”*- standart kosinkalar 136x100x100 sm o‘lchamda chiqariladi. Kosinka bilan tananing turli sohalariga bog‘lam qo‘yish mumkin. Ko‘pincha qo‘lni osib qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Bunda

kosinkaning o‘rtasi bilak ostidan o‘tkaziladi, bilak tirsak bo‘g‘imida buklangan bo‘ladi. Kosinkaning burchagi tirsakka yo‘nalgan bo‘ladi, uchlari bo‘yinda bog‘lanadi. Burchagi to‘g‘nog‘ich yordamida old tomondan to‘g‘nab qo‘yiladi.

“*Kleyli bog‘lamlar*”- jarohatni bir necha qavat steril doka salfetkasi bilan berkitilib, jarohat atrofidagi teriga kley surtiladi(kleol, kollodiy). Kley qisman qurigach, dokani qo‘yib, chetini mahkamlanadi. Dokaning ortiqcha qismini qaychi bilan qirqib tashlanadi.

“*Leykoplpatirli bog‘lamlar*”- kichik jarohatlarda boylov materiali leykoplastir bilan mahkamlanadi. Leykoplastir krest yoki paralel qilib yopishtiriladi. Yuzaki kichik jarohatlarda bakteriotsid leykoplastirlardan foydalananiladi.

“*To‘r va naysimon bintli bog‘lamlar*”- Davolovchi bog‘lamni tez mahkamlash uchun hozirgi vaqtida retilast – paypoq ko‘rinishdagi to‘rsimon material, turli o‘lchamli va oson cho‘ziladigan bintlar ishlatiladi. O‘lchami № 2-35gacha bo‘lgan to‘r-naysimon bintlar chiqarilgan.

“*Paypoqli bog‘lamlar*”- jarohatni steril paxta va doka qilingan yostiqchalar bilan berkitilib, kiygizib qo‘yiladi. Qo‘l barmoqlarini bog‘lash uchun №2,3 ; kaft, bilak, tovon, boldirni bog‘lash uchun №5-7; yelka va son uchun №10-15; bosh, tana va chanoq uchun №25-35 raqamli bintlar ishlatiladi.

### **Shikastlanish turlari,belgilari va birinchi yordam ko‘rsatish**

Odam organizmiga tashqi faktorlar ta’sir etishi natijasida to‘qimalar va organlarning anatomik funksional jihatdan buzilishi **shikastlanish** deyiladi. Ta’sir qiluvchi kuchlar bir necha xil bo‘ladi: mexanik, termik, kimyoviy, elektrik-ruhiy ta’sirlar farq qilinadi.

Shikastlanishlar aksari mexanik kuchning bevosita ta’siri natijasida kelib chiqadi. Shikastlanish ochiq va yopiq turlarga bo‘linadi. Teri va shilliq pardalar shikastlanmagan bo‘lsa **yopiq shikastlanish** deyiladi.

Bularga urilish, bo‘g‘imlarning chiqishi,bo‘g‘im va suyaklarning shikastlanishi, to‘qimalarning ezilishi va boshqalar kiradi. Teri va shilliq pardalarning shikastlanish butunligining buzulishi bilan kechadigan shikastlanishlar **ochiq shikastlanish** deyiladi. Shikastlanishlarning og‘irligiga qarab, yengil (ish qobiliyatini yo‘qotmaydi), o‘rtacha (vaqtincha qobiliyatini yo‘qotadi) va og‘ir shikastlanishlar farq qilinadi (bemor uzoq vaqt davolanadi).

**Lat yeish.** Shikastlanishlar ichida urib olish tufayli lat yeish juda ko‘p uchraydi. Ko‘pincha bu o‘tmas predmet ta’sirida sodir bo‘ladi. Lat yeish – musht, tayoq, tosh bilan urish,yiqilish, yuqorida narsalarning qattiq urilishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Yumshoq to‘qimalarning shikastlanishi bilan qon tomirlarining uzilishi lat yeishiga xosdir. Bunda to‘qimaga qon quyiladi, lekin teri butunligi buzulmaydi. To‘qimalar orasiga qon tarqalishi qon talash deyiladi. Kattaroq qon tomirlar shikastlangan bo‘lsa qon ko‘p miqdorda to‘planadi va gematoma hosil bo‘ladi. Urib olish natijasida organlar (o‘pka , jigar, buyrak, ichaklar) shikastlanishi mumkin. Bunda ba’zan shok holati ro‘y beradi. Harakat qilganda og‘riq kuchayadi, tinch turganda kamayadi. Hosil bo‘lgan shish katta

kichikligi quyilgan qon miqdoriga va limfa tomirlarining uzilishiga bog‘liq bo‘ladi. Teriga quyilgan qon rangi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi va so‘rila boshlaydi. Qon talashning rangiga qarab aniqlash mumkin: birinchi kunlari gematoma sohasi qizil bo‘ladi, so‘rilish boshlangandan so‘ng yashil va sarg‘ish ranga kiradi. Lat yegan odamga yordam berish uchun og‘riqni qoldirish maqsadida shikastlangan sohan niyuqori ko‘tarib qo‘yish hamda sovuq kompres buyuriladi. (Sovuq suvga namangan sochiq qo‘yiladi va bintli bog‘lom bog‘lanadi ) Gematomaning so‘rilishini tezlatish uchun 2-3 kundan keyin issiq kompres, vanna, UVCH, massaj qo‘llaniladi.

**Boylam (paylar)larning cho‘zilishi** Bo‘g‘im sohasida uni cho‘zib yuboradigan va hatto boylamlarga zo‘r keladigan harakatlar(aksari boldir-son sohasida) natijasida kelib chiqadi. Bunda cho‘zilganda qattiq og‘riq paydo bo‘ladi. Shikastlangan soha tezda shishadi va bo‘g‘im funksiyasi buziladi, qon tomirlari uzilishi oqibatida qo‘shni bo‘g‘im bo‘shlig‘iga qon quyiladi (Gematoma). Pay cho‘zilishning og‘ir turlarida bo‘g‘imning bir ozgina harakati ham qattiq og‘riq bilan kechadi. Boldir-panja va tizza bo‘g‘imlari, barmoqlar va bilak paylarining cho‘zilishi keng tarqalgandir. Mushaklar va tog‘aylarning cho‘zilishi odatda og‘ir buyumlarni ko‘targanda mushaklar haddan tashqari og‘ir ish bajarganda yoki noqulay harakatda kutilmaganda yuz beradi. Agar bu tarzdagi jarohatlarga e’tibor berilmasa mushaklarning cho‘zilishi surunkali holga aylanishi mumkin. Ayniqsa bo‘yin, bel va son sohalarida.

*Kasallik belgilari va alomatlari:* Og‘riq, shish, odatdagi harakat vazifasini bajara olmaslik, teri rangining o‘zgarishi, deformatsiya(shaklning o‘zgarishi), tashqi qon ketishi, jarohat olgan vaqtida suyaklarda qisirlash yoki shaqillagan tovush (krepitatsiya).

### **Suyaklarning chiqishi va sinishi: Sub’ektiv va ob’ektiv belgilar**

Bir yoki bir qancha suyaklarning bo‘g‘imlardagi normal holatidan surilishi **suyak chiqishi** deb aytildi. Shu bilan birga bir suyakning bo‘g‘im sathi ikkinchi suyakning bo‘g‘im sathidan surilib ketadi va xaltachasining yorilgan joyidan chiqib ketadi. Suyaklarning bo‘g‘im yuzasi bir –biriga jips tegmay chiqishi – **to‘liq chiqish**, bo‘g‘im sathlari bir oz bo‘lsada tegib tursa- **qisman chiqish** deyiladi. Suyak yelka bo‘g‘im sohasi chiqqanda yelka suyagi chiqishi, tirsakda bilak suyaklari chiqishi deyiladi.

*Suyak chiqish sabablariga ko‘ra tug‘ma, travmatik, patologik, va odat bo‘lib golgan turlari bor.*

*Suyaklarning tug‘ma chiqishi* kam kuzatiladi, qiz bolaning ona qornida yashash davrida bo‘g‘im yuzalarining noto‘g‘ri rivojlanishi yoki yetarli rivojlanmasligi natijasida bir yoki ikki tomondagи chanoq bo‘g‘imida son suyagi chiqib qoladi. U bola yura boshlagach oqsaganda yoki o‘rdakka o‘xshab qadam tashlay boshlaydi.

*Suyaklarning travmatik chiqishi* boshqa turlariga qaraganda ko‘proq uchraydi. Masalan, odam qo‘lini oldinga uzatib yiqilganda yelka yoki tirsak bo‘g‘imida suyak chiqishi kuzatiladi. Suyakning patologik chiqishi kam uchraydi

va bo‘g‘imda yoki bo‘g‘im atrofidagi to‘qimalarda kasallik (osteomielit va h) natijasida kelib chiqadi.

Suyakning *odat bo‘lib chiqishi* bo‘g‘im kapsulasi cho‘zilganligi va uzilganligi sababli suyakning takror chiqishiga moyil bo‘lib bemorlarda qayd qilinadi. Ozgiina kuch ishlatalganda hatto noqulay harakat qilganda ham suyak chiqib ketishi mumkin.

**Suyak chiqishining belgilari :** Suyak chiqqanda chiqqan bo‘g‘im sohasida o‘zida xos o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shikastlangan sohada qattiq og‘riq bo‘ladi. Chiqib ketgan bo‘g‘imning tashqi ko‘rinishi(konfiguratsiyasi) juda o‘zgaradi, shish hosil bo‘ladi, qon quyiladi. Suyak chiqishida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish shikastlangan oyoq yoki qo‘lni mumkin qadar qimirlamaydigan qilib bog‘lashdan iborat. Buning qo‘l suyaklari chiqqanda kosinka yordamida bo‘yinga osib qo‘yiladi. Oyoq suyaklari chiqqanda esa bemor qimirlatmay yotqizib qo‘yiladi. Bemorni tezlik bilan tibbiyot muassasasiga yuborish kerak. Yo‘lda og‘riq kuchaymasligi uchun og‘riq qoldiruvchi dorilardan (morphin, promidol) in’eksiya qilinadi.Davolash muassasasida vrach tezlik bilan chiqqan suyakni joyiga soladi. Shundan so‘ng o‘sha soha bintli yoki gipsli bog‘lam qo‘yib mustahkamlanadi.

**Suyaklarning sinishi.** Tashqi kuch ta’sirida suyak butunligining buzilishi *suyak sinishi* deyiladi. Sinish travmatik va patologik buladi. Shikastlanishlarda suyak sinishi juda ko‘p uchraydi. Patologik sinish suyakda patologik protsesslar (sil, osteomielit, o‘smlar ) sodir bo‘lganda kasallikning ma’lum bosqichida vujudga keladi. Shikastlanishlarda teri qoplaming butunligiga qarab suyak sinishi yopiq ( teri shikastlanmagan holda) va ochiq bo‘ladi. Suyakning singan qismlari bir-biridan ajralgan bo‘lsa, *to ‘la sinish* deb aytiladi. Suyaklar singanda suyak parchalari bir-biridan ajralmasa *darz ketish* deb aytiladi.

Sinish tug‘ma va orttirilgan bo‘ladi. Suyaklarning sinishi juda xilma-xil bo‘lib, tashqi ta’sir kuchining yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi. Suyaklarning ko‘ndalang, qiyshiq, spiralsimon, uzunasiga sinishi, parchalanib sinishi va ezilib sinishi ( kompresnoy sinish ) farq qilinadi. Bularning hammasi singan uchlarining so‘rilishi bilan kechadi, bu sinishga sabab bo‘lgan mexanik kuchning yo‘nalishiga, suyakka yopishgan muskullarning qisqarib tortishishiga bog‘liq bo‘ladi. Suyak siniqlarining siljishi har-xil bo‘ladi: burchak hosil qilib siljish, uzunasiga siljish, yoniga siljish va h.

### **Sinish belgilari ikki xil bo‘ladi:**

1. *Sub ’ektiv belgilar*- bu suyak singandan keyin og‘riq paydo bo‘lishi va singan qo‘l-oyoqlarni harakatlantira olmaslik.

2. *Ob ’ektiv belgilar*- singan sohani ko‘zdan kechirishda bilinib turadi, singan soha shishadi, ko‘karadi, oyoq-qo‘llarining holati o‘zgaradi, suyak o‘qlari o‘zgaradi, ular qisqa va g‘ayri-tabiiy shaklga kerib qoladi. Singan joyni paypaslab ko‘rganda, bemor qattiq og‘riq sezadi, suyakning silliq emasligini, siniqlarning o‘tkir qirrasi asta bosib ko‘rilganda qisirlashini sezish mumkin.

Suyaklar singanda bir qator asoratlar kelib chiqish mumkin. Masalan, singan suyak uchlari yumshoq to‘qimalarni shikastlaydi, bunda og‘riq kuchli bo‘ladi, suyak qirralari qon tomirlarini yorib yuborganda ko‘p qon oqadi. Bu o‘z

navbatida shok holatini vujudga keltiradi. Suyaklar ochiq singanda –jarohatga infeksiya tushishi va og‘ir yiringli protsesslar, gangrena rivojlanishi mumkin.

### **Ezilish sindromi, belgilari va birinchi yordam**

Tana ayrim qismlarining uzoq vaqt davomida og‘ir yuk ostida ezilib turishi, siqilishi natijasida odamda yumshoq to‘qimalar yopiq shikastlanishining o‘ziga xos belgilari paydo bo‘ladi. Bu ezilish sindromi yoki travmatik toksikoz deb ataladi. Bunda muskullar, teri osti yog‘ kletchatkasi, tomirlar va nervlar shikastlanadi. Tinchlik paytlarida bunday ezilish tom bosib qolganda, devor ostida qolganda, shaxtalar va tog‘ jismlari bosganda, zilzila natijasida uylar qulab, og‘ir yuklar ezganda yuzaga keladi. Urush vaqtida esa bombardimon paytida, atom quroli portlaganda vujudga keladi. Uzoq vaqt ezilishi natijasida muskullar va boshqa yumshoq to‘qimalarda nekroz boshlanib, to‘qimalar o‘la boshlaydi va o‘zidan zaharli modda ( toksik) ajratadi, ana shu toksinlar qonga so‘rilib organizmni zaharlaydi.

**Ezilish sindromining belgilari.** Bemorning umumiy ahvoli dastlab ancha yaxshi bo‘ladi, u umuman bexolligidan, ezilgan joyi og‘rishidan shikoyat qiladi. 6-8 soat o‘tgach, shikastlangan oyoq-qo‘lda shish paydo bo‘ladi va zo‘riqadi. Bu sohaning terisi avval oqaradi, so‘ngra qizg‘ish-ko‘kimir rangga kiradi. Terida ichi suyuqlikka to‘la pufakchalar hosil bo‘ladi, oyoq-qo‘llarini qimirlatib bo‘lmay qoladi. Bemorning umumiy ahvoli og‘irlashadi, temperatura 39-40 darajaga ko‘tariladi, tez vaqt ichida buyrak ishi buziladi.

Bunda birinchi yordam ko‘rsatish shikastlangan odamni tezlik bilan bosib turgan og‘irlilik ostidan chiqarib olishdan iborat. Shikastlangan oyoq yoki qo‘l asosiga rezina Qovuzloq qo‘yiladi, bu zaharli moddalarning qonga so‘rilishini ancha kamaytiradi, oyoq-qo‘llar shina bilan bog‘lanadi va yuqoriga ko‘tarib qo‘yiladi. Shokka qarshi chora ko‘riladi. Bemorga 2 gr ichimlik soda poroshogi beriladi va ko‘plab suyuqliklar ichiriladi. So‘ngra shoshilinch ravishda davolash muassasasiga jo‘natiladi.

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1.Yumshoq to‘qimalarning shikastlanishi deganda nimani tushunasiz?
2. Jaroxatlar va ularning turlari
3. Jarohatga birlamchi xirurgik ishlov berish qanday amalga oshiriladi?
4. Yumshoq to‘qimalarning shikastlanishlarida tibbiy yordam
- 5 .Desmurgiya deganda nimani tushunasiz?
6. Bog‘lamlar necha xil bo‘ladi?
7. Qattiq bog‘lamlar necha xil turda bo‘ladi?
8. Suyaklarning sinishi belgilari, turlari birinchi yordam?
9. Ezilish sindromi, belgilari va birinchi yordam
10. Suyaklarning chiqishi va sinishi: Sub’ektiv va ob’ektiv belgilar

## **ZAHARLANISHLAR. ZAHARLANGANLARGA BYYO**

### **Reja.**

- 1.Zaharlanishlar va ularning turlari

2. Dori vositalaridan zaharlanish va ularda birinchi yordam
3. Zaharli hayvonlar tishlashi, hasharotlar chaqishi va ularni davolash
4. Kimyoviy birikmalardan zaharlanish va ularda ko'rsatiladigan shoshilinch yordam
5. Ovqat toksikoinfeksiyalari, kechishi va ularda birinchi yordam

**Tayanch iboralar.** kasbiy, maishiy, mahalliy, rezorbtiv, reflektor, narkotik moddalardan zaharlanish, toksikoinfeksiya, barbiturat, xolinolitik, ganglioblokator

### Zaharlanishlar va ularning turlari

Zaharlanish – bu organizmga toksik moddalar tushishi hisobiga tizimli zararlanishi hisoblanadi. Zaharlar organizmga og'iz, nafas yo'llari yoki teri qoplamlari orqali kirishi mumkin.

Ushbu moddalarni tanaga kirish tezligiga, zaharlilik darajasi, miqdoriga qarab o'tkir, o'tkir osti va surunkali zaharlanishlar rivojlanishi mumkin. Bundan tashqari sababiga ko'ra suidqasd tufayli va tasodifan; kasbiy, maishiy va dorilardan zaharlanishlar ajratiladi. Zaharli moddalar tanaga tushgach mahalliy, rezorbtiv yoki reflektor ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin bu bulinish nisbiy hisoblanadi.

Shunga ko'ra zaharlanishlarning quyidagi turlari farqlanadi:

- Ovqatdan zaharlanish;
- Ko'ziqorinlardan zaharlanish;
- Dori vositalaridan zaharlanish;
- Kimyoviy moddalardan zaharlanish (kislota, ishqor, maishiy ximiya);
- Alkogoldan zaharlanish;
- Is gazidan zaharlanish;
- Tutundan yoki ammiak parlaridan zaharlanish va boshqalar.

Zaharlanishlarda organizmdagi barcha a'zolarning faoliyati buziladi. Ayniqsa asab, xazm va nafas tizimlari ko'proq zararlanadi. Zaharlanishlar oqibati o'lim bilan tugashi mumkinligini xisobga oladigan bo'lsak, ularda birinchi yordamni ko'rsata bilish muxim o'rinn tutishini anglash lozim. Tibbiy birinchi yordamni qay darajada to'g'ri ko'rsata bilish ma'lum bir inson xayotini saqlab qolishga yordam beradi.

Zaharlanishlarda tibbiy yordam ko'rsatishning umumiy qoidalari:

- 1.Zaharli moddalar bilan kontaktni yo'qotish;
- 2.Organizmdan zaharni tezroq chiqishini ta'minlash;
- 3.Hayotiy muhim a'zolar: nafas va yurak faoliyatini qo'llab quvvatlash.
- 4.Zarur paytlarda reanimatsin choralar ko'rish: yurakni yopiq massaji, og'izdan-og'izga yoki burunga nafas berish;
- 5.Tez yordam vrachini chaqirish.

Eng asosiysi zaharlanish nimadan sodir bo'lganini aniqlash xisoblanadi. Bu o'z vaqtida agentning keyingi ta'sirini yo'qotish va effektiv yordam ko'rsatishga yordam beradi.

Zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatishdagi xatolar: Zaharlanishlarda tezkor yordam sifatida ko'rsatiladigan ayrim muolaja va tadbirlar jabrlanuvchini umumiy xolatini yaxshilash o'rniga og'irlashtirishi mumkin. Ularni bilish jabrlanuvchiga qo'shimcha zarar etkazmaslikni oldini oladi.

- 1.Gazlangan suv ichirish;
- 2.Ongi buzilgan, tutqanog'i qo'zigan va xomilador jabrlanuvchilarga qayt qilish refleksini chaqirish.
3. Mustaqil ravishda antidot berish. Masalan kislotadan zaharlanganda ishqor berish.
4. Kislota, ishqor, maishiy ximiya, va neft maxsulotlari bilan zaharlanganda ich kelishini bo'shashtiruvchi dorilar berish.

Bundan tashqari sababiga ko'ra suidqasd tufayli va tasodifan; kasbiy, maishiy va dorilardan zaharlanishlar ajratiladi.

**Narkotik moddalardan zaharlanish.** Narkotik vositalarni yuqori dozalarda qabul qilish o'tkir zaharlanish va o'limgacha olib kelishi mumkin. Morfinning 0,1g dan ortig'i zaharli hisoblanadi. Morfindan o'tkir zaharlanishda ko'z qorachiqlari torayib, yorug'likka sezgi pasayib ketadi, teri qizaradi, mushaklar tonusi oshib ketadi. Hind kanoplyasidan (gashish, marixuana) zaharlanish psixomotor qo'zg'alish, ko'z qorachiqlarining kengayishi, qulqlarda shovqin, gallyusinatsiyalar bilan kechadi. Keyinchalik umumiy holsizlik, bequvvatlik, chuqur uyqu, tana haroratining tushib ketishi kuzatiladi. Og'ir hollarda nafas buzilib, asfiksiya rivojlanadi.

- BTYO.**
1. Me'dani zondsiz usulda yuvish (ko'p miqdorda suyuqlik ichirib, quşish refleksini chaqirish bilan),
  2. Tuz surgilarini qo'llash (1 choy qoshiq achchiq tuzga  $\frac{1}{2}$  stakan sovuq suv),
  3. Ko'p suyuqlik ichirish (choy, kampot),
  4. Bemorni shifoxonaga yotqizish.

Narkotiklarga qarshi ziddi-zahar sifatida nalorfin ishlatiladi, u venaga (0,5 % eritmasi 1-2 ml) yuboriladi. Nalorfin yo'qligida teri ostiga atropin (0,1 % eritmasi 1 ml) yuborish mumkin. Reanimatsiya sharoitida forsirlangan diurez va peritoneal dializ usullaridan foydalilaniladi, nafas susayganda o'pkaning sun'iy ventilyasiyasi o'tkaziladi. Bundan tashqari yurak-tomir vositalari, analeptiklar (kofein, kardiamin), vitaminlar, glyukoza eritmasi yuboriladi.

**Barbituratlardan zaharlanish.** Barbituratlar qatoriga barbamil, barbital, fenobarbital, benzonal kirib, yuqori dozalarda zaharlanishlarga sabab bo'ladi. Barbituratlar bilan zaharlanganda 4 bosqich kuzatiladi: a) uxlash, b) yuzaki koma, v) chuqur koma, g) komadan keyingi bosqich.

Uxlash bosqichida bemorni uyqu tortadi, apatiya, ataksiya, nutqning buzilishi kuzatiladi. Qorachiq birmuncha toraygan, yorug'likka reaksiya saqlangan, nafas va yurak faoliyati buzilmagan bo'ladi. Bemor og'riq va kuchli ovozga reaksiya beradi. Gipersalivatsiya kuzatiladi. Uxlash bosqichi 10-15 soat davom etadi.

Yuzaki koma bosqichida uyqu chuqur bo'lib, reflekslar saqlangan. Es-hush yo'qolgan, qorachiqlar toraygan, yorug'likka reaksiya kamaygan bo'ladi. Patologik reflekslar paydo bo'lishi mumkin. Nafas sekinlashgan, puls tezlashgan bo'ladi. Bu

bosqichda til orqaga ketib qolishi va qusuq massalarini aspiratsiyasi natijasida asfiksiya kelib chiqishi mumkin.

Chuqur koma davri chuqur uyqu, reflekslarning yo‘qolishi, mushaklar tonusining yo‘qolishi, oyoq-qo‘llarni muzlashi, nafasni sekinlashishi, sianoz bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda o‘tkir yurak-tomir etishmovchiligi, pulsni zaiflashishi va arterial bosimni pasayishi kuzatiladi. Nafas to‘xtashi, kollaps, o‘pka, miya shishi, paroksizmal taxikardiya rivojlanishi mumkin.

Komadan keyingi davrda- harakatlar koordinatsiyasi buzilishi, emotsiyal labillik, depressiya kuzatilishi mumkin. O‘pka yallig‘lanishi, to‘qimalar oziqlanishining buzilishi kelib chiqadi. Engil zaharlanganda uyquchanlik 1 kun, o‘rtachada esa 1-2 kun, og‘ir hollarda 5 kundan ortiq davom etadi.

**BTYO.** 1. Barbituratlar og‘iz orqali qabul qilingan bo‘lsa tezlik bilan qustirish yoki me’dani yuvish.

2. Nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta’minalash maqsadida shilliq va qusuq moddalaridan tozalash.

3. Kislorod yostiqchasidan nafas oldirish.

4. Tuz surgilarini qo‘llash (1/2 stakan suvga 30 g. tuz)

5. Tozalovchi huqna qilish.

6. Faollashtirilgan ko‘mir berish.

7. Koma holatida sun’iy nafas oldirish.

8. Qondagi zaharni chiqarib yuborish uchun peshob haydovchi dorilar berish

9. Bemorni shifoxonaga yotqizish.

**Xolinolitik dorilardan zaharlanish.** Xolinolitik vositalar-atropin, amizil, astmatol, skopolamin, aprofen va b. markaziy va periferik nerv tizimidagi xolinolitik tizimlarni tormozlaydi. Xolinolitiklardan zaharlanganda og‘iz qurishi, yutish va nutqning buzilishi, yorug‘likdan qurqish, yurak o‘ynashi, nafas siqishi, bosh og‘rig‘i kuzatiladi. Akkomadatsiya falajlanadi, qorachiqlar kengayadi, yaqindan ko‘rish buziladi. Teri qoplamlari quruq, giperimiyalangan. Og‘ir hollarda ruxiy va harakat qo‘zg‘alishi, ko‘rish gallusinatsiyalari, jazavaga tushish, tutqanoqsimon xuruj, so‘ngra es-xushni yo‘qolishi kuzatiladi.

**BTYO.** Agar zahar og‘iz orqali kirgan bo‘lsa, me’dani 1 % tanin yoki 1:1000 kaliy permanganat eritmasi bilan zond orqali yuvish, suyuqliklar ichirib qustirish lozim.

Agar zahar ko‘z shilliq pardalari orqali kirgan bo‘lsa, tezlik bilan ko‘zni yuvish kerak. Taxikardiyada inderaldan foydalanish mumkin. Agar gipertermiya kuchli bo‘lsa, sovuq suv yoki muzli xaltacha, nam artish usulidan foydalaniadi.

**Ganglioblokatorlardan zaharlanish.** Arfonad, benzogeksoniy, gangleron, dimekolin, paxikarpin, pentamin, pirilen va b. ganglioblokatorlar zaharlanishga olib kelishi mumkin. Paxikarpin bachardon tonusini oshirib, uning mushaklarini qisqarishini kuchaytirgani sababli ayollar homiladorlikni to‘xtatishda foydalangan. Bu maqsadda paxikarpin 0, 5 dan 8 g dozagacha ishlatilganda zaharlanishga olib keladi. Zaharlanishning klinik belgilari: bosh aylanishi, ko‘rishni pasayishi, qusish, ko‘ngil aynishi, qorinda og‘riq, quloqlar shang‘illashi, og‘iz qurishi. Ruxiy

qo‘zg‘alishlar, tirishishlar, og‘ir hollarda es-xushni yo‘qotish, kollaps rivojlanadi. Bemor nafas falajlanishi va yurak to‘xtashidan halok bo‘lishi mumkin.

**BTYO.** Birinchi yordam me’dani yuvish, tuzli surgilar berish, tozalovchi klizmalar qilishdan iborat. Vegetativ gangliylardan nerv impulslari o‘tishini yaxshilash maqsadida prozerin (1 ml 0,05 % eritmasi), ATF (2-3 ml 1 % eritmasi), V gurux vitaminlari beriladi. Harakat qo‘zg‘alishlarida geksenal yuboriladi. Kollaps rivojlanganda mezaton, yurak-tomir preparatlari qo‘llanadi.

**Og‘ir metall tuzlaridan zaharlanish. Mis birikmalaridan zaharlanish.** Mis kuporosi, mis oksidimis karbonat va b. ko‘pincha nafas yo‘llari orqali tanaga tushadi. va ularni ta’sirlaydi. Ular qon gemolizi va ichki a’zolarda degenerativ o‘zgarishlarni chaqirish xususiyatiga ega. Yashirin davr (4-48 soat) o‘tgach, bemorda isitma (39-400 S), titrash, kuchli terlash kuzatiladi. So‘ngra umumiyliz holsizlik, taxikardiya, qusish boshlanadi. Burundan qon ketishi, katta dozalarda esa o‘pka shishi, rivojlanadi. Bemor tezda o‘lib qolishi mumkin. Mis birikmalari me’daga tushsa og‘izda metall ta’mi, salivatsiya kuzatiladi. Bunga ko‘ngil aynish, qusish, qorinda og‘riq, chanqash, ich ketishi qushiladi. Teri qoplamlari sarg‘ayadi. Til va og‘iz shilliq pardalari ko‘k rangga bo‘yaladi. Tana harorati pasayadi. Yurak qisqarishlari soni kamayadi. Og‘ir hollarda koma, tirishishlar kuzatilishi mumkin.

**BTYO.** Birinchi yordam me’dani bir necha marta yuvishdan iborat. Shuningdek, faol ko‘mir va magniy oksiddan foydalaniladi. Bemorga sut, yog‘li ovqatlar berish taqiqlanadi. Bemorning terisi ostiga morfin va atropin, venasiga 100 ml 30 % natriy tiosulfat yuboriladi. Ko‘p qusganda amnazin yuboriladi. Qo‘rg‘oshin birikmalaridan zaharlanish.

Qo‘rg‘oshin birikmalari nafas va me’da-ichak yo‘llari, teri orqali tanaga tushishi mumkin. Bemor og‘zida shirin ta’m, so‘lak oqishi, ko‘ngil aynish, qusish, qorinda kuchli og‘riq, spastik qabziyat kuzatiladi. Bemor qo‘zg‘algan, qorni dam bo‘lib, terlaydi, arterial bosim va harorati ko‘tariladi. Ajralayotgan peshob miqdori kamayib ketadi, hattoki to‘xtashi mumkin. Jigar yetishmovchiligi va sarg‘ayish rivojlanadi.

**BTYO.** Birinchi navbatda me’dani magniy yoki natriy sulfat eritmasi bilan yuviladi va tuzli surgilar beriladi. Atropin (0, 1 % 1 ml kuniga 2-3 marta), promedol (2 ml 2 % eritmasi) teri ostiga, 0, 25 % novokain eritmasi 200 ml gacha, 20 % mannitni glyukozadagi eritmasi 1-2 g/kg hisobida venaga yuboriladi. Davolashda paranefral novokain blokadalarini, qorin sohasiga diatermiya, magniy sulfat klizmalaridan foydalanish mumkin. Maxsus davo sifatida tetatsin-kalsiy ishlatiladi, uni 20 ml 10 % eritma holida 500-1000 ml 5 % glyukoza bilan venaga tomchilab kuniga 1-2 mahal yuboriladi, surunkali zaharlanishda esa 0, 5 g dan 4 marta kun oralab ichga beriladi. Bundan tashqari vitaminlar, spazmolitiklar, sut va o‘simlik mahsulotlariga boy parhez buyuriladi.

**Rux va uning birikmalaridan zaharlanish.** Tanaga rux birikmalari nafas a’zolari va hazm yo‘llari orqali tushishi mumkin. Rux birikmalari bilan zaharlanganda og‘izda metall ta’mi, chanqash, holsizlik, ko‘ngil aynish, qusish, qorinda og‘riq, ich ketishi kuzatiladi. Bemor uyquchan, mushaklarda og‘riqqa shikoyat qiladi. Keyinroq bronxit belgisi bo‘lgan quruq yo‘tal kuzatiladi. Bu 4-5

soat davom etib, so‘ngra kuchli titrash, tana haroratini 38-400 S ga ko‘tarilishi, terlash kuzatiladi. Og‘ir hollarda pnevmoniya va o‘pka shishi rivojlanadi. Agar rux birikmalari teriga tushsa yara paydo bo‘ladi, og‘iz orqali kirsa hazm yo‘llarining kuyishiga olib keladi.

**BTYO.** Rux birikmalari og‘iz orqali kirganda me’dani 3 % natriy gidrokarbonat yoki 0, 2 % tanin eritmasi bilan yuviladi, tuzli surgilar beriladi. Ziddizahar sifatida unitiol ishlatiladi, u 1-kunlarda har 10 kg og‘irlikka 1 ml 5 % eritma hisobida 3-4 mahal, 2-kunda 2-3 mahal, 3-7-kunlar 1-2 mahal beriladi. Ishqorli ingalyasiyalar, glyukoza va askorbin kislota vena orqali, zaruriy hollarda esa narkotiklar, yurak-tomir vositalari beriladi.

**Mishyak birikmalaridan zaharlanish.** Mishyak birikmalari tanada nefrotoksiq, gepatotoksiq, neyrotoksiq, enterotoksiq ta’sirlarni namoyon qiladi. Zahar tanaga og‘iz orqali tushganda metall ta’mi, qorinda og‘riq, quşish kuzatiladi. Qusuq massasi yashil rangda bo‘ladi, axlat guruch qaynatmasini eslatadi. Tana suvsizlanib, tirishishlar rivojlanadi. Gemolitik kamqonlik, sariqlik, buyrak etishmovchiligi, og‘ir hollarda kollaps, koma kuzatiladi.

Zahar nafas yo‘llari orqali kirganda sopor holati, tirishishlar, xushdan ketish, nafasning falajlanishi, kollaps kuzatiladi. Ingalyasiya yo‘li bilan zaharlanganda tezda qon gemolizga uchraydi. 2-3-kunlarga kelib jigar va buyrak etishmovchiligi kuzatiladi. Mishyakning o‘ldiruvchi dozasi ichga qabul qilinganda 0, 1-0, 2 g ga teng.

**BTYO.** Me’dani yuvish, xuqna, venaga 150-200 ml 5 % unitiol eritmasi yuborish tavsiya etiladi. Vitaminoterapiya ham maqsadga muvofiqdir.

**Alkogoldan zaharlanish.** Alkogol mast qiluvchi dozadan ham yuqori miqdorda qabul qilinsa zaharlanish kelib chiqadi. Belgilari: yuz terisini qizarishi, tana haroratini pasayishi, quşish, sovuq ter ajralishi, qorachiqlarni torayishi, nafasni susayishi, pulsni zaiflashishi va b. Tirishishlar, qusuq massalarini aspiratsiyasi, laringospazm rivojlanishi, nafas va yurak faoliyati to‘xtashi mumkin. 96 % spirtni 300 ml miqdori o‘limga olib keladi.

**BTYO.** Me’dani zond bilan yuvish lozim. Venaga glyukozaning gipertonik eritmasini insulin bilan qo‘sib (500 ml 20 % glyukozaga 20 TB insulin), 500-1000 ml 4 % natriy gidrokarbonat eritmasidan yuborish mumkin. Komada forsirlangan diurez usulidan foydalaniladi. Shuningdek, yurak-tomir vositalari, tonusni oshiruvchilar (kardiamin, kamfora) tavsiya etiladi.

**Qishloq xo‘jaligida ishlatiluvchi kimyoviy moddalardan zaharlanish. Fosfororganik birikmalaridan zaharlanish.**

Fosfororganik birikmalar (dixlofos, karbofos, xlorofos, tiofos va b.) qishloq xo‘jaligida zararli hashorotlar, begona o‘tlarga qarshi kurashda, shuningdek, defoliantlar sifatida keng ishlatiladi. Zahar tanaga teri, nafas yo‘llari, og‘iz orqali tushishi mumkin. Fosfororganik birikmalar xolinesteraza fermentini qaytmas ravishda ingibir lab, atsetilxolin miqdorini oshib ketishiga olib keladi.

Fosfororganik birikmalardan zaharlanishning 3 ta darajasi ajratiladi.

I darajada psixomotor qo‘zg‘alish, nafas siqishi, o‘pkada nam xirillashlar, terlash, arterial bosim oshishi, ko‘krak sohasida noxo‘sh sezgi kuzatiladi.

II darajada miofibrillyasiya, tonik-klonik tirishishlar, ko'krak qafas mushaklari rigidligi, nafas olishni buzilishi kuzatiladi.

III darajada oyoq-qo'llarning mushaklari falajlanadi, nafas mushaklari zaiflashadi, nafas markazi susayadi, hattoki nafas to'xtab qolishi mumkin. Arterial bosim tushib ketadi, yurak ritmi va o'tkazuvchanligi buziladi. Ýlim nafas va yurak faoliyati etishmovchiligi tufayli ro'y berishi mumkin.

Keyinchalik esa pnevmoniya, psixozlar va polinevritlar rivojlanishi mumkin.

**BTYO.** Jabrlanuvchini zaharlanish maydonidan olib chiqiladi, kiyimlari echiladi, teri iliq suv bilan yuviladi. Agar zahar og'iz orqali kirgan bo'lsa, me'da zond orqali yuviladi, tuzli surgilar beriladi va davolash muassasasiga yuboriladi. Fosfororganik birikmalar bilan zaharlanganda xolinesteraza fermentini qayta tiklash xususiyatiga ega bo'lgan moddalar-dipiroksim, alloksim, izonitrozin kabilar ziddizahar sifatida ishlatilishi mumkin.

**Xlororganik birikmalardan zaharlanish.** Xlororganik birikmalar neyrotoksic va tirishtiruvchi ta'sirga ega. Zaharlanishda dispeptik o'zgarishlar, qorinda og'riq kuzatiladi. Og'ir hollarda nafas siqishi, qo'zg'alish, ataksiya, ko'rishning buzilishi, burundan qon ketishi, tirishishlar kelib chiqadi. Ýtkir yuraktomir va jigar etishmovchiligi rivojlanadi. Ichga qabul qilinganda zaharning 30 g miqdori o'ldiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

**BTYO.** Me'dani zond orqali yuvish, tuzli surgilar berish lozim. Keyin esa forsirlangan diurez o'tkaziladi. Venaga kalsiy glyukonat yoki xlorid (10 ml 10 % eritmasi), glyukoza askorbin kislota bilan, nikotin kislota (2 ml 5 % eritma), V guruh vitaminlari yuboriladi. Tirishishlar kuzatilganda diazepam, barbamil beriladi. Toksik kamqonlik va gepatitni davolanadi. Zaharlangan odam albatta shifoxonaga yotqizilishi lozim.

**Zaharli ilonlar va hasharotlarning chaqishi.** Zaharli ilonlar chaqishi qattiq va uzoq davom etadigan og'riq, shish, chaqqan joyda qon quyulishni keltirib chiqaradi. Belda og'riq bo'ladi, nafas olish va yurak urishi qiyinlashadi, og'ir hollarda es-xushning yo'qolishi, quish, nafas olishning va yurak faoliyatining keskin sustlashuvi kuzatiladi. Zahar tezlik bilan tananing boshqa qismlariga tarqalishi mumkin, buning natijasida arterial bosimning pasayishi, qo'zg'alishlar, talvasa, nuqtali qon quyilishlari kuzatiladi.

Hasharotlar chaqqanda to'qimalarning mahalliy shishi, qizarishi va mahalliy tana haroratining ko'tarilishi kuzatiladi. Holdan toyish, bosh aylanishi va og'rishi, titrash, ko'ngil aynishi, quish, ayrim hollarda eshakem, belda va bo'g'imlarda og'riq, yurak urishi kuzatiladi.

**BTYö.** Ilon, chayon va zaharli hasharotlar chaqqanda birinchi yordam bir xil bo'ladi.

1. Jarohatdan zaharni so'rib tashlash. Yordam berayotgan odamning badanida shilinishlar va jarohatlar bo'lmasligi lozim.

2. Ilon chaqqan joyga sarimsoq sharbati yoki 3 kun davomida yangi xamirturush surtish kerak. Ulardan 1 soat keyin maydalangan sarimsoq qo'yish kerak.

3. Ilon chaqqan joyga muz qo'yish, bor bo'lsa 0, 3 ml 0, 1 % adrenalin eritmasi yuboriladi.

4. Jarohatni 3 % kaliy permanganat eritmasi bilan yuvish kerak.

5. Jarohatga bog'lam qo'yish kerak.

6. Og'ir hollarda jabrlanuvchini shifoxonaga olib borish lozim.

Qovuzloq qo'yish va chaqqan joydagi terini tilish qat'iy man etiladi.

**Ovqat toksikoinfeksiyalari va botulizm.** Ovqat toksikoinfek-siyalari-mikroblar va ularning toksinlari tushgan oziq-ovqatlarni ist'emol qilish natijasida kelib chiqadi. Kasallik o'tkir boshlanib, qorin dam bo'lishi, qurillash, xurujsimon og'riq, ko'ngil aynish, quşish, ich ketishi, ko'p suv yo'qotish, shaytonlash, arterial bosim tushib ketishi kuzatiladi. Bosh og'rishi, titrash, tana harorati ko'tarilishi mumkin.

Birinchi yordam berishda me'dani yuvish, klizma qilish, ko'p miqdorda suyuqlik ichirish tavsiya etiladi. Iliq qaynatilgan suvga ½ choy qoshiqda soda eritmasi 1 stakan suvga qo'shib ichiriladi. Bemor darhol shifoxonaga yotqizilib, shifokor tavsiyasi asosida dori-darmonlar beriladi.

Botulizm anaerob mikroblar (*Clostridium botulinum*) qo'zg'atadigan kasallikdir. Botulizm ko'proq zararlangan konserva mahsulotlari, konservlangan va dudlangan mahsulotlarni ist'emol qilinganda kelib chiqadi va kuchli zaharlanish belgilari bilan kechadi. Birinchi yordam ovqat toksikoinfeksiyalaridagi kabi. Maxsus davo sifatida botulizmga qarshi zardobdan foydalaniлади.

**Is gazidan zaharlanish.** Is gazi ( $\text{SO}_2$ ) rangsiz va hidsiz bo'lib, undan o'y sharoitida va yopiq joylarda (shaxtalar, konlar) ishlaganda zaharlanish mumkin. Uylarda pechni noto'g'ri yoqish natijasida is gazi to'planadi va zaharlanishga sabab bo'ladi. Is gazi odam organizmiga faqat nafas yo'llari orqali kiradi. Nafas a'zolarida qonga so'rilib, undagi gemoglobin bilan birikadi (karboksigemoglobin hosil bo'ladi). Natijada gemoglobin o'pkada kislorod bilan birika olmaydi, demak, kislorodni tana to'qimalariga olib kelolmaydi va o'tkir gipoksiya rivojlanadi. Bunday holat o'limga olib kelishi mumkin.

Is gazidan zaharlanish uning havodagi konsentratsiyasiga va ta'sir muddatiga bog'liq bo'ladi. Yengil darajadagi zaharlanishda bosh qattiq og'riydi, aylanadi, qulqlar shang'illarydi, ko'ngil ayniydi, ba'zan quşish, hushdan ketish, gandiraklash kuzatiladi.

O'rtacha darajada zaharlanishda mushaklar kuchsizlanadi, nafas siqiladi, puls tezlashadi, arterial qon bosimi pasayadi, ko'ngil ayniydi va quşiladi, aql xiralashadi, ba'zan odam uyquchan bo'ladi. Yuzida qirmizi dog'lar paydo bo'ladi.

Og'ir darajada zaharlanishda odam batamom xushidan ketadi. Oyoqlari ko'karib yoki oqarib, yuzida qirmizi dog'lar paydo bo'ladi. Puls tezlashadi, arterial qon bosimi keskin pasayadi, nafas olish sekinlashadi va chuqurlashadi, mushaklar bo'shashadi, nafas to'xtaydi va odam o'ladi.

**BYTo.** Avvalo zaharlangan odam toza havoga olib chiqiladi, paxtani nashatir spirt bilan xo'llab xidlatiladi, tanasi isitiladi va tinch qo'yiladi. Nafas olish to'xtaganda zudlik bilan sun'iy nafas oldiriladi. Shifokorlik yordami o'pkaning

sun’iy ventilyasiysi, kislorod berish, lobelin yoki sititon in’eksiya qilish, analeptiklar, yurak-tomir vositalari berish, tanani isitish va b. dan iborat.

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1.Zaharlanishlar va ularning turlari
- 2.Zaharlanishlar sababiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
3. Dori vositalaridan zaharlanish va ularda birinchi tibbiy yordam
4. Zaharli hayvonlar tishlashi, hasharotlar chaqishi va ularni davolash
5. Narkotik moddalardan zaharlanish birinchi tibbiy yordam
6. Kimyoviy birikmalardan zaharlanish va ularda ko‘rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordam
7. Ovqat toksikoinfeksiyalari, kechishi va ularda birinchi tibbiy yordam
8. Barbituratlardan zaharlanish birinchi tibbiy yordam.
9. Xolinolitik dorilardan zaharlanish birinchi tibbiy yordam.
10. Ganglioblokatorlardan zaharlanish birinchi tibbiy yordam

## **YUQUMLI KASALLIKLAR**

### **Reja.**

- 1.Yuqumli kasalliklar haqida ma’lumot
2. Havo-tomchi yo‘li bilan yuquvchi kasalliklar va ularni oldini olish.
3. Jinsiy yo‘l bilan yuquvchi kasalliklar va ularning oldini olish tadbirlari
4. Ichak infeksiyalari: korin tifi, virusli gepatit, belgilari. Tez tibbiy yordam

**Tayanch iboralar:** chinchechak, o‘lat, vabo, gripp, o‘tkir respiratorli virusli infeksiya, immunitet, gigiena, vaksina, SPID-OITS, Nyu-York, rektal, genital.

### **Yuqumli kasalliklar haqida ma’lumot**

Yuqumli kasalliklar qadim zamonlarda ham uchragan. Chinchechak, o‘lat, vabo va boshqa yuqumli kasalliklar vakti –vakti bilan keng tarqalib milionlab kishilarning yostig‘ini quritgan, jamiyatga ko‘p talafot etkazgan. Yuqumli kasalliklarning va ularning kelib chiqish sabablari uzoq vaqt davomida noma’lum bo‘lib kelgan. Lekin o‘sha zamonlarning donishmand kishilari bu kasalliklarning bemordan sog‘lom insonga yuqish xususiyati bor ekanligiga e’tibor qilganlar. Keyinchalik yuqumli kasalliklar ikki xil bo‘ladi degan fikrlar paydo bo‘lgan.

1.Bir xil yuqumli kasalliklar tashqi muhitda yuzaga keladigan alohida zararli moddaning odam organizmga kirishi natijasida paydo bo‘ladi, masalan bezgak kasalligi botqoqlikda hosil bo‘ladigan moddaning odam organizmga kirishi natijasida paydo bo‘ladigan kasallikdir.

2. Ikkinci xil kasalliklar esa sog‘lom odamlar bemorga yaqin yurishida kontakt yo‘li bilan yuqadi. Bunday kasalliklarni qo‘zg‘atadigan sababni contagium va kasalliklarning o‘zini “kontaktnoz kasalliklar” deb yuritish mumkin. O‘rta asrning mashhur shifokori valimi vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sino o‘z asarlarida xususan “Al qonun”da o‘lat, chechak, qizamiq va boshqa yuqumli

kasalliklarni ko‘zga ko‘rinmaydigan jonivorlar qo‘zg‘atsa kerak deb gumon qiladi, u kasalliklarni bemorlardan sog‘lom kishilarga yuqish masalasiga katta e’tibor qaratgan.

Yuqumli kasalliklar ta’limotning rivojlanish tarixida nemis olimi Robert Cox alohida o‘rinni egallaydi. Dalilo Samoylovich yuqumli kasalliklarni tirik jonivorlar qo‘zg‘atishini aniq taxmin qilgan. U o‘lat mikrobinin mikroskop yordamida izlagani haqida tarixiy ma’lumotlar bor. Samoylovich kasallikning kontekst yo‘li bilan yuqishi ustida ko‘proq tekshirish o‘tkazdi xususan o‘lat bilan og‘riqan bemorning kiyim –kechaklarini dezinfeksiya qilish usuli bilan kasallikning boshqalarga yuqishi va tarqalishiga chek qo‘yishga harakat qiladi.

**Havo-tomchi yo‘li bilan yuquvchi kasalliklar va ularni oldini olish.** Sovuq tusha boshlashi bilan nafas yo‘llarining yuqumli kasalliklari avj ola boshlaydi. Immunitet mustahkamligini saqlab qolish muhim bo‘lgan hozirgi pandemiya sharoitida bunday kasalliklarga ro‘baro‘ bo‘lmaslik uchun nimalarni bilish kerak? Sovuq mavsumda uchraydigan asosiy yuqumli kasalliklar bu – gripp va O‘RVI (o‘tkir respirator virusli infeksiya) sanaladi. O‘xhash jihatlari ko‘p bo‘lsa-da, bu ikkisi boshqa-boshqa kasallik.

**Gripp** – yuqumli respirator kasallik, qo‘zg‘atuvchisi – gripp virusi. Qishda va erta bahorda ko‘p kuzatiladi.

**O‘RVI** – o‘tkir respirator virusli infeksiyalar guruhiga. Bu guruhga respirator-sinsitial infeksiya, rinovirus, adenovirus va yuqori nafas yo‘llarining boshqa infeksiyalari kiradi. Har ikki kasallik ham **havo-tomchi yo‘li orqali va bemor bilan kontaktga kirishganda** yuqadi. Ikkovining belgilari juda o‘xhash, ammo gripp xavfliroq.

#### **O‘RVIning asosiy belgilari:**

- burun bitishi;
- tomoqdagi og‘riq va yo‘tal;
- aksirish.

#### **Grippning asosiy belgilari:**

- bir necha kun davom etuvchi yuqori isitma;
- tananing qaqshab og‘rishi;
- yaqqol namoyon bo‘luvchi holsizlik.

**Har ikki kasallikda ham yo‘tal, bosh og‘rig‘i va holsizlik kuzatiladi.** O‘RVI va grippning namoyon bo‘lishidagi asosiy farq – grippda tana haroratining keskin ko‘tarilishi kuzatiladi. O‘RVI o‘z vaqtida to‘g‘ri davolansa, asoratlarsiz kechadi. Ammo grippning og‘ir shakllarida asoratlar, xususan, pnevmoniya yuzaga kelishi mumkin.

Gripp og‘ir shaklga o‘tmasligi va asorat qoldirmasligi uchun quyidagi holatlarda shifokorga murojaat qilish shart.

**Bolalarda** – nafas olishning tezlashishi, rangparlik yoki teridagi ko‘kimtirlik, suv ichishdan bosh tortish, uzoq vaqt uxlash, jizzakilik, ozgina tuzalishdan keyin kasallik belgilaringin birdaniga qaytalanishi, toshma bilan kechuvchi isitma kuzatilsa.

**Kattalarda** – nafas olishning qiyinlashuvi va nafas etishmovchiligi, ko‘krak va qorin qismidagi og‘riq, to‘satdan kuzatiluvchi bosh aylanishi, kuchli va davomli quşish, tafakkurning xiralashuvi, kasallik engillasha boshlaganda yana belgilarning paydo bo‘lishi.

Gripp va O‘RVI yosh, jins, irq tanlamagan holda barcha uchun birdek xavflidir. SHunga qaramay, uni yuqtirishda asosiy xavf guruhiga quyidagilar kiradi:

- 65 yoshdan oshgan keksalar;
- kichik yoshdagi bolalar;
- homiladorlar;
- yurak-qon tomir kasalliklari, astma, qandli diabet va boshqa surunkali kasalligi bo‘lganlar;
- immuniteti zaiflashgan kishilar (saraton, OIV infeksiyasi).

**Kasallikning kechishi.** Virusli yuqumli kasalliklarning inkubatsion (belgilarsiz) davri 2–5 kun davom etishi mumkin. Keyin esa kasallikning klinik belgilari yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Kasallikning kechish darajasi bemorning yoshi, immuniteti, xastalik qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan virusga nisbatan antitanachaning bor-yo‘qligiga bog‘liq.

### **Qanday himoyalanish mumkin?**

**Shaxsiy gigiena.** Ko‘plab kasalliklar kir qo‘llardan boshlanadi. Eshik tutqichlari, jamoat joylaridagi ochiq yuzalarga tekkandan so‘ng qo‘llarni sovunlab yuvish, antiseptikdan foydalanish muhim. Shuningdek, bemor odam bilan kontaktda bo‘lish ham kasallik yuqishining asosiy yo‘llaridan biri. Shu bois gripp belgilari ko‘rinib turgan shaxs bilan aloqaga kirishmaslik, uni yakkalash maqsadga muvofiq.

**Burunni chayish.** O‘tkir respirator virusli infeksiyalar havo-tomchi yo‘li bilan yuqishi bois burun bo‘shlig‘i kasallik uchun darvoza vazifasini bajarishi mumkin. SHuning uchun kasallik mavsumida burunni chayib turish maqsadga muvofiq. Bir litr qaynatilgan suvga 1 oshqoshiq osh tuzini eritib, shu suv bilan burunni chayish kerak.

Bunda: suv kaftga olinib burunning bir teshigi bilan nafas orqali tortiladi. Keyin suv tortilgan teshikni barmoq bilan yopib, nafas chiqarish orqali ikkinchi teshikdan suv chiqarib tashlanadi.

**Niqob taqish.** Ko‘cha-ko‘yda O‘RVI bilan kasallanganlar aksirganda, yo‘talganda havoga tarqaluvchi viruslarga nishon bo‘lmaslik uchun mavsum chog‘ida jamoat joylarida niqobda yurish tavsiya etiladi. Imkonli boricha jamoat joylarida yurmaslik esa eng yaxshi profilaktika.

**Nam tozalash.** Viruslar quruq va issiq muhitda yaxshi rivojlanadi. Shu bois xonada vaqtı-vaqtı bilan nam tozalash ishlarini olib borish, shamollatish kerak. Va albatta, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, o‘z vaqtida uyqu rejimiga rioya qilish profilaktikaning ajralmas qismidir.

**Vaksina.** Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti mavsumiy yuqumli kasalliklardan, xususan, grippdan himoyalanishda **eng yaxshi vosita sifatida**

**emlashni tavsiya etadi.** Mavsum avvalida grippga qarshi vaksina olish uni yuqtirish ehtimolini 90 foizga, og‘ir kechish ehtimolini esa 60 foizga qisqartiradi. Emlashning kuzning avvalida olish maqsadga muvofiq, chunki kasallik keng tarqalgan davr noyabr-mart oylariga to‘g‘ri keladi.

**Davolanish.** Har bir organizm individual va kasallikni o‘ziga xos tarzda kechiradi. Mavsumiy gripp va O‘RVIni davolashda quyidagi umumiy tavsiyalarga rioya etish muhim:

- Yotoq rejimiga qat’iy rioya qiling.
- Ko‘proq suyuqlik (qaynatilgan suv, limonli/malinali/asalli choy) iching.
- Tana haroratini doimiy nazorat qilib turing.
- Taomnomaga e’tibor qarating: S, A, E, D<sub>3</sub> vitaminlari va beta-karotinga boy mahsulotlarni ko‘proq iste’mol qiling. Bular: sitrus mevalari, qizil bulg‘or qalampiri, brokkoli karami, karam, na’matak, rezavor mevalar, baliq, jigar, sariyog‘, tuxum sarig‘i, sabzi, ismalloq, qovoq, yong‘oq, o‘simplik moylari.
- Ishtahangiz bo‘lmasa ham ovqatlaning.
- Bemor yotgan xona tez-tez shamollatilishi va nam tozalash ishlari olib borilishi kerak.

### *Virusli hepatit va ularning oldini olish profilaktikasi*

Kuz fasli kelagnligi tufayli ayrim yukumli kasalliklar hepatiti ya’ni Sarik kasalligi kuprok uchraydi va oldini olinmasa tarkalish xavfini keltirish mumkin.

**Virusli hepatitlar** – jigarining yukumli kasalliklaridir. Ular kasallikning belgilarsiz kuchsiz, sezilar – sezilmas, oshkozon ichak buzilishlaridan, ishtaxanining bulmasligi, oshkozonda ovkatning xazm bulmasligi, ichning suyuk kelishi, kuchli ogriklar, tana xaroratining yukori bulishi, yakkol sariklik, kusish, korinda ogrik bulishi, kup xollarda xattoki jiggardagi ogir uzgarishlar natijasida ulim xolatlari Bilan tugashi mumkin.

Virusli hepatitlarning 5 ta asosiy turi aniklangan bulib, hepatit A va hepatit E turlari interal (oshkozon ichak) yuli Bilan ya’ni kasallik viruslari ichak yullariga ogiz orkali tushganda, hepatit V,S xamda jaroxatlang teri, shillik kavatlar, masalan tibbiy muolajalar, xomila rivojlanayotgan paytida va tugish jarayonida utishi mumkin.

**Enterol hepatitlar.** Enterol hepatitlar infeksiya manbai bulib, Ushbu kasallikka chalingan bemorlar sariklik belgilari namoyon bulmagan, infeksiyanitng engil yoki cassallik belgilari yakkol namoyon bulmagan boshlangich davridagi bemorlar xisoblanadi. Kasallikning tarkalishida hepatitlarning A va E turlarida yashirin va sariksiz shakllari Bilan ogriganlar kata axamiyat kasb etadi, ya’ni ular sariklik alomatlari namoyon bulgan bemorlarga nisbatan 2-10 baraobar kup uchraydi, ularni aniklash uchun Yangi zamonaviy murakkab tekshirish usularini kullash kerak. Gepatitning A va E turlariga barcha kishilar moyildir.

Enterol hepatitlarining asosiy yukish mexanizmi suv, oziq-ovqat, maishiy mulokat yullari orqali amalga oshiriladi. A va E hepatit kasalliklarining

epidemiya tarkalishlarini keltirib chikaradigan ichimlik suvi asosiy axamiyat kasb etadi.

Gepatit A Bilan kupincha 1 yoshdan kata bulgan bolalar asosan 3-12 yosh bolalar kasallanadi. Kup xollarda kasallik bollalar jamoalarida keng tarkaladi, jumladan bollar bogchalari, maktablarda buning sababi shaxsiy gigiena koidalariga tulik rioya kilmaslik .

Gepatit A ga asosan yozgi, kuzgi mavsumiylik xos. Bunga sabab:

- bolalarni moslashtirilmagan va dizenfeksiya kilinmagan suv xavzalari
- kanal, arik, favora va shunga uxshash joylarda chumilishlari, bu nafakat gepatit, balki boshka yukumli ichak kasalliklarining tarkalishida xam axamiyatga ega.

Gepatit A ning kaytalanish xollari uchramaydi, kayta kasallanish asosan gepatitlarning boshka turi Bilan zararlanish okibatida kelib chikadi. Gepatit E ning mavsumiy kupayishi gepatit A ning kupayish paytiga tugri keladi, (kuzgi, kishki, issik iklimli mamlakatlarda yosingarchilik paytida).

Bu asosan axolining sifatli ichimlik suvi bilan etarli ta'minlanganligi okibatida kelib chikadi, ya'ni kasallik viruslari bilan zararlangan turli suv manbalaridan suvni kaynatmasdan iste'mol qilishlari natijasida kasallik yukadi. Gepatit E kasalligining gepatit A dan farki – asosan 15-40 yoshli kishilar kasallanishi, bolalar ulishi esa 30 % atrofida buladi. Ma'lumotlarga kura gepatit E bilan ayollarga nisbatan erkaklar kuprok kasallanadi, lekin ayollar, ayniksa xomilador ayollar urtasidagi ulim kursatgichi ancha baland buladi.

**Panteral gepatitlar.** Gepatit B – oldinlari zardobli gepatit deb atalgan, odatda u kon yoki kon maxsulotlari orkali yukadi. Lekin sulak, urug suyukligi ajratmali va boshka biologik suyukliklar orkali xam yukishi mumkin, AQSH davlatida 200000 ta kayd kilingan gepatit V Bilan kasallanish xollarining aksariyati jinsiy yul orkali yukkanligi aniklangan.

Gepatit B – kasalligi Bilan xastalangan kata yoshdagি kishilarning 5-10 % kasallikning belgisiz virus tashuvchilari xisoblanadi. AQSH davlatida ularning soni 400-800 ming kishiga yakin bulib, butun jaxonda esa 150-200 mln kishini tashkil etadi. Kasallik virusini tashuvchanlik ya'ni uzi kasal bulmasdan boshkalarga yuktirish xususiyati oylab, yillab xatto umr davomida saklanishi mumkin. Gupatit B virusini tashib yuruvchilarga jigar raki kelib chikishi xavfi yukoridir. Kasallik xavlfi xisoblanib ular uz farzandlariga kasallik virusini xomiladorlik davrida yoki tugrik jarayonida yuktirishlari okibatida, ular jigar sirrozi kelib chikishi xavfini oshiradi. Olimlar uzoq vatlar davomida A ham emas B ham emas deb atalgan C gepatit turi ekanligi isbotlandi. Hozirgi vaqtida kun ma'lumotlariga kura AQSH da xar yili 150 mingga yakin gepatit C Bilan kasallanish hollari qayd qilinib, ularning 10 % qon kuyish bildan bogliq. Gepatit C virusi yukishining yana bir muxim omili bu giyohvand moddalarining qon tomiriga yuborilishidir.

Hozirgi kunda parentiral gepatitlarining kup kismi gepatit C ga to'gri keladi, ular asosan kon kuyishdan keyin rivojlangan va kasallanganlarning yarmidan bu xolat surunkali shaklga utib jigar sirrozi yoki jigar rakiga aylanadi.

Delta gepatit – gepatit D deb atalib u birinchi marta 1970 yillarda aniklangan, D gepatit virusi fakat C gepatit virusi mavjud bulgandagina rivojlanadi: ya’ni u gepatitning C virusiga minib organizmga kiradi.

### **Kasallikning belgilari:**

Ko’ngil aynishi, kusish, xolsizlik, ishtaxasizlik, jigarning kattalashuvi, siyidik rangining tuk bulishi, najasining rangsizlanishi, sariklik xarorati 37-38 S terining kichishi, ung kovurga ostida ogrik.

### **Kasallikning oldini olish choralar:**

- shaxsiy gigiena koidalariga kat’iy rioya kiling(kullarni sovunlab yuving)
- kaynatilmagan suvni iste’mol kilmang
- meva va sabzavotlarni kaynatilgan suvda chayib iste’mol kiling
- moslashtirilmagan suv xavzalarida chumilishni ta’kiklang
- moddiy imkonи bulsa, gepatit A ga Karshi emlanish mumkin
- shaxsiy gigiena kat’iy rioya kiling (Tish chutka, sochik, ustara) lar xar bir kishi uchun aloxida bulishi kerak
- Yangi tugilgan chakaloklar xamda xavfli guruxdagilar gepatit B ga emlanishi shart

### **Bemorlarning va kasallikning boshdan kechirganlarning ovqatlanish rejimi:**

- utkir, yogli kovurilgan, dudlangan, tuzlangan oziq-ovqatlarni iste’mol qilmang
- ovqatni qaynatilgan va maydalangan holda iste’mol qiling, masalan yogsiz shurvalar, bugda pishirilgan kotletlar, turli xil sabzavotlar, pyurelari tavsiya qilinadi.
- sut mahsulotlarini ko’proq iste’mol qiling: sut, yogsiz tvorog, qatiq, yogsiz smetana.
- bemorga ko’proq suyukliklar Bering, masalan: mevali kompotlar, sharbatlar, turli qaynatilgan qaynatmalar, kisel. C vitaminiga boy bo’lgan mahsulotlarni iste’mol qiling masalan: na’matak damlamasi.
- xul mevalar ayniksa olmalar va sabzavotlar bodring, tarvuz, bugda pishirilgan oshqovoqni iste’mol qiling.

### **Qon orqali va jinsiy yo’l bilan yuquvchi kasalliklar. SPID-OITS**

Dunyoda insonning salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan turli xil kasalliklar bor. Ammo shunday dardlar borki, uning nomi kasallik keltiradigan zarardan og’irroq, azobliroq. Bu dard bilan chalingan insonlar qaysidir ma’noda jamiyatdan uzilib qolganday, o’zlarini yolg’iz qolganday his qiladi. Odamlar bu kasallik bilan chalingan bemorlardan o’zlarini olib qochadi, rahm-shafqat ko’zları bilan boqadi va qaysidir ma’noda ulardan nafratlanadi. Bu qaysi kasallik, deb o’layapsizmi? Bu OIV va OITS.

Butun jahonda millionlab insonlarning umriga zomin bo’layotgan, ko’plab oilalarning tinchligini buzayotgan bu kasallik bilan yurtimizda 30 mingdan ortiq bemorlar davolinishyapti. Shulardan 7 ming 100 tasini voyaga etmaganlar tashkil qiladi. Aslida biz bu kasallik haqida nimalarni bilamiz? Bu dardga chalingan bemorlardan o’zimizni olib qochishimiz qanchalik to‘g’ri?

Bu haqda Respublika virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti OIV kasalliklar ilmiy tekshirish bo‘lim mudiri, tibbiyot fanlar doktori Allabergan Bayjanov bilan suhbatlashdik.

- Dastlab, OIV va OITSning kelib chiqish tarixi haqida to‘xtalib o‘tsangiz.
- Avvalo, OIV va OITS nimaligi haqida so‘z yuritsak. OIV bu – odam immun tanqislik virusidir. OITS bu – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi, ya’ni OIV ning simptomlar yig‘indisidan hosil bo‘lgan virus hisoblanadi. Virusning yuqishi OITS rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Biroq, OIV yuqqanda har doim ham immunitet tanqisligi sindromi rivojlanavermaydi. Terapiyasiz OIV infeksiyasi rivojlanishi mumkin va oxir-oqibat u ko‘pchilik hollarda OITSga aylanadi.

OITS hozir Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti nazoratida turgan asrning dolzarb va global muammosi hisoblanadi. OITS kaslligiga 1981 yilda amerikalik olimlar tomonidan kashf qilingan. 1980-1981 yillarning qishida Amerika Qo‘shma Shtatlarining Nyu-York universiteti shifoxonasiga 1972 yilda vengiryalik olim Morit Kaposhi tomonidan aniqlangan Kaposhi sarkomasi (teri saratoni) tashxisi bilan bir necha bemor yotqizilgan. Bizga ma’lumki, bu kasallik badan terisida jigarrang-qizg‘ish yoki ko‘kimir-qizg‘ish tugunchalarning paydo bo‘lishi, ularning yaralarga aylanishi va yaralar qurish qo‘tir hosil qilib, bitib ketishi bilan kechadigan kasallik bo‘lib, ko‘proq 60 yoshdan oshgan qariyalarda uchraydi.

Bemorlarda kasallikka qarshi dori-darmonlar bilan davolash ishlari o‘z vaqtida olib borilganda, ular batamom tuzalib ketadilar. Bundan tashqari Kaposhi sarkomasi AQSH va G‘arbiy Evropa davlatlarida juda kam uchraydi. Nyu-York universiteti shifoxonasiga tushgan bemorlarning yoshi esa 30 yoshlar atrofida bo‘lib, aksariyati jinsiy buzuqliklar sodir etgan insonlar ekanligi aniqlandi. Ularda Kaposhi sarkomasi xavfli shaklga o‘tib, bir necha oy ichida halokatga uchradilar. 1981 yilning bahorida Los-Anjelesdagi klinikalardan biriga o‘pka to‘qimasining yallig‘lanishi bilan kechadigan pnevmosistali pnevmoniya (zotiljam) kasalligi tashxisi qo‘yilgan bemorlar yotqizildi. Bemorlarni kuchli tasir etadigan antibiotiklar yordamida davolashga qaramasdan, ularning barchasi halok bo‘ldi. Olimlarni tashvishga solgani, bu bemorlarning organizmida immunitetning keskin pasayib ketganligi bo‘ldi. 1986 yil may oyida Virus taksonomiyasi bo‘yicha xalqaro qo‘mita OITSga olib keladigan virus rasmiy ravishda OIV (yoki inson immunitet tanqisligi virusi) deb atalishi haqida qaror qabul qilgan bayonet chiqardi.

**OIVning dastlabki belgilari qanday?** Ba’zi OIV bilan zararlangan insonlarda kasallikning belgilari oylab, hatto yillab ham kuzatilmasligi mumkin. 80 foiz holatda virus bilan zararlangandan so‘ng 2-6 haftadan so‘ng gripp bilan zararlangan holatdagi belgilar kuzatilishi mumkin. Bu o‘tkir retrovirus sindromi deyiladi. OIV boshlang‘ich simptomlari – yuqori harorat, qaltirash, bo‘g‘imlarda, mushaklarda og‘riq, tomoq og‘rig‘i, tunda ko‘p terlash, bezlarning kattalashuvi, tanada qizil rangli toshmalar, tez charchash, tezda vazn yo‘qotish. Shuni yodda tutish kerakki yuqoridagi belgilar faqatgina OIV virusning o‘zi bilan emas, balki ikkilamchi viruslar bilan zararlangan keyin yuzaga keladi. Ko‘p hollarda OIV bilan zararlangan insonlarda birinchi zararlanish belgisidan

so'ng ko'p yillar davomida hech qanday belgilar kuzatilmasligi mumkin. Bu vaqt oralig'ida virus ko'payadi va immun tizimi va organlarni zararlaydi. Agar OIV virusini virusga qarshi dori vositalarni qo'llanmasa, organizm immun tizimi o'rtacha 10 yil faoliyat ko'rsatishi aniqlangan. OIV bilan zararlangan insonda hech qanday belgilar yuzaga chiqmaydi, o'zini yaxshi his qiladi, sog'lig'idan shikoyat qilmaydi.

Antiretrovirus preparatlari har kuni qabul qiladigan insonlarda virusning ko'payishi butunlay to'xtashi mumkin. Antiretrovirus preparatlari immun tizimiga doim zararli ta'sir ko'rsatib keladi. Agar inson davolanmasa, OIV immun tizimining infeksiyalarga qarshi kurash qobiliyatini butunlay to'xtatadi. Inson jiddiy kasalliklarga uchraydi. Bu bosqich OITS holatidir. Bu kasallikning simptomlari – ko'z oldi xiralashishi, doimiy ich ketishi, quruq yo'tal, haroratning hafta davomida 37 darajadan yuqori bo'lishi, tungi vaqtida ko'p terlash, doimiy charchoq, nafas qisishi, bezlar kattalashuvi, tezda vazn yo'qotilishi, og'iz bo'shlig'ida va tilda oq dog'lar.

### **Kasallikning yuqish usullari va bugungi kunda qay usulda kasallik faolroq yuqmoqda?**

Bu kasalliklarning yuqish yo'li uchta bo'lib, birinchisi jinsiy aloqa – bu yo'l bilan zararlangan jinsiy suyuqliklar (rektal, genital va og'izning shilliq qavat) natijasida yuqadi. Bu holat jinsiy aloqa paytida himoya vositalaridan foydalanilmaganda, atipik jinsiy aloqa bo'lganda, yoki ishlatiladigan ashyolar orqali sodir bo'lishi mumkin. Ikkinchisi, onadan bolaga – OIV bilan zararlangan ayoli farzandiga OIV virusi bilan tug'ruq davomida, homiladorlikda, ko'krak suti bilan oziqlantirish paytida yuqtirishi mumkin. Uchinchisi, qon orqali – bu yo'l orqali yuqish rivojlangan mamlakatlarda qon quyish jarayonida ko'proq sodir bo'ladi. Bu holatda tomir ichiga yuboriladigan narkotik shpritslarini o'zgartirmasdan yoki zararlangan shpritslar orqali yuborilganda zararlanish kuzatiladi.

Bugungi kunda OIV infeksiyasi yuqish yo'li bo'yicha birinchi o'rinda jinsiy yo'l 69,8 foiz, parenteral 20,5 foiz va noma'lum yuqish yo'l 10 foiz tashkil etmoqda.

Shuni yodda tutish kerakki, ushbu kasallik qo'l berib ko'rishganda, quchoqlashganda, kundalik o'pishlar, aksa urish, teri bilan aloqa, sochiqlarni birga ishlatish, ro'zg'or va oshxona buyumlaridan, umumiylar telefondan foydalanganda, hashorotlar chaqqanda, basseyn, hammom, hojatxonadan umumiylar foydalanilganda, kiyim kechak va ko'rpa-to'shakdan foydalanganda yuqmaydi.

Hozirgi kunda OIV yoki OITSga to'liq davo yo'q, lekin bugungi kunda OIV infeksiyasini yuqtirib olgan odamning umrini sog'lom odamning umrichalik cho'zish mumkin. Bugungi kunda OIVni davolash antiretrovirus (ARV) dorilar bilan amalga oshiriladi. Davolashning asosiy maqsadi inson qonida virus zarralarini kamaytirish, immunitetni mustahkamlash va OITSni saqlashdir. Eng asosiysi, antiretrovirusga sodiq bo'lish kerak. Dorini shifokor aytgan o'z vaqtida ichish lozim. SHundagina kasallikka qarshi samarasi bo'ladi.

OIV antiretrovirusga davolashning erta boshlanishi muhim ahamiyatga ega. CHunki bu orqali inson hayoti davomiyligini uzaytirish mumkin. Hozirgi kundagi OIV virusi bilan zararlangan odamlarga faqatgina ulardagi virusning ko'payishini to'xtatish orqali yordam berish mumkin. Agar inson virus bilan oxirgi 72 soat

mobaynida zararlangan bo'lsa, virusga qarshi preparatlar virusni ko'payishini to'xtatishi mumkin. Bu davolash kursi 4 hafta mobaynida o'tkazilishi shart. Davolashda OIV kuzatuvlari davom ettiriladi.

### **Xastalangan ayoldan sog'lom farzand dunyoga kelishi mumkinmi?**

So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida OIV bilan xastalangan homiladorlarning 98,8 foizi sog'lom naslni dunyoga keltirmoqda. Buni qarangki, virus jinsiy suyuqlikning hujayrasida emas, suyuq qismi tarkibidan o'rinni olgan. Ya'ni tuxum va urug' hujayralar toza bo'ladi. Urug'langan hujayra esa yo'ldosh (stirillangan himoya qobig'i)ning ichida rivojlanadi va virusga chalinmaydi. Natijada, bola OIV bilan xastalanmay tug'iladi. Bundan tashqari, yurtimizda yo'lga qo'yilgan ARV profilaktikasi homilador ayolda xastalikni erta aniqlash va zarur choralarini ko'rish sog'lom farzandni dunyoga keltirishda yaxshi samara bermoqda.

### **Bu kasallikka chalingan bemorlarga qanday cheklovlar qo'yiladi?**

Bu kasallikka chalingan bemorlarga tuliq cheklovlar yo'q. Bunday insonlar o'zlarini cheklangan, ajratilgan va rad etilgan tarzda hisoblamasliklari lozim. Yaxshi ovqatlanishi va yaxshi narsalarga intilishlari zarur. Ulardan talab etiladigan gigienik qoidalarga rioya qilishlari zarur. Bularga tish chotkasi, soqol uskunalarini, tirnoq olish uskunalarini alohida qilish va jinsiy aloqada ehtiyyot choralarini qilishlari shart. Odatda OIV virusi bilan xastalangan kishilarga og'ir jismoniy harakatlar tavsiya etilmaydi. Chunki organizm qancha charchasa, immunitet shuncha tushib ketadi. Shu jumladan, murakkab sport turlari bilan shug'ullanish organizmga zo'riqish berib, immunitetni sustlashtiradi. OIV bilan hastalangan bemorlar engil badantarbiya, engil mehnat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin. Ochiq havoda sayr qilish, o'zlarini uchun qiziqarli ish bilan mashg'ul bo'lish imunitetni ko'taradi.

Kasallikdan qo'rqish emas, undan himoyalanish lozim. Bu dard bilan kurashayotgan bemorlardan o'zimizni olib qochishimiz emas, balki ularga hamdard bo'lib, mehr berishimiz kerak. Bu kasallik haqida yashirish emas, balki halqimizga, o'sib kelayotgan yosh avlodga kasallik, yuqish yo'llari, himoyalanish usullari haqida kengroq ma'lumot berish lozim. Shundagina kasallikning oldini olib, yuqish yo'lini kamaytirgan bo'lamiz.

O'zbekistonda OITSni (SPID) yuqtirib olganlarning umumiyligi soni 45 mingni tashkil qildi, shundan 55 foizi erkaklar va 45 foizi ayollardan iborat. Kasallikka chalinganlarning 14 foizi esa 18 yoshga to'lmagan bolalarga to'g'ri kelmoqda. Kasallanish ko'rsatkichi eng yuqori hudud esa Toshkent shahri hisoblanadi. Shifokorlar OITS yuqishi ehtimoli yuqori holatlar va uni oldini olish choralar haqida ma'lumot berdi.

Jaxon Soglikni Saklash Tashkilotining ma'lumotiga Karaganda oxirgi 10 yil ichida, jinsiy yul bilan yukadigan kasalliklar soni 27 tadan oshib ketgan. Hozirgi vakda ko'p uchraydigan venerik kasalliklar haqida ma'lumot beramiz.

### **ZAXM (SIFLIS, LUIS)**

Zahm surunkali yuqumli tanosil kasallikgi bo'lib, uni oqish treponema kuzgatadi. Zaxmning klinik kechishida teri va shillik qavatlarga toshgan

toshmalarning asta sekin regressga uchrashi va toshmalardan xolos bo'lgan davri Bilan almashinishi xarakterli. Zaxmning klinik kechishida inkubatsion, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi davrlar tofovut kilinadi. Inkubatsion davr organizmga okish treponemalar kirgandan boshlab, tokasallikning birinchi belgisi ogrimaydigan kattik shankr paydo bulgunga kadar davom etadi. Zaxmning birlamchi davri – Terida birlamchi sifiloma (kattik shankr) paydo bulgandan to ter iva shillik va qavatlarda ikkilamchi zaxmga xos toshmalar toshishiga kadar bulgan muddatni uz ichiga oladi. Bu muddat 6-7 xaf tashkil kiladi. Kattik shankr xosil bulgandan sung birlamchi zaxmning ikkinchi simptomi kuzatiladi, bunda regionar limfa tugunlar yalliglanib shishadi, kattalashadi va biroz kattiklashadi.

Birlamchi zaxmning birinchi 2-3 xafasida Vasserman va chukma reaksiyalar manfiy buladi. Odatda kattik shankr paydo bulgandan sung 4 xafat utgach serologik reaksiyalar musbatlashadi. Zaxmning ikkilamchi davri 2-4 yil davom etib, bunda serologik reaksiyalar musbat buladi.

Ikkilamchi zaxmga xos bulgan xususiyat bu aktiv toshmalar toshishi davrining yashirish yoki asimptom davrlar bilan almashinishidir.

Zaxmning uchlamchi davri-3-5 yildan keyin ikkilamchi davr zaxmning uchinchi davriga utadi. Zaxmning uchlamchi davri yillab davom etadi. YAlliglangan infiltratlar, olcha donagidek dumbokchalar yoki tuxumdek gummalar paydo bulib, tukimalarni emiradi, yaraga aylanadi va chandiklanib bitadi. Miya, yurak, tomir, jigar kabi xayot uchun muxim a'zolar zararlansa bemor xayoti xavf ostida koladi; YUz zararlangan bulsa, burun skleti emirilib, bemor badbashara, burni egarsimon bulib koladi. Xarakat, kuruv, eshituv a'zolari, nerv sistemasining zararlanishi kshini umrbod mayib kilib kuyadi.

Zaxm kasalligiga chalingan xomilador onadan bolaga xomila davrida kasallik yukishi mumkin. Bu holatda kasalni yuqtirib olgan bola ko'r bo'lib tugilishi mumkin. Yoki ogir kasallikillatlari kuzatilishi mumkin. Ba'zi hollarda kasallik xomilaning ulik tugilishiga olib kelishi mumkin.

## SO'ZAK (GONOREYA)

So'zak yuqumli tanosil kasalligi bo'lib, asosan jinsiy yo'l bilan yuqadi. Suzak grekcha «gonoreya» nemischa «trepper» deb ham ataladi, ya'ni gono-urug, reya-okish demakdir. Suzakda asosan siyidik tanosil a'zolari, ba'zan tugri ichak, kuz, ogiz shillik qavatlari ham zararlanadi, bemor siyishga qiynaladi, achishish hissi paydo bo'ladi, bemor siyganidan keyin ham 1-2 tomchi siyidik keladi. Suzak prostatiti pala-partish davolanish, kupincha parhez va davo rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Erkaklarda moyak ortigining yalliglantirib, epididimitga olib kelishi mumkin va buning natijasida erkaklarda bepushtlik keltirib chiqarishi mumkin. Tugruk vaqtida gonokokkli infeksiya onadan homilaga o'tishi mumkin va bolaning kuzlariga etkazishi mumkin.

## TRIXOMANIAZ

Kasallikni kin trixomanadasi kuzgatadi. Uzoq yillar davomida trixomanadalar ayollarda uchraydigan odatdag'i zararsiz mikroorganizmlardan deb

xisoblanib keltingan. Kasallik manbai bemor – sog’lom kishilarga jinsiy yo’l bilan yukadi, ayollarda ko’proq uchraydi. Rektal va oroginetal munosabatlar tufayli kasallik vujudga kelmaydi, chunki kin trixomanadasi og’iz bo’shligi va tugri ichakda yashay olmaydi. Bolalarga tug’ruq paytda bemor onadan o’tadi. Trixomanadalar prostat beziga ham kirib, ular prostatitga xos belgilarni yuzaga chiqarish mumkin. Trixomanada uretretiti aksariyat kam alomatli bo’lib bemor uni uncha sezmasligi ham mumkin, ba’zan siyidik kanalidan ozroq oqimtir chiqindi keladi. Bemor tez-tez siyadi. Ba’zan jinsiy aloqa tugashi bilan bemorda achishish hissi paydo bo’ladi. O’tkir trixomanadali uretritida uretradan ajralayotgan suyuqlik 1-2 hafta ichida o’z-o’zidan kamayib, kasallik alomatlari barham topishi mumkin. Bora-bora kasallik surunkali uretritga o’tib, vaqtqi-vaqtqi bilan xuruj qilib turadi. Bunday bemorlar kasallik tashuvchilar hisoblanadi. Trixomoniazga chalinganlarning 40 % dan ortigida prostatit borligi qayd qilingan. Jinsiy yo’l bilan yuqadigan kasalliklarni oldini olishda kontratseptik vositalar ishlatiladi, shulardan prezirvativlar foydalanish tavsiya etiladi. Bunda VICH infeksiyalarini oldini olishda va homiladan saklanishda foydalaniladi. Prezervativlarning nojuya ta’siri aniklanmagan.

### **Nazorat uchun savollar.**

- 1.Qanaqa yuqumli kasalliklarni bilasiz.
2. Havo-tomchi yo’li bilan yuquvchi kasalliklar va ularni oldini olish?
3. Grippdan qanday himoyalanish mumkin?
4. Yuqumli kasalliklarning rivojlanish tarixi haqida nimalar bilasi?
5. Qon orqali yuqadigan qanaqa kaslliklarni bilasiz?
6. OIV va OITS kasalligining yuqish yo’llari himoyalanish?
7. OIVning dastlabki belgilari qanday?
8. Kasallikning yuqish usullari va bugungi kunda qay usulda kasallik faolroq yuqmoqda?
9. OIV va OITSni davolash usullari haqida ham to‘xtalsangiz
10. O’ta xavfli yuqumli kasalliklar to‘g‘risida ma’lumot bersangiz?

**1. Hayot faoliyat xavfsizligi** – inson va uning salomatligi uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan texnikaviy sanitar–gigienik va umumiy tadbirlar majmuidir.

**2.Xavfsizlik texnikasi-xavfli ishlab chiqarish omillarning, ya'ni xavfsizlik qoidalari buzilgandagi baxtsiz hodisalar, shikastlanishlarni keltirib chiqaradigan omillarning insonga ta'sir etishini oldini oladigan tashkiliy va texnikaviy tadbirlar majmuidir.**

**3.Ishlab chiarish sanitariyasi-zararli ishlab chiarish omillarining, ya'ni kasalliklar keltirib chiaradigan omillarning ishchilarga ta'sirini oldini oladigan tashkiliy, gigienik va sanitariya-texnikaviy tadbirlar va vositalar majmui.**

**4. Faoliyat** - insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit.

**5.Menat** - faoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, insonning ta'rifi –harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidadir.

**6.Faoliyat jarayoni modeli** - ikki elementdan, ya'ni inson va muhit orasidagi to‘g‘ri va teskari munosabatlardan tuzilgan deb tasavvur qilish mumkin. Teskari munosabatlar moddiy dunyoning qarama-qarshiliklar umumiy qonunlaridan kelib chiqadi.

**7. Xavflar** - yashirin (potensial) va xaqiqiy bo'ladi. YAshirin xavflar amalga oshishi uchun ya'ni shartlar bo'lishi lozim. Bu shartlar sabab deb ataladi. Xavf va sabablarni misollarda (raamlarda) ko‘rish mumkin:

**8.Xavfsizlik** - bu ayrim extimollarga asoslanib paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni istisno etilgan faoliyat holatidir. Xavfsizlik - bu maqsad, FX bo'lsa shu maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar, qo'llanmalar, usullardir.

**9.FX** - bu xavf-xatarlarni o‘rganish va insonni himoya qilishni o‘rganadigan fandir.

**10.Xavf-xatar** - odam sog‘ligiga bevosita yoki boshqa yo‘llar bilan zarar etkazadigan, ya'ni ko‘ngilsiz hodisalar, oqibat yaratuvchilar tushuniladi. Xavfi ifodalaydigan belgilar soni tajribaning maqsadiga qarab ko‘p yoki kam bo'lishi mumkin.

**11.Xavflar taksonomiyasi** - bu murakkab hodisalarning tushunchalarini, kishi faoliyatiga qaratilgan narsalarni turkumlash (klassifikatsiya) va sistemalash to‘g‘risidagi fandir.

**12.Xavflar ro‘yxati.** Bu aniq bir tartiblar bo‘yicha qo‘yilgan nomlar, atamalar, ro‘yxati (o‘zgaruvchan harorat, havo tezligi, bosimi, yorug‘lik, havoni ionizatsiyalash, portlash, gerbetsid, shovqin, tebranish yoki titrash, yong‘in, zararli moddalar, lazer nurlari, elektr yoyi va h.k.).

**13.Xavflarning kvantifikatsiyasi** - Bu hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar uchun etarli darajada kerak bo'lgan miqdoriy, vaqtincha fazoviy va boshqa xususiyatlarni aniqlab, amalga oshirish jarayonidir.

**14.Sabablar va oqibatlar.** YAshirin xavflar amalga oshishiga olib keladigan sharoit - sabab deb ataladi. Sabablar – jarohatlar, yuqumli kasalliklarni keng tarqalishini (epidemiya), atrof - muhitga zarar va boshqa xil oqibatlarni keltirib chiqaradi.

**15.Xavf-sabab-oqibat uchligi** - bu yashirin xavflarni va zararlarni amalga oshiruvchi taraqqiyotning mantiqiy jarayonidir. Masalan: zahar (xavfli) - dori tayyorlovchining xatosi (sabab) - zaharlanish (ko'ngilsiz oqibatlar). elektr toki - qisqa ulanish - kuyib olish.

**16.YAshirin xavflar aksiomasi** (o'z-o'zidan ma'lum xaqiqat) - Mutloq xavfsiz bo'lgan ish (faoliyat) bo'lishligi mumkin emas. Demak, xar qanday (faoliyat) bo'lmasin - unda yashirin xavf bo'ladi. Bu aksioma FX da g'oyat katta metodologik ahamiyatga ega.

**17.Tavakkalni klassifikatsiyalash.** Tavakkalni baolashda uni foyda" bilan solishtirish, ya'ni odam hayotini saqlab qolish uchun pul birligi kirgizilishi taklif qilinadi. Ko'pchilik insonlar bunga norozilik bildirishdi, chunki odam hayotining bahosi yo'q, bunda pulvozlik qilish yaramaydi. Lekin odam hayotini saqlab qolish uchun qancha mablag' sarf qilish kerak deganda, bunday baho kerakdir. Xorijda o'tkazilgan tekshirishlarga ko'ra odam hayoti AQSH da 650 mingdan 7 mln dollargacha baholanar ekan.

**18. Muxandislik yo'li.** Bu yo'l statistikaga, takrorlanishlarni hisoblashga, xavfsizlikning taxminiy taxliliga (analiz), "xavflar daraxti" qurishga asoslanadi.

**19. Modellash yo'li (andozalash).** Bu yo'l odamga guruhsiga, kasbga ta'sir qiluvchi omillar modelini qurishga asoslangan va h.k. Bu yo'llar bilan hisoblashga ma'lumotlar topish ancha qiyin.

**20.Ekspert (tekshirish) yo'li** Ma'lumotlarni ekspertlardan (mutaxassislardan) so'rab yig'ishga asoslangan.

**21. Ijtimoiy yo'l.** Bu yo'l odamlardan so'rab, surishtirib aniq xulosa chiqarishga asoslangan. Bu yo'llar tavakkalni har xil nuqtayi nazardan tasvirlaydi, shuning uchun hamma yo'llar birga qo'llaniladi.

**22."Tavakkal"ning yo'l qo'ysa bo'ladigan fikr yuritish usuli.** Xavfsizlik texnikasi, mutloq xavfsizlikni yaratib berishga asoslangan. Ammo, bunday holatni yaratib berish haqiqatan mumkin emas. SHuning uchun yo'l qo'ysa bo'ladigan "Tavakkal"ning fikr yuritish usuli qabul qilinadi. "Tavakkal" o'z ichiga texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy nuqtayi nazarlarni oladi va ayrim murosalarga borishga to'g'ri keladi.

**23.Tavakkalni boshqarish.** Xavfsizlik darajasini ko‘tarish xavfsizlikning asosiy nazariy va amaliy maqsadidir. Buning uchun mablag‘ni uch yo‘nalishda xarajat qilish kerak:

**24.Xavfsizlikning sistemasi.** Bu xavfsizlikning murakkab masalalarini xal qilish yo‘llarini tayyorlashda va asoslashda foydalaniladigan metodologik choralar yig‘indisidir.

**25.Tahlil usullari.** Xavfsizlikni ko‘ngilsiz voqeа ro‘y berishdan oldin (aprior) yoki keyin (aposterior) tahlil etish mumkin. har ikkala holda qo‘llaniladigan usul bevosita yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

**26.Menatni muhofaza qilish** – bu tegishli qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatini saqlashni ta’minlashga qaratilgan tadbir. Ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena va davolash profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

**27.Ma’muriy javobgarlik** – xodimga xayfsan berish, ishdan chetlashtirish, o‘rtacha oylik ish haqining 20 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima solish va menat shartnomasini bekor qilishdan iborat.

**28.Moddiy javobgarlik** – jarima to‘lash va keltirilgan moddiy zararni qoplashdan iborat.

**29.Sanitariya nazorati**–sanoat korxonalarda davlat sanitariya nazoratini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari olib boradi. Ularning asosiy vazifasi tashqi muhitni sanoatning zararli chiqindilari bilan ifloslanishi va sanoat korxonalarida ishlovchilar kasallanishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

**30.YOnq‘in xavfsizligi** – yong‘inning oldini olish nazorat organi Respublika Ichki Ishlar Vazirligining yong‘indan muhofaza qilish Bosh boshqarmasi va mahalliy organlar zimmasiga yuklatilgan

**31.Energetika nazorati**–davlat energetika nazorati O‘zbekiston Respublikasi energetika va elektrorashtirish vazirligining tegishli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi elektrostansiyalarning, elektr va issiqlik qurilmalarining texnik holatini va ularda xavfsiz xizmat ko‘rsatishni nazorat qilib turishdan iborat.

**32.Baxtsiz hodisalarni tahlil etish va shikastlanishlar** Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni tekshirish va shikastlanish hollarini tekshirib chiqib shu haqida namuna bo‘yicha to‘rt nusxada dalolatnoma tuziladi. 4-1 namunadagi dalolatnomalar tashkilot arxivida 45 yil saqlanishi kerak.

**33.SHikastlanish deb:** korxona hududida bo‘lgan davrda kishi tanasining biror a’zosi tasodifan shikastlanishi natijasida salomatligiga zarar etishiga aytildi.

**34.Mehnat gigienasi** tibbiy soha hisoblanib, ish qobiliyatini yuqori darajada ta’minlash, kasb kasalliklari va insonning mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy oqibatlarni oldini olishning ilmiy va amaliy choralarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

**35.Mehnatni ilmiy tashkil etishning** asosiy yo‘nalishlari gigienik, fiziologik, psixologik va estetik.

**36.Mehnat fiziologiyasi**-ish paytida inson tanasida yuz beradigan funksional o‘zgarishlarni tekshiradi va ish qobiliyatini saqlash va oshirish, mehnat faoliyati va jarayonining ishchilar sog‘ligiga salbiy ta’sirining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

**37.Mehnat** - ijtimoiy tushunchadir. Biologik jixatdan mehnatning eng muhim faoliyati tana hisoblanadi. .

**38.Jismoniy mehnat.** Jismoniy mehnat (ish) deganda tayanch-harakat apparati va uning ishlashi uchun zarur tizimlar harakatini ta’minlaydigan muhim quvvat sarflari bilan bog‘li iqshlab chiqarish faoliyatining turi tushuniladi. Bunda diqqat, xotira kabi oliy ruhiy funksiyalar va umuman intellektual va emotsiyal sohalar unchalik zo‘riqmaydi. Jismoniy ish dinamik va statik bo‘lishi mumkin.

**39.Dinamik ish**-yukni yuqoriga, pastga yoki ufqiy ko‘tarishdir. Fizik nuqtai nazardan ish miqdori fazoda o‘rni almashtiradigan jism massasining tik yoki ufqiy masofaga ko‘paytmasi bilan o‘lchanadi.

**40. Statik ish**—odamning fazoda tana, qo‘l va oyoqlarini o‘zgartirmagan holda kuch sarflab ishlashidir.

**41.Aqliy mehnat** – insonning ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va ijodiy faoliyat bilan band bo‘lishidir. Uning asosini, ma’lumotini idrok qilish, qayta ishslash va qarorlar qabul qilishni tashkil etadi. Ma’lumotni qabul qilish asosan ko‘rish va eshitish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**42.Toliqish** – ish qobiliyatining pasayishidir. U ancha og‘ir ko‘p ish talab qiladigan yoki davomli mehnatni bajarish maqsadida paydo bo‘ladigan va mehnat natijalarining miqdor va sifat jihatidan yomonlashuvi bilan ifodalanadi

**43.Mikroiqlim va uning gigienik normalari** Ish zonasidagi mikroiqlim mezonlari uchun gigienik normativlar GOST12.1.005-76 da ko‘rsatilgan.

**44. Ishlab chiqarish changi** Sanoatda, transportda, qishloq xo‘jaligida ko‘p ishlar va jarayonlar chang hosil bo‘lishi, ajralishi bilan amalga oshiriladi. har xil texnologik jarayonlarni bajarishda yuzaga keladigan va havoda muallaq holatda bo‘ladigan qattiq moddalarga aytildi.

**45. Kimyoviy birikmalar changi** zaharli hisoblanadi. Masalan, naften kislotalari, amino-nitro birikmalar changi, olti va uch valentli xrom birikmasi, shuningdek etilenmerkurxlorid, uran, berilliy, merkuran, vannadiy birikmalari-aerozollari organizmga o‘tgach, qorin, ichak yo‘lida va o‘pkada kasallanish-zaharlanishlarni hosil qiladi.

**46. CHanglar** asosan tabiiy va sun’iy changlarga bo‘linadi.

**47. Tabiiy changlar** – inson ta’sirisiz hosil bo‘ladi. Bunday changlarga shamol va bo‘ronlar ta’sirida qum va tuproqning erroziyalangan qatlamlarining ko‘chishi, o‘simlik va hayvonot olamida, vulqonlar otilishi, boshqa hollarda paydo bo‘ladigan changlarni kiritish mumkin.

**48. Sun’iy changlar** - Sanoat korxonalari va qurilishlarda insonning bevosita ta’siri natijasida hosil bo‘ladi.

**49. Toksikologiya** fani ishlab chiqarish zaharlarining organizmga ta’sir qilish belgilarini o‘rganadi, ularning zaharlilik va xavflilik darajasini belgilaydi, gigienik me’yorlar va tavsiyalar ishlab chiqadi.

**50. Surunkali zaharlanishlar**, organizmga oz-oz miqdordagi zaharlarning uzoq vaqt asta-sekin yig‘ilishi natijasida yuzaga keladi. Organizmda zaxarning o‘zi yig‘ilishi yoki o‘zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin

**51. Zararli yoki zaxarli moddalar** Odam tanasiga o‘tib, uning to‘qimalariga kimyoviy, fizik-kimyoviy ta’sir qiladigan, mehnat unumdoorligining pasayishiga olib keladigan moddalardir.

**52. Kuchli zaharlanish** ko‘proq miqdordagi zararli moddalarni to‘satdan tanaga o‘tishi bilan sodir bo‘ladi. SHuningdek, zararli moddalarni tanaga oz-ozdan o‘tishi va yig‘ilishi natijasida kasb kasalliklari kelib chiadi.

**53. Asab tizimi zaharlariga** benzin, kerosin, yog‘ spirtlari, karbon vodorodlar, metanol, anilin, vodorod sulfidi, dioksan, ammiak, nikotin, kofein, tetraetil qo‘rg‘oshin, fosforli organik birikmalar va boshqalar misol bo‘ladi. Ular asosan markaziy asab tizimini shikastlaydi.

**54. Jigar zaharlariga** tarkibida xlor, brom, ftor, yod bo‘lgan birikmalar misol bo‘ladi. Ular jigar to‘qimasi faoliyatining buzilishiga, jigarning qattiq yallig‘lanishiga sabab bo‘ladi.

**55. Qon zaharlariga** karbonat angidridi, amino-nitro birikmalarning aromatik qatori, fenil gidrazin, mishyak, benzol, toluol, ksilol va boshqalar misol bo‘ladi. Ular qon tarkibining buzilishiga, carboksi va metgemoglabin (Cob, Mtb) hosil bo‘lishiga, to‘qimada kislorodning kamayib ketishiga, hatto o‘limga ham olib keladi.

**56. Ferment zaharlariga** kiruvchi simob, mishyak, tsian birikmalari fosforli va organik birikmalar (tiofos, metafos) tanani biologik katalizatorlari

hisoblanadigan fermentlarning (Sn) guruhlari bilan bog‘lanib, ular faoliyatining buzilishiga, ya’ni zaharlanishiga olib keladi.

**57. Qitiqlovchi, kuydiruvchi zaharlar** yuqori va quyi nafas olish yo‘llarini shikastlab, ularni kasallanishiga olib keladi. Bunday zaharlarga xlor, ammiak, azot oksidi, fenol, kislotalar, ishqorlar misol bo‘ladi.

**58. Allergik zaharlar.** Nikel, berilliy birikmalari, nitroxlorbenzol, piridin birikmalari, ursol va boshqalar tananing reaksiyon qobiliyatini o‘zgartiradi, terining yallig‘lanishiga, nafas olish yo‘llarining torayishiga va boshqa kasalliklarga olib keladi.

**59. Konserogen zaharlar** toshko‘mir smolasi, amino va izobirikmalar, xlorbenzidin, qurum, qorakuya va boshqalar tanada shish, rak kasalligini keltirib chiqaradi.

**60. Mutagen zaharlarga** etilenamin, etilen oksidi, xlorli karbon vodorodlar, qo‘rg‘oshin va simob birikmalari misol bo‘lib, ular odam va hayvonlar jinsiy organiga qattiq ta’sir etadi.

**61. Embriotrop zaharlar** (tolitamid va boshqalar) odam va hayvonlarning tug‘ilishiga salbiy ta’sir etadi. Naslni yo‘q qiladi.

**62. Kasb kasalliklari**-yomon mehnat sharoitlari va kasbga aloqador zararlarning organizmga ta’siri natijasida paydo bo‘ladigan kasalliklardir.

**63. O‘tkir kasb kasalligi** – zararli ishlab chiqarish omillarining bir martalik, ko‘p deganda bir ish smenasida ta’sir ko‘rsatishidan kelib chiqadigan xastalik.

**64. Surunkali kasb kasalligi** zararli ishlab chiqarish omillarining ko‘p marta va uzoq vaqt ta’sir etishidan kelib chiqadigan surunkali kasallikdir.

**65. Maxsus tekshiruv,** bu davolash – profilaktika muassasining vrachi, korxona, muassasa va kasaba uyushmasi tashkiloti ishtirokidagi sanepidstansiya vrachlari o‘tkazadigan kasb kasalligining paydo bo‘lish sabablari va shart - sharoitlarini tekshirish.

**66. Guruxiy kasb kasalligi** - bir vaqtning o‘zida 2 va bundan ortiq kishi og‘rigan zararlangan xol tushuniladi.

**67. Yorug‘lik** inson hayot faoliyati davomida juda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rish inson uchun asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi. Umumiyl olinadigan ma’lumotning taxminan 90% ko‘z orqali olinadi.

**68. Tabiiy yorug‘lik** yoritishda quyosh taratayotgan nurdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki quyosh nurining ta’sirida yorug‘lik taratayotgan osmonning diffuziya yorug‘ligidan foydalaniadi.

**69.Sun'iy yoritish** - quyosh yordamida yoritishning iloji bo'lmagan sanoat korxonalarini xonalarini va quyosh botgandan keyin umuman sanoat korxonalarini elektr nurlari yordamida yoritish yo'li.

**70.Elektromagnit maydonining tavsifi** inson organizmiga ta'siri elektr va magnit maydonlarining kuchlanishi, energiya oqimining intensivligi tebranish chastotasi, nurlanishning tananing ma'lum yuzasida to'planishi va inson organizmining shaxsiy xususiyatlari bog'liq bo'ladi.

**71.Elektr urishi** (yoki tok urishi deb ham yuritiladi) to'rt darajaga bo'lib qaraladi:1-darajada muskullar keskin qisqarishi natijasida odam tok ta'siridan chiqib ketadi va hushini yo'qotmaydi. 2-darajada muskullar keskin qisqarishi natijasida odam hushini yo'qotadi, ammo yurak va nafas olish faoliyati ishlab turadi. 3-darajada hushini yo'qotib, nafas olish tizimi yoki yurak urishi to'xtab oladi. 4-darajada klinik o'lim holati-bunda insonda hech qanday hayot alomatlari ko'rinxay qoladi.

**72.Klinik o'lim holati** bu hayot bilan o'lim orasidagi ma'lum oraliq bo'lib, ma'lum vaqtgacha inson ichki imkoniyatlari hisobiga yashab turadi. Bu vaqtida unda hayot Klinik o'lim holati 7 daqiqagacha davom etadi. hech qanday yordam bo'lmagan taqdirda eng oldin bosh miya qobig'idagi hujayralar parchalanadi va klinik o'lim holati biologik o'lim olatiga o'tadi.

**73.Biologik o'lim-qaytarib** bo'lmaydigan jarayon bo'lib, organizmdagi biologik jarayonlar butunlay to'xtashi bilan xarakterlanadi, shuningdek organizmdagi hosil strukturalari parchalanadi. Bu klinik o'lim vaqtin tugagandan keyin ro'y beradi.

**74.Yonish** deb, yonuvchi modda bilan havodagi kislороднинг о'заро та'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga aytildi.

**75.Chaqnash.** Agar sekin-asta qizdirilayotgan yonuvchi suyuqlikka vaqtiga bilan tashqaridan alanga ta'sir qildirsak, ma'lum bir haroratga etganda, undan ajralib chiqayotgan gazsimon mahsulot chaqnaydi va shu zaotiyoyq o'chib qoladi. Suyuqlikning ana shu paytdagi harorati chaqnash harorati deyiladi. CHaqnagan gazlarning tez o'chib qolishining sababi, bu haroratda suyuqlikdan ajralib chiqayotgan gazlar alangani davom ettirish uchun etarli emasligidir.

**76.Alangalanish.** Suyuq, yonuvchi moddalarni qizdirish chaqnash haroratidan yuqorida ham davom ettirilsa, uning bug'lanishi jadallahshadi va shunday bir vaqt keladiki, unga alanga yaqinlashtirilsa chiqayotgan bug'lar chaqnaydi va yonishda davom etadi. Suyuqlikning shu holatdagi harorati alangalanish harorati deb ataladi.

**77.O'z-o'zidan alangalanish.** Agar yonuvchi suyuqlikni alangalanish haroratidan yuqori bo'lgan holatda ham qizdirish davom ettirilsa-yu, lekin ochiq

alanga yaqinlashtirilmasa, ma'lum bir vaqtda ajralib chiqayotgan bug'lar o'zidan-o'zi alangananib ketadi. YOnuvchi suyuqlikning ana shu holatdagi harorati o'z-o'zidan alangananish harorati deyiladi.

**78. O'z-o'zidan yonib ketish.** Ayrim yonuvchi qattiq moddalarni saqlash noto'g'ri tashkil etilgan hollarda o'z-o'zidan yonib ketishi mumkin.

**79. YUrak ishemik kasalligi (YUIK)-** bu toj arteriyalar tizimidagi patologik jaraenlar natijasida miokardga qon kelishining kamayishi eki to'xtashi sababli yurak mushagining o'tkir va surunkali zararlanishi.

**80. Arterial gipertenziya-** bu xar xil patologik jaraenlar natijasida kasallik simptomni sifatida vujudga keladigan arteriya gipertoniyasini simptomatik eki ikkilamchi gipertoniya deb ataladi.

**81. Miokard infarkti-** toj arteriyalarda qon aylanishining mutlaq eki nisbiy etishmovchiligi natijasida yurak mushagida o'tkir ishemik nekroz rivojlanishi bilan ifodalanadi

## **82. Irsiyat-belgi va xususiyatlarning avloddan avlodga o'tishi**

**83. Ekzogen sabablar-** tashqi muhit ta'sirida kelib chiqadigan kasallik sabablari.

**84. Endogen sabablar-** ichki muhitning o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan sabablar.

**85. Tibbiy evakuatsiya** - kasallar va yaradorlarni tibbiy yordam korsatish maqsadida qutqaruv obyektlariga, bиринчи yordam bo'limlariga va davolash muassasasiga yetkazib yotqizishdir.

**86. Kasallik** -bu turmushning bir shakli bo'lib, o'zining kechish jarayoni.

**87. Rentgenoskopiya-** a'zolarning rentgenda ko'rinishini.

**88. Rentgenografiya-** a'zolar suratini rentgen nuri yordamida fotoplyonkaga ko'chirishdir.

**89. Arterioskleroz** - YOsh o'tgan sari tomirlar ichki devorida patologik o'zgarishlar natijasida, yog' moddalari toshma ko'rinishida to'planib borshi.

**90. Zo'riqish stenokardiyasi** – jismoniy zo'riqish natijasida ko'krak soxasida og'riq.

**100. Hansirash** -yurak qiskaruvchanlik funksiyasining pasayishi.

## TESTLAR

### 1. Botulizmni oldini olish uchun nimalar qilish zarur?

A) Bozorlarda va aholi gavjum bo‘ladigan joylarda fuqarolar tomonidan uy sharoitlarida tayyorlanib, noqonuniy ravishda sotilayotgan, sifati kafolatlanmagan dudlangan go‘sht va baliqlarni hamda sabzavot-meva konserva mahsulotlarini xarid qilman

B) Normal hayot kechirishimiz uchun uchun bizga 20 xil mineral etadi. Ular tanaga oziq-ovqat bilan kiradi. SHuning uchun muvozanatli ovqatlanish bilan biz etishmovchilikka barham bergen bo‘lamiz

S) Minerallarning assimilyasiya darajasi nafas olish va ovqat hazm qilish organlarining holatiga, makro va mikroelementlarning darajasi mavsumga bog‘liq: u bahorda pasayadi, kuzning boshlarida ko‘payadi

D) Bundan tashqari yurak-qon tomir tizimida, buyraklarda va asab tizimida ham patologik o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin

### 2. Koronavirusning og‘ir turi bilan kasallanib tuzalgan bemorlarda asosan qanaqa asoratlar yuzaga kelishi mumkin?

A) Koronavirus infeksiyasining og‘ir shakli bilan kasallanganlar organizmida tromboemboliya, tromboz, o‘pka arteriyasi tromboemboliysi yoki o‘tkir koronar etishmovchilik kabi poliorgan o‘zgarishlar yuzaga keladi.

B) Normal hayot kechirishimiz uchun uchun bizga 20 xil mineral etadi. Ular tanaga oziq-ovqat bilan kiradi. SHuning uchun muvozanatli ovqatlanish bilan biz etishmovchilikka barham bergen bo‘lamiz.

S) Minerallarning assimilyasiya darajasi nafas olish va ovqat hazm qilish organlarining holatiga, makro va mikroelementlarning darajasi mavsumga bog‘liq: u bahorda pasayadi, kuzning boshlarida ko‘payadi

D) Koronavirus kasalligida ko‘p uchraydigan ayrim erta belgilar shamollash va gripp kasalligi belgilariga o‘xshaydi. Bular: tana harorati ko‘tarilishi, umumiyliz holsizlik, ishtahaning yo‘qolishi, mushaklardagi og‘riq, ta’m va hid sezmaslik.

### 3. Koronavirusni oddiy shamollash yoki grippdan qanday farqlash mumkin?

A) Koronavirus kasalligida ko‘p uchraydigan ayrim erta belgilar shamollash va gripp kasalligi belgilariga o‘xshaydi. Bular: tana harorati ko‘tarilishi, umumiyliz holsizlik, ishtahaning yo‘qolishi, mushaklardagi og‘riq, ta’m va hid sezmaslik.

B) Bular — qaynatma sho‘rvalar, qiyma go‘shtlaridan tayyorlangan kotletlar, teftellar, frikadyelkalar, baliq go‘shti, tvorog, suvda qaynatib chala pishirilgan tuxum, dukkaklilardan tayyorlangan suyuq taomlar, arpa bo‘tqalari.

S) Minerallarning assimilyasiya darajasi nafas olish va ovqat hazm qilish organlarining holatiga, makro va mikroelementlarning darajasi mavsumga bog‘liq: u bahorda pasayadi, kuzning boshlarida ko‘payadi.

D) Bozorlarda va aholi gavjum bo‘ladigan joylarda fuqarolar tomonidan uy sharoitlarida tayyorlanib, noqonuniy ravishda sotilayotgan, sifati kafolatlanmagan dudlangan go‘sht va baliqlarni hamda sabzavot-meva konserva mahsulotlarini xarid qilman.

### 4. Koronavirusga chalingan bemorlar qanday oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishi kerak?

A).Bular — qaynatma sho‘rvalar, qiyma go‘shtlaridan tayyorlangan kotletlar, teftellar, frikadyelkalar, baliq go‘shti, tvorog, suvda qaynatib chala pishirilgan tuxum, dukkaklilardan tayyorlangan suyuq taomlar, arpa bo‘tqalari.

B) Minerallarning assimilyasiya darajasi nafas olish va ovqat hazm qilish organlarining holatiga, makro va mikroelementlarning darajasi mavsumga bog‘liq: u bahorda pasayadi, kuzning bosqlarida ko‘payadi

S). Koronavirus kasalligida ko‘p uchraydigan ayrim erta belgilar shamollash va gripp kasalligi belgilariga o‘xshaydi. Bular: tana harorati ko‘tarilishi, umumiyliz holsizlik, ishtahaning yo‘qolishi, mushaklardagi og‘riq, ta’m va hid sezmaslik.

D). Gipertoniya — qon tomirlarining nerv-funksional faoliyati buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik.

#### **5. COVID-19 birinchi marta kaerda va kaysi shaxarda ruyxatga olindi**

- A). Xitoyning Uxan 2019 yil 17 noyabr
- B) Xitoyning SHanxay 2019 yil 17 noyabr
- C) Xitoyning Goajo 2019 yil 17 noyabr
- D) Xitoyning Pekin 2019 yil 17 noyabr

#### **6. A vitamini yetishmasligi kasalligi?**

- A) shapko`rlik
- B) beri-beri
- C) dermatit
- D) singa

#### **7. Buyrakning biologic fil`tr sifatida funksiyasi?**

- A) zaxira oziq modda to`plash
- B) moddalar almashinuvdagisi zararli mahsulotlarni organizmdan chiqarish
- C) mineral moddalarni sintezlash
- D) organizmdan karbonat angidrit gazini chiqarish

#### **8. Trombotsitlar qanday funksiyani bajaradi?**

- A) kislород ва CO<sub>2</sub> gazini tashish
- B) organizmni zararli mikroorganizmlardan himoya qilish
- C) qonni ivitish
- D) zahira oziq to`plash.

#### **9. Limfa qon aylanish sistemasining qaysi qismiga kelib tushadi?**

- A) o`ng yurak bo`lmasida
- B) oldingi va keyingi kovak venalariga
- C) qorinaortasiga
- D) o`pka

#### **10. AI-2 dori qutisining saqlash muddati.**

- A). 3 yil
- B). 2 yil
- C). 1 yil
- D). 9 oy

#### **11. Sakkizsimon boglam kaerga kuyiladi?**

- A) Tovonga va buyinga
- B) Koringa

S) Boshga

D) Kuzga

**12 Katta odam bir minutda necha marta nafas oladi?.**

A). 18-20

B). 16-18

S) 15-17

D) 20 va undan ortik

**13. Spirometr nima uchun ishlataladi?**

A). O'pkaning tiriklik sigimini ulchash uchun

B). Yurak urishini aniklash uchun

S). Pulsni ulchash uchun.

D). kon bosimini aniklash uchun

**14. Bolalar shaxsiy gigienasiga kirmaydi**

A). tugri javob yuk

B). tana xaroratini ulchash.

S). terisini, kindigini tozalash.

D). ogiz, burun, kulokni tozalash

**15. Taxikardiya nima?**

A). pulsning tezlashishi

B). kon bosimining pasayishi

S). pulsning pasayishi

D). kon bosimining oshishi

**16. Asfiksiya nima?**

A). kislород etmay kolishi tufayli nafas tuxtashi

B). nafas olish tezligining uzgarishi

S). nafas kisilishining avj olishi

D). nafas olishning sekinlashishi

**17. Suyaklar tuzilishiga ko'ra necha xil buladi**

A) Naysimon, yassi, aralash

B) naysimon, g'ovak, yassi,

S) chanok suyaklari, aralash, naysimon

D) uzun naysimon, kalta naysimon, g'ovak.

**18. Kollapsda birinchi yordam nima?**

A) toza xavoga olib chikish, nashatir spirtini xidlatish

B) tomirdan kon olish

S) oyokga issik gryelka kuyish, teri ostiga kofein yuborish

D) sun'iy nafas berish

### **Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. F.G‘. Nazirov. Toshkent-2011
2. Odam anatomiysi. E.Qodirov. Toshkent-2003
3. Xamshiralik ishi asoslari. Q.Inomov. Toshkent-2007
5. Xirurgiya va reanimatsiya asoslari A.J.Xamraev. Toshkent-2002
6. Bolalar kasalliklari A.N. Buraya. Toshkent-2000.
7. Klinikagacha bo‘lgan xirurgiya. R.M.Axmedov Toshkent-2001
8. Pervaya meditsinskaya pomosh v chrezvyichaynyx situatsiyax. E.Ikramov Toshkent-2003
9. Xammabob tibbiyat qo‘llanmasi. Avtor. David. Verner. Toshkent. 2012y.
10. Favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmat. O‘. Xasanov Toshkent. 2006y.
11. YUqumli kasalliklar epidemalogiyasi va parazitalogiyasi. E.I. Musaboev. Toshkent 2010y.
12. Favqulotda vaziyatlar uchun tibbiy xamshiralalar tayyorlash. R.Ramazonova. X.Sodiqova. Toshkent 2006y.
13. Ichki kasalliklar 2012 y.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar.**

1. Meditsina hamshirasi spravochnigi. N.R. Paleev. Toshkent-1989
2. Sovremennyyu spravochnik med.sestry. N.B.Sodikova Minsk-2002
3. Atlas. 1-2 tom. N.K. Axmedov Toshkent-2005
4. Salomatlik ensiklopediyasi Toshkent-2000
5. Jarroxlik va reanimatsiya asoslarida hamshiralik ishi Toshkent-2003
6. Y.Sodiqova “Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” o‘quv qo‘llanma 2007 y.
7. Kurs grajdanskoy zashity. V.F.Zubkov Toshkent-2004
8. Ona va bola. N.Raximova. Toshkent 2012

### **Elektron resurslar.**

1. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz). - OO‘MTV sayti
2. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz) - OO‘MTV sayti
3. [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz) - OO‘MTV sayti
4. [www.mintrud.uz](http://www.mintrud.uz) - Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
5. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz) - Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti.
6. [www.mchs.gov.uz](http://www.mchs.gov.uz) - Favqulodda vaziyatlar vazirligi sayti.
7. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz) - Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
Hayot faoliyat xavfsizligining nazariy asoslari.....	3
Hayotiy faoliyat xavfsizligining qonuniy- huquqiy negizi va boshqarish	17
Mehnatni muhofaza qilishning qonuniy- huquqiy asoslari.....	17
Respublikamiz va jahon miqyosida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid olib borilayotgan tadbirlar.....	27
Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzila oqibatlarini xisobga olgan holda muhofaza ishlarini o'tkazish uchun kuch va vositalarini mo'ljallash tinchlik va harbiy davrdagi favqulodda vaziyatlar. yadro qurollari.....	58
Aholini va tevarak-atrofni terrorizmdan himoyalash.....	73
Tibbiy evakuatsiya boskichlarida jonlantirish.....	78
Qon ketishi va birinchi yordam ko'rsatish.....	87
Kuyish, cho'kishlar, sovuq urishi va issiq urishlari.....	94
Tayanch harakat sistemalarining mexanik sinishi.....	145
Yumshoq to'qimalarning shikastlanishlari va bog'lov turlari.....	112
Zaharlanishlar. Zaharlangnlarga birinchi tibbiy yordam.....	123
Yuqumli kasalliliklar.....	131
Glassariy .....	142
Testlar .....	153
Foydalanilgan adabiyotlar.....	